

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**RAXIMOV S.**

**PARPIEVA N.**

**MILYI ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA  
TAMOYILLAR**

**o'quv qo'llanma**

**Institutda tayyorlanadigan barcha bakalavriat  
yo'nalishlari uchun**

**Toshkent – 2003**

**Raximov S., Parpieva N. Miliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (o'quv qo'llanma)–Toshkent.: Toshkent Moliya instituti, 2003. – 152 bet.**

Mazkur qo'llanmada Miliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fanining predmeti va mazmuni, O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat mohiyati, taraqqiyotning «o'zbek modeli», milliy istiqlol mafkurasining bosh va asosiy g'oyalari, hamda milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirish usul va vositalari kabi mavzularning muhim yo'nalishlari muammoli bayon etilgan. Shuningdek, o'z-o'zini sinash uchun savollar, mutaqil ish uchun topshiriq va tavsiyalar, mavzuning tayanch tushunchalari, hamda fanni o'rganish uchun zarur bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatlari berilgan.

O'quv qo'llanma «Falsafa» kafedrası majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. «17» sentyabr 2003 y. 2-son.

**«Falsafa» kafedrası mudiri:**

**N. Mamatov**

To'plam Toshkent Moliya instituti qoshidagi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kengash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. «\_\_» \_\_\_\_\_ 2003 y. \_\_\_\_\_-son majlis bayoni.

**Rektorning o'quv va metodik ishlar bo'yicha muovini:**

**A. Vohobov**

**Mualliflar:** f.f.d. prof. S. Raximov,  
kat. o'qit. N. T. Parpieva.

**Taqrizchilar:** f.f.n. prof. M. Zaripov,  
f.f.n. dots. J. Abduxoliqov.

©Toshkent Moliya instituti, 2003

## SO'Z BOSHI

Biz o'rganishga kirishayotgan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» – mustaqillik yillarida shakllangan yangi fandır.

Bu fan Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etayotgan xalqimizning maqsad-muddalari va orzu-intilishlarini, bir so'z bilan aytganda, jamiyatimizning shakllanib kelayotgan milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini o'rgatadi.

Mazkur kitob Prezident Islom Karimov asarlari asosida tayyorlangan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga tayangan xolda yozildi. Ushbu ma'ruza matnlari to'plamida risolada bayon qilingan tushuncha va tamoyillar ancha keng yoritilgan. Mulohazalarning mantiqiy davomiyligini ta'minlash maqsadida risolaning zarur o'rinlaridan olingan fikrlar kursiv bilan ajratilib, yoritilayotgan mavzu mohiyatini ana shu iqtiboslar asosida sharxlashga harakat qilindi.

Milliy istiqlol g'oyasi jamiyatimiz taraqqiyotining mafkuraviy tamoyillarini ifoda etadi. Shu ma'noda, bu g'oya mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan mafkura to'g'risidagi yaxlit va izchil ta'limotdir. Bu ta'limot o'z tushuncha va tamoyillariga, tarixiy negizlari, ilmiy, falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlariga ega muayyan tarixiy zarurat mujassami bo'lgan nazariya hamdir. U aynan nazariya sifatida ijtimoiy voqelikning ifodasi tarzida namoyon bo'ladi, o'ziga xos shakllanish qonuniyatlari va xususiyatlariga ega bo'lgan umummilliy xodisa hisoblanadi.

Milliy istiqlol g'oyasi yurtimizda yashaydigan har bir millat, ijtimoiy guruh, din, partiya yoki qatlam vakili uchun umumiy mezondir. Shu ma'noda u 130 dan ziyod millat vakillaridan tashkil topgan O'zbekiston xalqining, mustaqillikni mustahkamlash yo'lidan borayotgan jamiyatimizning umumiy g'oyasidir. Jahon hamjamiyatining mustaqil a'zosi va tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekistonni, milliy davlatchilik an'alarimizni asrab-avaylash, mamlakatimiz sarxadlari yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlash hamda fuqarolarimizda yot va begona g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida birlashtirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi ishiga safarbar etish bu g'oyaning asosiy maqsad va vazifasidir.

Mazkur ma'ruzalar matni milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari haqidagi bilimlarni aks ettiruvchi mustaqillikning 12 yillik tajribasi asosida shakllangan asosiy mavzular to'plamidir.

## 1. G'OYA VA MAFKURA TUSHUNCHALARINING MOHIYAT-MAZMUNI VA KO'RINISHLARI

### **G'oya tushunchasi.**

Inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham g'oyalar muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, insoniyat tarixi g'oyalar tarixidir.

Xo'sh, g'oya nima, nega unga bu qadar katta e'tibor va ahamiyat beriladi? Ma'lumki, har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlarini, maqsad-muddalari, orzu-intilishlarini ko'zlab harakat qiladi. Binobarin, ular hayotdagi ma'lum bir mafkuraga tayanadi.

Xo'sh, mafkura nima, u qanday g'oyalar asosida shakllanadi va qay tarzda jamiyatni harakatga keltiradi? Nega ayrim mafkuralar ba'zi millatlarning yuksalishiga sabab bo'lsa, ayrimlari butun-butun xalqlarni inqiroz va tanazzulga duchor etadi? «Milliy istiqlol g'oyasi» buyicha mazkur mashg'ulotimiz aynan shu va shu kabi masalalar talqiniga bagishlangan.

Ma'lumki, inson o'zining aql-zakovati, iymon-e'tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi.

Inson ongli mavjudot. Ongni shartli ravishda ikki katta qismga bo'lish mumkin: birinchisi, insonning ruhiy olami; iqqinchisi – fikriy olam, ya'ni tafakkur olamidir. Ruhiy olam (bu sohani ruhshunoslik ilmi – psixologiya tadqiq etadi) o'z tarkibiga sezgilar, idrok, tasavvur, kechinma, his-hayajon, diqqat, xotira va boshqalarni qamrab oladi. Tafakkur ning mantiqiy shakllariga tushuncha, hukm va xulosa kiradi (bo'larni logika, ya'ni mantiq fani o'rganadi).

Falsafaning oltin qoidalaridan biri – til va tafakkur birligidir. Tilning eng birlamchi mahsuli so'z bo'lgani kabi, tafakkur ning dastlabki shakli – tushunchadir. Tushunchalar bir yoki bir necha so'zlar bilan ifodalanadi, ammo har qanday so'z ham tushuncha bo'la olmaydi. So'zlar vositasida anglatilgan fikr gap deb atalishini biz boshlang'ich sinflardan oq bilganmiz.

Inson tafakkur i voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Binobarin, g'oyalar ham inson tafaqurining mahsulidir. Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar g'oya bo'la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta'sirchan, zalvorli fikrlargina g'oya bo'la olishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda g'oya, mafkura, ideya va ideologiya tushunchalari ishlatilmoqda. Ideya va ideologiya ko'proq G'arb davlatlarida hamda rus ilidagi manbalarda uchraydi. Ideya iborasi yunon tilidagi idea so'zidan olingan, ideologiya uchun o'zak bo'lib hisoblanadi va tushuncha yoxud fikr ma'nosini anglatadi. Ideologiya (Idea – g'oya, tushuncha, logos – ta'limot) atamasi esa g'oyalar to'g'risidagi ta'limotni anglatadi va iqqi xil ma'noda ishlatiladi:

- g'oyalarning mohiyat-mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha bo'lib hisoblanadi;
- muayyan g'oyani amalga oshirish, maqsadga etish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi.

G'oyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, bular garchi tafakkur da paydo bo'lsa-da, inson (va jamiyat) ruhiyatiga, xatto tub qatlamlariga ham ingib boradi. xoya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari etaklovchi ruhiy-aqliy kuchga aylanadi.

G'oya mohiyatan ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g'oyalar odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi, keyinchalik esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elatlar va millatlar orasida yoyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib etadi.

Har bir narsaning o'z ibtidosi va intihosi bo'ladi. G'oyalar ham o'z «umri»ga ega. Ular ham ma'lum makonda va zamonda paydo bo'lishi, jamiyat rivojiga muayyan hissa kushishi, kishilarning ongi va qalbidan joy olishi, o'z umrini yashab, joziba kuchi va quvvatini yo'qotgach, tarixiy xotiraga aylanishi ham mumkin. G'oyaga ta'rif berish uchun uning mohiyatini namoyon etadigan asosiy xususiyatlarni sanab o'tish lozim bo'ladi. g'oyaning eng muhim xususiyati – insonni va jamiyatni maqsad sari etaqlaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, g'oya deb, inson tafakkur ida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni maqsad-muddao sari etaklaydigan ulug'vor fikrga aytiladi.

**G'oyalarning turlari.** Tafakkur ning mahsuli sifatida g'oya tevarak olamni o'rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari – ilm-fan, din, falsafa, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq – muayyan bir g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Ma'lum ma'noda aytish mumkinki, har bir ong sohasining o'z g'oyalari mavjud bo'ladi.

Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin. Masalan:

- diniy g'oyalar;
- ilmiy g'oyalar;
- falsafiy g'oyalar;
- badiiy g'oyalar;
- ijtimoiy-siyosiy g'oyalar;
- milliy g'oyalar;
- umuminsoniy g'oyalar va hokazo.

Diniy g'oyalar deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy iymon-e'tiqodning negizini tashkil etuvchi aqidalarga aytiladi.

Ibtidoiy dinlar har bir narsaning jonli ekani, jonning abadiyligi, but va sanamlarning, tabiiy jism va xodisalarning ilohiy quvvatga egaligi to'g'risidagi qarashlarga asoslangan edi. Masalan, hindlarning diniy tasavvurlariga ko'ra, jon ko'chib yuradi, bu hayotda u insonda bo'lsa, keyingi hayotda boshqa jonzotga o'tishi mumkin.

Ilohlarning ko'pligi xaqidagi fikrga tayanadigan politeizm dinlari vaqti kelib monoteistik – yakkaxudolik g'oyasi asosidagi dinlarga o'z o'rnini bo'shatib bergan.

Yakkaxudolik g'oyasi milliy dinlarda (masalan, iudaizmda), ayniqsa jahon dinlari – xristianlik va islomda o'z ifodasini yaqqol topgan. Xususan, islom dinida

Allohning yagonaligi g'oyasi asosida uning barcha aqidalari, ruknlari, talab va majburiyatlari shakllangan.

Ilmiy g'oyalar – fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohasining asosiy tamoyillari (printsipalari), ustuvor qoidalarini (postulatlarini) tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir.

G'oyalarning «hayoti», ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi, boshqa g'oyalar bilan o'zaro munosabati, kurashi va nihoyat, eskirgan g'oyalarning yangilari bilan almashinishi, ayniqsa, ilmiy g'oyalar misolida yaqqol namoyon bo'ladi.

Qadimgi yunon faylasuflari tabiiy jismlarning eng kichik, bo'linmaydigan zarrasi, deb «atom» tushunchasini kiritgan edilar. Ptolemey-Aristoteldan tortib, o'rta asr Ulug'bek astronomiyasigacha dunyoning markazi Er deb hisoblab kelganlar; Evklid geometriyasi, Nyuton mexanikasi, Darvin ta'limoti ham o'z davrining eng ilgor ilmiy g'oyalariga asoslangan edi.

Ilm-fan taraqqiyoti atomning bo'linishini, koinot markazi Er emasligini ham ishonchli dalillar bilan isbotladi; kvant mexanikasi, irsiyat nazariyasi va boshqa ko'plab kashfiyotlar qilindi.

Dunyoga A. Eynshteyn, N. Bor, F. Rezerford, M.S. Kyuri va boshqalarning nomlarini mashhur qilgan yadro fizikasi sohasidagi kashfiyotlar ham ilmiy g'oyalar asosiga kurilgan. XX asrda insoniyat nihoyatda ko'p ilmiy g'oyalarni amaliyotga aylantirdi. Kosmik raketalar, kompyuter va uyali telefonlar, televidenie va boshqa sohalardagi yutuqlar bunga yorqin misol bo'ladi.

Fan taraqqiyoti uzluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda amaliyot tasdiqlanmagan, eskirgan qarashlar yangi ilmiy g'oyalar bilan o'rin almashaveradi.

Falsafiy g'oyalar har bir falsafiy ta'limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'g'risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardir. Ular bizni o'rab turgan dunyoni bilish jarayonida, kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida to'plangan bilimlarni umumlashtirish, inson hayotining ma'no-mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida mulohaza yuritish asosida shakllanadi.

Insoniyat tarixida turli xalqlarning aql-zakovat sohiblari, dono faylasuf va ilohiyotchilari turfa xil g'oyalar yaratganlar. (Siz bular bilan falsafa tarixini o'rganish paytida batafsil tanishgansiz.) Ammo falsafiy g'oyalar xaqida gap ketganda, jahon falsafiy fikri rivojiga beqiyos hissa qo'shgan o'zbek mutafakkirlari yaratgan merosni yodga olmaslik mumkin emas.

Forobiyning fozil shahar to'g'risidagi, tasavvuf daholarining komil inson xaqidagi, Ibn Sinoning tana va ruh munosabatiga oid, Alisher Navoiyning adolat va insoniylik borasidagi teran fikrlari falsafiy g'oyalarning yorqin namunasi.

Badiiy g'oyalar – adabiyot va san'at asarining asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadigan, undan ko'zlangan maqsadga xizmat qiladigan etakchi fikrlardir. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, o'quvchida muayyan taassurot uyg'otadi. Adabiy qahramonlarni sevish, ularga ergashish hollari ham ana shu asosda ro'y beradi.

Badiiy ta'sir vositalari juda katta kuchga ega. Inson va jamiyat ongini o'zgartirishda, shaxs ruhiyatiga ta'sir o'tkazishda, odamlarni harakat va junbushga keltirishda badiiy adabiyot va san'atning ahamiyati beqiyosdir. Milliy istiqloq g'oyasini targ'ib etish, xalqning ongi va qalbiga singdirishda ham ular muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar har bir xalq va umuman bashariyatning orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etadi. Ozodlik va mustaqillik, adolat va xaqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g'oyalari shular jumlasidandir. Asrlar mobaynida bunday buyuk, o'lmas g'oyalar xalqlarga kuch-quvvat va ilhom bag'ishlab, ularni o'z erki uchun kurashga safarbar etib kelgan.

Ozodlik g'oyasi – mazlumlarni o'z erki uchun kurashga chorlaydigan, qullik va qaramlikning har qanday ko'rinishini inkor etadigan g'oyadir.

**Mustaqillik g'oyasi** – eng ulug' va ezgu g'oya. Har bir xalq istiqlol tufayli o'ziga yot va begona tuzumdan, ijtimoiy tazyiqlardan xalos bo'ladi, o'z salohiyatini to'la-to'kis ishga solish, o'zi istagan va o'zi tanlagan yo'ldan borish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Adolat va haqqoniyat g'oyalari – insonning tabiati va ijtimoiy tuzumning mohiyatini belgilaydigan, qudratli kuchga ega bo'lgan g'oyalardir. Odamlar asrlar mobaynida odil jamiyatni orzu qilib, haqiqat tantanasi uchun kurashib kelgan. Adolat buzilgan erda umidsizlik va tushkunlik hukm suradi. Adolat tantana qilgan jamiyat yuksakliqqa ko'tariladi.

Har bir tarixiy davrda uning ruhini aks ettiradigan, xalqning qadriyatlari va orzu-istaklariga mos keladigan g'oyalar kishilarning ongi va qalbidan joy olgan. Ta'kidlash joizki, bashariyatning ziddiyatli tarixi mobaynida hayotbaxsh g'oyalar bilan bir qatorda, soxta va tuban niyatlar, tajovuzkor va g'arazli fikrlar ham ko'p bo'lgan. Binobarin, xalqlar va davlatlar taqdiriga ta'siri, o'zining sifatlariga ko'ra g'oyalar yuksak yo tuban, bunyodkor yoki vayronkor, buzg'unchi yoxud ekstremistik, tajovuzkor bo'lishi ham mumkin.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, millat taraqqiyotiga, uning yuksalishiga xizmat qiladigan, xalqlarni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalar yuksak g'oyalardir. Odamlar orasiga nifoq, xalqlar o'rtasiga nizo soladigan, kishilarni turli taraflarga ajratib, adovat qo'zg'aydigan tuban fikrlar buzg'unchi g'oyalarga misol bo'ladi. Aslida bunday qabix niyat va soxta shiorlarni g'oya deb atash ham shartlidir. Qaysi ijtimoiy birlik yoki qatlam orasida tarqalgani, qanday aholi guruhlari yoki elat-millatlarni harakatga keltirayotganiga qarab ham g'oyalarni turlarga ajratish mumkin.

Sohiblari, ya'ni g'oyani moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch kim ekaniga qarab, sinfiy g'oya, milliy g'oya, umumxalq g'oyasi, umuminsoniy g'oyalar ham mavjud bo'lishi mumkin. Albatta, muayyan bir xalq ommasini ma'lum bir tarixiy sharoitda harakatga undayotgan g'oya mazmunan umuminsoniy bo'lishi ham yoki tor manfaatlarni ko'zlaydigan sinfiy g'oya jamiyat va inson manfaatlariga zid bo'lishi ham mumkin.

**Milliy g'oya** xalqning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uni o'z oldiga kuygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g'oyadir. O'z tarixi va taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va xalq kelajagini belgilaydi, unga etishning o'ziga mos yo'llarini tanlaydi. Ana shu jarayonga xos ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yo'nalishlar bilan barcha g'oyaviy tamoyillarini ham belgilab oladi. Bunda butun millat uchun umumiy bo'lgan g'oyalar nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan «Vatan ravnaqi», «Yurt tinchligi», «Xalq farovonligi», «Komil inson», «Ijtimoiy hamkorlik»,

«Millatlararo hamjihatlik», «Diniy bag'rikenglik» kabilar ana shunday umummilliy g'oyalar qatoriga kiradi.

**Mafkura tushunchasi.** Har qanday nazariya yoki ta'limot bir tizimga solingan g'oyalar majmuidan iborat bo'ladi. Dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch-e'tiqodning asosini ham g'oya tashkil etadi. Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning, millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g'oyalarda ifoda etiladi.

O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar va vositalar bilan erishmoqchi bo'layotgani xaqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi.

Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh va qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyatdagi har xil tabaqa va qatlamlarning mafkurasini turlicha bo'lishi tabiiy. Buning asosida manfaatlarining turlichaligi, ularni qondirish imkoniyatlari va uslublarining har xilligi yotadi. Sinfy qutblashuv kuchaygan, sinfiy kurash avj olgan (yoki sun'iy ravishda keskinlashtirilgan) tuzumlarda mafkura o'ta siyosiy lashadi, aholini o'zaro qarama-qarshi qilib qo'yadi.

Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishni ko'zlagan davlatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida birlashishga chorlaydi. Bunday mafkuralarda ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasini aynan jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida yakdil harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir yurtdoshimizning o'ziga xos o'rni bo'lishiga erishishga safarbar etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov mafkuraga shunday ta'rif bergan: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasini deb bilaman». Binobarin, milliy mafkura har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq-ravshan charog'on etadigan mayoqdir.

Insoniyat tarixi mobaynida turli shakldagi juda ko'plab mafkuralar yaratilgan, behisob ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z g'oyalari va ta'limotlari bilan maydonga chiqqan, maqsad va niyatlariga etishmoq uchun harakat qilgan. Biz har qanday mafkurani g'oyalar tizimi sifatida talqin qilar ekanmiz, shuni unutmaslik keraqqi, biror bir-mafkuraning mohiyatini anglab etish uchun faqat uning tarkibidagi g'oyalarni taxlil qilishning o'zi etarli emas. O'tmishda turli kuchlar va guruhlar o'z g'arazli niyatlariga erishish, asl maqsadlarini yashirish uchun yuksak va jozibali g'oyalardan foydalangan. Eng yovuz bosqinchi va eng razil guruhlar ham o'z kirdikorlarini ezgu g'oyalar bilan niqoblashga o'ringan.

Demak, mafkuraning mohiyati faqat uning asosiy g'oyalari vositasida emas, shu g'oyalarga erishish usullari va vositalari, umume'tirof etilgan tamoyillari, ularning aksariyat omma manfaatlariga mosligi orqali ham namoyon bo'ladi. O'zining mudhish talab-ehtiyojlari va yovuz niyatlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirishni ko'zlab harakat etuvchi mafkuralar xalokatga mahkumdur.



Mafkuralar, ma'no-mohiyatiga ko'ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta'limotlar asosida yaratiladi. Xilma-xil ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z mafkuralarini yaratishda siyosiy g'oyalar bilan birga, diniy oqimlar va ilm-fan yutuqlariga tayanadi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanadi.

**Mafkuraning falsafiy ildizlari** xaqida fikr yuritganda, uning falsafa ilmi xulosalariga asoslanishi nazarda tutiladi. Bunga G'arbdagi Uyg'onish davrini hamda o'rta asrlarda o'z milliy davlatchiligini tiklay boshlagan Evropa xalqlarining har biri o'ziga xos mafkurasini yaratganini misol keltirish mumkin.

Mazkur mafkuralar Rim imperiyasi parchalanganidan keyin o'z davlatchiligiga ega bo'lgan xalqlarning o'ziga xos qadriyatlari va mentaliteti zaminida vujudga kelgan milliy falsafalari asosida shakllandi. Shu bois o'sha davrdagi italyan, ingliz, frantsuz falsafasi o'zi mansub bo'lgan jamiyatni birlashtirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, bu milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta'limotlar, ma'rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Kant, Gegel, Feyerbax kabi mutafakkirlar nomi bilan shuhrat topgan nemis falsafasi xususida ham shunday fikrni aytish mumkin. Jumladan, haqiqiy milliy xususiyatlarga ega bo'lgan Gegel falsafasi Avstriya imperiyasidan ajralib, mustaqillik yo'lini tutgan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan edi.

**Mafkuraning dunyoviy ildizlari** ma'rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir. Insoniyat asrlar mobaynida bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umume'tirof etilgan tamoyillar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi. Bunday jamiyatda insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo'li bilan kafolatlanadi. Ana shunday jamiyat mafkurasi «Dunyoviylik – daxriylik emas» degan tamoyil asosida rivojlanadi, ya'ni dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini aslo inkor etmaydi.

**Mafkuraning diniy ildizlari** deganda, u inson ongi va ruhiyati bilan uzviy bog'liq ekani va shu bois uning g'oyaviy ildizlari diniy ta'limotlarga borib taqalishi tushuniladi. Ya'ni, ko'pgina mafkuralarda Avesto, Veda va Upanishadlar, «Zabur», «Tavrot», «Injil» va «Qur'on» kabi ilohiy kitoblarda zikr etilgan ezgu g'oyalar muayyan darajada o'z ifodasini topganini ko'ramiz.

Xitoy xalqining taraqqiyot yo'lini asoslab bergan Kon-fu-tsiy va Lao-tszining ta'limotlari ham diniy qarashlarga asoslangan edi. Bu ta'limotlar asrlar mobaynida Xitoy xalqining milliy mafkurasi bo'lib kelgan.

Dunyoviy va diniy g'oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko'tariladi. Bunga bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Rayxon Beruniy, Imom G'azzoliy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yonma-yon yashab faoliyat ko'rsatgan davr yorqin misol bo'la oladi.

Bunday jarayon bugungi dunyoda amaliyot falsafasi deb tan olingan pragmatizm, hayot falsafasi bo'lgan ekzistentsializm kabi dunyoviy va diniy g'oyalardan oziqlangan ta'limotlar misolida ham ko'zga tashlanmoqda.

Ilmiy kashfiyotlar ham mafkura rivojiga katta ta'sir o'tkazadi. Zamonaviy fan yutuqlari, jumladan, kosmonavtika, kibernetika sohasidagi olamshumul yangiliklar,

klonlashtirish, insonning gen-nasl xaritasini aniqlash kabi buyuk kashfiyotlar odamlar tasavvurini keskin o'zgartirmoqda.

Ayni vaqtda yuksak ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, globallashuv jarayonlari, bir tomondan, inson aql-idrokining imkoniyatlariga, kelajaqqa ishonchni orttirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Xirosima, Nagasaki, Chernobil fojialari, ommaviy qirg'in qurollari, ekologik halokatlar, ma'naviy tanazzul kabi umumbashariy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Shunday ekan, ilm-fan va madaniyat borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish uchun ham jamiyatga sog'lom g'oya, sog'lom mafkura kerak.

**G'oya va mafkuralarning shakllari.** Insoniyat tarixi turli g'oyalarning ezgulik va yovuzlik, ozodlik va istibdod, ma'rifat va jaholatga xizmat qilgan mafkuralar shaklida namoyon bo'lganidan dalolat beradi. G'oya mafkuraga asos bo'ladi, mafkura esa muayyan g'oyani amalga oshirishga xizmat qiladi.

Qadimgi tsivilizatsiyalar tarixidan ma'lumki, o'sha davrlarda odamlarning dunyoqarashi, qabila va elatlarning mafkurasi afsona va rivoyatlar vositasida ifoda etilgan mifologik qarashlar sifatida mavjud bo'lgan. Jumladan, totemizm, animizm, fetishizm kabi ibtidoiy dinlar jonning abadiyligi, tabiatdagi narsa va xodisalarning ilohiy quvvatga ega ekani to'g'risidagi xilma-xil g'oya va qarashlarga asoslangan. Bu to'g'rida «Dinshunoslik» fanida kengroq ma'lumotlar berilgan.

Taraqqiyotning keyingi bosqichlarida milliy asosdagi xinduizm, iudaizm, konfutsiylik singari diniy mafkuralar shakllangan. Yaponlar esa o'zlarining milliy dini – sintoizmni yaratgan. Ularda diniy tamoyillar bilan birga muayyan millatning o'ziga xosligi, qadriyatlarini, mentaliteti o'z aksini topganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu dinlar millat tarixining u yoki bu davrida davlat dini va mafkurasi darajasiga ko'tarilgan. Masalan, konfutsiylik bir necha yuz yillar davomida Xitoyda ana shunday mavkega ega bo'lgan.

Taraqqiyot jarayonida falsafiy g'oyalar ham muayyan tizim shaklini olgan. Masalan, olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari, uning asosini nima tashkil etishi kabi masalalarni Qadimgi odamlar xilma-xil hal qilganlar. Ularni falsafiy talqin etish natijasida monizm va dualizm kabi, idealizm va materializm singari oqimlar vujudga kelgan. Ularning har biri o'z ma'no mazmuniga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Xususan, monizm – olamning asosini bitta mohiyat tashkil etadi deb ta'lim beruvchi yunalish bo'lsa, dualizm – olamning ibtidosi ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga ega ekanini e'tirof etuvchi oqimdir.

Olam va odamning yaralishi, borliqning yashashi va rivojlanish qonuniyatlari, borlik hamda yo'qlik masalalarida ruhiy va ilohiylik tamoyillarini ustuvor deb bilish, mutlaqlashtirish idealizmning asosini tashkil qiladi.

Undan farq qiladigan materializm aynan ana shu masalalarda modda (materiya) va uning xossalarini ustuvor deb bilish, mutlaqlashtirish asosida shakllangan.

**Hozirgi davrda mafkuralarning namoyon bo'lish masalasi dolzarb masalalardan biridir.** Bugungi kunda diniy fundamentalizm aqidaparastlik kabi buzg'unchi g'oyalar jahon hamjamiyati taqdiriga xavf solmoqda. Muayyan tarixiy davrlarda ba'zi mafkuralar davlat ideologiyasi darajasiga ko'tarilgan. Zamonlar o'tishi bilan ularning ayrimlari o'z mavkeini yo'qotgan, lekin millat ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida saqlanib kolgan. Xalq ulardan quvvat olgan, ma'naviy oziqlangan, ular orqali o'z qadriyatlarini saqlagan.

Shu bilan birga bir-biridan farq qiladigan mafkuralar o'rtasidagi bahs-munozara hamda ularni murosaga keltirishga intiluvchi g'oyalar mavjudligi ham qadim zamonlardan buyon davom etib kelmoqda. Xuddi shunday bir-biridan farq qiladigan, ya'ni xudo va ilohiy qadriyatlarni tamomila rad etuvchi ateizm va aynan shu xaqikatlarni mutlaqlashtiruvchi teizm o'rtasidagi bahs-munozara ham uzoq tarixga ega. Bu bahs – munozara hozir ham davom etmoqda.

XIX asrning 30-yillarida Frantsiyada imperator Napoleon shaxsiga siginish va faranglarni ulug'lash bilan bog'lik shovinizm g'oyalari keng yoyildi. Keyinchalik u bir hukmron millatni boshqa xalqlardan ustun qo'yadigan, yoki boshqa biror ijtimoiy sub'ektni mutlaqlashtiradigan mafkuraviy aqidaga aylanib ketdi. Bugungi kunda «Buyuk millatchilik shovinizmi», «Buyuk davlatchilik shovinizmi», «Irtiy shovinizm» kabi iboralar uchrab turadi.

Insoniyat tarixida o'z talab-ehtiyojlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirish istagi talonchilik va bosqinchilik, buyuk davlatchilik va tajovuzkor millatchilik, fashizm va ekstremizm g'oyalarini yuzaga keltirgan. Bunday g'oyalar xalqlar boshiga ko'p kulfat va musibatlar solgan.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ba'zan buzg'unchi mafkura o'zining soxta jozibasi, aldov makri bilan omma ongini zax, jamiyatda hukmron mavqeini egallab olishi mumkin. Masalan, XX asrning 30-yillarida Italiya va Germaniyada fashizmning g'alaba qozonishi nafaqat italyan va nemis xalqining, balki dunyodagi millionlab insonlarning boshiga cheksiz kulfat solgani tarixning achchiq saboqlaridan biridir. Holbuki bu g'oyalar mazkur davlatlarda asr boshidanoq namoyon bo'la boshlagan edi.

Masalan, Italiyada 1910 yildan «Milliy g'oya» nomli jurnal chiqa boshlagan, unda ko'proq agressiv millatchilik targ'ib qilinar edi. Afsuski, o'z davrida bunga kam e'tibor berildi va u oxir oqibat hukmron g'oyaga aylandi. Ana shu sababdan ham bugungi kunda butun dunyodagi taraqqiyparvar gumanistik kuchlar bunday fojiali va noxush holatlar takrorlanmasligi uchun hamjihatlik bilan kurash olib borishi ijtimoiy zarurat bo'lib koldi.

Fashizm misoli g'oya va mafkura insonparvarlik va taraqqiyot tamoyillarini, xalq taqdiridagi yuksalish zaruratini, umuminsoniy qadriyatlarni o'zida aks ettirmasa, aksincha, bu intilishlarni rad etsa, mohiyatiga ko'ra ularga zid bo'lsa, u jamiyat tanazzuliga sabab bo'lishini yaqqol ko'rsatadi.

O'z tarixini, asosan XIX asrdan boshlagan ana shunday mafkuralardan biri – sinfiy antogonizm g'oyalarni mutlaqlashtirgan va hokimiyatni kurok kuchi bilan egallab olgan sobiq kommunistik tuzum mafkurasini edi. Sinfiy kurash g'oyasi asosiga kurilgan va millionlab kishilar taqdirida mash'um iz qoldirgan bu mafkura jamiyatni bir-biriga zid taraflarga ajratib yubordi.

Sinfiy kurash chizig'i nafaqat ijtimoiy guruh va qatlamlar orqali, hatto oilalar va insonlar ruhiyati orqali ham o'tkazildi. Oqibatda «grajdanlar urushi»ga nazariy

poydevor qo'yildi. Inson tabiatiga, uning mohiyati va ruhiyatiga zid bo'lgan birodarkushlik holati yaratildi. O'g'il otaga, uka akaga, do'st o'z birodariga qo'l ko'tarishi yoqlab chiqildi, rag'batlantirildi. Bular mardlik va sinfiy onglilik namunasi deb talqin etildi. Natijada milliy qadriyatlar toptaldi, millionlab kishilar halok bo'ldi, butun – butun xalqlar o'z vatanidan badarg'a qilindi.

Zo'rlik asosiga qurilgan va ziddiyatli tizimga asos bo'lgan bu mafkura dunyoning oltidan bir qismini egallagan ulkan saltanat va sotsialistik lager hududida etmish yil hukm surdi. Oxir-oqibat o'zining g'ayri insoniy va g'ayri milliy mohiyati, mustabid tabiati tufayli tanazzulga yuz tutdi. O'zi tayangan davlatni ham o'zi bilan birga olib ketdi.

G'vuz g'oya va unga asoslangan mafkuralarning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri diniy aqidaparastlikdir. Bunday g'oyalar muayyan davrlarda G'arbda ham, Sharqda ham hukmronlik qilgan, odamlarga ko'pdan-ko'p qabohatlar keltirgan.

Afsuski, bu ijtimoiy illat insoniyat XXI asrga kadam kuyayotgan hozirgi davrda ham dunyodagi tinchlik va taraqqiyotga takdid solmoqda, muayyan xududlarni egallab olmoqda. Afsuski, bu g'oyalar ortidan ergashadiganlar hozir ham bor. Ular bunday g'oyalarga asoslanib tinch aholiga qarshi terrorchilik, zo'ravonlik kabi jinoyatlarni amalga oshiradilar, o'z niyatlarini qabih harakatlar orqali namoyon qildilar. Keyingi 15 yilda aqidaparastlar terrori natijasida 140 ming kishi halok bo'lgan Jazoir yoki 20 yildan ortikroq urush borayotgan Afg'oniston bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Xullas, aqidaparastlik, qanday shaklda bo'lmasin, hamma zamonlarda ham jamiyat uchun birdek xatarli bo'lib, odamlar boshiga ko'plab kulfatlar keltiradi. Hozirgi davrda ham hamma narsani inkor etishga, hech qanday ijtimoiy me'yor va qonun-qoidalarni tan olmaslikka da'vat etuvchi nigilizm, yoki ko'p hollarda vatansizlikni mutlaqlashtiradigan kosmopolitizm kabi mafkuralar turli ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda.

G'oya va mafkuralarning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o'rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi. Ya'ni bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqidaparastlik mafkuralariga qarama-qarshi o'laroq, ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari uzluksiz maydonga chiqib, xalqlarning muzaffar bayrog'iga aylangan.

**G'oya va mafkuraning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati.** G'oyaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati juda muhim falsafiy masaladir. Inson o'zi g'oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. o'zi yaratgan g'oyalar insonning ongi va shuurini, tafakkuri va e'tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi.

Yuksak g'oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari etaklaydi. G'oyasi etuk, e'tiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalarini ko'rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan etishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To'maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari – buyuk g'oya sohiblaridir.

Ming yillar o'tsa ham, buyuk ajdodlarimizning matonati va qahramonligi xalqning xotirasidan o'chmaydi. Chunki ular yuksak g'oyalar – Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu urfon rivoji yo'lida jon fido qilganlar. Axmud Yassaviy 60 yildan ziyod umrini er ostida o'tkazganida ham, Najmiddin Kubro mo'g'ul

bosqinchilariga qarshi jang qilganda ham ulug'vor g'oyalar ularga sabr-bardosh va matonat ato etgan. Jordano Bruno jismu jonini egallagan buyuk g'oya tufayli gulxan alangasida ham o'z e'tiqodidan qaytmagan, Nasimiy, tovonidan so'ysalar ham, ishqi ilohiy deb jon bergan.

Jahon tarixidan, jumladan xalqimizning o'tmishidan ham, qaysi sohada bo'lmasin, mardlik va jasorat ko'rsatish uchun insonga albatta ulug'vor g'oya kerak ekaniga ko'plab misollar topiladi.

Muayyan bir g'oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgani, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zaxmat chekkanini ko'ramiz. Suqrot va Platon, Konfutsiy va Zardo'sht, Alisher Navoiy va Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdig'idir.

Ularning har biri o'z davrida o'zi mansub xalqni birlashtiradigan ulkan ahamiyatga molik g'oyalarni yaratganlar. Bu g'oyalarga tayanib bunyodkorlik yo'lida, ezgu maqsadlarga erishish uchun hormay-tolmay mehnat qilganlar. Bu borada insoniyatga «o'zini anglamoq buyuk saodat» ekanligini anglatgan Suqrot ham, «xalqni yakqalam qildim», deya qoniqish hissini tuygan Navoiy ham, Hindiston va Pokiston ozodligi yo'liga umrini baxshida aylagan Maxatma Gandi ham bugungi avlodlar uchun ibrat namunasi bo'lgan ulug' insonlardir.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda iqqi kuch – bunyodkorlik va buzgunchilik g'oyalari hamisha o'zaro kurashadi. Bunyodkor g'oya insonni ulug'laydi, uning ruhiga kanot baxishlaydi. Sohibqiron Amir Temurning parokanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezgu g'oyalar asos bo'lgan.

Buzg'unchi g'oya va mafkuralar esa xalqlar boshiga so'ngsiz kulfatlar keltiradi. Bunga olis va yakin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. O'rta asrlardagi salib yurishlari, diniy fanatizm va ateizm, fashizm va bolshevizmga asos bo'lgan g'ayriinsoniy g'oyalar shular jumlasidandir.

Toki dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilg'or g'oyalar tug'ilaveradi. Buzg'unchi g'oyalarning vujudga kelishiga esa vayronkor intilishlar sabab bo'ladi. Shunday ekan, ularga qarshi kurashga tayyor turish, ya'ni doimo hushyor va ogoh bo'lib yashamoq hayotning asosiy zarurati bo'lib qolaveradi.

Milliy g'oya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyat va imkoniyatlarni to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi.

Masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan yaponcha taraqqiyot modelini olaylik. Yapon milliy mafkurasi «milliy davlatchilik tizimi» (kokutay), «fuqarolik burchi», «yapon ruhi», «tadbirkorlik», «umummilliylik», «fidoyilik», «vatanparvarlik», «paternalizm», «jamoaga sadoqat», «modernizatsiya» kabi g'oya va tushunchalar ushbu mamlakatning bugungi kunda erishgan yuksak natijalarga poydevor bo'ldi.

G'oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik esa millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur etkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi.

Masalan, Chingizxon bosqini, chor istilosi davrlarida ayrim hukmdorlarning xalqni birlashtirib kurashga safarbar etmagani o'lkamizning qaramlik changaliga tushib kolishiga sabab bo'lgan.

Xullas, insoniyat tarixi xilma-xil g'oya va mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti, bir-biri bilan munosabatidan iborat uzluksiz jarayondir. Bu jarayonda turli g'oyalar u yoki bu kuchlarga xizmat qilishi, o'ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon etaklashiga qarab bir-biridan farqlanadi. Ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor g'oyalar asos bo'lsa, vayronkor g'oyalarga tayangan mafkuralar xalqlar va davlatlarni tanazzulga etaklaydi, odamlar uchun son-sanoqsiz kulfatlar keltiradi. Bu esa, o'z navbatida, g'oyaviy jarayonlar tarixini o'rganish, ular zamiridagi mazmun-mohiyatni bilib olishni zaruriyatga aylantiradi.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

G'oya, g'oyalarning shakllari: diniy, badiiy, ilmiy, falsafiy g'oyalar, ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, milliy g'oya, mafkura, mafkuraning tarixiy shakllari, monizm, dualizm, plyuralizm, materializm, idealizm, shovinizm, fashizm, bolshevizm, aqidaparastlik.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.**

- G'oya nima? g'oyalarning qanday turlari mavjud? Bunyodkor g'oyalar va vayronkor g'oyalarga misollar keltiring.
- Mafkura nima? Mafkuralarning qanday tarixiy shakllari bo'lgan?
- Davlatlar va millatlarning yuksalishi yoki tanazzulga uchrashida mafkuraning ahamiyati qanday?
- Mafkurasiz millat va g'oyasiz inson bo'lishi mumkinmi?

## 2. TARIXIY TARAQQIYOT: G'OYAVIY VA MAFKURAVIY JARAYONLAR

### **Ijtimoiy taraqqiyot – g'oya va mafkuralar tarixidir.**

Mafkura va g'oyalar tarixiy taraqqiyotda etakchi mavqelardan birini egallaydi. Insoniyatning ko'p ming yillik o'tmishi buni yaqqol tasdiqlaydi. Er yuzida dastlabki odamzod paydo bo'lib, uning urug', jamoa yoki xalq sifatida shakllanishi ro'y bergan dastlabki davrlardayok ularni birlashtirib turadigan umumiy g'oya va mafkuraga ehtiyoj tug'ildi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Chunki, mafkura – jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi».

Jamiyat tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ilk moddiy va ma'naviy madaniyat maskanlarining ko'pchiligi dastlab Sharqda shakllangan va bu insoniyatning keyingi taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qilgan. Xususan, qadimgi Misr, Vavilon, Turon, Eron, Hindiston va Xitoyda vujudga kelgan tsivilizatsiyalar tarixda muhim o'rin tutadi. Qadimgi Sharq zamini xalqlari dunyoda birinchilardan bo'lib erga ishlov berdilar, tabiatdan tanlab olish yo'li bilan madaniy o'simliklarning ko'plab navlarini etishtirdilar. Ular muraqqab sug'orish inshootlari va moslamalarini yaratdilar, tarixga ma'lum bo'lgan birinchi suv tegirmonlari va objuozlarni qurdilar, dastlabki uy hayvonlarini qo'lga o'rgatdilar, ipak qurti boqib, undan tabiiy ipak olishni kashf etdilar. Nihoyatda murakkab me'morchilik san'atiga asos soldilar, tabiat kuchlari qarshisida qanchalik sabr-toqatli, irodali, o'tkir fikrli, jismonan baquvvat va ruhan engilmas bo'lishni jahonga namoyon etdilar. Shu asnoda xilma-xil g'oyalarni yaratdilar, ularni amalga oshirdilar.

Mafkuraviy jarayonlar tarixiy va ijtimoiy shart-sharoit bilan uzviy aloqador bo'lib, davrlar almashuvi bilan yangilik tomon o'zgaradi.

Ma'lumki, milliy g'oya va mafkuraning tarixiy shakllari va ko'rinishlari xalqimizning ko'p ming yillik o'tmishi davrida rivojlanib keldi. Qadimgi Xorazm, Sug'diyona va Baqtriyada ilk bor shakllangan, ajdodlarimiz tomonidan bundan 2700 yil oldin yaratilgan dastlabki yozma manba – «Avesto» kitobida ham ezgulik g'oyalari ilgari surilgan. Yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi azaliy kurash aks ettirilgan. Zardo'shtiylikning ezgulik va insonparvarlik xaqidagi qarashlari mintaqamizga islom dini kirib kelgunga qadar asosiy g'oyalar edi. Shuningdek, turkiy xalqlar o'rtasidagi Ko'k tangrisiga (osmon va quyoshga) sig'inish (shamanizm) va buddizm (buddaviylik) ham diniy e'tiqod sifatida Zardo'shtiylik bilan yonma-yon yashab keldi.

Zardo'shtiylik mintaqada ilk bor shakllangan dastlabki davlat birlashmalari: Xorazm, Sug'diyona va Baqtriyada davlat dini darajasiga ko'tarildi va rasmiy mafkura vazifasini ham bajardi. Kushon davlati davriga kelib Zardo'shtiylik bilan bir qatorda, buddaviylik ham davlat dini vazifasini utay boshladi.

Ammo, Turonning vaqti-vaqti bilan bosqinchilar hujumiga uchrab turishi jamiyatdagi barqarorlikni izdan chiqarar edi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Ahamoniy shohlari, 329-327 yillarda Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurishlari mintaqada mavjud bo'lgan mustaqil davlatchilikka ma'lum muddatga chek qo'yilishiga sabab bo'ldi. Xalqimiz o'z mustaqilligini qayta tiklash uchun dushmanga qarshi yillar davomida kurash olib bordi. Mustaqillik g'oyalari, o'z milliy davlatchiligini tiklash uchun kurash xalqimizning o'sha paytdagi orzu-umidlari, ta'bir

joiz bo'lsa, uning g'oya va mafkurasini tashkil qiladi. Ularga asoslangan xalqimiz Kushon podsholigi va Buyuk turk xoqonligi kabi ulkan saltanatlarga asos soldilar.

Biroq, tarixiy jarayon o'zgarishi bilan mintaqada mustaqil davlatchilikga yana vaqtincha chek qo'yishga to'g'ri keldi. VII asrning oxiri - VIII asrning boshlarida arab bosqinchilari Turonni bosib oldilar. Bunda istilo va istibdodga qarshi kurash g'oyalari yagona maqsad yo'lida, masalan, Turon zaminni arab istilochilaridan ozod qilish uchun janglarda birlashtiruvchi g'oya bo'ldi. Muqanna ko'zgoloni va uning ozodlik uchun kurash g'oyalari istiqloqlolchilariga qarshi kurashda mafkura vazifasini bajardi.

Movarounnahrda (hozirgi O'zbekiston hududida) islom dinining tarqalishi xalqning yagona maslakka birlashtirishdek tarixiy vazifani bajardi. IX-XII asrlarda somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohlar sulolari tomonidan mintaqada asos solingan davlatlar nafaqat o'zbek xalqi, balki jahon xalqlari tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning o'lmas asarlari jahon fanini boyitdi. Mutasavvufilar: Xoja Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro; muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta'limotida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat xaqidagi qarashlar jamiyatning sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g'oyalar Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoyilik va insonparvarlikni ulug'ladi. Ular milliy-ma'naviy qadriyatlar sifatida xalqimiz madaniyati, adabiyoti va san'atida, jumladan, Maxmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Axmad Yugnakiy, Lutfiy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o'rin egalladi.

Bu g'oyalar o'zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizom-ul-mulkning «Siyosatnoma» kitoblarida davlat idorasi va axli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surildi.

XVII-XIX asrlarda umummilliy manfaatlar o'rniga tor va cheklangan, shaxsiy va sulolaviy manfaatlar ustun qo'yilishi, jamiyat hayotida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va ilm-ma'rifatni rivojlantirishga etarlicha e'tibor berilmagani o'zbek davlatchiligining tanazzulga yuz tutishiga, mustaqillikning qo'ldan berilishiga, Turkistonda mustamlakachilik tuzumi o'rnatilib, pirovardida milliy davlatchilikning yana bir bor tugatilishiga olib keldi. Shunga qaramasdan, chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan milliy g'oyalar tamomila yo'q bo'lib ketmadi. Aksincha, mustamlakachilik sharoitida ular milliy davlatchilikni tiklash, millat taraqqiyoti va istiqboli uchun kurash bayrog'i sifatida yana ilgari surila boshladi.

Bu intilishlar XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan chiqqan Axmad Donishning ilg'or qarashlarida, XX asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyandalari – Behbudiy, Fitrat, Chulpon, Munavvar qori, Abdulla Avloniy ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun ulkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Turkistonda bosqinchi qizil armiya va sovet tuzumiga qarshi ko'tarilgan istiqloqlolchilik harakatining mafkurachilari ham aynan jadidlar bo'ldilar. Biroq, mustabid sovet tuzumi bu g'oyalarga qarshi g'ayriinsoniy mafkurani ilgari surib, xalq manfaatlarini inkor etdi. Bu utopik, xayoliy g'oyalar real hayot talablariga javob bermas, xalqning an'anaviy turmush tarziga, jamiyat taraqqiyoti qonunlariga



mutlaqo zid edi. Ular milliy istiqlolni tan olmas, milliy qadriyatlarni toptar, diniy e'tiqodga qarshi kurash asosiga qurilgan edi. Lekin, mustabid xukumat ularni xalqqa tan oldirish uchun jon-jahd bilan kurashdi. Bu siyosat ayovsiz kurashlar, ta'qib, tazyiq va zo'ravonliklardan iborat edi. o'sha yillardagi mash'um katag'onlar bu kurashning fojeali namoyon bo'lishi edi.

Bu tuzum o'lkamizda zo'rlik bilan o'rnatilgach, xalqimiz uning siyosati va mafkurasiga qarshi kurash olib bordi. Bu kurash shafkatsizlik bilan bostirilgach esa, yashirin tarzda davom etdi. Va nihoyat, 1937 yildagi ommaviy qatag'on bu tuzum va uning mafkurasiga, g'oyalariga qarshi chiqqan, umummilliy manfaatlarni himoya qilgan, har qanday «o'zgacha fikrlaydigan» kishini «xalq dushmani» deb e'lon qildi. Ular ba'zi milliy g'oyalarni ilgari surib, xalqimiz manfaatlarini himoya qilganliklari uchun ularni yo'q qilib yubordi.

Shundan keyingina, zo'ravonlik bilan o'rnatilgan bu g'oyalar jamiyatning yakkayu yagona va hukmron mafkurasiga aylandi. Butun ommaviy axborot vositalari – radio, matbuot, televidenie, madaniyat, san'at, adabiyot, ijtimoiy fanlar shu mafkurani targ'ib qilish va singdirishga xizmat qildi, davlat tashkilotlari uning hukmronligini kuch va zo'rlik bilan ta'minlab turdilar. Lekin bu g'oyalar baribir xalq qalbidan chuqur joy ololmadi, jamiyatning o'z mafkurasiga aylanmadi, xalqimizning milliy g'oya va asriy qadriyatlarini yo'q qila olmadi.

Xalqimiz hayotida chuqur ildiz otgan, uning azaliy orzusi bo'lgan milliy g'oyalar 80-yillar oxirida davlatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan izchil va jasorat bilan yana kun tartibiga qo'yildi va Vatanimiz ozodligi hamda mustaqillikni qo'lga kiritishda muhim omil bo'ldi. Ular mamlakatimizda mislsiz o'zgarishlarni amalga oshirish, xalqimiz hayoti va taraqqiyotini belgilab olishda umuminsoniy qadriyatlar ustivorligiga asoslangan ozod va obod Vatan va farovon hayot qurish kabi oliy maqsadlarimiz ifodasi bo'lib kelmoqda.

**Jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari.** Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat tsivilizatsiyaga erishgan davrlardan bug'n jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda. **Shuning uchun bunyodkor g'oyalarning jamiyat rivojiga ta'siri hozirgi kun uchun dolzarb, muhim masala bo'lib kelmoqda.** Prezident Islom Karimovning «o'zbek tom ma'noda bunyodkordir», degan so'zlarida ham ana shu boqiy g'oyalarning ma'no-mazmuni o'z ifodasini topgan. Bunday bunyodkorlik xalqimizga ota-bobolaridan merosdir.

Insoniyat tarixida odamlar ongi va xuuriga adolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalar urug'ini sepgan zot, payg'ambar Zardo'sht yaratgan «Avesto» kitobida quyidagi satrlar mavjud: «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishlar bilan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishni oqlayman. O'zimni bori ezgu fikrga, ezgu so'zlar (aytish) ga, ezgu ishlar amaliga bahshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so'zu yomon ishlardan yuz o'giraman». Bu yuksak g'oyalar bundan 2700 yil muqaddam yashab o'tgan vatandoshimiz Zardo'shtning o'lmas mafkurasidir.

Insoniyat doimo yaxshilikni yoqlab, yomonlikka qarshi kurashadi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik unga xos bo'lgan buyuk fazilatlaridir. Shark xalqlarining buyuk ijodkorligi, bunyodkorligi va qadriyatlari turli davrlar ta'sirida g'arbga, xususan, antik Yunon-Rim madaniyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ana shunday ta'sir ostida Yunon-Rim madaniyati, ilm-fani, falsafiy tafakkur dunyosi shu

qadar yuksaldiki, o'sha davrda yaratilgan shoh asarlar va ularning mualliflari merosi hanuz bashariyatning ezgu ishlariga xizmat qilib kelmoqda. Shu ma'noda, komil ishonch bilan aytish mumkinki, insoniyatning xaqikiy umumbashariy madaniyati g'arb tsivilizatsiyasi va Sharq ma'naviyatining qo'shilishi asosida yaratilgan.

Masalan, A. Makedonskiyning ustoz, o'zining bu jahongir shogirdi Osiyoni mahv etgach, unga yuborilgan «Avesto» kitobini chuqur o'rgangan Qadimgi Yunon faylasufi va qomusiy olimi Arastu (Aristotel, mil. av. 384-322 yy.) o'z g'oyaviy qarashlarida ustoz Aflotun (Platon mil. av. 427-348 yy.) g'oyalarini boyitdi va unga muhim o'zgartishlar kiritdi. U jamiyatda bo'lib o'tayotgan barcha voqeliklar tabiatga xos deb biladi. Bu bilan jamiyatni tubdan o'zgartirish g'oyalariga qarshi chiqadi va jamiyat rivoji tabiiy jarayonlar tarzida kechishi kerak, deb hisoblaydi.

Aflotun esa g'oyalar umumiy tushunchalar sifatida odam aqliga bog'liq emas, balki u ilohiy tushunchalar deb izohlagan edi. Uning asosiy g'oyasi – ezgulik yoki yagonalik edi. Bunda oliy g'oya ko'pincha xudoga tenglashtiriladi. Bu faylasufning ustoz bo'lgan Suqrot (Sokrat, mil. av. 470-399 yy.) esa bahs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rtaga qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan xaqikatni aniqlash mumkin, deb bilgan. U ezgulik – bilim va donishmandlikdir, yaxshilik mohiyatini to'g'ri anglagan insongina yaxshilik qiladi, deb tushuntiradi. Suqrot adolatga xilof bo'lgan davlat boshqaruvining hamma shakllarini tanqid qiladi, faqatgina adolatli, demokratik davlat boshqaruvini yoqlab chiqadi.

Sharqda, ya'ni Turon zaminda esa jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari xususida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. «Al-muallim as-Soniy» («Iqqinchi muallim»), Sharq Aristoteli deb nom olgan Abu Nasr Forobiy (873-990yy.) o'zining «Fozil odamlar shahri», «Fuqarolik siyosati», «Baxt saodatga erishuv haqida» kabi asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum xaqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama etuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa xaqidagi g'oyalarni olg'a surdi.

O'sha davrning buyuk mutaffakirlari Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xosdir. Ular har bir narsani kuzatish va tajriba asosida o'rganishga, keyin xulosa chiqarishga intilganlar, barcha bunyodkorlik insonning mehnatiga bog'liqligini ta'kidlaganlar.

Buyuk o'zbek shoiri, mutaffakiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o'z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotining zamonasiga xos fazilatlarini yoritishga harakat qilgan. U she'rlari va dostonlarida razolatga, beqarorliqqa, urushu janjallarga, ma'rifatsizlikka qarshi kurash g'oyalarini ulug'laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchanliqqa, adolatga chaqiradi. Ma'rifatga asoslangan jamiyat yaratishni orzu qiladi. Uning bu orzulari «Farhod va Shirin», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlarida o'z ifodasini topgan. Shoirning bevosita o'zi ham qator bunyodkorlik ishlariga boshqosh bo'lgan.

Xitoy va hind mutafaqqirlarining jamiyat rivoji xaqidagi qarashlari va bunyodkorlik g'oyalari ham Osiyoning «sharqona» ma'naviyatida o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, buyuk Xitoy mutaffakiri Konfutsiy (mil. av. 551-479) g'oyalari hanuzgacha Xitoy xalqi mafkurasida etakchilik qilib kelmoqda. Bu g'oyaning asosi jamiyatni har qanday ijtimoiy larzalardan asrab qolish va insonlar manfaatini yuqori qo'yishga qaratilgan. Allomaning maqsadi xalqni mavjud tartib-qoidalarni hurmat

qilish ruhida tarbiyalash bo'lgan. Bu g'oyaga ko'ra, insonlar jamiyatning tabiiy taraqqiyotiga qarshi chiqmasligi, ya'ni inqilobiy yo'lni tanlamasligi kerak.

Konfutsiy insoniyat haqida fikr yuritar ekan, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavkei orqali emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, haqquylik, samimiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlarga erishish tufayli kamolatga etishuvi mumkin deb, hisoblaydi. Bunday «sharqona demokratiya»ning tamoyillarini o'zida aks ettirgan g'oyalar butun-butun davlatlarning uzoq yillar davomida barqaror yashab qolishiga sabab bo'lgani, Sharq xalqlarining tarixiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatgani shubxasiz.

Hind xalqining buyuk farzandi Maxatma Gandi (1869-1948) o'z ma'naviyati, g'oyalari va ilg'or qarashlari bilan XX asrning buyuk shaxslaridan biriga aylangan. U mustamlakachilarga qarshi kurashning timsoli edi. U hindlar bilan musulmonlarning o'zaro do'stligini mustaxkamlashga intildi. Gandi din bilan siyosatni bir-biriga bog'lashga harakat qildi. Unga xalq «Maxatma» – «Buyuk qalb» deb nom bergani ham shundan bo'lsa, ajab emas. R. Tagor fikriga ko'ra: «Gandi muvaffaqiyatining siri uning jo'shqin ma'naviy kuchida va behad darajada o'z manfaatlaridan voz kechishidadir. U o'zining oliyhimmatliligi bilan noyobdir. Gandi hayotining o'zi fidoyilik timsolidir».

Ko'hna Turon o'z boshidan kechirgan buyuk tarixiy voqealar ichida Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega. U garchi fotihlar qatoridan o'rin olib, behisob jangu-jadallarni boshidan kechirgan bo'lsada, asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchilik bo'lgan. Jumladan, u «Temur tuzuklari»da: «Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi etmasa, kerakli uskunalarni etkazib berib, unga yordam berilsin», deb ko'rsatma beradi. Shu o'rinda, yurtboshimizning Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan, desak, adolatdan bo'ladi, degan fikrlari nihoyatda o'rinlidir. Zero, Sohibqironning Movarounnaxr, Xuroson va boshqa joylarda bunyod etgan inshootlari, uning o'zi va temuriylar sulolasi davridagi madaniyat, fan, adabiyot sohasidagi yutuqlar bunga misol bo'la oladi.

**Milliy davlatchilik g'oyasi** va uning xalqlar taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini mustaqil O'zbekiston misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. O'zbekistonning xalqaro hamkorlik, mintaqaviy tinchlik, millatlararo totuvlik borasida olib borayotgan siyosati barqarorlik hukm surishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Tsivilizatsiyalar tarixida yovuz g'oya va tajovuzkor mafkuralar. Jahon tarixini umumlashgan tarzda bir pillapoya ko'rinishida tasavvur qilsak, uning har bir zinasini insoniyat oldida yangi imkoniyatlar va istiqbollari eshigini ochib beruvchi taraqqiyot bosqichi deyish mumkin. Bu tarix mazmunini esa ko'p jihatdan turli ijtimoiy tabaqalar, siyosiy oqimlar, xalqlar va millatlar, alohida davlatlar va ijtimoiy tuzumlarining xilma-xil maqsad va manfaatlarini o'zida aks ettiruvchi g'oyalar va mafkuralarning amaliyoti belgilaydi.

Tarixiy jarayon tabiatidan kelib chiqadigan mazkur xususiyatning dialektikasi insoniyat uchun doimiy bo'lgan «ezgulik» va «yovuzlik» o'rtasidagi abadiy kurash deb atalmish muxtasar ta'rifda o'z aksini topgan.

«Ezgulik» – taraqqiyotga intiluvchi kuchlarni, insonparvarlik va yuksak axloq falsafasini, ijtimoiy adolat printsiplari yoki «Avesto»da bayon qilingan «ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ish»ning negizini tashkil etadigan qadriyatlarni o'zida mujassam

etadi. «yovuzlik» esa tarixiy reaksiya, taraqqiyot gildiragini orkaga burish, qora kuchlar faoliyati va hukmronligini ifodalaydi.

Insoniyatning, jumladan, O'zbekistonning necha yuz yillik solnomasida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo'rlik, kulfat urug'larini sochish va qon to'kilishiga sabab bo'lgan buzg'unchi g'oyalar va mafkuralarning halokatli ta'siri bilan bog'liq qayg'uli sahifalar ko'p. Bu g'oyalar o'zlarida siyosiy bosqinchilik va mustabidlik intilishlarni goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda diniy, milliy, sinfiy shiorlarni bayroq qilib maydonga chiqqanini ko'ramiz. Lekin mohiyat hamisha o'zgarmay kolavergan. Ya'ni, ular millatlar va xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, an'ana va urf-odatlarini kuch bilan o'zgartirishga, keng xalq ommasini boshqalarning siyosiy irodasiga bo'ysundirish va mafkuraviy asoratga solishga, o'zaro adovatga asoslangan ijtimoiy tartiblarni qaror toptirishga, millatga yot mafkuraviy tasavvurlarni tikishtirishga qaratilgan. Buzg'unchi g'oyalar va mafkuralarning amalga oshirilishi millatlar va xalqlar azaliy madaniyatining emirilishiga, davlat va jamiyat hayotida salbiy hodisalarning kuchayishiga sabab bo'lgan, ko'plab xalqlarni o'z yo'lini o'zi tanlash huquqidan mahrum etgan.

G'oyalar hukmronligining tamal toshi aynan qadimiy tsivilizatsiyalar davrida qo'yilgan edi. Unga binoan, odatlar va taomillarga emas, balki g'oyalar yoki biror maqsadga bo'ysundirilgan muayyan tildagi inson xulq-atvorini shakllantirish mumkin edi. Lekin shu bilan bir vaqtda, qadimdanoq kishilar ongini nayrang va aldovlar vositasida, yolg'on ideallar bilan zaharlash imkoniyati ham paydo bo'ldi.

Qadimiy tsivilizatsiyalarda ijobiy g'oya va qadriyatlar bilan birga, salbiy xarakterdagi mafkuralarning ham unib chiqishi uchun zamin bo'ladigan tasavvurtushunchalar maydonga kela boshlagan edi. Masalan, qadimiy Rimda bunday qadriyatlar tizimini, bir qarashda umuminsoniy qadriyatlar jumlasidan bo'lgan, vatanparvarlik tushunchasini belgilar edi. Ammo, bu tushuncha Rim xalqining xudo tomonidan alohida tanlangani, taqdirning o'zi tomonidan zafarli istilolar va Rim saltanati hududini kengaytirish uchun safarbar qilingani to'g'risidagi soxta tasavvurlarga asoslangan edi. Bunday mafkuraviy asoslar imperiyachilik tafakkur tarzining shakllanishiga sabab bo'ldi.

Boshqa hududlarni bosib olishga rag'batlantiruvchi ushbu g'oya keyinchalik dunyoqarashlar tizimida bir xalqning boshqa xalq tomonidan mustamlakachilik asoratiga solinishini nafaqat axloqiy jihatdan oqlaydigan, balki uni qahramonlik darajasiga ko'taradigan buyuk davlatchilik mafkurasining rivojlanishiga omil bo'ldi.

O'rta asrlarga o'tilishi bilan, asosan Evropada, din va cherkovning roli misli ko'rilmagan darajada o'sdi. Bu davrda xudoga otashin va jazavali ishonch hukmronlik qildi va bu e'tiqod inson hayotining barcha tomonlarini, tug'ilishdan o'lishgacha bo'lgan har bir qadamini belgilab berdi. Ushbu davrda din mustabid mafkura shakli sifatida maydonga chiqdi.

Bu bir tomondan, o'z diniy uyushmasi ichidagi dahriyga yoki «murtad»ga chiqarilgan shaxslarning turli bahonalar bilan ommaviy ravishda qirg'in qilinishida, ikkinchi tomondan esa, diniy va hududiy istilolarni maqsad qilib olgan xunrezlik urushlarida o'zining ayanchli ifodasini topdi. Evropaning xristian dunyosi tomonidan musulmonlarga qarshi amalga oshirilgan salib yurishlarini bu urushlarga misol qilib keltirish mumkin.

O'rta asrlar diniy ekstremizmi, o'z navbatida, javob reaksiyasi tarzida – antogonizmga asoslangan turli g'oyalar hamda ateizmning kuchayishiga ham sabab

bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan alohida siyosiy kuchlar bunday g'oyalar va xudoga murosasizlikka asoslangan ateizmdan ham o'zlarining mafkuraviy maqsadlari yo'lida foydalandilar.

G'oyalar va mustabid mafkuralar tarixida bundan foydalangan sobiq kommunistik ta'limot alohida o'rin tutadi. U tashqi jihatdan adolat idealini o'zida mujassam etgan olijanob intilishlarni asos qilib olgandek ko'rinsa-da, oxir-oqibatda mustabid jamiyatni shakllantirish mafkurasiga aylandi.

Bolshevizm bilan bir qatorda, XX asrning boshida ildizlari sotsialistik g'oyadan suv ichgan mustabid g'oya va mafkuraning boshqa shakli – fashizm (ital. fashio – oqim) paydo bo'ldi. Sobiq sotsialist B. Mussolini Italiyada fashistlar harakatining asoschisi bo'ldi. Germaniyada milliy sotsialistik partiya tuzgan A. Gitler esa fashizimning «ma'naviy ota»siga aylandi. Fashizm II jahon urushi olovini yokdi, 50 mln. dan ortiq kishining qirilib ketishiga sabab bo'ldi. Bizning mamlakat ham motam libosiga o'raldi. Ikkinchi Jahon urushi jabhalarida kurashgan o'zbekistonlik jangchilardan 263005 nafari halok bo'ldi, 132670 kishi dom-daraksiz ketdi, 60452 kishi nogiron bo'ldi.

Bolshevizm va fashizm mafkuralari o'rtasida ko'plab o'xshash jihatlar mavjud. Ayni paytda jiddiy tafovutlar ham ko'zga tashlanadi. Asosiy farqlardan biri, bu millat omilining turlicha baxolanishidir. Agar kommunistik ta'limot, xalqlarning milliy-etnik o'ziga xosliklarining yo'qotish, «proletar baynalminalligi» shiori bilan maydonga chiqqan bo'lsa, fashizm bir hukmron millatning «irqiy-etnik sofliigi»ni mutloqlashtirishni targ'ib-tashviq etadi. U irqchilikning homiysi hisoblanadi.

«Rasizm» so'zi «rasa» (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Evropada «insoniyat nasli»ni turli irqiy guruhlar, jumladan, «oq», «qora» va «sariq» irqka ajratish uchun qo'llana boshladi. Irqchilik ta'limoti «oq tanli»larning afzalligi, ularning azaldan «oliy irq» etib tanlangani, boshqa irqning esa «oq»larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog'onalarida turishini «asoslab» beradi. Uning asosiy g'oyasi o'zining «ilohiy» tabiatiga ko'ra «oq» irqni «quyi» irq ustidan hukmron qilishga da'vat etishga qaratilgan edi.

Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko'ra ajralib turuvchi kishilarga taziyoq o'tkazish, ularni xaqoratlash, urish va o'ldirish kabi harakat-xodisalarda yaqqol namoyon bo'ldi. Ijtimoiy hukmronlik shakllaridan birining mafkurasini bo'lar ekan, u buyuk davlatchilik, ashaddiy shovinizm, «tanlangan» xalqlarning milliy afzalligi g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketdi.

Irqchilik – ko'p qiyofali. Masalan, o'zini oliy irq hisoblagan ingliz, ispan, frantsuz bosqinchilari o'rta asrlar va ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda Amerika, Avstriya, Afrika va Osiyoda erli xalqlarni ko'plab qirib tashladilar. Janubiy Afrika Respublikasi tomonidan XX asrda uzoq yillar mobaynida o'tkazib kelingan irqiy ayirmachilik siyosati – shafqatsiz irqiy tahqirlash va kamsitishda o'z ifodasini topdi. 1865 yilda AQShda tuzilgan «Ku-kluks-klan» terroristik tashkiloti ham o'zining oshkora irqchilik yo'nalishidagi faoliyati bilan ajralib turadi. Negrlarning fuqarolik huquqlariga qarshi kurash va ularni mamlakatdan chiqarib yuborish uning asosiy g'oyasi hisoblanadi.

Yana bir yovuz g'oya – terrorizm bugungi kunda ham insoniyatga katta tahdid solmoqda. Jamiyatga doimiy qo'rquv, fitna-g'alamislik muxitini vujudga keltirish, zo'ravonlik yo'li bilan jamiyat barqarorligini bo'zish, gunoxsiz kishilar, jumladan,

bolalarning xalok bo'lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi uldirish va portlashlar bu mudxish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi.

Siyosiy terrorizm XIX asrdayoq vujudga kelgan edi. Lekin u XX yuz yillikda keng quloch yozdi. G'arbiy Germaniyadagi «qizil armiya» va Italiyadagi «qizil brigada» guruhlari, Ispaniyadagi basklar tashkiloti, Olsterdagi «Inqilobiy-xaloskorlik armiyasi», Perudagi «Porloq hayot» kabi birlashmalar zamonaviy siyosiy terroristlarning birinchi avlodi edi. Keyingi yillarda dunyoning unlab mamlakatlarida, jumladan, bizning yosh davlatimiz chegarasiga yaqin davlatlar hududlarida ham terrorizm o'choqlari paydo bo'ldi. Ular mustaqil O'zbekistonga qarshi kuch yig'moqda. Chunonchi, Toshkentda 1999 yilda yuz bergan fevral voqealari, 2000 yil yoz oylarida Surxondaryoga Afgonistondan o'tgan terroristik guruhlar xuruji buzg'unchi siyosiy kuchlarning xalqimizni demokratik taraqqiyot yo'lidan qaytarishga bo'lgan urinishlari to'xtamaganidan guvohlik beradi.

### **G'oya va mafkuralarni mutlaqlashtirishning salbiy oqibatlari.**

Tarixdan ma'lum bo'lgan real mustabid tuzumlarni qiyosiy tahlil etish ular amal qilgan mafkuralarning kuyidagi umumiy xususiyatlarini hamda bu g'oyalarni amalga oshirish bilan bog'liq qator salbiy oqibatlarni aniqlash imkonini beradi.

Avvalo, mustabidchilik mafkuralari o'z davlatlarida ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha sohalarini to'liq qamrab olishga, yagona dunyoqarash tizimi hukmronligini o'rnatishga intiladilar. Bu mafkuralar buyuk va yorqin o'tmishni inkor etadilar. Ular jamiyatni inqilobiy yo'l bilan yoppasiga qayta tuzish zarur va uni amalga oshirish mumkin, deb hisoblaydilar, o'zlarigacha bo'lgan qadriyatlarining barchasini yoxud ko'pchiligini bekor qilib, ularni faqat o'z tamoyillari bilan almashtirmoqchi bo'ladilar.

Masalan, birinchi qarashda, uzoq o'tmishga qaytishga chiqiruvchi islom fundamentalizmi go'yoki bundan mustasnodek tuyuladi. Biroq, aslida bunda ham o'sha andoza saqlanib koladi. Ya'ni Islom fundamentalizmi tarix g'ildiragini o'rta asr jaholati davriga qaytarish niqobi ostida, «ijtimoiy kazarma» tipidagi bir xillashtirilgan mustabid «kelajak»ning o'ziga xos andozasini taqlif etadiki, unda inson fuqarolik huquqlaridan to'liq maxrum qilinadi, haqiqatda diniy terrorga duchor etiladi. Biz yuqorida bunday g'oyaning qanday yoyoyoyoyoayanchli oqibatga olib kelishini o'rta asr Evropasidagi inkvizitsiya misolida ko'rib o'tdik.

Mustabidchilik mafkuralari «yangi jamiyat» va «yangi inson»ni vujudga keltirishni o'z maqsadi deb e'lon qiladi, bunda shaxs manfaatlari va, ayniqsa, shaxs erkinligi tor hukmron tabaqa, mustabid tuzumning manfaatlariga buysundiriladi. Bunda ijtimoiy tuzum «demokratiyaning oliy shakli», xalq hokimiyati shakli, deb e'lon qilinadi. Lekin bunda demokratiya xalq irodasining amalga oshirilishi deb emas, balki hatto xalq irodasiga qarshi borishga to'g'ri kelgan taqdirda ham zo'ravonlik vositalari bilan xalq «farovonligi»ni amalga oshirish deb tushuniladi.

«Mustabidchilik mafkurasi» o'zini haqiqatning gavdalanishi va farovonlikning namoyon bo'lishi deb hisoblangani uchun ham har qanday fikr, har qanday boshqacha mulohazaga bartaraf etilishi lozim bo'lgan yovuzlik (ataylab qilingan yoki ataylab qilinmagan) deb qaraladi. «Mustabidchilik mafkurasi» go'yoki tanqiddan xoli, qandaydir ixotalangan ishonch ob'ektiga aylanadi. Boshqacha aytganda, bunday mafkura erkinlik, insoniy xaqikat ustidan o'z zo'rliigi va hukmronligini o'rnatadi.

Siyosiy muhitda bunga hokimiyatni monopoliyalashtirish muvofiq keladi. Hokimiyat bitta partiya (yoki siyosiy harakat)ning qo'lida to'planadi, partiyaning o'zi

esa yakka rahnamoning («dohiy», «fyurer» va boshqalarning) hukmi ostiga tushib qoladi. Hukmron partiyaning davlat apparatiga o'sib chiqishi sodir bo'ladi. Shu bilan birga, jamiyatning davlatlashuvi, ya'ni davlatdan mustaqil bo'lgan ijtimoiy hayotning yo'qotilishi (yoki nihoyatda kamaytirilishi), fuqarolik jamiyatining yo'qotilishi (xususan, hukmron partiya barcha boshqa partiya va jamoat tashkilotlarining taqiqlanishi) da o'z ifodasini topadi. Huquqning, qonunning roli kamsitiladi: hokimiyat qonun bilan cheklanmaydigan va qonunga buysunmaydigan vakolatga ega bo'ladi, davlat huquqiy davlat bo'lmay qoladi, u iqtisodiyot sohasini ham tanho nazorat qiladi, iqtisodiyotga markazlashgan rahbarlikni qaror toptiradi (bu guyo eng oqilona va samarali rahbarlik bo'larmish).

Axborot monopoliyasi ham siyosiy va iqtisodiy hokimiyatni mutlaqlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir: «mustabid tuzum»da barcha axborot vositalari, jamiyatda muomalada bo'lib turgan axborotning mazmuni ham apparatning qattiq nazoratiga olinadi. Zo'ravonlik ishlatmasdan turib butun monopoliyalar tizimini saqlash va mustahkamlash mumkin bo'lmaydi. Shuning uchun ham davlat terrorizmi, terrorni ichki siyosatni amalga oshirish vositasi sifatida qo'llash «mustabidchilik tuzumlari» uchun xosdir. Turkistonda ham inqilobdan keyingi dastlabki yillarda xukumatning siyosiy terror natijasida butun-butun ijtimoiy guruhlar va qatlamlar yo'q qilindi. Shu jumladan, mustabid tuzumning g'ayri insoniy xatti-harakatlari tufayli qariyb 2,5 million kishi yoki aholining deyarli yarmi mahv etilgan edi. O'zbekistonda faqat 1937-1953 yillar mobaynida (bundan urush yillari mustasno) ittifoq mustabid mashinasi qariyb 100 ming kishini qatag'on qildi, ulardan 13 ming kishi otib tashlandi.

Mustabid davlatlarning o'ziga xos boshqa xarakterli xususiyati jamiyatning harbiylashtirilishi, «harbiy lager» yoki «qamal qilingan qal'a»dan iborat g'oyaviy-psixologik vaziyatni vujudga keltirishdan iboratdir. Bunda mamlakat ichida harbiy fanatizm vaziyati avj oldirilibgina qolmasdan, shu bilan birga, agressiv tashqi siyosat ham amalga oshiriladi. Bu siyosat harbiy-hududiy va mafkuraviy bosqinchilik qilishga, o'zining mustabidchilik tartiblarini keng miqyosda qaror toptirishga qaratiladi.

Lekin tarix haqiqat shundan iboratki, mustabidchilik mafkuralarining turli andozlari va ularning loyihalari asosida yaratilgan demokratiyaga qarshi tuzumlarning pirovard natijada halokatga uchrashi muqarrardir. Buni sobiq sotsialistik mamlakatlar, sovet davlati, gitlerchilar Germaniyasi va fashistlar Italiyasi, Kampuchiyadagi Pol Pot rejimi kabi mutlaq haqiqatni da'vo qiluvchi mafkuralarning tarixan istiqbolsiz bo'lgani ham yaqqol namoyish etdi.

Biroq, g'oyaviy kurash tobora yangi-yangi qiyofaga kirmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov haqqoniy ravishda ta'kidlaganidek: «Ko'p sinovlar, azobu uqubatlar, xatolar, fojealar, qatag'onlarni boshdan kechirgan, asrimiz poyoniga etayotgan, insoniyat yangi asr bo'sag'asida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham ko'ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba'zan bir-biriga zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib, qonli to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda».

Ana shu sababdan ham mustaqil O'zbekistonda hozirgi davrda millat, jamiyat, davlatning birlashtiruvchi bayrog'i bo'lgan milliy g'oya va mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirish yuzasidan faollik bilan ish olib borilmoqda.

Bu mafkura mustaqillik yillarida erishilgan g'alabalarni, eng katta yutug'imiz bo'lgan istiqlolimizni, Ona Vatanimizni, farzandlarimizning baxtli kelajagini fidoyilik bilan himoya qilish, doimo hushyor va sergak bo'lishga yordam beradi. Zero, O'zbekiston bizning umumiy uyimiz – uni asrash har birimizning vazifamizdir. Shu ma'noda milliy istiqlol g'oyasi har birimizning qalbimizga singadigan, umumiy g'oyamiz, ongimiz, dunyoqarashimizning tarkibiy qismidir.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Ijtimoiy taraqqiyot, g'oyalar tarixi, bunyodkor g'oyalar, yovuz g'oyalar, vayronkor g'oyalar, mafkurani mutlaqlashtirish.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.**

- Ijtimoiy taraqqiyotda g'oyalar qanday o'rin tutadi?
- «Bunyodkor g'oyalar» tushunchasi tavsifi.
- Vayronkor va buzg'unchi g'oyalarga misollar keltiring. G'oyaga qarshi – g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat tamoyilining tarixda namoyon bo'lishi.



### **3. BUGUNGI DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI VA GLOBALLASOUV JARAYO NLARI**

#### **Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.**

Hozirgi davr dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir.

Dunyoning hududiy jihatdan turli mintaqa va qit'alarga bo'linishini geografiya darslaridan yaxshi bilamiz. Jahonning siyosiy xaritasiga qarab va mavjud davlatlarning chegaralarini hisobga olgan holda ham Er yuzining hududiy bo'linishini bemalol tasavvur qila olamiz. Insoniyat XXI asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir. Shu bilan birga dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal texnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar ham bormoqda. Butun Er yuzi odamzot uchun yagona makon ekanligi aniq. Bunga shak-shubha yo'q, albatta. Ammo tarixda mavjud chegaralarni o'zgartirish, muayyan hududlarni bosib olish uchun son-sanoqsiz urushlar bo'lgani ma'lum. Bu jarayonda esa urush qurollari muntazam takomillashib borganini bilamiz. Mazkur urushlar to XX asrgacha asosan ko'proq bir davlat ichida, ikki davlat o'rtasida yoki nari borganda bir mintaqa doirasida bo'lishi mumkin edi. To'g'ri, aytaylik, Aleksandr Makedonskiy, Chingizxonning ulkan davlat barpo etish uchun yoki o'rta asrlardan boshlab evropalik istilochilarning boshqa qit'alarni zabt etish uchun olib borgan urushlari ko'lam jihatidan ajralib turadi. Ammo bunday holatlar istisno hodisalar sifatida baholanmog'i kerakka o'xshaydi. XX asrda ro'y bergan ikkita jahon urushida o'nlab davlatlar, bir necha qit'a mamlakatlari ishtirok etganligini eslasak, bunday xulosa muayyan darajada o'rinli ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Urush qurollari takomillashib boraverdi.

Bugungi kunda ular boshqa hududni bosib olish u yoqda tursin, balki butun Er sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo'q qilib tashlashga etadi.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham yo'q emas. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va kommunistizm, irkchilik va diniy ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir.

Natijada dunyoda inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Bu hol bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermoqda.

Kishilik jamiyati tarixi insonda olijanob fazilatlarning shakllanishi va rivojlanishiga ham, ayni paytda g'ayriinsoniylikning xilma-xil ko'rinishlari ildiz otib o'zining mudhish qiyofasini namoyon qilishiga ham ko'p bor guvoh bo'lgan. Afsuski, insoniyatning butun tarixi davomida bunday illatlar unga hamroxlik qilib keldi, turli davrlarda yangi shakl - shamoyil, xususiyat kasb etdi. Bugungi kunda ularning eng yovuzlari Er yuzidagi tinchlik va totuvlik, hamkorlik hamda hamjihatlikka va oxir-oqibatda insoniyatning yagona birlik sifatida erkin taraqqiy qilishiga katta xavf tug'dirmoqda.

Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasini o'z maqsadlari yo'lida o'zgartirmoqchi bo'layotgan mafkura shakllari barqarorlik va taraqqiyotga tahdid solmoqda. Ularning asosiy shakllari va yo'nalishlari Prezidentimiz Islom

Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida ko'rsatib berilgan.

Taraqqiyotga nisbatan xavf-xatarlardan biri buyuk davlatchilik **shovinizmidir**. Buyuk davlatchilik shovinizmini, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy hukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin.

Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan jo'g'rofiy - siyosiy makonda ham o'zining mutlaq hukmronligini o'rnatish uchun kurashda namoyon bo'ladi»<sup>1</sup>.

Ko'rinib turibdiki, buyuk davlatchilik shovinizmi g'ayri insoniy xarakterga ega. Zero, u o'z mohiyatiga ko'ra milliy tengsizlikni oqlash, targ'ib – tashviq qilish hamda himoya qilishning o'ziga xos shaklidir.

### **Buyuk davlatchilik shovinizmi paydo bo'lishining sabablari nimada?**

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kunda buyuk davlatlar makomiga ega bo'lgan ayrim mamlakatlar ko'pgina mintaqalarni o'zlarining « hayotiy manfaatlari» hududi sifatida bosib olib, uzoq vaqt mustamlakachilik siyosati yurgizganiga ishonch xosil qilish mumkin. Aynan bosib olingan hududlarning tabiiy xom ashyo resurslaridan foydalanish, bu mamlakatlarning moddiy va ma'naviy boyliklarini o'zlashtirish ularga ulkan va qudratli davlatga aylanishga imkoniyat yaratdi.

Buning oqibati o'laroq, o'z atrofidagi mamlakatlar va xalqlar bilan munosabatda o'zini ustun, tanho va yagona deb bilish, insoniyat takdiri, xalqlar kelajagini belgilashda alohida mavqega da'vogarlik ifodasi sifatida baholanishi mumkin bo'lgan mumtozlik mafkurasi tarix saxnasigachiqdi. Bunday mafkura davlat siyosatining asosiga aylanganda uzoq davom etgan qonli urushlar kelib chiqishi, butun bir mintaqalarning vayron bo'lishi, ko'plab xalqlarning qaram qilinishini isbotlovchi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Iqtisodiy imkoniyatlari zaiflashgan, ijtimoiy totuvlikka zil ketgan, ichki ziddiyatlar kuchaygan, Vatan, millat taqdiridan o'zining tor manfaatlarini ustun qo'yadigan, o'zaro kelisha olmayotgan, hokimiyatga da'vogar siyosiy guruhlarining mavjud muammolarni tashqi kuchlar yordamida hal qilishga urinishi va ma'naviy-ruhiy parokandalik, ertangi kunga ishonchsizlik tuyg'ulari hukmron bo'lgan mamlakatlar buyuk davlatchilik shovinizmi nishoniga aylanishini zamonaviy tarix ham ko'rsatib turibdi.

Afsuski, bizning o'lkamiz ham buyuk davlatchilik shovinizmining falokatli ta'siridan chetda qolmadi. «U ham uzoq vaqt davomida hukmron shovinistik va agressiv millatchilik g'oyalarining butun jafolarini tortib keldi,- deb yozadi Islom Karimov.- O'zbekiston Rossiya imperiyasi, so'ngra esa sobiq Sovet imperiyasi tarkibida majburan ushlab turilgan murakkab davrni boshdan kechirdi»<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». Toshkent, O'zbekiston, 1997 yil, 52-bet.

<sup>2</sup> I. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. T., O'zbekiston, 1998, 17-bet

Buyuk davlatchilik shovinizmining xavfi bunday pozitsiyada turgan kuchlar, davlatlarning iqtisodiy, siyosiy yoki harbiy saloxyatining kattaligidagina emas, balki axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq ko'rsatish imkoniyatlarining kengligida, ular qo'lidagi g'oyaviy ta'sir o'tkazish vosita va mexanizmlarining xilma-xilligida hamdir.

Buyuk davlatchilik shovinizmi bugungi kunda pansovetizm bilan o'ziga xos tarzda qo'shib ketmoqda. Pansovetizm tushunchasi uzoq vaqt davomida bir ittifoq doirasida yashash natijasida ijtimoiy-madaniy hayotda yuzaga kelgan muayyan yaqinlik, o'xshashlik, umumiylik, iqtisodiy aloqadorlik va bog'liqlikni mutlaqlashtirishga asoslangan. Ammo, Prezidentimiz o'rinli ta'kidlaganidek, bunday qarashlar ortida ham sodda kishilarning bosh-ko'zini aylantirib, o'z umrini yashab bo'lgan g'oyalarni hayotimizga qaytadan tikishtirishga, shu yo'l bilan yana eski tuzumni tiklashga, bir so'z bilan aytganda, milliy o'zligimizni yo'qotishga qaratilgan intilish yotganligini yoddan chiqarmaslik zarur.

Buyuk davlatchilik shovinizmining pansovetizm bayrog'i ostida jonlanishining sabablari nimada? Jiddiy tahlil qilinadigan bo'lsa, birinchidan, behisob xomashyo resurslari, ishchi kuchi, transport kommunikatsiyalaridan foydalanishdan, geostrategik mavqedan maxrum bo'lish; ikkinchidan, sobiq koloniyalarning o'z metropoliyasi ta'siri va tazyiqidan xalos bo'lishga intilishi, mustaqil ichki va tashqi siyosat yurita boshlashi; uchinchidan, xalqaro maydonda teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik ustuvor bo'lib borayotganini tushunmaslik, to'g'rirogi tushunishni istamaslik; to'rtinchidan, boshqa kuchlar markazi tomonidan g'uyoki uning «hayotiy manfaatlari» tan olinmayotgani, u amal qilayotgan hududlar toraytirilayotganini ro'kach qilish va, nihoyat, beshinchidan, maqtanchoqlik, insoniyat taraqqiyotiga kushgan hissasiga ortiqcha baho berish, uni betakror va noyob deb hisoblash hozirgi kunda buyuk davlatchilik shovinizmining jonlanishi uchun «asos» bo'lib xizmat qilmoqda.

Bunda ommaviy axborot vositalari orqali psixologik ta'sir o'tkazishning yangidan - yangi usullaridan foydalanadilar. Xususan, milliy hayotimizga xos muayyan xususiyatlarni ochiqdan- ochiq qoralash, erga urish yoki ayrim tarixiy voqea-hodisalarni umuman bo'lmagandek, jahon madaniyati, ilmu-faniga ulkan hissa qo'shgan ulug' allomalarimizni bizga aloqasi yo'qdek qilib ko'rsatishga urinishlar mavjud.

Shuningdek, mintaqa davlatlari o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqarish va jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga bo'layotgan intilishlarni hech qachon e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim.

Bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan ekan, xilma-xil qarashlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga intilishi tabiiy, albatta. Bunga e'tiqod umumiylikiga asoslangan holda yakka mafkura hukmronligini ta'minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan o'ziga qaram qilishga bo'layotgan xatti-harakatlarni misol keltirish mumkin. Diniy aqidaparastlik shular jumlasidandir.

Masalan, islom dinidagi hozirgi aqidaparastlar ijtimoiy, milliy xususiyati, qaysi davlatga mansubligidan kat'iy nazar, barcha musulmonlarning ma'naviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib ularning yagona xalifalik ostida siyosiy birlashuvi g'oyasini asoslashga harakat qiladi.

Ko'rinib turibdiki, bu diniy-siyosiy ideologiya diniy asosda birlashuv g'oyasini birinchi o'ringa qo'yadi. U diniy-ma'naviy zamindagi uyg'unlik mamlakatlarning

iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ilmiy-texnik sohalardagi hamkorligiga, ular salohiyatining birlashishiga va xalqlar taraqqiyotiga yo'l ochsa buning nimasi yomon degan savolni o'rtaga tashlaydi. Yuzaki qaraganda bu gap to'g'riga o'xshaydi. Bunday mafkura tarafdorlari o'z qarashlarini aksariyat hollarda ana shunday «beozor» shaklda taqdim etishga harakat qiladilar.

Ammo, jiddiy e'tibor beriladigan bo'lsa, birinchidan, ular milliy suverenitetdan voz kechish yoki uni boy berish hisobiga yagona davlat tuzishni ko'zlayotganlari ma'lum bo'ladi.

Ikkinchidan, xalifalikni tiklashga, uning to'g'ri ekanini asoslashga urinuvchilar, bu hol aynan millat sifatida o'zligimizni anglashga yo'l qo'ymasligini yashiradilar. Bu g'oyani tiqishtirishda ular bizning islom diniga e'tiqod qilishimizga alohida urg'u beradilar.

To'g'ri, biz musulmon xalqmiz. Masalaning nozik jihati shundaki, bunday kuchlar ana shu reallikni tan oladilaru, o'z tariximiz, tilimiz, betakror madaniyatimiz, jahon xalqlari o'rtasidagi o'ziga xos o'rnimiz, o'z taraqqiyot yo'limiz borligini inkor etishga harakat qiladilar. Albatta, bu haqiqatni tan olish olmaslik ularning ishi. Ammo o'zlarining bunday g'ayriilmiy qarashlarini kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga singdirishga harakat qilayotganliklariga befarq qarab bo'lmaydi.

Bundan tashqari, bu oqim tarafdorlari xalifalik bayrog'i ostida birlashishni noislomiy dunyoga qarshi turish maqsadi bilan bog'lashlarini ham ta'kidlash zarur. Bunday yondashuv o'ta xavfli ekanligi hech kimga sir emas. Zero, u insoniyatning diniy asosda qarama-qarshi qutblarga bo'linib ketishiga, ba'zan «tsivilizatsiyalar to'qnashuvi» deb ataladigan hodisaning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda til, madaniyat, urf-odatlardagi umumiylik, boshqacha aytganda, etnik birlikka asoslangan holda yagona mafkuraviy maydonni yuzaga keltirish borasidagi qarashlar ham mavjud. Bunday qarashlarning shakllanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bugungi kunda ularning har biri o'ziga xos tarzda dunyoning mafkuraviy manzarasida muayyan o'rinni egallashga urinmoqda.

Bugungi kunda xalqlarning lisoniy birligiga tayangan holda ularning ma'naviy-ma'rifiy birligini ta'minlash bayrog'i ostida taqdim etilayotgan g'oyalar ortida ham aslida g'arazli maqsadlar yashiringanligini unutmashlik lozim.

Olamning bugungi kundagi mafkuraviy manzarasi haqidagi mulohazalar yakunida nima deyish mumkin? Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan, demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Zero, ko'zlangan maqsadlarga ushbu orzu-umid va intilishlarni o'zida mujassamlashtirgan g'oyaviy-nazariy qarashlar majmui bo'lmish milliy mafkura va unga asoslangan tarbiya tizimisiz erishish mumkin emasligi aniq.

«Men,- deb yozadi Prezidentimiz,-Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mushohada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir»<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millat-millat qilishga xizmat etsin. T., O'zbekiston, 1998, 17-bet

Bu masalaning dolzarbligi yuqorida qayd etilgan mafkura shakllarining xavfini bartaraf etish zarurligi bilan ham belgilanadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ularga g'oya va ma'rifat bilan qarshi kurashish lozim. Mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik va hamjihatlikni saqlab qolish va rivojlantirish yo'li bilangina qo'lga kiritilgan istiqlolni himoya qilamiz. Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan tarix taqozosi bilan aloqalar kuchli rivojlangan davlatlar bilan teng huquqli, izzat-ikromli munosabat, o'zaro manfaatli aloqalar esa mustaqillikni mustahkamlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Ana shundagina, Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, mintaqamiz hech qachon tsivilizatsiyalar to'qnashmaydigan, balki ular bir - biriga ta'sir etib, bir - birini boyitishning ibratli namunasi beradigan makonga aylanadi.

### **Hozirgi davr va mafkuraviy poligonlar.**

Jamiyat hayotida mafkuraviy omillarning sezilarli ta'siri mavjudligini bir qarashdayok sezish mumkin.

G'arazli geosiyosiy maqsadlarga erishish yo'lidagi mafkuraviy ta'sir o'tkazishda eng avvalo **bo'lib tashla va hukmronlik qil** degan qadimiy tamoyilga amal qilishga urinishni ta'kidlash zarur.

Bu tamoyilni ro'yobga chiqarishning birinchi yo'li mamlakat ichida ijtimoiy parokandalikni keltirib chiqarishdir. Va u jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Masalan, mamlakatimizga nisbatan bu usul o'tish davridagi ijtimoiy - iqtisodiy qiyinchilik qurbonlarni bo'rttirib ko'rsatish orqali aholining mavjud holatdan noroziligini uyg'otish, o'z nog'oralarga o'ynaydigan muxolifatchi kuchlarni yuzaga keltirish yo'li bilan siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishga bo'lgan harakatlarda namoyon bo'ldi. Bu yo'lda diniy omildan foydalanishga urinishlar ham kuzatilayotir. Ana shu holat ham «maqsad vositani oqlaydi» degan aqida g'arazli geostrategik manfaatlarni ro'yobga chiqarishning asosiy qoidasiga aylanayotganligini ko'rsatadi.

«Bo'lib tashla va hukmronlik qil» tamoyilini amalga oshirishning ikkinchi yo'li mintaqada davlatlari o'rtasida turli ziddiyatlarni yuzaga keltirishdir. Bu yo'lning eng keng tarqalgan usuli g'uyoki mintaqada gegemonlikka talabgor bo'lgan davlat borligini asoslash, ta'bir joiz bo'lsa, shunday davlat obrazini yaratishdir. Bunday obrazlarning yaratilishi er yuzining turli nuqtalarida nizoli, kam deganda davlatlararo munosabatlarda tanglikni yuzaga keltirganligi to'g'risidagi misollarni istaganicha topish mumkin. Bunday «obrazlar» yaratilishi natijasida mamlakatlarning moddiy-moliyaviy, ma'naviy-intelektual salohiyati jamiyat taraqqiyotini ta'minlash o'rniga ana shu «obraz» ta'sirining oldini olishga yo'naltirilmoqda. Natijada ikkinchi asosiy maqsadga-muayyan davlatni zaiflashtirish orqali o'z «ittifoqchisiga» aylantirishga erishilmoqda.

«Bo'lib tashla va hukmronlik qil» tamoyilini amalga oshirishning uchinchi yo'li xalqaro maydonda muayyan mamlakat haqida noto'g'ri, noxolis tasavvurlarni shakllantirishdir. Xalqaro munosabatlar maydonidan ayrim mamlakatlarning vaqti-vaqti bilan «quvg'in» qilinib turilishi ana shunday harakatlar natijasidir.

**Imtiyozli hamkorni belgilash** muayyan mintaqada geostrategik manfaatlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan yana bir tamoyildir. Albatta, muayyan sabablar, aytaylik diniy, lisoniy birlik, madaniy yaqinlik yoki boshqa sabablarga ko'ra har bir davlat kim bilandir imtiyozli hamkorlik qilishi mumkin. Bu tabiiy holat. Ammo gap «imtiyozli hamkor»dan mintaqada davlatlari o'rtasida ayirmachilikni shakllantirish,

«nomaqbul» davlatlar imkoniyatlarini cheklash yo'lida foydalanish, shu bilan birga «hamkor» davlatning mintaqadagi boshqa davlatlardan qaysidir jihatdan ustunligini ta'minlashga qaratilgan intilishlar haqida bormoqda. Aslida u yoki bu ko'rinishdagi ustunlikni ta'minlash ham asosiy maqsad emas.

Bosh maqsad - muayyan mintaqaga ta'sir o'tkazish platsdarmiga ega bo'lishdir. Bunday platsdarmga ega bo'lishga intilish esa o'z navbatida ushbu mintaqaning geostrategik imkoniyatlari bilan belgilanadi. «Bekorga shudgorda quyruq na qilur» deganlaridek, imtiyozli hamkorni belgilashda ana shunday uzoqni ko'zlovchi g'arazli geosiyosiy va geostrategik maqsadlar ham yotishi mumkinligini unutmaslik lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, «imtiyozli hamkor» tamoyili bo'lib tashla va hukmronlik qil tamoyilining to'ldiruvchisi sifatida yuzaga chiqadi. Bunga sobiq Ittifoqning Kubadan mintaqaga revolyutsiyani eksport qilish uchun foydalanishga uringani misol bo'la oladi.

**Teng huquqli va o'zaro foydali hamkorlik** tamoyiliga amal qilish - geostrategik manfaatlarni ruyobga chiqarish va davlatlararo aloqalarni mustahkamlashning eng oqilona va to'g'ri yo'lidir. O'zbekiston o'z mustaqilligining birinchi kunlaridanoq ana shu tamoyilga amal qilib kelmoqda. Negaki, bu tamoyil geostrategik manfaatlardagi uyg'unlikka erishish va jahon miqyosida taraqqiyotni ta'minlash omilidir.

**Mafkuraviy immunitet va mafkuraviy profilaktika masalalari dolzarb masalalardan biridir.**

Hozirgi davr - bunyodkor va buzg'unchi g'oyalarning o'zaro kurashi kuchayganligini alohida etirof etish lozim. Nima uchun kishilar ongi va qalbi uchun kurash turli mafkuralarning bosh maqsadiga aylanib qoldi? Gap shundaki, muayyan g'oya tom ma'noda g'oya bo'lishi uchun kishilar ongini egallashi, to'g'rirogi ularning qalbidan joy olishi shart. Aks holda u yoki bu g'oya faqat muayyan xabar yoki axborot sifatida saqlanib qoladi, xolos. Boshqacha aytganda, omborxonadagi keraksiz buyumlar kabi ongimizning bir chetidan joy egalab yotaverishi mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, bunday holatda g'oya shaxs uchun hech qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmaydi. G'oya faqatgina inson qalbini egallaganda, inson ma'naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylangandagina harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo'llanmaga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda.

Mafkuraviy ta'sir va tahdidlar haqida gap ketar ekan, ularni aniqlash, baholash, xususiyatlarini yaqqol ko'rsatish uchun O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilmiy muomalaga bir qator tushunchalar kiritilganligini qayd etish lozim. Ular qatorida «mafkuraviy immunitet», «mafkuraviy profilaktika» kabilar bor. Ana shu tushunchalarning mazmuni oydinlashtirilganda hozirgi dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarning xarakterini yanada yakqolroq tasavvur qilish imkoni tug'iladi.

Er yuzining turli mintaqalari xalqlarining ongi va qalbi turli g'oyalarni sinash maydoniga, boshqacha aytganda mafkuraviy poligonga aylantirilmoqda. Xo'sh, mafkuraviy poligon deganda nimani tushunamiz? Poligon (grek. serqirra degan ma'noni bildiradi) harbiy termin ekanligiga o'rganib qolganmiz. Odatda poligon deganda qurol-aslaha va texnikani sinash, qo'shinlarni harbiy tayyorgarlikdan

o'tkazish yoki harbiy sohada mashk va tadqiqotlar olib borish uchun mo'ljallangan maxsus maydon tushuniladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mafkuraviy poligonlarning xususiyatlari haqida nima deyish mumkin? Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zga hududlarni zabt etish maqsadida ishlatiladigan urush qurollari uzluksiz takomillashib borganini ko'ramiz. U nayzalardan toki avtomatik qurollargacha, zambaraklardan to er yuzining har qanday nuqtasiga bexato etib boradigan qit'alararo ballistik raketalaracha bo'lgan uzoq takomil yo'lini bosib utdi. Bu qurollar bosib olinishi kerak bo'lgan hududlar aholisini jismonan yo'q qilishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, o'zga hududlarni zabt etish uchun ularning aholisini yo'qotish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari «ma'qul» yo'nalishga o'zgartirilgan aholi ko'magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz ichida o'zlarining g'ayriislomiy g'oyalarini tarqatishga harakat qilgan Rimsalar ana shunday g'arazli maqsadlarni, ya'ni odamlar, Ayniqsa yoshlarni chalg'itish, ular yordamida mamlakatni o'z taraqqiyot yo'lidan chetlatib yuborishni ko'zda tutgan edilar. Chet ellarda ana shunday «ta'lim» olgan vahhobiylar, shuningdek «xizbut taxrir»chilarning yoshlarimiz ongini zaharlash yo'lidagi harakatlarini ham aynan shunday baholash mumkin.

Mafkura poligonlarida sinovdan o'tayotgan, mohiyatan g'ayriinsoniy bo'lgan g'oyalarga qarshi tura olish uchun aholida mafkuraviy immunitet xosil qilish lozim. Immunitet (lat. immunitas - ozod bo'lish, qutilish) deganda organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o'zini turli xususiyatlarga ega ta'sirlardan, uni tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmui tushuniladi. Immunitet kishi vujudining turli infeksiyon kasalliklarga berilmaslik xususiyatini ham ifodalaydi. Insonning butun hayoti davomida tashqi ta'sirlarga aks javob sifatida orttirilgan immunitet tizimi shakllanadi. Immunitet haqidagi ana shu tasavvurdan kelib chiqib mafkuraviy immunitet haqida nima deyish mumkin? Avvalo, insonning ko'plab xususiyatlari tugma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlash mumkin (immunitetga ega bo'lmagan chaqaloqlarning uzoq yashay olmasligini eslaylik).

Xo'sh, mafkuraviy immunitet tizimi o'z ichiga nimalarni oladi? Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo, bilimlar ko'p. Masalan, buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi va amaliyoti tarafdorlari ham muayyan «bilim»larga tayanadilar va uni boshqalarga singdirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, bir tomondan mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ikkinchi tomondan, bu bilimlar o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va xalq manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak.

Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy qismi ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik ob'ektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, shaxs, millat yoki davlatning qadriyatlar tizimi

mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy tajovuzlar qarshisida mustahkam kalqon bo'lib xizmat qiladi.

Ammo, bilimlar va qadriyatlar tizimi ham mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki unsur mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim unsuri, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalaridagi aniq muljal va maqsadlar tizimi bilan bog'liq. Ya'ni har bir kishi kabi, xalq, davlat va jamiyatning ham aniq maqsadi bo'lishi shart. Shu bilan birga bu maqsad anglangan, uni amalga oshirishda sobitqadamlik darkor. Ana shunday aniq tizim bo'lmas ekan, xoh alohida inson, xoh millat yoki jamiyat bo'lsin, goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berish amrimaholdir.

Bunday mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda mafkuraviy profilaktikaning o'rni katta. Zero, u o'z mohiyatiga ko'ra, yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora - tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi. Demak, mafkuraviy profilaktika xilma-xil shakllarda ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmuini, bir so'z bilan aytganda, bu sohada to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya tizimini qamrab oladi.

«Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar domiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar», - deb yozadi Prezidentimiz. Shunday ekan, voyaga etayotgan har bir farzandimizni ma'naviy barkamol, irodasi bakuvvat, iymoni butun, bir so'z bilan aytganda, kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishning asosiy shartlaridan biri bo'lib qolaveradi.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Dunyoning mafkuraviy manzarasi, mafkuraviy poligonlar, mafkuraviy ta'sir, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy profilaktika.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.**

- Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi deganda nimani tushunasiz? Unda hukmronlik qilishga intilayotgan qanday mafkura shakllarini bilasiz?
- Buyuk davlatchilikning mohiyati va xavfli jihatlari nimada?
- Xalifachilikni tiklash g'oyasining xavfli va zararli mohiyati nimada?
- Mafkuraviy poligon deganda nimani tushunasiz?
- Mafkuraviy immunitetning qanday unsurlarini ajratib ko'rsatish mumkin?



#### 4. JAHON VA MARKAZIY OSIYONI MAFKURAVIY BO'LIB OLISHGA URINISHLAR

##### «Geosiyosat» tushunchasi.

Bu atama o'zida («geo» - «er», «siyosat» esa - «davlat» va «ijtimoiy ish») ma'nolarini anglatadi. «Geosiyosat» atamasida geosiyosiy muddaolar, ularning ko'rinishlari, turli xil davlat va xalqlarning manfaatlari tizimi, unga bo'lgan yondashuv uslublari, vositalari u yoki bu davlatning hududiy joylashuvi, salohiyatiga bo'lgan munosabatda ifodalangan maqsadlar o'z ifodasini topadi.

«Geosiyosat» uzoq tarixga ega bo'lsada, u tushuncha sifatida XX asrning boshlarida shakllangan. Bu atama R. Chellen tomonidan muomalaga kiritilgan bo'lib, hozirgi davrda davlatlar va dunyo mamlakatlari xalqaro siyosatida, falsafada, siyosat falsafasi va fanlarida keng qo'llanilmoqda. Geosiyosat ko'p qirrali tushuncha sifatida turli manfaatlarni o'zida mujassam etadi.

Hozirgi davrda geosiyosiy maqsadlar ko'proq mafkuraviy siyosat bilan hamohangligini alohida ta'kidlash zarur. Bunda mafkuraviy ta'sir ko'rsatish geosiyosatning eng ta'sirchan vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ya'ni turli davlatlarning maqsadlari xalqning turli qatlamlari, xususan yoshlar ongi va qalbiga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish orqali, ularning faoliyatini o'z ta'siriga, ya'ni manfaatlariga yo'naltirilgan mafkuraviy muhitni yaratishni ko'zlagan holda amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonni to'g'ridan-to'g'ri ko'rish, uning qanday amalga oshirishini aniq bilish qiyin va murakkabdir.

Ana shu sababdan ham Prezidentimiz mafkuraviy poligonlar yadro poligonlariga qaraganda xavfliroq bo'lib qolganligini alohida ta'kidlaganlar.

Yadro poligonlarini kaerda joylashganini, uning kuvvatini, qanday maqsadga yo'nalganligini muayyan darajada aniq bilish mumkin. Ammo, yovuz, yot mafkuraviy maqsadlarni qaerdan va qanday yo'llar bilan va qaysi insonlar qalbini egallab olayotganligini osonlikcha bilib bo'lmaydi.

Bugun «ikki qutbli mafkura» o'rtasidagi kurashga barham berilgan bo'lsada, ammo dunyoda mafkuraviy kurashlar to'xtab qolgani yo'q. Aksincha, jahon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar turli yo'llar bilan sodir bo'lmoqda. Masalan, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin mafkura sohasida hayot osonlikcha kechmadi. Milliy istiqlol g'oyasiga zid bo'lgan yot va begona g'oyalar kirib kelishga va yoshlarimiz ongini egallashga, ularni mamlakatimizda belgilangan ulug' maqsadlarni amalga oshirishga qarama-qarshi qo'yishga urinishlar bo'lganligining guvohimiz. Bunday harakatlarning tarafdorlari o'zlarini «do'st», «millatdosh», «vatandosh», «dindosh» etib ko'rsatish niqobi bilan o'z g'oyalarini amalga oshirishga urindilar. Natijada, haqiqiy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli xil oqimlar aholi, Ayniqsa yoshlar ongini egallashga harakat qildi.

Jahon geosiyosatida xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va bugungi kunda dunyoni shunday asosda bo'lib olishga urinishlar davom etmoqda. **Shu nuqtai nazardan bu masalaga ko'proq to'xtalish va ushbu muammoni nazariy va amaliy jihatdan taxlil etish, jahon mafkuraviy bo'lib olinishlinishlarning jahon hamjamiyatiga salbiy ta'sirini o'rganish maqsadga muvofiqdir.** Chunonchi yot g'oyalar mualliflari hozirgi zamon ommaviy axborot vositalari, ularning yutuqlaridan, hamda turli xil markazlar, ayni paytda o'zaro hamkorlikka yo'naltirilgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy vositalardan foydalanish

orqali dunyoning turli hududlarida o'zlariga mos mafkuraviy muhitni shakllantirish maqsadlarini ham ko'zlamodalar.

Ana shunday sharoitda milliy istiqlool g'oyasini chuqur egallash orqaligina bunday mafkuraviy maydonlarda olib borilayotgan kurashlar mohiyatini to'g'ri tushunish va oldini olish mumkin. Mafkuraviy jarayonlar fikr va g'oyalar tizimi sifatida inson ongiga yo'naltirilganligi, o'ziga xos maqsadlari borligi bilan xarakterlanadi. Ular ko'plab odamlar qalbi va ongini egallab olish orqali o'ziga xos ta'sir ko'rsatish maydonini yaratadi. Bu maydon ichida turli xalqlar, insonlar faoliyati mujassamlashadi.

Ma'rifiy rivojlanish va dunyo xalqlari rivoji shuni taqozo etadiki, geosiyosat ham ma'lum bir maqsadlarni ko'zlar ekan, u faqat insoniyat orzu qilib kelgan tinchlik va barqarorlikka, mamlakatlar va xalqlar ravnkiga, erkin va farovon hayot qurish g'oyasiga mos bo'lishi kerak. U Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalarini o'zida mujassam etib, hozirgi geosiyosiy maqsadlarning bosh mezoniga aylanib borishi lozim. U nosog'lom mafkura va g'oyalarni boshqa xalqlar ongiga, qalbiga singdirib, mafkuraviy jihatdan dunyoni bo'lib olishga emas, o'zaro manfaatli hamkorlikka, dunyoviy muammolarni o'zaro hamjihatlik bilan hal etishga xizmat qilishi kerak. Shu ma'noda, geosiyosatga yangicha yondoshuv XXI asrda yangicha ma'no va ahamiyat kasb etadi va dunyo taraqqiyotiga xizmat qiladi.

XX asrning oxirida dunyoda jahonshumul voqealar ro'y berdi. Uning siyosiy xaritasi, jumladan, Markaziy Osiyoning manzarasi tubdan o'zgarib ketdi. Sobiq SSSRning parchalanishi, uning hukmron mafkurasining barbod bo'lishi va Markaziy Osiyodagi respublikalarning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi mintaqamizda nafaqat ijtimoiy-siyosiy jihatdan, balki yangi mafkuraviy vaziyatni ham vujudga keltiradi. Ushbu vaziyatning mohiyati quyidagilardan iborat:

Birinchiidan, sobiq sho'rolar hukmronligi sharoitida kommunistik mafkura, mintaqa xalqlari azaldan qon-qardosh bo'lishlariga qaramasdan, ularni zo'rma-zo'raki «birlashtirib» turgan edi. U mintaqa xalqlari ongiga zo'ravonlik bilan «SSSR – yagona Vatan» va sovet xalqi - yangi tarixiy «birlik» – degan tushunchalarni singdirishga zo'r berib urinar edi. Mintaqa xalqlari bundan qanchalik norozi bo'lmasin, o'zlarining tarixiy va ma'naviy yaqinligiga intilmasin, ammo bu intilishlarga nisbatan mafkuraviy tazyiq benihoya kuchli edi.

Mintaqadagi sobiq ittifoqdosh respublikalar o'zlarining mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan bu mafkura barbod bo'ldi. Ularning har biri oldida o'zlarining ichki hayoti va istiqloolini mustahkamlash, barqarorlikni ta'minlash va o'zlari uchun maqbul bo'lgan taraqqiyot yo'lini belgilab olishdek juda murakkab vazifalar yuzaga keldi. Bu jarayonning mintaqa mamlakatlarining o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirib turishga xizmat qiladigan ma'naviy-mafkuraviy omillar shakllanishiga ta'sir o'tkazishi tabiiydir.

Ikkinchiidan, mintaqadagi mamlakatlar o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan bo'lishiga qaramasdan, 1991 yilgacha sobiq markaz hali o'z hukmronligini qaytadan tiklashga moyil edi. Shuning uchun ham u mintaqa mamlakatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarish kabi siyosatni davom ettirdi. Bu o'z navbatida, o'sha davrda, ma'lum darajada, mintaqa xalqlarining o'zaro munosabatlariga ham muayyan ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchiidan, mustaqillikni qo'lga kiritgan mintaqamiz mamlakatlarini o'z ta'sir doirasiga o'tkazish uchun yana boshqa bir qator mamlakatlar ham harakatni

boshlab yubordilar. Ularning ko'pchiligi tashqaridan beg'araz yordam ko'rsatayotganday bo'lib ko'rinsalarda, aslida har bir ko'rsatayotgan «yordamlari» evaziga mintaqada o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qildilar. Aslida bunday harakatlarning bo'lishi tabiiy holdek ko'rinadi,

Ammo, ularda ham mintaqada davlatlari va xalqlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga intilishlar yo'q emas. Demak, ana shu intilishlar ham mintaqada mamlakatlarining mustaqillik sharoitida yuzaga kelgan muammolarni o'zaro yakdillik bilan hal qilishga xizmat qiladigan umumiy omilning yuzaga kelishiga o'zining ta'sirini o'tkazdi.

To'rtinchidan, mintaqada yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga xizmat qiluvchi yangi ma'naviy-mafkuraviy muhitni shakllantirish extiyoji ham oshib bordi. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlagani kabi: SSSR parchalanib ketgandan keyin bizning irodamiz yoki intilishimizga bog'liq bo'lmagan holda O'zbekiston amalda front yaqinidagi davlatga aylanib qoldi. Uning tashqi chegaralarida – Afg'oniston va Tojikistonda stungi yillarda yuz minglab insonlar hayotiga zomin bo'lgan ikkita tanglik o'chog'i alanga olib turibdi.

Afg'onistonda urush alangasi o'chmagani faqat bizning mamlakatimiz uchungina emas, balki butun mintaqadagi barcha mamlakatlar uchun ham katta xavf-xatarni vujudga keltirdi.

Beshinchidan, O'zbekiston o'zining iqtisodiy salohiyati, xom-ashyo resurslarga boyligi, ishchi kuchi va demokratik imkoniyatlari, ko'p jihatdan geopolitik joylashuviga ko'ra ham, mintaqada etakchi o'rinda turganligi bilan ajralib turadi. Binobarin O'zbekistonga nisbatan bo'ladigan har qanday xavf-xatar, albatta, butun mintaqaga ta'sir qiladi. Shu ma'noda ham turli siyosiy kuchlar va harakatlar Afg'onistondagi urush olovini kuchaytirish va mintaqadagi vaziyatni murakkablashtirish hamda mintaqada davlatlarini unga jalb qilishning turli yo'llarini va uslublarini ishga solmo' da.

Aslida bu urinishlarga mintaqada mamlakatlari va xalqlari o'rtasida mavjud bo'lgan azaliy do'stlikka putur etkazishga qaratilgan mafkuraviy harakatlar deb baho berishi mumkin.

Insoniyat tsivilizatsiyasining rivojlanish tarixi, Ayniqsa, har jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lib qolgan hozirgi dunyo voqeligi shundan dalolat berib turibdiki, alohida olingan bir davlatdagi hech bir mojaro uzoq vaqt davomida milliy chegaralar doirasida qolib ketmaydi. Bir qancha sabablarga ko'ra bunday mojaro nazorat qilib bo'lmaydigan darajada yoyilib ketishi muqarrar. Bu esa ertami-kechmi qo'shni davlatlar oldiga barcha salbiy oqibatlar bilan birga qator muammolarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Hatto mintaqadagi vaziyatni beqarorlashtirish darajasiga borib etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mojaroning yashirin va oshkora tarzda baynalmilallashuvi tanglikni chuqurlashtiradi. Chunki turli maqsadlarni ko'zlaydigan va tanglik mavjud bo'lgan hududda o'z manfaatlarini ta'minlashga intiladigan tashqi kuchlar hamma vaqt shay turadi<sup>4</sup>.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, taraqqiyot sari qadam tashlayotgan hozirgi sharoitda ham jahondagi ma'lum bir siyosiy kuchlar,

---

<sup>4</sup> Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 34-bet.

mafkuraviy poligonlar ulkan iqtisodiy salohiyat va kulay geopolitik mavqega ega bo'lga bu mintaqani o'z manfaatlari doirasiga tortish harakatlaridan tuxtagani yo'q. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun ta'sir va bosim o'tkazishning barcha shakllarini qo'llamoqdalar. Jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro iqtisodiy integratsiyalashuv jarayoniga tuskinlik qilish, ularda o'zaro bir-birlaridan norozilik kayfiyatini uyg'otish kabi mafkuraviy ta'sir o'tkazish holatlari sodir bo'layotganligini ta'kidlash mumkin.

Bu maqsadda mintaqada tarixan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy aloqalarni izdan chiqarish, do'st va birodar davlatlar, xalqlar va millatlar o'rtasiga nizo solish, keskinlik o'choqlarini keltirib chiqarish uchun turli g'oyaviy, diniy va mafkuraviy vositalar ishga solinmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlarining dunyoqarashi va ma'naviyatida islom dinining mustahkam o'rin egallaganidan foydalanib, ularga islomiy «saboq» berish, islomni qayta tiklash bayrog'i ostida mintaqada diniy ekstremizm va fundamentalizmni keng tarqatish borasida olib borilayotgan qo'poruvchilik harakatlari kuchaydi.

Ma'lumki, «fundamentalizm», «ekstremizm», «terrorizm», kabi tushunchalar jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga mos kelmaydigan va ularga zid bo'lgan g'oyalar hamda ular asosidagi harakatlarni ifodalaydi. Qandaydir bir yo'nalishni buzib talqin etgan holda siyosiy maqsad qo'yuvchi harakat ekstremizmga olib keladi. Ekstremizm qanday nomlangan yoki qanday ko'rinishga ega bo'lmasin, uning asosiy maqsadi jangari guruhlarini shakllantirish orqali hokimiyat tepasiga kelishdan iborat. Xuddi shunday «fundamentalizm», «terrorizm» kabi so'zlar ham tom ma'noda hokimiyat yoki biror bir g'arazli maqsadlar uchun kurashuvchi ijtimoiy-siyosiy guruh va oqimlarga tegishlidir.

Masalan, «fundamentalizm» atamasi aslida, xristian dini bilan bog'liq holda shakllangan. Uning birinchi bor rasmiy qo'llanishi 1908 yili AKShning Kaliforniya shtati protestantlari tuzgan «Xristian dinining fundamental tushunchalari konferentsiyasi»ga (The Conference on Cristian Fundamentalism) tegishli bo'lib, quyidagicha asosiy 5 aqidani ifodalaydi:

- Iisusning bokira ayoldan dunyoga kelgani;
- uning insoniyat gunohlarini oklash uchun kurbon bo'lgani;
- jisman qayta tirilishi;
- er yuziga jismonan ikkinchi bor kelishi;
- kitobning muqaddasligi va uni dastlabki sof holiga qaytarish.

Diniy ekstremizm o'zining ikki xususiyati bilan ajralib turadi:

1. Ularning aqidalariga ko'ra, guyo barcha hozirgi zamon musulmon jamoalari islomiy tuslarini yo'qotganlar va johiliya (islomdan avvalgi) asri jamiyatlariga aylanganlar. Bunday yondashuv hukumat va uning olib borayotgan siyosatini tanqid qilishga «asos» bo'lib xizmat qiladi;

2. Ular go'yo faqat «haqiqiy» musulmonlar, ya'ni ularning o'zlari hokimiyatga kelgach barpo bo'lajak «islomiy tartibni» o'rnatish uchun keskin va agressiv harakat qilish zarur deb hisoblaydilar.

Aslida «fundamentalizm» va «ekstremizm» g'oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan ko'zlangan maqsad - dinning qadriyatlarini qaytadan tiklash emas, balki ana shu g'oyalardan vosita sifatida foydalanish orqali mintaqada beqarorlikni, diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish, oxir-oqibat esa hokimiyatni qo'lga kiritishdir. Bu urinishlarda tuzatib bo'lmas fojialarga olib kelishi mumkin bo'lgan,

tarix saxifasida qolib ketgan xalifalikni tiklash g'oyasiga ham zo'r berilmoqda. Ana shu yo'lda islom fundamentalizmi vakillari, hatto diniy e'tiqod darajasida, inson qalbi ma'naviy boyligining ajralmas qismi bo'lgan milliy o'ziga xoslikni «qurbon» qilish g'oyasidan ham toymayaptilar.

Aynan ana shu xatti harakatlar bugungi kunda o'z obrusidan butunlay maxrum bo'lgan marksizm-leninizm ta'limotini eslatib turadi. Masalan, Rossiyada marksistlarning eng jangari oqimi-bolsheviklar, millati va irkidan qat'iy nazar, dunyoda yashayotgan barcha xalqlarni birlashtirish g'oyalarini ilgari surib, terror yo'li bilan hokimiyatni qo'lga kiritgan edilar. Ularning asosiy fojealaridan biri ham milliy omilning va tadrijiylikning ahamiyatini tan olmaganlarida edi. Shuning uchun ham ular tarixda ravon ekstremistik g'oyalar soxibi sifatida nom qoldirdilar.

Bugun diniy ekstremizm va fundamentalizm tomonidan Markaziy Osiyoda olib borilayotgan qo'poruvchilik va terroristik harakatlar ham ana shunday maqsad, yo'l va uslublarga tayanmoqda.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmining mintaqamiz, xususan mamlakatimiz taraqqiyotiga xavf tug'dirayotganligini Prezidentimiz teran anglab, bu qanday dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligidan hammamizni ogoh qilgan edi. Toshkentda fevral fojealari sodir etilmasdan ikki yil oldin Prezident I.A. Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli fundamental asarida shunday yozgan edi: «Ko'plab siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar XX asr oxirida yuz bergan «Islom uyg'onish», «qayta islomlanish», «islom fenomeni» va boshqa turli-tuman nomlar bilan atalgan hodisaning sabablarini tushuntirib berishga harakat qildilar. Bu tushunchalar haqida munozaraga kirishmagan holda, e'tiborni jahon hamjamiyati hayotida islom qadriyatlarini tiklash bayrog'i ostida ro'y berayotgan hodisalar g'oyat xilma-xil, ko'p qirrali, ba'zan ziddiyatli va xatto qarama-qarshi kutbli ekanligiga qaratmoqchiman.

Shu bilan birga aniq-ravshanki, jahon jamoatchiligi bu jarayonlarga juda katta qizikish bilan qarabgina qolmayapti. Uning diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin hodisalar munosabati bilan bezovtalanayotganligi ba'zan esa, xatto xavfsirayotgani ham ko'zga tashlanmoqda. Afsuski, hozirgi zamon sharoitida ana shu o'ta keskin ko'rinishlar jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligini insoniyatni chuchityapti. Shundan darak beruvchi fikrlar ancha-muncha tuplanib qolgan. O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta'minlash zarurligi nuqtai nazardan qaraganda, bu hodisalar bizda ham jiddiy tashvish tug'dirmoqda»<sup>5</sup>.

Bu fikr haqiqat bo'lib chiqdi. Ekstremistlar 1999 yilning 16 fevralida o'zlarining kora niyatlariga erishish maqsadida Toshkentda qo'poruvchilikni amalga oshirdilar. Bu qo'poruvchilik harakatlari orqasida katta kuchlar borligi ayon. Ularning maqsadi, – Prezidentimiz ta'kidlaganidek, – xalqimizning tinchligini bo'zish, qo'rqitish, yuragiga vaxima solish, yuritayotgan siyosatimizga ishonchni sundirish, amalga oshirayotgan ulkan ishlarga zarba berishdan iborat.

Xo'sh, nima uchun bu fojealar O'zbekistonda sodir etildi, uning Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlarga ta'siri bo'lishi mumkinmidi? Uning Toshkentda sodir etilishiga asosiy sabab shuki, yurtimizda olib borilayotgan siyosatning yutuqlari

---

<sup>5</sup> Islom Karimov. Olloh qalbimizda, yuragimizda «Turkiston press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar. Xalq so'zi, 1999 yil 6-mart.

jahon jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilmoqda. Nisbatan kiska davr ichida O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy jihatdan barqaror, umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lgan, ma'naviy merosni va diniy qadriyatlarni tiklab, inson huquqlarini ustuvor soha darajasiga ko'tara olgan mamlakatdir. Xalqining Prezidentga, davlatga ishonchi nihoyatda mustahkam bo'lgan O'zbekiston Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlash va mintaqa davlatlarining o'zaro integratsiyalashuvi jarayonida etakchilik qilmoqda. Xuddi mana shu o'ta katta ahamiyatga ega bo'lgan omillar, asoslangan istikboldagi yutuqlar xalqimiz va malakatimiz taraqqiyotining dushmanlarini vaximaga solmoqda.

Agar O'zbekistonda dushmanlarimiz mo'ljallagan maqsadlar amalga oshsa, bu nafaqat bizda, balki butun mintaqa davlatlarida ham juda katta siyosiy o'zgarishlarning sodir bo'lishiga sabab bo'lishi, mintaqaviy integratsiya jarayonlariga o'zining ulkan salbiy ta'sirini o'tkazishi mumkin edi. Terroristlarning amalga oshirgan qo'poruvchilik harakatlari ko'zlagan maqsadiga etmadi va etolmaydi ham.

O'zlarini islom dinining «himoyachilari» deb ko'rsatishga urinayotgan terroristlarning asl niyati chinakam islomiy qadriyatlarni tiklash emas, balki hokimiyatni qo'lga kiritish, Markaziy Osiyodagi mamlakatlarni o'zlari tanlagan yo'ldan qaytarish va butun mintaqada o'z hukmronligini o'rnatish edi. Aslida, mustaqillik yillarida mamlakatimizda haqiqiy islomiy qadriyatlarimiz tiklandi va bu yo'nalishda izchillik bilan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Dinimizning xalqimiz ma'naviyatining ajralmas qismiga aylanganligi Prezidentimizning quyidagi fikrlarida o'z aksini topgan: «Biz o'z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri holda aslo tasavvur qilolmaymiz. Diniy qadriyatlar hayotimizga shu kadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz.

Xalqimizning ming yillik tarixini, bugungi ma'naviy hayotini, dinu diyonatimizni muxtasar ifodalab aytish mumkinki, Oллоh bizning qalbimizda, yuragimizda»<sup>6</sup>.

Umuman Markaziy Osiyo xalqlari mustahkam do'stligining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Chunki, mintaqa tub xalqlarining ma'naviy ildizlari bir, ruhi, turmush tarzi yaqin, ular ana shu boy manbadan birdek baxra oladilar. Shu ma'noda ham ular birligini mustahkamlash umummintaqaviy ma'naviy yuksalishimizga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib turaveradi. Bu jarayonga qarshi qaratilgan har qanday mafkuraviy ta'sir yoki terroristik harakatlar umummintaqaviy qarshilikka uchraydi va barbod bo'ladi.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar tizimida Afg'onistonda davom etayotgan fuqarolar urushi ham alohida o'rin egallab turibdi. Yigirma yildan buyon davom etib kelayotgan harbiy majoralar oqibatida umuminsoniy tsivilizatsiyadan o'zilib qolgan Afg'oniston hududi xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm, qurol-yaroq va giyoxvand moddalarning noqonuniy savdosi o'chog'i bo'lib qoldi. Bu esa turli zararli g'oyalarning terrorchilik, tahdid va taxlika yo'li bilan butun mintaqaga yoyilish xavfini tuo'dirmoqda. Shuning uchun ham Prezidentimiz bu xavfning oldini olish zarurligiga jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratmoqda.

---

<sup>6</sup> Islom Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. Toshkent, O'zbekiston, 2000, 36-bet.

2000 yilning sentyabr oyida ham BMT Bosh Assambleyasi «Ming yillik sammiti»da Prezidentimiz mintaqamiz xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xalqaro terrorizm va narkobiznesga qarshi faol kurashish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash va jahon xavfsizlik tizimini takomillashtirish muammolariga e'tibor qaratdi, bu masalalarni o'ta murakkab tus olayotganligini asoslab berdi. Mustaqil taraqqiyot, erkin va farovon hayotga bo'lgan ishonch - e'tiqodni mustahkamlash yo'lida xavf-xatarlarning oldini olish uchun muttasil ogoh bo'lib yashash, birgalikda kurash olib borish mintaqa xalqlari uchun hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi. Mintaqa xalqlari uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu jarayonni to'g'ri anglab etgan Markaziy Osiyo mamlakatlarining rahbarlari faqat 2000 yilning o'zida bir necha bor uchrashdilar va xavfsizlikni ta'minlash hamda o'zaro iqtisodiy integratsiyalashuvning dolzarb masalalarini muhokama qildilar. Jumladan, 2000 yil aprel oyida Toshkentda, 2000 yil avgust oyida Bishkekda va oktyabr oyida yana Toshkentda, 2001 yil yanvarida Ostonada bo'lib o'tgan uchrashuvlarda mintaqada xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim qarorlar kabul qilindi. Xususan, oktyabr oyida Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvda «Markaziy Osiyoda narkotiklarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik va terrorchilikka qarshi kurash buyicha hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari» to'g'risidagi o'ta muhim xujjat shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlarining bu uchrashuvlari umumiy xavfsizlikni ta'minlash, mintaqa xalqlarining o'zaro dustligini mustahkamlash va mavjud iqtisodiy muammolarni hal etish imkoniyatini beradi. Shu ma'noda O'zbekiston Prezidenti tomonidan olg'a surilgan «Turkiston-umumiy uyimiz» g'oyasining amaliy ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Shuning bilan birga Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «...Markaziy Osiyo mamlakatlarining tinchligi va barqarorligiga, mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning xavfsizligiga dahl qiluvchi tajovuzlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi hamjihatligini mustahkamlash zarur. Ularning bu yo'ldagi sa'y-harakatlari, imkoniyatlari va salohiyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish ayniqsa muhimdir»<sup>7</sup>.

Mintaqada xavfsizlikni ta'minlashning asosiy sharti Afg'onistonda davom etayotgan fuqaroviy urushni to'xtatish, u erda tinchlikni ta'minlashdir. Chunki bu zaminda davom etayotgan urush natijasida narkotik moddalarni noqonuniy yo'l bilan mintaqa mamlakatlariga olib o'tish, qurollarni g'ayriqonuniy yo'l bilan tarkatish, terrorchilik harakatlarini avj oldirish sodir bo'lmoqda. Bu borada ham O'zbekiston ilgari surayotgan Afg'onistondagi harbiy mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal etishga qaratilgan «Olti qo'shuv ikki» guruhi faoliyatini yo'lga qo'yish, terrorchilikka qarshi xalqaro kurash markazini tashkil qilish borasidagi tashabbuslar, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish yuzasidan olib borilayotgan sa'y-harakatlar muhim ahamiyat kasb-etadi.

Umuman, Afg'onistonda davom etayotgan harbiy mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal qilish g'oyasi Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Albatta boshlangan ana shu ijobiy harakatni davom ettirish, unga

---

<sup>7</sup> Islom Karimov. «Ozod va obod Vatan, erkin farovon hayot-pirovard maqsadimiz. Toshkent, O'zbekiston, 2000, 39-bet.

mafaatdor bo'lgan davlatlarni faollashtirish bugungi kunning shu sohadagi dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.

Xullas, bugungi kunda xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish mintaqadagi barcha mamlakatlarning istikbolini ham bir qadar belgilab beradi. Shuning bilan birga bu – mintaqada yashayotgan xalqlarning azaliy qon-qarindoshligi, hamkorligi va ma'naviy - ruhiy yaqinligini mustahkamlashda ham o'ta muhim ahamiyatga molik masala bo'lib qolaveradi. Xuddi shuningdek, mintaqaga qarshi qaratilgan mafkuraviy ta'sirlarga qarshi kurashni kuchaytirishda umummintaqaviy birlikni mustahkamlashning ahamiyati ham oshib boraveradi.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Geosiyosat, Markaziy Osiyo, mafkuraviy siyosat, mafkuraviy ta'sir, mintaqaviy hamkorlik.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.**

- Hozirgi davrda geopolitik maqsadlar qanday namoyon bo'lmoqda?
- «Mafkuraviy siyosat» tushunchasining mohiyat-mazmuni nimadan iborat?
- Mintaqamizga qanday tajovuzkor g'oyalar ta'sir ko'rsatmoqda?
- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun nimalarga e'tibor berish lozim?



## **5. O'ZBEKISTONDA BARPO ETILAYOTGAN JAMIYAT VA TARAQQIYOTNING «O'ZBEK MODELI»**

### **Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz?**

Mustaqillik yillarida shakllanish yo'liga kirgan milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning asriy an'ana va qadriyatlarini, milliy o'zligimizni o'zida mujassamlashtirib, ularni umuminsoniy qadriyatlar, dunyo tsivilizatsiyasi yutuqlari hamda ilg'or, taraqqiyparvar g'oyalar bilan boyitib, mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsad va vazifalarni aniq-ravshan aks ettiradi. Uning vositasida har bir vatandoshimiz biz qanday jamiyat, qanday davlat, qanday tuzum barpo etmoqdamiz, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy asoslari nimalardan iborat, degan savollarga javob topa oladi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston buyuk kelajak sari», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» kabi asarlarida hamda ko'plab ma'ruza va nutqlarida O'zbekiston xalqi qanday maqsad sari intilayotgani, qanday jamiyat barpo etgani ilmiy asosda keng va atroflicha yoritib berilgan.

Ayniqsa, Prezidentimizning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida mustaqil taraqqiyot yillarida orttirilgan tajribalarga tayangan holda, sobiq sovet tuzumining og'ir asoratlariga qaramay, yurtimiz katta rivojlanish yo'li, O'zbekiston yangi asrga qanday rejalar bilan kirib borayotgani asoslanadi. Yurtimizda ma'nomohiyatiga ko'ra butunlay yangi jamiyat barpo etish va XXI asrning dastlabki yillariga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Ma'lumki, biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz, degan masala mustaqillikka erishganimizdan buyon dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu masala Prezidentimizning mazkur asarida, ayniqsa o'zining tugal va mukammal ifodasini topdi. Unda qurilajak yangi jamiyatning ilmiy-falsafiy kontseptsiyasi, jamiyat hayotini tubdan isloh etishning navbatdagi strategik vazifalari asoslab berilgan. Ana shu masalalarni bajarish milliy istiqlol g'oyasining pirovard maqsadlarini belgilaydi va bu maqsadlarga etishga xizmat qiladi.

Bizning bosh strategik maqsadimiz – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, ko'pmulkchilikka va ular o'rtasidagi raqobatga tayanadi. Unda mulkning barcha qonuniy shakllari teng huquqqa ega bo'lib, bu huquq davlat tomonidan kafolatlanadi. Iqtisodiy taraqqiyotni bozordagi talab va taklif yilga soladi va boshqara boshlaydi. Uni markazdan turib boshqarishga, mablag' va fondlarni rejali taksimlashga xojat qolmaydi. Sobiq sotsialistik mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, markazdan turib boshqariladigan rejali iqtisodiyot oxir-oqibatda baribir tanazzulga yuz tutadi.

Ko'p mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyotini joriy qilish orqali yurtimizda yashaydigan barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan kat'i nazar, munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarni ta'minlash — davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini ifodalaydi.

Lekin bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish va ularni amalda joriy qilishning tayyor andozasi yo'q. Bu borada biz hatto jahondagi eng yuksak

rivojlangan mamlakatlar tajribasini ham ko'r-ko'rona qo'llay olmas edik. Chunki bizning mamlakatimiz iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi, kazilma boyliklari va iklim sharoiti, tabiiy resurslari, xalqimizning mentaliteti, aholi tarkibi va o'sishi biror mamlakatnikiga aynan o'xshamaydi. Boshqa davlatlarda yaxshigina samara beradigan taraqqiyot modeli bizda hech qanday natija bermasligi yoki aksincha, inqirozni yanada chuqurlashtirishi mumkin edi. (Masalan, ayrim Hamdo'stlik mamlakatlarining shok terapiyasi usulini qo'llab, qiyin ahvolga tushib qolganini eslang).

Shu bois xalqimiz irodasi bilan tanlab olingan va o'zimizga mos rivojlanish bu — ijtimoiy larzalarsiz, inqilobiy sakrashlarsiz, tadrijiy tarzda olg'a borishni taqozo etadigan yo'ldir. Milliy istiqloq g'oyasi ana shu yo'lda fuqarolarni birlashtiradi, yakdil va hamfikir bo'lishlariga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini kat'iy belgilab olib, asosiy kuch va imkoniyatlarni bir joyga tuplab, avvalo ana shu ustuvor yo'nalishlar buyicha taraqqiyotni ta'minlash, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali bozor munosabatlariga asoslangan demokratik odil jamiyat barpo etish O'zbekiston tanlagan yo'lining ma'no-mazmunini tashkil etadi.

**Yangi jamiyatni barpo etishda mafkuraviy muammolarni hal qilish davlatimiz, jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu vazifalarning hozirgi davrda muhimligini, dolzarbligini chuqur tushunish ularni bajarilishiga bevosita bog'liqdir.** Tanlab olingan bu yo'l, hamda unga xos milliy istiqloq g'oyasining strategik maqsadlari jamiyat hayotining barcha sohalariga daxldor bo'lgan quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi:

#### **Siyosiy sohada:**

Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta'minlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishidir.

**Birinchidan,** mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, unda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish. Milliy istiqloq g'oyasining siyosiy sohadagi xususiyatlarining mohiyati ana shularda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. Xalqning mentaliteti, siyosiy madaniyati, o'z haq -huquqlarini, tub manfaatlarini anglash darajasi, xullas, siyosiy va ma'naviy etukligi uning davlat qurilishida qanchalik faol ishtirok etishini belgilaydi.

Binobarin, siyosiy hayotni erkinlashtirishning asosiy shartlaridan biri xalqning siyosiy ongini ustirish, unga demokratik erkinliklarning ma'no-mohiyatini to'g'ri tushunib olish va o'zlashtirishga imkon yaratishdan iboratdir.

Siyosiy madaniyat, bir tomondan, fuqarolarning, ikkinchi tomondan, davlat idoralari va jamoat tashkilotlari hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning qonunga buysunishidan boshlanadi. Demak, biz barpo etayotgan jamiyatda nafaqat aholi huquqiy bilimlarining oshishi, uning ongi yuksalishiga, balki hokimiyatning barcha mustaqil tarmoqlari, nodavlat tashkilotlari va ijtimoiy institutlari faoliyat samaradorligi ortishiga ham jiddiy e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy taraqqiyotga intilayotgan, siyosiy va iqtisodiy hayotni erkinlashtirish yo'lidan borayotgan har qanday jamiyat huquqiy madaniyati yuksak, ozod va erkin

shaxsni tarbiyalashga intiladi. Zero, shundagina demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, plyuralizm va inson huquqlarini ta'minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yashash tamoyili jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylanadi. Chunki demokratiyaning ijodkori, amalga oshiruvchisi, rivojlantiruvchisi – insondir. Demokratiya – faqat xalq hokimiyati bo'lib qolmay, u ayni paytda har bir inson, har bir jamoa va butun xalqning o'z mamlakati kelajagi, o'z taqdiri oldidagi mas'uliyati hamdir.

Demokratiya va siyosiy hayotni erkinlashtirish zaruratini oxlokratiyadan (oxlos – tuda, olomon), ya'ni turli guruhlarining siyosiy o'zboshimchaligidan, hokimiyat idoralariga noo'rin talablar qo'yishidan, tazyik o'tkazishidan farq qilish lozim.

Bu o'z navbatida demokratiya, siyosiy hayotni erkinlashtirish orqali fuqarolardan o'z manfaatlarini davlat va jamiyat manfaati bilan uyg'unlashtirishni, yuksak siyosiy madaniyatga ega bo'lishni talab qiladi.

**Ikkinchidan**, jamiyatimizdagi turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish, siyosiy hayotda haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik tamoyilini qaror toptirish. Mazkur jihatlar milliy istiqloq g'oyasining siyosiy sohadagi o'ziga xos tamoyillarini ifodalaydi.

Mulkchilikning rang-barang shakllari qaror topayotgani, ular teng huquqliligining davlat tomonidan kafolatlanayotgani jamiyatning ijtimoiy-tabaqaviy tarkibini o'zgartirmoqda. Bugun yangi ijtimoiy qatlam va guruhlar – sarmoyadorlar, tadbirkorlar va o'rta sinf vujudga kelmoqda. Mulk shakllari xilma-xiligi va ijtimoiy tabakalanish jarayoniga mos holda turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar hamda harakatlar ham paydo bo'lmoqda. Mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllangani buning yakqol dalilidir.

Hozirgi o'tish davrida mulkchilikning nodavlat shakllari va siyosiy partiyalar hali mustahkam oyoqqa turib olgani yo'q. Lekin ular kundan-kunga kuchga to'lib o'z mavqelarini oshirib bormoqda.

Shu ma'noda, Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi muloxazasi muhim ahamiyatga ega: «Shunga erishish kerakki, mamlakatimiz siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topishi darkor. Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo'lishi kerak. Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi mukobil takliflari o'z ifodasini topishi lozim»<sup>8</sup>.

Ko'ppartiyaviylik, partiyalarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, eng avvalo, parlament ishida o'z vakillari orqali ishtirok etuvchi partiyalarning demokratik qonunlar kabul qilish va ularni hayotga tatbik etish borasida faollik ko'rsatishi, parlament orqali ijroiya hokimiyat faoliyatini nazorat qilib borishi turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi muvozanatni vujudga keltiruvchi asosiy omildir.

Turli manfaatlar, qarama-qarshi kuch va harakatlar muvozanatini ta'minlaydigan ma'naviy omil bu – milliy g'oyadir. U ijtimoiy guruhlar manfaati va mafkurasidagi

---

<sup>8</sup> Islom Karimov. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1 jild. Toshkent "O'zbekiston" 1996 y

umumiyligni, ya'ni umummilliy manfaatlarni va yagona oliy maqsadni aks ettiruvchi g'oyadir. U millatning jipsligiga, konsolidatsiyasiga xizmat qiluvchi ma'naviy kuchdir. Shu bois mamlakatimiz mustaqilligi, kelajak taraqqiyotimiz uni xalqimiz ongiga muntazam va bosqichma-bosqich singdirib borishni taqozo etadi. Milliy g'oya negizida milliy mafkura shakllanadi.

Shunday qilib, biz barpo etayotgan jamiyatdagi turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi mexanizm quyidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy omillardan tashkil topadi:

- mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish;
- haqiqiy ko'ppartiyaviyligni qaror toptirish;
- mulkdorlar sinfi va o'rta sinf shakllanishini jadallashtirish;
- ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi hamkorlik va sherikchiligni vujudga keltirish;
- milliy istiqlol g'oyasini muntazam va bosqichma-bosqich jamiyat ongiga singdirib borish.

**Uchinchi**dan, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun yanada kengroq shart-sharoit yaratish, hokimiyatning konstitutsiyaviy bo'linishi tamoyiliga kat'iy amal qilish, jamiyat a'zolarining barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini, tashabbus erkinligini ruyobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni ishga solish taqozo etadi.

Bu — mamlakatimizda demokratiya tamoyillariga asoslangan, hech qanday siyosiy kuchning sub'ektiv xoxish-irodasiga qaram bo'lmasdan ishni faol tashkil qiladigan, o'z mohiyatiga ko'ra, jamiyatning olg'a siljishiga xalakit berayotgan illat va asoratlarni bartaraf etishga kodir bo'lgan samarali tizimni shakllantirish demakdir.

Bunday samarali tizim – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatidir. Hukukiy davlatda nafaqat hokimiyatning uch tarmog'i – qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyati bir-biridan ajratiladi va bir-biridan mustaqil harakat qiladi, balki ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy institutlar ham erkin va mustaqil bo'lib, hech qanday kuchga qaram bo'lmaydi. Hokimiyat buo'inlari va ijtimoiy institutlar faqat Konstitutsiya va amaldagi qonunchilikka tayanib ish tutadi. Ularning o'zaro munosabati va hamkorlik mexanizmi ham Konstitutsiya va amaldagi qonunlar orqali belgilab qo'yiladi. Ularning mustaqilligi, bir-biriga bevosita buysunmasligi, faqat qonun oldida mas'ulligi, amalda ularni butun jamiyat oldida mas'ul qilib kuyadi.

Demak, mustaqillik bu — huquq, huquq esa – mas'uliyat yoki, bir so'z bilan aytganda, mustaqillik – mas'uliyat. Mana shu bog'liqlikni, ayniyatni oddiy fuqarodan tortib mas'ul xodimlargacha teran anglab, o'z faoliyatini ana shu asosda yuritishi maqsadga muvofiqdir.

**To'rtinchi**dan, mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyat doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o'tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilmalarining huquqi va nufuzini oshirishni ko'zda tutadigan «**Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari**» kontseptsiyasini amalga oshirish.

Bu — odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari, davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi, ularga ko'proq huquqlar berilishi demakdir.

Siyosiy hayotni erkinlashtirish jarayonida jamiyatni boshqarish borasidagi vazifa-funksiyalar ikki yo'nalishda qayta taksimlanib boradi. Birinchisi – davlat markaziy idoralarining ayrim huquq va vazifalari mahalliy hokimiyatlar zimmasiga o'tkaziladi. Shu tariqa mahalliy hokimiyatning huquq va mas'uliyati oshiriladi. Ushbu jarayon markazning vazifalarini kamaytirish – detsentralizatsiya deb ataladi. O'z navbatida, mahalliy hokimiyat idoralari huquq va vazifalarining bir qismi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (fuqarolar yoi'inlari, mahalla qo'mitalari, uy-joy shirkatlari va boshqalar) zimmasiga o'tkaziladi. Ayniqsa, bu aholining ma'lum toifalarini ijtimoiy himoyalash, yashashning umumiy tartib-qoidalarini tartibga solish va nazorat qilishga, kommunal xizmat kabi hayotiy masalalarga taalluklidir.

Ikkinchisi – jamoat tashkilotlarining huquqi va mas'uliyatini oshirish, davlat zimmasidagi vakolatlarning bir qismini ular zimmasiga o'tkazish. Buning uchun Konstitutsiya va qonun doirasida faoliyat ko'rsatadigan jamoat, ya'ni nodavlat va noxukumat tashkilotlarining tarmog'ini kengaytirish zarur.

Nodavlat, jamoat tashkilotlarining ko'payishi, ularning kundalik hayotimizdagi ahamiyati ortib borayotgani fuqarolik jamiyati asoslari tobora mustahkamlanib, rivojlanayotganidan dalolat beradi. Aynan shunday tashkilotlarning faolligi va mas'uliyatining ortgani, fuqarolarning ongi va tasavvurida, kundalik hayotida ular tobora ko'proq ishtirok etayotgani «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» kontseptsiyasini hayotga tatbik etishning muhim sharti va shaklidir. «Kuchli jamiyat» tushunchasining mohiyati shundan iboratki, xalq jamoat tashkilotlari orqali davlat idoralari faoliyatini nazorat qiladi, ularning o'z vazifalari va jamiyat oldidagi burchlarini to'g'ri va samarali bajarishiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat ana shunday kuchli jamiyat bo'ladi. Uning siyosiy tuzumi – demokratik, huquqiy davlat bo'lsa, ijtimoiy tuzumi – qonun ustuvor bo'lgan fuqarolik jamiyatidir.

**Beshinchidan**, davlatning islohotchilik vazifalarini demokratik talablar asosida, xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos holda amalga oshiradigan iste'dodli, izlanuvchan, chuqur bilimli va yuksak malakali, Vatanga, ona zaminimizga sadoqatli yosh kadrlarni tanlash joy-joyiga qo'yish va yangilashga imkon beradigan tizimni takomillashtirish. Bu – hech qaysi zamonda osonlikcha hal bo'lmaydigan, odamlarning tafakkuri va dunyoqarashi o'zgarishini taqozo etadigan, odatda sub'ektivizm, manfaatparastlik, urug'-aymoqchilik kabi ko'p-ko'p illatlarni bartaraf etish, jamiyatni tubdan yangilashni talab qiladigan jarayondir.

Davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy siyosatining qanchalik to'g'ri va samarali amalga oshirilishi ko'p jihatdan turli bo'g'indagi tashkilotchi-ijrochilarga bog'liq. Ularning kasbiy tayyorgarliklari qanchalik baland bo'lsa, o'z vazifalarini qanchalik halol va vijdonan bajarsa, ishlar shuncha olg'a ketadi, kundalik muammolar tezroq hal bo'ladi. Bu hol odamlarning kayfiyatiga va ularning davlat idoralariga munosabatiga ijobiy ta'sir qiladi. Shunda jamiyatda o'zaro ishonch mustahkamlanadi, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muhit yaxshilanadi.

Vatanparvarlik va milliy g'oyaga sodiklik rahbarning faoliyatini, izlanishlarini yuksak ma'no-mazmun bilan to'ldiradi. U yo'lida uchraydigan qiyinchilik qurbonlarni, ba'zi bir omadsizliklarni psixologik jihatdan osonroq engadi, tushkunlikka tushmaydi, yutuqlardan esankiramaydi. U o'z faoliyatiga va jamoasi erishgan yutuqlarga doimo eng yuksak mezonlar bilan yondashib, unga tanqidiy baho

beradi. U eng ilg'or tajribalarni ko'zlab ish yuritadi, ularni jamoasi faoliyatida joriy etishga urinadi. Vatanparvarlik va milliy g'oyaga sodiqlik uning kuchiga kuch, aqliga aql, tashabbusiga tashabbus qo'shadi, uni haqiqiy fidoyiga aylantiradi.

Rahbar xodim nafaqat tashkilotchi, balki tarbiyachi ham bo'lmog'i lozim. Shu bois vatanparvarlik va milliy g'oyaga sodiqlik fazilatlarini uning o'z jamoasini to'g'ri tarbiyalashda, uni yuksak omillarga etaklashda rahbarga yordam beradi. Vatanparvarlik va milliy g'oyaga sodiqlik bor joyda dangasalikka, ug'irlikka, ta'magirlikka, mahalliychilikka, guruhbozlik, urug'-aymoqchilik va boshqa salbiy illatlarga aslo o'rin bo'lmaydi.

Bu turli bug'in rahbarlarining kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish borasidagi o'zboshimchaliklarining, noxolisliklarining ko'p jihatdan oldini oladi yoki kadrlarni ularning o'zboshimchaligidan, turli tasodiflardan muhofoza qiladi. Oshkoralik tamoyilini qo'llash, ba'zi sohalarda konkurs-tanlov asosida lavozimga tavsiya etish, tanlanayotgan mutaxassis haqida jamoaning fikrini o'rganish va shu kabi tadbirlar ham kadrlar tanlash mexanizmini takomillashtirishga, binobarin, yangi jamiyat qurishni tezlashtirishga xizmat qiladi.

### **Iqtisodiy sohada:**

Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mustaqilligini yanada oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud tusiklarni bartaraf etish – bu sohadagi o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridir. Mazkur o'zgarish va yo'nalishlar milliy istiqloq g'oyasining iqtisodiy sohadagi xususiyat va tamoyillarini belgilaydi. Bunda bir qator vazifalar amalga oshiriladi.

**Birinchi**dan, iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa – eng avvalo, davlatning boshqaruvchilik vazifalarini – funksiyalarini kisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash.

Bu – xususiy biznesga, umuman, iqtisodiy faoliyatining bozorga xos mexanizmlariga ko'proq erkinlik berish, buning uchun tegishli huquqiy zamin, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoit va kafolatlarni yaratish, institutsional o'zgarishlar, moliya va bank tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish, rivojlangan bozor infratuzilmasini barpo etish, raqobat muhitini shakllantirishga asosiy e'tiborni qaratish demakdir.

Mustaqillik davrida mulkchilikning turli shakllari, jumladan xususiy mulk rivojlanishi uchun zarur huquqiy kafolatlar va amaliy mexanizm yaratildi. Masalan, Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish qo'mitasi, uning joylardagi tuzilmalari barpo etildi, tovar, xom ashyo, fond birjalari, tijorat banklar tizimi, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, biznes-fond, turli konsalting, lizing va boshqa bozor infratuzilmasi tarmog'i shakllantirildi. Mulkning aksariyat qismi davlat tasarrufidan chiqarildi. Nodavlat shaklidagi mulkchilikning aktsiyadorlik jamiyatlari, korporatsiyalar, kompaniyalar, firmalar, shirkatlar, qo'shma korxonalar, xususiy korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, o'rta va kichik korxonalar kabi tarmog'i vujudga keldi. Bozor infratuzilmasini shakllantirish va takomillashtirish jarayoni bundan buyon ham davom ettiriladi va chuqurlashtiriladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yuridik, huquqiy erkinligi to'laqonli amaliy erkinlikka aylanishi uchun ular ishlab chiqarishni bozor talablariga mos tashkil etish,

etarlicha investitsiyalar jalb qilish, marketing tadqiqotlari o'tkazish, zarur axborot va konsultatsiya olish imkoniyatlariga ega bo'lishlari lozim. Shunda bozor mexanizmi yaxshi ishlay boshlaydi, haqiqiy raqobat vujudga keladi, iqtisodiyotning o'z-o'zini tartibga soladigan, muvozanatga keltiradigan mexanizmi shakllanadi. Shu bois yangi jamiyat barpo etish jarayonida mazkur masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Ikkinchidan,** xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va bu borada haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, bu jarayonga tarmoqlarning asosini tashkil qiluvchi yirik korxonalarni jalb etish.

Bu — xususiy mulkning miqyosi va ulushi uzluksiz ortib boradigan ko'pukladli iqtisodiyotni rivojlantirish, jamiyatda mulkdorlarning ko'pchilikni tashkil etishiga erishish orqali ijtimoiy hayotdagi barqarorlik va farovonlikni kafolatlash demakdir.

Xususiylashtirishning asosiy maqsadi, bir tomondan, mulkchilikning turli nodavlat shakllarini rivojlantirib, ular o'rtasida haqiqiy raqobatni vujudga keltirish bo'lsa, ikkinchi tomondan, mulkdorlar sonini, Ayniqsa band aholi tarkibidagi yaqin kelajakda ko'pchilikni tashkil etadigan o'rta sinfni qaror toptirishdan iborat.

**Uchinchidan,** iqtisodiyotga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun kulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kengaytirish.

Bu – salohiyatli xorijiy sheriklar bilan faol hamkorlik qilish, ular bilan birga zamonaviy, xalqimiz extiyojiga mos, dunyo bozorida raqobatga bardosh bera oladigan mahsul otlar ishlab chiqarishni amalga oshirish demakdir.

Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nixoyatda muhim ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarish fondlarini zamonaviy asbob-uskunalar, jihozlar va mexanizmlar bilan yangilab, ilg'or texnologiyalarga o'tish uchun mablag' kerak. Xalq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlar qilish, ko'plab yangi korxonalar qurish, ishlab chiqarishning va bozor iqtisodiyotining infratuzilmasini rivojlantirish uchun ham mablag' kerak.

Shu bois xorij sarmoyasini iqtisodiyotga oqilona, kulay shartlar asosida jalb qilish zarurati kuchli.

Yangi jamiyat barpo etish jarayonida O'zbekistonda chet ellik investorlarning manfaatlarini kafolatlaydigan, ularning tadbirkorlik faoliyatlari uchun ma'lum muddatga imtiyozlar beradigan tegishli qonunlar kabul qilinib zarur huquqiy baza yaratilmoqda. U muttasil kengayib boradi.

Chet elliklarga o'zlarining korxonalarini ochishga, ma'lum shartlar asosida er osti boyliklarini kazib olishda ishtirok etishlariga ruxsat berilayotgani ham bu borada olib borilayotgan ishlar sirasiga kiradi.

Mamlakatimizda sifatli, raqobatbardosh mahsul otlarni ishlab chiqarish qanchalik ko'paysa, xalqimizning moddiy extiyojlari shunchalik qondiriladi, turmush farovonligi usadi, davlatimizning iqtisodiy qudrati oshadi.

**To'rtinchidan,** mamlakat, eksport salohiyatini oshirish, uning xalqaro mehnat taqsimotida teng huquqli va o'zaro manfaatli shartlar asosida ishtirok etishi, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini yanada kuchaytirish. Bu – Vatanimizning dunyo bozoridagi o'rni va nufuzini, fuqarolarimizning o'z yurti iqtisodiy salohiyati va qudrati bilan faxrlanish tuyg'usini yuksaltirish demakdir.

Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bevosita jahon bozorida xaridorgir, raqobatga bardosh bera oladigan mahsul otlar ishlab chiqarish bilan bog'liq. O'tmishdan qolgan og'ir meros – bu iqtisodiyotimizning asosan xom ashyo etkazib

berishga mo'ljallangani va sanoat korxonalari texnologiyasining qolokligi, ularning serharakat sifatsiz ishlab chiqarish vositalari bilan jihozlanganidir. Bunday texnologiyasi eski korxonalar mahsuloti jahon bozorida raqobatga bardosh bera olmaydi. Shu bois mamlakatimiz hozircha chetga ko'proq xom ashyo chiqarishga majbur bo'lmoqda.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatda uning eksport salohiyatini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Mahsulot sifati va narxining ma'qulligi bilangina jahon bozoridagi mavqeni mustahkamlab olish, doimiy sheriklar va xaridorlar topish mumkin. Shundan keyingina xalqaro mehnat taqsimotida teng huquqli ishtirok eta olamiz. Lekin mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish uchun nafaqat an'anaviy mahsulotlar xajmini ko'paytirishimiz, balki ilgari O'zbekistonda ishlab chiqarilmagan mahsulotlarni o'zlashtirib, eksport qilishga erishmoq lozim. Bizda esa bunday imkoniyat yuksakligini qisqa muddatda avtomobilsozlik sanoati vujudga kelgani, avtomobillarimizni xorijga sotayotganimiz va shunga o'xshash boshqa misollar ko'rsatib turibdi.

**Beshinchidan,** iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish.

**Bu – boy tabiiy zaxiralarimiz, intellektual hamda ilmiy – texnikaviy salohiyatimizdan to'liq va samarali foydalanish, iqtisodiyotda mukammal texnologik jarayonni o'z ichiga oladigan, tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan, mineral va qishloq xo'jaligi xomashyosini sifatli qayta ishlaydigan quvvatlar etakchi o'rin tutishini ta'minlash, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlanti-rish, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini kuchaytirish, qishloqda yangi ish o'rinlarini yaratish demakdir.**

O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar bir necha yo'nalishda amalga oshirilmoqda:

1. Iqtisodiyotning mulkchilik asoslari rivojlantirilyapti. Turli mulk shakllari vujudga keltirildi va takomillashtirilmoqda. Yuqorida bu xakda gapirilgan edi.

2. Tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar tarmog'i kengaytirilmoqda, yangilari qurilmoqda.

3. Kichik va o'rta biznes korxonalari tizimi shakllantirildi va jadal rivojlantirilmoqda.

4. Bozor infratuzilmasi vujudga keldi. Tadbirkorlarga va aholiga rang-barang iqtisodiy, moliyaviy, axborot-reklama, huquqiy va ilgari o'zimizda bo'lmagan boshqa xizmat turlari ko'rsatilmoqda. Bu tarmoq ham kengayib, o'sib, shakl va mazmunini boyitmoqda.

5. O'zbekistonning geografik o'rnini, geopolitik xususiyatlari transport va kommunikatsiya masalalariga jiddiy e'tibor qaratishni talab etmoqda. Mazkur masalaga iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarning muhim va nisbatan mustaqil qismi deb qarash lozim.

Jahon mamlakatlari bilan kafolatli aloqa, savdo-sotikni, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish uchun bir necha yo'nalishlarda transport aloqa tizimi barpo etilmoqda.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, Ayniqsa qishloqqa sanoatni olib borish, birinchi galda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga muljallangan o'rta va kichik korxonalar tarmog'ini rivojlantirish davlatimiz iqtisodiy siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.



**Ijtimoiy sohada.** Jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar amalga oshirilayotgan, bozor munosabatlari ustuvor bo'lib borayotgan hozirgi sharoitda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu esa milliy istiqlol g'oyasining ijtimoiy sohadagi tamoyillarini belgilaydi, ularning amalga oshishiga xizmat qiladi.

Kuchli ijtimoiy siyosat deganda, xalq to'g'risida – har bir ijtimoiy guruh, qatlam, tabaka, har bir fuqaro, yoshu keksa, erkagu ayol – barcha-barcha yurtdoshlarimiz to'g'risida o'amxurlik qilish, islohotlarni, iqtisodiy tadbirlarni xalq manfaatlarini ko'zlagan holda o'tkazish, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat, ilm-fan sohalariga e'tiborni susaytirmaslik tushuniladi. Prezident Islom Karimovning islohotlar islohotlar uchun emas, xalq uchun, uning turmush farovonligi usishi, munosib hayot kechirishi uchun, degan xulosasi kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazishning ma'no-mazmunini tashkil etadi. Bu — davlatimiz siyosatining insonparvarlik mohiyatidan kelibchiq adi.

Yangi jamiyatni barpo etish jarayonida ijtimoiy yo'naltirilgan kuchli siyosatni davom ettirishga qaratilgan quyidagi tadbirlar o'tkaziladi.

**Birinchi**dan, xalq moddiy farovonligini bosqichma-bosqich va izchil oshirib borishni ta'minlash, yurtdoshlarimizning munosib hayot kechirishi va kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, aholini, eng avvalo, uning yordamga muhtoj qatlamlari – bolalar, qariyalar, nogironlar, o'quvchi yoshlarni ijtimoiy muhofazalashning aniq yo'naltirilgan mexanizmini yanada takomillashtirish.

**Ikkinchi**dan, xalqimiz uchun muqaddas qo'rg'on va ma'naviyat beshigi bo'lgan oila, onalar va ayollarimizning jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirish sohasida olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish.

Oila har qanday jamiyatning ham asosini tashkil etadi. U qancha mustahkam, farovon va ilg'or bo'lsa, jamiyat shunchalik barqaror va taraqqiyparvar bo'ladi. Jamiyatda amalga oshiriladigan yirik loyihalar, tub o'zgarishlar agar ular oila asoslarini ham mustahkamlasa, takomillashtirsa yoki jilla qursa, unga salbiy ta'sir ko'rsatmasa muvaffaqiyatga erishadi.

**Uchinchi**dan, fuqarolarning huquqiy tengligi va qonun ustuvorligini, jamiyat manfaatlarini va aholi xavfsizligini yanada samarali kafolatlovchi davlat tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish.

**To'rtinchi**dan, kelajagi buyuk davlatni sog'lom mafkurali, ma'naviy barkamol avlod barpo eta olishini nazarda tutib, komil insonni tarbiyalash borasidagi ishlarni istikbolda ham davlat siyosati darajasida kuchaytirib borish va umumxalq harakatiga aylantirish.

Jamiyatimiz o'z oldiga qo'ygan oliy maqsad – kelajagi buyuk O'zbekistonni, ozod, obod Vatanni yaratish va umuman, islohotlarning taqdiri oxir-oqibatda bugun shakllanayotgan avlodning dunyoqarashiga, ijtimoiy muljallariga, zamonaviy ilm-fan va kasblarni egallashiga, amaliy tashkilotchiligiga bevosita bog'liq.

Shu bois aqlan etuk, ruhan tetik va sog'lom, erkin va tanqidiy fikrlovchi, ayni paytda ijtimoiy mas'uliyatni to'g'ri his etadigan, muayyan kasb-xunarni egallagan barkamol avlodni tarbiyalash O'zbekistonda yangi jamiyat barpo etishning tarkibiy qismiga, asosiy shart-sharoitiga va maqsadiga aylandi. Mana shunday murakkab vazifani uddalash uchun ta'lim sohasi tubdan isloh qilinmoqda. Bu islohatlar Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Bunday dasturning andozasi jahonda biror bir mamlakatda yo'q. Uning asosida yurtimizda amalda ta'limning

yangi modeli joriy etilmoqda. Shuning uchun ham unga butun jahonda uizikish katta. Milliy dasturning to'liq amalga oshirilishi yigit va qizlarning kasbiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan tezroq mustaqil bo'lib olishiga, aniq maqsadni ko'zlab, hayotdan o'z o'rnini topib olishiga imkon yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini bajarish buyicha qilinayotgan tashkiliy ishlar, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi barcha ishlar Vatanimizning kelajakda jahon maydonida mustahkam va nufuzli o'rinni egallashidan, biz, bugungi va kelgusi avlod vakillari ota-bobolarimizdan meros mana shu muborak zaminda kelajagi buyuk davlat, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga kodir ekanimizdan dalolat beradi.

**Ma'naviy sohada.** Ma'naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqurroq anglash, milliy g'oya va istiqloq mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishlarga yo'l qo'ymaslik – bu boradagi asosiy vazifalarimizdir. Ushbu vazifalar milliy istiqloq g'oyasining ma'naviy sohada namoyon bo'lishining asosiy tamoyillarini belgilaydi.

Yangi jamiyatni barpo etish jarayonida, eng avvalo, ma'naviy qadriyatlarni to'g'ri baholay olishni, soxta qadriyatlardan yoki tarixan eskirgan, o'zidagi bunyodkorlik va ijobiy salohiyatni sarflab bo'lgan qadriyatlardan haqiqiy hayotbaxsh qadriyatni ajrata olishni o'rganish lozim. Biror bir qadriyatga baho berilar ekan, uning mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, e'tiqodiy va axloqiy asoslarini qay darajada mustahkamlay olishi, xalqimizning umumjahon ijtimoiy taraqqiyotining faol sub'ektiga aylanishiga xizmat qila olishi bosh mezon bklishi kerak.

Milliy qadriyatlarga, jumladan madaniy merosga ilmiy asosda to'g'ri yondashishning asosiy tamoyillariga xos mezonlar — insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqchilik va taraqqiyparvarlik-dir. Bu mezonlarning har birida milliylik va umuminsoniylik mujjassamlashgan. Ular mohiyatan umuminsoniy xarakterga ega bo'lsa-da, har bir tarixiy davrda muayyan xalqlarning extiyojlarini yuzaga chiqaradi va ularni qondirishga xizmat qiladi. Shu bois ularning zamirida mujassam bo'lgan umuminsoniylik mohiyati, milliy ehtiyojlarni muayyan milliy shaklda ifodalab va o'z mazmunini ularga moslashtirgan holda yuzagachiq adi. Mazkur mezonlarga nafaqat milliylik va umuminsoniylik, balki tarixiylik ham xos. Ya'ni ular shaklan va mazmunan qotib qolgan andozalar mos holda emas, balki davr talablariga, jamiyat oldida turgan yangi vazifalarga mutanosib tarzda boyib, takomillashib boradi.

Mazkur tamoyillar milliy g'oyamizning tarkibiy unsurlaridir. Zero, milliy istiqloq g'oyasi butun jamiyat, butun millat, butun O'zbekistonliklar uchun xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarimizni baholaganda, ularning milliy g'oyaga nechog'lik mos ekanini nazarda tutamiz. Lekin biz baholash jarayonida faqat alohida bir inson, muayyan ijtimoiy guruh, biror bir etnos, manfaatni emas, balki umuminsoniy jamiyatimiz, barcha o'zbekistonliklar manfaatini nazarda tutamiz. Shu bois, yuqorida zikr etilgan mezon va tamoyildan foydalanib, madaniy merosimizni va bugun ayrim yot mafkuraviy poligonlar tomonidan targ'ib etilayotgan ba'zi g'oyalarni tahlil etsak, ularda insonning erkin rivojiga, o'z orzu-intilishlariga mos holda yashashiga, xalqimizning psixologiyasi, maqsad-muddaolari, Vatan manfaatlari va zamonaviy taraqqiyot talablariga mos kelmaydigan unsurlarni, g'oyalarni yaxshi payqab olamiz.

Yangi jamiyatni barpo etishda ma'naviy sohada quyidagi vazifalarni bajarishimiz lozim:

**Birinchidan**, yurtdoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish. Ularning kuch va salohiyatini ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ezgu maqsadlarga xizmat qildirish.

Bu – ma'naviyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanish, ijtimoiy munosabatlarni insoniylik g'oyalari asosida rivojlantirish demakdir.

**Ikkinchidan**, turli qarash va fikrga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalar – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi – barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish. Bu – ko'ppartiyaviylik va plyuralizm tamoyillariga amalda rioya qilgan holda milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash demakdir.

**Uchinchidan**, ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish. Toki, bu din xalqimizning ming yillik tarixi, bugungi ma'naviy hayotimizning ham asosi, muxtasar aytganda, Olloh doimo qalbimizda, yuragimizda ekani yurtdoshlarimiz ongiga singib borsin.

Shu ma'noda, buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshbandning «Diling – Ollohda, qo'ling – mehnatda bo'lsin» degan hikmati biz uchun muhim hayotiy tamoyil bo'lib qolaveradi.

**To'rtinchidan**, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish, ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida muttasil takomillashtirib borish.

Bu – davlatimiz qudrati, mamlakatimiz kelajagi bilimli, dono va ma'naviy barkamol kadrlarga bog'liq ekanini chuqur anglagan holda faoliyat yuritish demakdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiq etilishi inson omilini faollashtirishga, uni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirishga imkon beradi. Shu bois mazkur dasturni bajarishni izchil davom ettirish, uni yanada takomillashtirish ta'lim jarayonini jahon xalqlari tajribasi va yutuqlarini hisobga olib boyitib borish O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

**Beshinchidan**, O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlarini, tili, madaniyatini, diniy e'tiqodini, urf-odat va an'analarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga ko'maklashish.

Bu – ko'p millatli mamlakatimiz fuqarolari orasida, ularning milliy va diniy mansubligidan qat'iy nazar, hamjihatlik va birodarlik tuyg'ularini kuchaytirish, «Shu aziz Vatan – barchamizniki» g'oyasining amalga oshirishini ta'minlash demakdir.

Umumiy maqsad – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini mustahkamlash istagi – umumiy taqdir va kelajak, O'zbekistonda yashaydigan barcha xalqlarni yanada hamjihat va jips bo'lishga, o'zlarini bir butun xalq – o'zbekistonlik deb, O'zbekiston uchun o'zini mas'ul deb his qilishga, taraqqiyotda yanada yuksak poo'onaga ko'tarilishga da'vat etadi. Bugungi hayotiy, zarurat shuni takazo etmoqda. «Shu aziz Vatan – barchamizniki» g'oyasi amalda ana shu umummilliy g'oyaning xususiy ko'rinishlaridan biridir. U mamlakatimiz xalqlarini, millatidan, dinidan, tilidan qat'i nazar, Vatan ravnaqi yo'lida, yangi jamiyat barpo etish yo'lida birlashtiradigan milliy konsolidatsiyani kuchaytiradigan qudratga ega omildir.

«Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz» degan savolga, yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, shunday javob berish mumkin:

1. Biz barpo etayotgan jamiyatning moddiy-iqtisodiy negizini ko'p mulkchilikka tayangan, ijtimoiy yo'naltirilgan, ichki muvozanatga erishgan bozor munosabatlari tashkil etadi.

2. U, siyosiy tuzumiga ko'ra, ko'p partiyaviylikka, fikrlar xilma-xilligiga tayangan, qonunning hamma uchun bir xilda ekani va ustuvorligi ta'minlangan demokratik, huquqiy davlat bo'ladi.

3. Ijtimoiy munosabatlar xarakteriga, davlat va ijtimoiy institutlar, jamoat tashkilotlarining o'zaro ta'siriga ko'ra, fuqarolik jamiyati quriladi. Unda barcha ijtimoiy guruhlar, qatlamlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlik, barcha millatlar va elatlar o'rtasida tinch-totuvlik, umummilliy mushtaraklik yanada mustahkamlanadi.

4. Ma'naviy xususiyatlariga ko'ra, bu jamiyat o'zida milliylikni umuminsoniylik bilan uyg'unlashtirgan, barcha ilg'or yangiliklarga, yutuqlarga ochiq, milliy maxdudlik, millatchilik yoki milliy nomukammallik tuyg'ularidan xoli, erkin fikrlovchi va ijtimoiy mas'ul fuqarolarning erkin jamiyati bo'ladi.

5. Demak, biz bozor iqtisodiyotiga, qonun ustuvorligiga, ijtimoiy hamkorlikka, milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining uyg'unligiga asoslangan demokratik, yangiliklarga ochiq, ma'rifatli fuqaroviy jamiyat barpo etmoqdamiz.

#### **Taraqqiyotning O'zbek modeli.**

Milliy istiqlol g'oyasining hayotbaxshligi taraqqiyotning O'zbek modelini amalga oshirishda yakqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston — ulkan imkoniyatlar mamlakati. Bu zaminda tabiiy boyliklar, unumdor er, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, insoniy va ma'naviy saloyuiyat mavjud. Eng muhimi, bu diyorda mehnatsevar va iste'dodli xalq yashaydi.

O'zbekiston – o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olgan davlat. Bu yo'l jahonda O'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. Uning ratsional mag'zi jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evolyutsion – tadrijiy ravishda isloh etishni nazarda tutadi.

O'zbek modelining asoschisi Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilayotgan taraqqiyot yo'lining ko'pchilik boshqa milliy modellardan farq qiladigan xususiyati shundaki, u faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki keng ma'nodagi milliy tiklanish va ijtimoiy taraqqiyot modelidir. Shu sababdan, u iqtisodiyot bilan bir qatorda davlat qurilishi, ijtimoiy soha va ma'naviyatni, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi.

O'zbek modeli tushunchasi, avvalo, O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy nazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi (davlat siyosati deganda hokimiyatning har uchala bo'g'ini faoliyati nazarda tutilmoqda).

Demak, ushbu taraqqiyot modeli o'zining nazariy va amaliy jihatlariga ega. Uning nazariy jihati mamlakatning yuzaga chiqqan salohiyat va imkoniyatlari, ishlab chiqaruvchi kuchlari rivoji, infratuzilmasi, yurtimizning tabiiy boyliklari, demografik vaziyati, aholining ongi, bilimi, kasbiy salohiyati kabi omillarni hisobga olgan holda rivojlanish kontsepsiyasini, oddiy til bilan aytganda, bizning o'zimizga xos va o'zimizga mos yo'limizni asoslaydi. U bir necha nisbatan mustaqil yo'nalishlardan

iborat: iqtisodiy siyosat tamoyillari va makroiqtisodiy nazariya; davlat qurilishi va jamiyatni demokratiyalash tamoyillari; mulkdorlar sinfini shakllantirish va ijtimoiy stratifikatsiyani (jamiyatning ijtimoiy, tabaqaviy tuzilmasi) takomillashtirish tamoyillari; milliy g'oya, milliy mafkura kontseptsiyasi va ma'naviy-madaniy rivojlanish masalalari; tashqi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar tamoyillari va xokazo.

Modelning amaliy tomoni ham bir necha yo'nalishlarga ega:

1. Islohotlarning huquqiy bazasini yaratish va mustahkamlashga qaratilgan siyosat;
2. Davlatning nazariy xulosalarni, muljallarni amalga oshirish yuzasidan tashkilotchilik ishlari va aniq ijro mexanizmini o'zida aks ettirgan farmonlar, qarorlar, maqsadli dasturlarni (shu jumladan investitsiya dasturlarini) kabul qilishi;
3. Amaldagi investitsiya siyosati, soliq siyosati, moliya-kredit siyosati, iqtisodiy-tarkibiy siyosat, fond bozorini, kimmatli koo'ozlar bozorini shakllantirish va rivojlantirish, iste'mol bozoriga ta'sir ko'rsatish va xokazo;
4. Farmonlar va xukumat qarorlari mohiyatini odamlarga to'g'ri etkazish, ularni birlashtirish, ularda eski tuzum inertsiyasini engishga qodir irodani shakllantirish borasida targ'ibiy-tashviiy va tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish.

Xo'sh, O'zbek modelining asosiy ustuvor xususiyatlari nimalardan iborat? O'zbekiston mustaqillikka erishgach, nafaqat iqtisodiy taraqqiyot masalalarini, balki milliy davlatchilik asoslarini, milliy qadriyatlarini, xalqning o'zligi va g'ururini qayta tiklashi, rivojlantirishi, jamiyatning ijtimoiy-sinfiiy tuzilmasini tubdan yangilashi va mustaqillik g'oyalarni amalga oshirish uchun mutlaqo yangicha fikrlab, yangicha ish yuritadigan kadrlarni tarbiyalash kabi masalalarni ham hal etishi lozim edi.

Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Frantsiya, Xitoy kabi mamlakatlarning taraqqiyot modellari ko'proq iqtisodiy modellar edi. Ular siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotni tubdan yangilashni nazarda tutgan emas. Ushbu mamlakatlarning birortasida, iqtisodiy islohotlar davrida, milliy davlatchilikni, madaniy merosni va ona tilini tiklash singari masalalar ham dolzarb bo'lmagan (faqat Janubiy Koreyada davlat qurilishi muhim ahamiyat kasb etgan).

Shunday qilib, O'zbek modeli iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish bilan birga, davlat qurilishi, jamiyatni demokratiyalashtirish, mulkdorlar sinfini va xususan, o'rta sinfni shakllantirish, ijtimoiy-sinfiiy tuzilmani takomillashtirish va kadrlar tayyorlash, madaniy meros va ma'naviyat bilan bog'liq jihatlari singari bir qator keng qamrovli hayot sohalarini qamrab oladi. Bu uning o'ziga hos ustuvor xususiyatlaridan biridir.

Istiqlolning dastlabki yillarida Prezident Islom Karimov rahbarligida islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Bunda taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o'tish tajribasi, mamlakatimiz boshdan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili vujudga keldi:

**Birinchi tamoyil iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga buysundirilishi mumkin emas. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlar mafkuradan xoli bo'lishi lozim.**

1. **Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi va mafkuradan xoliligi** O'zbek modelining tamoyili nafaqat mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning

mazmun-mohiyatini aks ettiradi, balki yurtimiz iqtisodiy hayotining yangiliklarga, ilg'or tajribalar va oqilona tashabbuslarga ochiqligini ham ko'rsatadi.

Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish iqtisodiy munosabatlarni to'g'ri tushunish va ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishning omilidir. U ob'ektiv iqtisodiy qonunlarni tan olishga, mulkchilik shakllariga, taqsimotga nisbatan sub'ektiv munosabatdan qutulishga ma'naviy shart-sharoit yaratadi. Islom Karimov ta'kidlagani kabi: «Mafkuraviy aqidalarni bartaraf etish xo'jalik yuritishning turli ijtimoiy shakllariga nisbatan xayrixoh bo'lgan ijtimoiy fikrning, bozor munosabatlariga mos bo'lgan psixologiyaning va shunga xos iqtisodiy tafakkurning idrok etilishiga ko'maklashadi».

Mazkur tamoyil iqtisodiy rivojlanishda ma'naviyatning ahamiyati nechog'lik muhim ekanini, uning nozik qirralarini ochib beradi.

**Ikkinchi tamoyil.** Davlat – bosh islohotchi. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi lozim.

Mustabid tuzum asoratlaridan xalos bo'lish jarayonida o'zini o'zi tartibga soladigan etuk rivojlangan iqtisodiy mexanizm birdaniga vujudga kelib qolmaydi. Shu boisdan ma'muriy-buyruqbozlikka, markazlashgan iqtisodiyotga asoslangan tuzum qoldiqlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish, bu yo'ldagi turli ziddiyat va qarshiliklarni engib o'tish, yangi munosabatlarni qaror toptirish uchun o'tish davri kerak. Ziddiyatlarga boy bo'lgan o'tish davri sharoitida iqtisodiyotni, islohotlarni o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi.

Islom Karimov, O'zbek modelining mazkur tamoyilini ilmiy asoslar ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi: «o'tish davrida davlat xalq xo'jaligining, Ayniqsa, uning asosini, tizimini belgilaydigan tarmoqlarning faoliyatini qo'llab-kuvvatlashi, narx-navolarni tartibga solib turishi, shuningdek, bevosita yordam berishda imtiyozlar yaratishi, bevosita yordam ko'rsatish yo'li bilan ana shu tarmoqlarga madad berishi lozim»<sup>9</sup>.

Bu so'zlar davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifasi nimadan iborat ekanini asoslab beradi va ayni paytda turli ijtimoiy guruhlarning, nodavlat va jamoatchilik tashkilotlarining, alohida shaxslarning islohotchilik tashabbuslari va faoliyatlari cheklanmasligini, aksincha, davlat ularga yordam berishini bildiradi.

**Uchinchi tamoyil.** Jamiyat hayotining barcha soxlarida qonunning ustuvorligi. Demokratik yo'l bilan kabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga oo'ishmay rioya etishi lozim.

Birinchiidan, mazkur tamoyil turli mulk shakllarining teng huquqiy asosda rivojlanishini ta'minlaydi. Mulkchilik shakllari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar, raqobat kat'iy huquqiy me'yorlar yordamida tartibga solinadi. Iqtisodiyotni boshqarishda o'zboshimchalik va sub'ektivizmga, turli iqtisodiy zo'ravonliklarga yo'l qo'ymaslik uchun zarur huquqiy shart-sharoit vujudga keladi. Ikkinchiidan, demokratiya rivojlanadi, aholining siyosiy madaniyati va faolligi oshadi. Fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi rivoji, mafkuraviy plyuralizm qaror topishi uchun huquqiy kafolat paydo bo'ladi. Inson huquqlari ta'minlanadi. Noqonuniy imtiyozlarga yoki aksincha, kamsitilishlarga chek qo'yiladi.

---

<sup>9</sup> Islom Karimov. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1 jild. Toshkent, "O'zbekiston", 1996 yil, 310-bet

Uchinchidan, alohida shaxsning, barcha ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlari to'liqroq hisobga olinadi va ularning yaratuvchilik imkoniyatlari, ijodiy salohiyati samaraliroq ruyobga chiqadi. Jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyati yil sayin ortib boradi. Fuqarolik jamiyati shakllanadi. Demak, qonunning ustuvorligi tamoyili, keng ma'noda, O'zbekistonda ijtimoiy taraqqiyotga, jamiyat yangilanishiga, inson shaxsining yuksalishiga xizmat qiladi.

O'zbek modelining mazkur tamoyili o'zidan avvalgi tamoyil bilan chambarchas bog'liq. Zero, davlat bosh islohotchi sifatida ijtimoiy barqarorlik, qonuniylik va huquq-tartibotning asosiy kafili bo'ladi. Ushbu tamoyil jamiyat hayotida birdaniga to'liq qaror topib qolmaydi. U nisbatan uzoq muddat talab qiladigan, bosqichma-bosqich va doimiy rivojlanib boradigan jarayon. Uning to'liq qaror topishi uchun o'zaro mushtarak bo'lgan quyidagi uch omil muhim ahamiyat kasb etadi:

1. jamiyatning, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan puxta va zaruratga qarab o'zgaruvchi qonunlar majmuasining vujudga kelishi va doimiy takomillashib borishi;
2. jamiyat a'zolarining huquqiy savodxonligi darajasi va qonunga itoatgo'yiligining yuksak bo'lishi;
3. mavjud qonunlarni hayotga tatbi etishning zarur iqtisodiy shart-sharoiti, siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy mexanizmini yaratish.

**To'rtinchi tamoyil.** Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholini, ayniqsa kam ta'minlangan oilalarni, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim.

Kuchli ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismlari va yo'nalishlari ko'p. Ular ijtimoiy ta'minot, yangi ish o'rinlari yaratish, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyat, sport va jismoniy tarbiya sohalari faoliyatini mablag' bilan ta'minlash va isloh qilishdan tortib, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquq-tartibotni ta'minlashgacha bo'lgan masalalarni qamrab oladi.

Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish va aholining turli qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish O'zbek modelining insonparvarlik mohiyatini belgilovchi tamoyillardan biridir.

**Beshinchi tamoyil.** Bozor iqtisodiyotiga ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tish. Bu ish islohotlarning huquqiy asoslari va kafolatlarini vujudga keltirish, aholini ijtimoiy himoyalash va uning yangicha iqtisodiy tafakkurini shakllantirish bilan birga olib borilishi lozim. «Faqat farmonlar, farmoyishlar chiqarish bilan bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. U uzoq tarixiy taraqqiyotning natijasi bo'lib, tegishli infrastrukturani va huquqiy asosni yaratishnigina emas, shu bilan birga, qadriyatlar tizimida chuqur o'zgarishlarni, xo'jalik faoliyati va amaliy munosabatlarni asoslashni ham ko'zda tutadi»<sup>10</sup>.

O'zbekistonda aynan shunday yo'l tutildi. Bunday siyosat yuritish nafaqat mablag'lardan samarali foydalanish imkonini bermogda, shuningdek, odamlarning safarbarligini oshirmogda, ijtimoiy larzalarning oldini olmogda, mulkchilik shakllarini bosqichma-bosqich rivojlantirmogda.

---

<sup>10</sup> Islom Karimov. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1 jild. Toshkent, "O'zbekiston", 1996 yil, 315-bet

Ushbu tamoyillar O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining asosini, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Ularning amalga oshirilishi mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini izchil joriy etishni ta'minlamoqda. Taraqqiyotning O'zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatlar va mentalitetiga tayangani, ayni vaqtda, jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslangani tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda. Xullas, milliy istiqlol g'oyasi mamlakatimizda barpo etilayotgan jamiyat va taraqqiyotning O'zbek modeli bilan uzviy bog'liqdir. Mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish jarayonida bu g'oya xalqimizni pirovard maqsadlar yo'lida uyushtiruvchi omil, ijtimoiy faoliyatning ma'naviy mezoni sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolaveradi.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Taraqqiyot, tadrijiy rivojlanish, O'zbekistonda qurilayotgan jamiyat taraqqiyot tamoyillari, O'zbek modeli, O'zbekistonning xalqaro nufuzi.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:**

- O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
- Taraqqiyotning O'zbek modeli va mafkuraviy jarayon-larning aloqasi qanday?
- Yangi jamiyat barpo etish uchun mafkuraviy tarbiyaning qaysi jihatlariga e'tibor berish lozim?



## 6. MUSTAQILLIK VA MAFKURAVIY MUAMMOLAR: G'OYAVIY BO'SHЛИQ VA ZARARLI G'OYALARNING JAMIYATIMIZGA TA'SIRI

### **G'oyaviy bo'shlik tushunchasi.**

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, muayyan jamiyat taraqqiyoti jarayonida, bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishida turmushning barcha sohalarida, xususan, iqtisodiyot, ijtimoiyot va siyosatida bo'lgani kabi, g'oyaviy-mafkuraviy sohada ham muayyan muammolarni hal qilishi zarurati paydo bo'ladi. Chunki o'ziga xos yangi davr, sharoit, vaziyat an'anaga aylanib qolgan g'oyalar, qarashlar, munosabatlarni o'zgartirmasdan, ma'lum mafkuraga asoslanmasdan yangi maqsadlar sari qadam tashlay olmaydi. Bu esa yangi g'oya, qarash, munosabat, mafkurani ishlab chiqishni talab etadi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta'kidlagani kabi: «o'zining hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura bo'lmasa har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar»

G'oyaviy, mafkuraviy bo'shlik bir kunda va birdaniga paydo bo'lmaydi. Bunda muayyan jarayonlar ro'y berishi lozim. Ya'ni eski g'oya va mafkura tanazzulga yuz tutishi, umrini o'tab bo'lishi, o'tmishga aylanishi mumkin. Masalan, sobiq ittifoq mafkurasi ana shunday holga tushgan edi. Uning asosiy g'oyalari sobiq sho'rolar hokimiyati rahbarligida zo'rlik bilan amalga oshirildi. Natijada bu mafkura yakka hukmron bo'lib qolgan edi. U XX asrning 80-yillarida tanazzulga yuz tutdi. 1991 yilda sobiq Ittifoq tarqalib ketishi bilan uzil-kesil inqirozga uchradi. Buning sabablari nimalardan iborat edi?

Birinchiidan, u o'zini insoniyat tafakkuri erishgan eng yuksak cho'qqi, mutlaq haqiqat ifodasi deb hisoblab, boshqa mafkuralarni tan olmas, ular bizning dushmanimiz, degan aqida asosida murosasizlarcha ish tutar edi.

Ikkinchiidan, bu mafkura zo'ravonlikka asoslangan bo'lib, «majbur qilamiz» qabilida ish tutar, uning g'oyalari hamma joyda, hamma vaqt hech istisno va to'xtovsiz targ'ib qilinar, xalqning erkin yashashi va fikr yuritishiga yo'l qo'yilmas edi. Kimki bu tartibga (aslida tartibsizlik va vahshiylikka) qarshi chiqsa, shafqatsiz jazolanar, butun davlat mexanizmi ana shu jazoni turli shakllarda amalga oshirishga qaratilgan edi.

Uchinchiidan, bu mafkura nomigagina ijtimoiy guruhlar mafkurasi edi. Aslida sobiq Ittifoq davrida ziyolilar, dexqonlar, xizmatchilar, qolaversa, «yo'l boshchi sinf» bo'lgan ishchilarning orasida ham bu mafkuradan norozi bo'lganlar bor edi. Lekin metin mafkuraviy devor ortidan ularning ovozi chiqmas edi.

To'rtinchiidan, bu mafkura hech kimga vijdon erkinligi, o'z fikrini ochiq bayon etish, jumladan, xorij fuqarolari bilan xolisona muloqotda bo'lishga ham yo'l qo'yilmas edi. Bordi-yu kimdir shunga jur'at etsa, «xalq dushmani», «burjuaziya malayi»ga aylanar edi.

Beshinchiidan, u milliylikdan butunlay xoli edi. Unda mavhum baynalmilallik zo'r berib kuylanardi. Kimki milliy qadriyatlar to'g'risida gap ochsa, darhol «millatchi»ga chiqarib qo'yilardi. Milliy tafakkurga ega bo'lgan shaxs, mutaxassis, ziyoli, olim va boshqalar «qoloq, «shubhali kishi» hisoblanardi.

Oltinchiidan, unda milliy tarix, xususan, O'zbekiston tarixi, uning o'tmish merosi mutlaqotan olinmas edi. Nari borsa, ular ko'pincha umumiy tarzda qayd etilardi, xolos.

Ettinchidan, xalqlarning diniga, diniy merosiga, diniy qadriyatlariga nisbatan mutlaqo noto'g'ri munosabat o'rnatilgan edi. Jumladan, xalqimizning ulug' siymolari Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Mahmud Zamaxshariy, Imom Moturidiy, So'fi Olloyor kabi allomalarning boy ilmiy merosini o'rganish, ulardan foydalanish taqiqlangan edi.

Bularning barchasi bolshevistik-kommunistik mafkuraning taraqqiyot talablariga mutlaqo zid ekanini yakqol namoyon etdi. Shu bois u yangi zamonaviy talablarga dosh berolmay, o'z davlati bilan birga tarixga aylandi.

Sobiq mustabid tuzum o'rnida yangi mustaqil davlatlar shakllandi. Hukmron mafkura barham topgach, uning hududida ma'lum muddat g'oyaviy-mafkuraviy bo'shliq (vakuum) holati vujudga keldi.

**G'oyaviy bo'shliqni to'ldirish zarurati hozirgi davrda dozarb masalalardan biridir.** Xo'sh, aslida g'oyaviy bo'shliq nima? g'oyaviy bo'shliq eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish jarayonida oldin hukmronlik qilib kelgan mafkura o'tmishga aylangach, taraqqiyot talablariga mos ravishda uning o'rnini bosadigan ilg'or g'oyaviy tizimning hali shakllanmagan holatidir. Bunday sharoitda turli mafkuralar ushbu hududga o'z ta'sir doirasini o'tkazishga urinadi.

1990 yillarning boshlarida bunday mafkuraviy bo'shliq O'zbekiston hududida ham namoyon bo'ldi. Uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat edi.

Birinchidan, hukmron, yakkahokim bolshevistik — kommunistik mafkura batamom tanazzulga yuz tutdi va uning o'rni bo'shab qoldi.

Ikkinchidan, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topgan bo'lsa-da, uning mafkurasi hali to'la-to'kis shakllanmagan va barcha fuqarolar ongiga singib ulgurmagan edi. To'g'ri, mustaqillik mafkurasi g'oyalari mamlakatimiz fuqarolarining ma'lum qismi ongi, dunyoqarashida o'z o'rniga ega bo'lsa-da, Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida isbotlangan bo'lsa-da, ammo u hali to'la holda barchaning mustaqil dunyoqarashiga, mustahkam e'tiqodiga aylana olmagan edi.

Uchinchidan, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lgan joyda muqarrar tarzda boshqa yot va begona mafkuralar xuruji boshlanadi. O'tish davrida, yangicha qarashlar mustahkam e'tiqodga aylanib ulgurmagan paytda tashqi mafkuraviy ta'sirlarning yaxshi yoki yomon, foydali yoki zararli ekanini hamma ham farqlay ololmaydi. O'zbekistondagi mafkura maydoniga begona, xalqimizning orzu-intilishlariga mutlaqo yot g'oyalarning hujumi ana shu bilan ham izohanadi.

To'rtinchidan, mustaqil mamlakatimiz tinch-osoyishta yashayotgan bir paytda Afg'oniston va boshqa yaqin hududlardagi beqaror vaziyatdan foydalanib, ularning hududiga in qurib olgan ba'zi bir ekstremistik kuchlar, terrorchi tudalar o'z jinoyatkorona maqsadlarini amalga oshirishga, Markaziy Osiyo mintaqasini mafkuraviy kurashlar maydoniga aylantirishga urina boshlagan edi.

Bu jinoiy guruhlar o'zlarining yovuz maqsadlarini turli islomiy, mafkuraviy g'oyalar bilan niqoblashga harakat qildilar. Ana shu soxta g'oyalarni tarqatib, yoshlarni yo'ldan ozdirishga intildilar. Ayniqsa 80-yillarning ikkinchi yarmidan din niqobidagi zararli, xalqimizning iymon-e'tiqodiga to'g'ri kelmaydigan qarashlarni, vahhobiylik, xizbut-taxrir kabi harakatlarning ta'sirini yoyishga kirishdilar. Bu harakatlar 90-yillarning boshiga kelib yanada kuchaydi. Mamlakatimiz aholisining tinchligi va osoyishtaligiga «vahhobiylik», «xizbut-taxrir», «akromiylik», «adolat

uyushmasi», «islom lashkarlari», «tavba» kabi turli zararli g'oyalarga asoslangan kuchlar va harakatlar tahdid sola boshladi.

Masalan, vahhobiylik g'oyalarini qisqa tahlil qilaylik. Mamlakatimizdagi g'oyaviy maydonga o'r mashib olishga harakat qilgan vahhobiylik diniy niqobdagi zararli oqim bo'lib, unga XVIII asrning 40-yillarida Arabiston yarim orolida Muhammad ibn Abdul-Vahhob (1703–1792 yillarda yashagan) tomonidan asos solingan. Bu ta'limot IX asrda vujudga kelgan xanbaliylik mazxabining asoschisi Axmad Abu Abdulloh ash-Shayboniy (780–855 yillarda yashagan) ta'limotining ayrim tajovuzkor jihatlarini, XIV asrdagi suriyalik ilohiyotchi T.O. Taymiyyaning ba'zi qarashlarini o'z faoliyati uchun asos qilib olgan.

Vahhobiylik islom g'oyalariga siyosiy tus berib, din nomidan ish yuritib, g'uyoki islomni payo'ambar davridagi «asl holatiga qaytarish», ya'ni uni tozalash, barcha musulmonlarni islomning yashil bayrog'i ostida birlashtirish kabi g'oyalarni ilgari suradi. Bu mafkuraning ijtimoiy mohiyati Ollohdan boshqa barcha diniy va hayotiy qadriyatlarni inkor qiladi. «Kur'oni Karimning muqaddas»ligini e'tirof etsada, uning tafsirini inobatga olmaslik, choriyorlarni (hazrati Abu Bakr, hazrati Umar, hazrati Usmon, hazrati Ali), aziz-avliyolarni, buyuk piru valiylarni tan olmaslik, muqaddas qadamjolarini bo'zib tashlashni targ'ib qilishda namoyon bo'ladi. Ular islom dinidagi mazxablar — xanafiylilik, molikiylik, shofiiylik, ja'fariylik vakillarini kofir deb ataydilar.

Vahhobiylar Muhammad payo'ambarning «kishilarga dindagi og'ir, mashaqqatli amallarni emas, engil va osonlarini buyuring, ularni xotirjam qiling, og'ir amallarni buyurib, dindan qo'rqitib, cho'chitib yubormang» yoki «qo'li bilan va tili bilan o'zgalarga ozor bermagan kishi musulmondur», degan hadislariga amal qilmaydi, aksincha, ularga zid ish tutadi. Ular dunyoviy madaniyatni inkor qilib, musiqa, teatr, tasviriy san'at bilan shug'ullanishni, undan zavq-shavq olishni qoralaydi, bu ishlarni kufr va gunohi azim deb hisoblaydi.

Vahhobiylik mustaqillikning ilk yillaridagi g'oyaviy bo'shliqdan ustalik bilan foydalanishga intildi. Shuning uchun ba'zi kishilarni arab mamlakatlarida sayohatda, xizmat safarida, o'qishda bo'lgan vaqtlarida o'z ta'siriga tushirishga harakat qildi. Shundan so'ng, dastlab joylardagi masjidning imom-xatibligi uchun, keyinroq esa mamlakat diniy idorasining nufuzli lavozimlari uchun kurashdi, islom siyosiy partiyasini to'zishga harakat qildi. Asta-sekin O'zbekistonni islom respublikasi deb e'lon qilish, mintaqamizda xalifalikni tiklash rejasini amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Ular o'tgan yillarda qonli jinoyatlar, tartibsizliklar sodir etdilar. 1999 yil 16 fevraldagi Toshkent portlashlarida ham ularning qo'li bor edi. 1999 va 2000 yillar davomida mamlakatimiz chegara hududlarida sodir etilgan terrorchilik harakatlarida katnashdilar, O'zbekiston davlati, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qarshi tajovuzlar uyushtirdilar.

Hizbut-taxrir ham sobiq mafkura tanazzulga yuz tuta boshlagan davrlardan boshlab, g'oyaviy bo'shliq sharoitida muayyan kishilar ongi, dunyoqarashiga ta'sir o'tkaza boshladi. Unga islom siyosiy partiyasi sifatida 1950–1953 yillarda Livanda Takiyyuddin Nabxoniy asos solgan. Hozirgi vaqtda bu harakatga Abdulkadim Zallum degan kishi rahnamolik qilmoqda. Jami 30 dan ziyod islom mamlakatida norasmiy faoliyat yuritayotgan bu partiyaning asosiy maqsadi — xalifalikni tiklash, bugungi dunyoviy davlatchilik asoslarini yo'q qilish, demokratiya printsiplarini rad etish, qonun ustuvorligi o'rniga shariat aqidalarini joriy etish, saylov tizimini inkor qilishdan iborat.

Hizbut-taxrir ham 90-yillarning boshlarida O'zbekistonda g'uyog'oyaviy bo'shliqni to'ldirish uchun harakat boshladi. Maqsad – bizning mintaqamizda o'zining siyosiy, g'oyaviy, mafkuraviy jihatdan uzoqni ko'zlovchi maqsadlariga erishish, ta'sir doirasini kengaytirish, odamlarning qalbi va ongini zabt etish edi. Hizbut-taxrircilar g'oyaviy bo'shliq sharoitida aholining ma'lum qismi, avvalo, hali dunyoqarashi to'la shakllanmagan, sodda yoshlarga islom dini, uning ibodat amallari, Qur'oni Karimni o'rgatish, turli diniy manbalardan saboq berish bahonasida o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qildi. Ular odatda 3–4 kun islomni o'rgatib, keyin asl maqsadga o'tadi. Hizbut-taxrircilar «Islom nizomi», «Islomda boshqaruv nizomi», «Islomda iqtisodiyot nizomi», «Hizbiy uyushma», «Hizbut-taxrir tushunchalari», «Islomiy davlat», «Islomiy shaxsiyat», «Hizbut-taxrirning siyosiy qarashlari», «Dastur muqaddimasi», «Xalifalik», «Xalifalik qanday tugatildi?», «Uqubatlar nizomi», «Tafkir», «Ziyraklik sur'ati», «Islomiy fikr», «Demokratiya — kufr nizomi», «Xalifalik davlatida mol-mulklar», «Sabr», «Izzat va sharaf sari» kabi o'quv dasturlari, kitob va risolalari, «Al-Va'y», «Ong» jurnali, ko'plab varaqalari orqali xalifachilik g'oyasini yoshlar ongiga singdirishga harakat qiladi.

Hizbut-taxrircilar ko'proq diniy ta'lim olgan yoshlarni o'z yo'liga og'dirishga harakat qildi. Keyin esa ularning safini yoshlarning boshqa guruhlariga mansub vakillari bilan to'ldirishga intildi. Nihoyat, vaqti kelib, ularni islomiy bilimlargagina emas, terrorchilik harakatlari uchun ham tayyorlay boshladi. Bunday zararli g'oya, mafkura va qarashlar bilan qurollangan yoshlar Afg'oniston va Pokiston hududida, qo'shni davlatlarning ba'zi tumanlarida dunyoviy davlatning ashaddiy dushmani sifatida tayyorlandi. Ularning kuchi bilan turli qo'poruvchilik ishlari, jang-jadallar rejalashtirildi. Natijada 1999 yil 16 fevralidagi portlashlar, 2000 yilda esa Bo'stonlik, Sariosiyo, Uzunning tog'li hududlaridagi qurolli xurujlar sodir etildi. Bunday yovuz harakatlar yon qo'shnimiz Afg'oniston hududidan panox topgan vayronkor kuchlar, boshqa uzoq-yaqin mamlakatlardagi ekstremistik guruhlar, Usama Ben Ladenga o'xshagan ashaddiy terrorchilarning moliyaviy va g'oyaviy qo'llab-kuvvatlashi hamda raxnamoligi ostida amalga oshirildi.

Ular o'z niyatlarini amalga oshirishda «do'stlik», «dindoshlik», «millatdoshlik» tushunchalarini ham ishga soladi. Kerak bo'lganda moddiy yordam ham ko'rsatadi. Masjidlar qurib berib, islomiy adabiyotlar bilan ta'minlab, o'zlarini haqiqiy dindor, haqiqiy musulmon qilib ko'rsatishga intiladi. Ammo razil niyatlarini baribir oshkor etadilar, turli qo'poruvchilik, tezkor ishlariga sabab bo'ladilar. Vahhobiylik, xizbut-taxrir kabi zararli oqimlar mustaqillikning dastlabki yillarida sodir bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan ustamonlik bilan foydalanishga intilgan bo'lsa-da, lekin baribir maqsadlariga erisha olmadi.

Xo'sh, 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshida ayrim yurtdoshlarimiz nima uchun zararli g'oya va yot mafkuralar ta'siriga tushib qoldi?

Bu holatning mohiyati Prezident Islom Karimov asarlarida to'la-tukis ochib berilgan. Bu asarlardan masalaning mazmun-mohiyatini chuqur va atroflicha o'rganish zarur.

Birinchiidan, sobiq mustabid mafkura barbod bo'lganidan keyingi dastlabki yillarda milliy g'oya, istiqloq mafkurasini to'liq shakllanib, odamlarning qalbi va ongiga singib ulgurmagani edi. Natijada e'tiqodi bo'sh, sodda va ishonuvchan odamlar bilib-bilmay noto'g'ri yo'llarga tushib qoldilar.

Ikkinchidan, mustaqil O'zbekiston eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish jarayonida bir qator tabiiy qiyinchiliklarga duch keldi. Insoniyat tarixidan ma'lumki, o'tish jarayonida qiyinchiliklar bo'lishi qonuniydir. Jumladan, iqtisodiy sohada ham qiyinchiliklar bo'lishi muqarrar. Bunday paytda sabr-qanoatga o'rganmagan, engil yo'l bilan yashashga ko'nikkan ayrim kishilar ma'lum qiyinchiliklarga duch kelgach, o'z turmush tarzini yangilash uchun oson yo'l axtardi. Ular aksariyat hollarda adashib, noto'g'ri yo'llarga kirib qoladi. Ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish o'rniga engil yo'l bilan boyishni xohlovchilar ham shunday guruhlarga qo'shilib qolishi mumkin.

Uchinchidan, bugungi kunda yoshlarning hammasini ham serdaromad ish bilan ta'minlash imkoni yo'q. Ular diplomi, ma'lumoti bo'lsa ham, ba'zan ko'ngildagidek ishni topa olmaydi yoki kam ish haqi olib ishlashni xohlamaydi. Buning natijasida yana oson yo'l axtarib noto'g'ri, yomon, salbiy harakatlarga qo'shilib ketishi ham mumkin.

To'rtinchidan, zararli va yot mafkura vakillari xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimizning ko'ngli ochiq, soddadil, ishonuvchan, diniy qadriyatlarga intilish tuyg'usidan ustalik bilan foydalanmoqda. Bunday sharoitda ayrim soddadil odamlar «mana endi dahriylikdan qutuldik», degan xayollar bilan dinning asl mohiyati bilan diniy niqobdagi ekstremizmni ajrata olmay qoldi. Shu bilan birga islom amallarini yaxshi bilmagan ayrimlar ota-bobolarimizning muqaddas dinini o'rganamiz, deb, vahhobiylik, hizbut-taxrir kabi turli zararli g'oya va oqimlar ta'siriga tushib qoldilar.

Beshinchidan, sobiq tuzum davrida ko'plab tashkilotlar zo'rlik orqali majburiy bo'lsada, muntazam targ'ibot-tashviqot olib borar edi. Lekin mustaqillik davrida ularning o'rnini muayyan darajada bo'shab qoldi va bu vazifani dastlab hech qaysi tashkilot bajarmadi. Keyinchalik tashkil etilgan. «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi va boshqalar esa etarli darajada samarali faoliyat yuritilmadi. Natijada har bir fuqaro imkoni boricha o'z dunyoqarashini o'zi mustaqil shakllantirishi zarur bo'lib qoldi. Bunga qodir bo'lmagan ayrimlar zararli g'oyalar ta'siriga berila boshladi. Ayniqsa, yoshlarni uyushtirish, istiqlol g'oyalari yo'lida fidoyi etib tarbiyalashi lozim bo'lgan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faoliyati ham istiqlol talablariga javob bermas edi. Natijada ko'plab yoshlar istiqlol g'oyalari asoslangan tarbiyaviy jarayonlardan chetda qolib ketdi.

Shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalarning mafkuraviy sohada etarli ish olib bormagani, ijtimoiy fanlarning hayot talablaridan orqada qolgani, jamiyat ruhiyati va tafakkurida ro'y berayotgan murakkab jarayonlar o'z vaqtida ilmiy echimini topmagani, odamlarga mafkuraviy jihatdan to'g'ri yo'l ko'rsatishga kodir bo'lgan shaxslar, diniy ulamolarning etarli emasligi ham bunga sabab bo'ldi.

Xullas, umrini o'tab bo'lgan g'oya, aqida yoki mafkura taraqqiyot nuqtai nazaridan inkor etilishi natijasida g'oyaviy bo'shliq vujudga kelar ekan, turli mafkuraviy tahdidlar kuchayadi. Shu ma'noda, Prezident Islom Karimovning quyidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega: «Men ko'xna bir haqiqatni yana eslatmoqchiman: tabiatda bo'shliq bo'lmaganidek, insonning ongu tafakkurida ham bo'shliq vujudga kelishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Har bir ongli odamning vokelikka o'z munosabati, maqsad va intilishlari bo'lishi tabiiy»<sup>11</sup>.

---

<sup>11</sup> Islom Karimov. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». Toshkent, «O'zbekiston», 2000.

G'oyaviy, mafkuraviy tahdid kuchaygan joyda aholi keng qatlamlari, xususan, yoshlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan urinishlar kuchayib boradi.

Ayniqsa, dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan, katta moliyaviy va mafkuraviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan ba'zi g'oyaviy markazlar ana shunday vaziyatdan foydalanib, o'z yovuz niyatlarini amalga oshirish yo'lida kechayu kunduz harakat qilmoqda.

Xalqaro terrorchi va ekstremistlarning niyati aniq. Ular istiqlol yo'lidan borayotgan O'zbekistondagi g'oyaviy bo'shliqni o'z g'oyalari bilan to'ldirib, mamlakatimiz hududidagi beqiyos boyliklarga egalik qilish, xalqimizni o'z siyosati, o'z hukmronligiga bo'ysundirishni, eng yomoni, mana shu muhim geopolitik maydonni o'z ta'sir doirasiga olishni orzu qilmoqda.

### **Mafkuraviy tahdidlar.**

Aytilganlardan kelib chiqib, bugungi kunda mamlakatimizga qarshi qaratilgan mafkuraviy tahdidlarni alohida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) islom xalifaligini tiklab, uning bayrog'i ostida musulmon xalqlarni yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlar;
- 2) yosh mustaqil davlatlarni qaytadan sobiq Ittifoqqa birlashtirish g'oyasi;
- 3) tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinishlar;
- 4) axloqsizlikni yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga qaratilgan intilishlar;
- 5) turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolar keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar.

**1.** Islom xalifaligini tiklashga urinishlar xavfli ko'rinish olmoqda. Masalan, xizbut-taxrirlarga tegishli qaysi bir adabiyotni olib qaramaylik, unda xalifalikni tiklashga da'vat qilinadi. «Akromiylik» esa dastlab Andijon viloyatida, so'ngra Farg'ona vodiysida, keyinroq mamlakatimizning butun hududida, keyinchalik barcha musulmon mamlakatlarida xalifalikni tiklash g'oyasini olg'a suradi. Islom tarixidan ma'lumki, xalifalikka Muhammad payg'ambar vafotidan keyin choriyorlar Abu Bakr as-Siddiq (632–634), Umar ibn Xattob (634–644), Usmon ibn Affon (644–656), Ali ibn Abu Tolib (656–661) birin-ketin rahbarlik qilgan. Bu davrda xalifa dinning ham, davlatning ham boshlig'i, rahnamosi hisoblangan. Keyinchalik podsholik bo'lib, rahbarlik 661–749 yillarda makkalik zodagonlardan Muoviya bin Abu Sufyon sulolasi qo'lga o'tgan va ummaviylar sulolasi nomini olgan. 749 yili toju taxt Muhammad payo'ambarning amakilari avlodlaridan bo'lgan Abdul Abbas as-Safok sulolasi qo'lga o'tgan. Ularning davlati abbosiylar nomi bilan mashxur bo'lib, 1238 yilgacha, mug'ullar zabt etguncha davom etgan. Ayni paytda XII–XIII asrlarda Misr va Marokashda fotimiylar sulolasi ham o'z davlatini joriy qilgan. XVI asrdan e'tiboran usmonli turklar ham xalifalik e'lon qilganlar va u 1924 yilning uchinchi martigacha hukm surgan. Turkiya respublika deb e'lon qilinishi bilan xalifalik hokimiyatiga chek qo'yilgan va so'nggi xalifa Abdumajid 1924 yil 4 martining tong otarida Istambuldan Shveytsariyaga chiqarib yuborilgan. XX asrda islom dunyosi va boshqa mamlakatlar ham o'zlari tanlagan taraqqiyot yo'lidan rivojlanib kelmoqda. o'tgan yillar tarixiy tajribasi xalifaliksiz ham erkin rivojlanish mumkin ekanini ko'rsatdi. Xalifalik tarix saxifalarida qolib ketdi.

**2.** Bugungi kunda sobiq Ittifoq respublikalarining ayrimlarida eski tuzumni qaytadan tiklashni xohlovchilar, buni o'zlari uchun g'oyaviy maqsad qilib olgan

kuchlar ham mavjud. Sobiq Sho'ro tuzumi 1991 yilgi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlardan so'ng barham topdi. Holbuki, o'tmishga kaytish, tarixni teskari aylantirish mumkin bo'lmaganidek, o'z yo'lini topib olgan, mustaqil davlatlar, Ayniqsa, O'zbekiston va o'zbek xalqi yana eski holatga kaytishga aslo rozi bo'lmaydi. Islom Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida sobiq tuzum to'g'risida to'xtalib, shunday degan edi: «Bugun o'sha davr to'g'risidagi haqiqatni xolisona aytadigan bo'lsak, u zamondagi hayotimizni jahon tarixi va amaliyoti bilan taqqoslaydigan bo'lsak, shuni ochiq aytish kerakki, u paytda O'zbekiston bir yoklama iqtisodiyotga – markazga butunlay qaram, izdanchiq qan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakatga aylangan edi»<sup>12</sup>. Endilikda O'zbekiston bu borada o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanlab olgan, u hech qachon o'zi tanlagan mustaqillik yo'lidan kaytmaydi.

**3.** O'zbekiston xalqi, o'zbek xalqi juda katta ma'naviy merosga ega. Lekin sobiq mafkura ta'sirida uzoq yillar tariximiz bir tomonlama yoritib kelindi. Lekin hali bu sohada ko'plab muammolar ham mavjud. «Tarixdan ma'lumki, bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo, uni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi... zararli ta'sirlar davom etaversa, millat o'zligini yo'qotishi, ming yillik an'analarini boy berib, olomonga aylanib qolishi ham hech gap emas»<sup>13</sup>. Ana shuni yaxshi biladigan kuch va turli poligonlar bizni tariximizdan judo qilish, uni zo'r berib sox-talashirishga intiladilar. Bu borada turli yo'llardan foydalanishga, Ayniqsa yoshlarimizni yo'ldan ozdirishga harakat qiladilar.

**4.** Mamlakatimiz xalqining qalbi va ongiga yot mafkurani singdirish uchun dushmanlarimiz bir qarashda beozor, guyo siyosatdan xoli tuyuladigan mafkuraviy vositalarga katta e'tibor bermoqda. Jumladan, keyingi yillarda ko'plab namoyish etilayotgan engil-elpi yoki jangarilik filmlari bunga misol bo'ladi. Ma'lumki, bu filmlarni ko'pchilik, Ayniqsa yoshlar maroq bilan tomosha qiladi. Sir emas, anchagina odamlar tabiatida, xulq-atvorida mana shunday to'polonlarga moyillik bo'ladi. Prezidentimiz shuni hisobga olgan holda ta'kidlagani kabi: «Shuning uchun ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko'pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizliklarni o'rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag'irlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o'zi ham sezmay qoladi. Hatto shunday tomosha va filmlarning qaxramonlariga ko'r-ko'rona taqlid qilishni istaydigan yigit-qizlar ham topiladi. Chunki, ular bunday uydirma talqinlar ta'sirida qo'l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini tushunib etmaydi. Afsuski, bizning televideniemizda ham shunday filmlarni namoyish etishga ortikcha ruju qo'yilmoqda»<sup>14</sup>.

**5.** Mamlakatimizga tahdid solayotgan mafkuraviy vositalardan yana biri uzoq davom etadigan mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni keltirib chiqarishga urinish bo'lib, buni ayrim mamlakatlar hududida faoliyat ko'rsatayotgan ba'zi g'oyaviy-mafkuraviy markazlar o'zlariga maqsad qilib olgan. Ular muayyan mamlakat hududidan boshqa mamlakatga qarshi giyoxvand moddalar, ta'qiqlangan adabiyotlar, turli qurol-yarog' kabi narsalarni noqonuniy tarzda olib o'tishga urinmoqda. Ularning ma'lum bir

---

<sup>12</sup> Islom Karimov «Milliy istiilol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir». Toshkent «O'zbekiston», 2000 yil-11-bet.

<sup>13</sup> Islom Karimov. «Egali yurt erkini bermas», «Xalq so'zi», 2000 yil 31 avgust

<sup>14</sup> Islom Karimov. «Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir», Toshkent, «O'zbekiston», 2000 yil, 11-bet.

kuchlari Afg'oniston hududida turib, Markaziy Osiyo davlatlariga – O'zbekiston va Qirg'iziston hududiga, bu erda yashayotgan xalqlar hayotiga qarshi tajovuzkorona harakatlar qilishga, begunoh insonlar qonini tukishga intilmoqda. Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, «bunday o'taketgan xunrezlik, muttahamlikni o'ziga kasb qilib olgan bizning umumiy dushmanlarimizga muqaddas zaminimizda aslo o'rin bo'lmasligi kerak».

Bu tahdidlar, eng avvalo, oddiy insonlar qalbi va ongini zabt etishga, ularni o'z milliy qadriyatlaridan, umumbashariy tsivilizatsiya yutuqlaridan mahrum etishga, pirovard natijada yurtimizni qaram qilib olishga qaratilgan tajovuzkorlikning mafkuraviy shaklda namoyon bo'lishidir.

Xalqimizni turli g'oyaviy tahdidlardan asrash, jamiyatimiz a'zolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun, avvalo, ularni milliy g'oya, istiqlol mafkurasi bilan qurollantirish zarur edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatimizda eski mafkura asoratlariga, quruq safsatabozlikka, xalqimiz manfaatlariga zid bo'lgan sobiq siyosiy va mafkuraviy tuzilmalarga barham berildi. Ijtimoiy adolat, xavfsizlik, ijtimoiy muxofaza, millati, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, fuqarolarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini, qonunning ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan zarur chora-tadbirlar ko'rildi. Jamiyatdagi sog'lom ijtimoiy-siyosiy muhitni buzadigan, odamlar fikrini chalg'itadigan noxush holatlarga barham berildi. Mamlakat va xalq manfaatlari yo'lida birlashish, hamjihat bo'lish, barcha imkoniyatlardan ehtirolarga berilmay, aql-idrok bilan foydalanish yo'li tutildi.

Lekin mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab jamiyatimizda ma'naviy poklanish zarurati sezildi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov shunday sharoitda birinchi bo'lib jamiyatda ma'naviy poklanish uchun eski aqidalardan xalos bo'lish lozimligini ko'rsatib berdi, keyinchalik esa milliy istiqlol mafkurasini yaratish zaruratini asosladi va jamiyatimiz e'tiborini unga qaratdi.

Sho'rolar mafkurasi kishilar ongiga ijtimoiy tenglik, bugungi ta'bir bilan aytganda, boqimandachilik tushunchasini singdirib ketgan edi. Bunday kayfiyat odamning tashabbusiga yo'l bermas edi. Chunki inson o'z mehnat mahsulidan manfaatdor bo'lmasa, unda xalol ishlash, mas'uliyat tuyg'usi yuqoladi. Bunday illatdan esa milliy istiqlol mafkurasi vositasida xalos bo'lish mumkin. O'zbekistonda ozod va obod Vatan, erkin va farovon barpo etish g'oyasi asosida milliy istiqlol mafkurasi ishlab chiqildi. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari Islom Karimov asarlarida o'z aksini topdi, nazariy jihatdan isbotlandi.

Milliy g'oya, istiqlol mafkurasi ijtimoiy taraqqiyot rivojiga qarab takomillashib, yangilanib boradi. Davr talabi bilan o'rtaga tashlangan muayyan qoidalar o'z vazifasini o'tab bo'lib, o'rnini yanada dolzarbroq boshqa xususiyatlarga bo'shatib beradi. Milliy istiqlol g'oyasi ayni ana shunday doimiy yangilanish maxsuli, ong va tafakkur hosilasi hisoblanadi.

Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash va uni buyuk davlatga aylantirish haqidagi siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, falsafiy, ilmiy, ekologik, diniy, demografik tarixiy qarashlar yig'indisi bo'lib, O'zbekiston xalqini istikbolga yuksak ishonch, iymon-e'tiqod ruhida tarbiyalovchi g'oyat kudratli ma'naviy qurol, g'oyaviy omil hisoblanadi. Ana shu sababdan ham mamlakatimiz hududini yosh mafkuralar poligoniga aylanishiga yo'l qo'ymay, O'zbekiston xalqining ongi, dunyoqarashi, hayotga ijtimoiy munosabati, xatti-harakatlarida mafkuraviy



immunitetni shakllantirib, milliy istiqlol mafkurasini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish, bugungi kundagi muhim vazifadir. «Buning yo'li – odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va xurmat qilish fazilatini qaror toptirish. Ularning, men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir»<sup>15</sup>.

Mafkuraviy kurashlar kuchaygan bugungi kunda yoshlar qalbida ona-Vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tilimizga, ota-bobolarimizdan meros muqaddas dinga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishimiz maqsadga muvofiqdir. Zero, yurtboshimiz aytganlaridek, biror bir kasallikni davolashdan oldin inson organizmida avvalo unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham yoshlarimiz qalbi va ongida zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantira olsak, turli xil «da'vatchi»larning aldovlariga uchmaydigan, o'z yurti, Vatani va xalqi uchun fidoyi insonlarni tarbiyalay olamiz.

Xullas, milliy istiqlol g'oyasini mehnatkashlar ongiga singdirish orqali ularda mafkuraviy immunitet xosil qilish zamon amri, davr talabi. Bu bir zumda, birpasda amalga oshiriladigan jarayon emas. Bunda har bir kishining faolligi, omilkorligi talab etiladi. Uning amalga oshirilishi esa O'zbekistonimizning salohiyatini yanada oshiradi, kelajagi buyuk davlat barpo etilishini ta'minlaydi, odamlarimizning e'tiqodini mustahkamlaydi.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Mafkuraviy muammolar, g'oyaviy bo'shlik, yot g'oyalar, zararli g'oyalar, g'oyaviy ta'sir, mafkuraviy tajovuz, mafkuraviy immunitet.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.**

- G'oyaviy bo'shlik nima?
- Zararli g'oyalar ta'siri qanday namoyon bo'ladi?
- Mafkuraviy immunitet qanday xosil qilinadi?
- Yangi mafkurani yaratish zarurati deganda nima nazarda tutiladi?

---

<sup>15</sup> Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni – xalq, millani – millat qilishga xizmat etsin. T., «O'zbekiston», 1998. 14-b.

## 7. MILLIY ISTIQLOL G'OYASINING MOHIYATI VA ASOSIY TAMOYILLARI

### Milliy istiqlol g'oyasi.

Har qanday millat, har qanday xalq bor ekan, uning o'z manfaatlari, o'z maqsad va orzu-idealariga ega bo'lishi tabiiy. Ana shu orzu-umidlar va maqsadlarni ifoda etadigan, ularni ruyobga chiqarish uchun xalqni safarbar qiladigan g'oyalar esa muayyan mafkuraga asos bo'ladi. Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, olijanob maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etadi.

Shu ma'noda, «O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasi, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan asriy orzu-istaklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir». **Milliy istiqlol g'oyasi tushunchasini uning mohiyati va mazmunini chuqur o'rganish muhim masaladir.**

Xalqimiz asrlar mobaynida ezgu niyat qilib kelgan mustaqillikni saqlash va mustahkamlash o'zbekistonlik har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Buning uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, muqaddas ona-Vatanning hayotiy manfaatlarini yurakdan his etgan holda ularni ruyobga chiqarish uchun faol harakat qilishimiz, kurashishimiz zarur. Bu jarayon xalqimiz manfaatlarini, ularni o'zida mujassam etadigan milliy g'oyani anglash bilan bog'liq holda kechadi. Vatanning manfaatlarini har bir fuqaro manfaatlarini bilan uzviy bog'langandir. Zero, Vatanning obodligi xalqning farovonligi bilan bog'liq. Fuqarolari badavlat mamlakatgina moddiy va ma'naviy to'kis bo'ladi. Shunday ekan, milliy istiqlol g'oyasining muhim tamoyillaridan biri inson qadr-qimmatini har tomonlama yuksaltirish, xalq farovonligini oshirishdan iborat. Bunga erishish uchun xalqimiz, yurtimiz fuqarolarining hamjihatligi va birdamligini yanada mustahkamlash talab etiladi. Bu vazifa milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini – mag'zini tashkil etadi.

Istiqlol mafkurasi – har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezon hamdir.

Milliy istiqlol mafkurasining yurtimizda yashovchi har bir fuqaro uchun qadrliligi shundaki, uning mohiyatida quyidagi umuminsoniy tamoyillar yotadi:

Milliy istiqlol mafkurasi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi». Binobarin u qonuniylikka, umume'tirof etilgan talablarga, umuminsoniy tamoyillarga zid kelmaydi;

- xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi. Bu milliy mafkuramizning tarixiy va ma'naviy asosga ega ekanidan dalolat beradi;

- adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi. Bilamizki, bu ulug' g'oyalar istiqlol sari intilgan har bir xalqning ezgu maqsadi, ishonch va e'tiqodi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi;

- yurt tinchligi, vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu tamoyil uning jamiyat a'zolarini aniq maqsad sari yo'naltiruvchi, uyushtiruvchi mohiyatga ega ekanini ifodalaydi.

- jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Bu olijanob maqsadlarga erishish fuqarolarning hamjihatligiga, o'zimizning burchimizni qay darajada anglashimizga, ertangi kunga bo'lgan ishonchimizga ko'p jihatdan bog'liqdir.

- millati va dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona-Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi. Bu qoida Vatanning muqaddasligini har bir fuqaro ongiga singdirishga xizmat qiladi.

- jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi. Bu milliy istiqlol g'oyasining fikrlar rang-barangligi, e'tiqod erkinligi kabi demokratik tamoyillarga amal qilgan holda hayotga joriy etilishidan dalolat beradi.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta'minlashga yordam berish;

- qonunning ustuvorligi, demokratiya va o'z-o'zini boshqarishning hayotda mustahkam o'rin egallayotganiga asoslanganlik;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga tayanish;

- xalqaro huquq qoidalariga mos kelishi;

- davlatning bosh islohotchi ekanligi va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanganligi, o'tish davrida aholining ijtimoiy himoyalanganligi, jamiyat hayoti barcha sohalarining erkinlashuvi, islohotlarning tadrijiyligi tamoyillarga xizmat qilishi.

E'tibor bersak, kundalik hayotimizda ana shu tamoyillarga amal qilib kelinayotganiga amin bo'lamiz. Bu o'z navbatida tinchlik-totuvlik va barqaror taraqqiyotimiz asosi bo'lib xizmat qiladi. Istiqlol mafkurasini xalqimizning o'ziga xos tabiati, irodasi, orzu-intilishlarini ifodalaydigan quyidagi milliy xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

1. xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi. Bu mahallachilik, xashar, marosimlar o'tkazish, tuy-tomoshalarda yakqol ko'rinadi;

2. jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;

3. ota-ona, mahalla-ko'y, umuman jamoatga yuksak hurmat-e'tibor;

4. millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;

5. kattaga – hurmat va kichikka – izzat;

6. mehr- muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi – ayol zotiga extirom;

7. sabr-bardosh va mehnatsevarlik;

8. halollik, mehr-oqibat va xokazo.

Istiqlol mafkurasini quyidagi umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi va ulardan oziqlanadi:

1. qonun ustuvorligi;

2. inson haq-huquqlari va hurfiylik;

3. turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;
4. diniy bag'rikenglik;
5. dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik;
6. o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish va hokazo.

Shu o'rinda har qanday ijobiy g'oyaning o'zagi bo'lgan vatanparvarlik tuyg'usi haqida tuxtalaylik. Bu har bir xalqning qalbida yashaydigan, jumladan, bizning xalqimiz uchun ham eng aziz va muqaddas bo'lgan tuyg'udir. Bu haqda qadimgi bitiklarda shunday bir rivoyat keltiriladi:

Qadimgi xoqonlardan birining yurtiga qo'shni podshodan elchi kelibdi. U shunday debdi: «Shohimizning amri shulki, agar xoqon o'zining eng sevimli tulporini bizga in'om qilmasa, yurtigingizga urush e'lon qilamiz». Elchining bu gaplarini vazir xoqonga etkazibdi. Xoqon, mayli yurtimning tinchligi uchun sevimli tulporimdan voz kecha qolay, deb tulporni berib yuboringlar, deya buyruq qilibdi. Shu tariqa yurtning tinchligi va osoyishtaligi bir oz vaqt saqlanib qolibdi. Birmuncha vaqtdan so'ng o'sha podshodan yana elchi kelibdi va bu safar xoqonning sevimli kanizagini talab qilibdi. Xoqon yurt tinchligi yo'lida kanizagini ham hadya qilib yuboribdi. Uchinchi safar yana elchi kelibdi. Uning muddaosini vazir xoqonga shunday bayon qilibdi: «Shohim, yurtimizning qarovsiz burchagida ozgina toshloq joy bor edi, bu safar qo'shni podsho o'sha erni berishimizni talab qilmoqda. Keling, shu tashlandiq joyni berib yuboraylik, shu bilan xalqimizning tinchligini yana saqlab qolamiz». Bu gapni eshitgan xoqon: «Yo'q!» – debdi keskin, - Endi urush qilmasak bo'lmaydi. Tulpor va kanizak shaxsan menga tegishli edi, shu sababli ularni osongina berib yubordim. Ammo Vatanimiz sarhadlarining har bir qarichida shu choqqacha o'tgan otabobolarimizning, biz bilan hozir birga yashayotgan vatandoshlarimizning va kelgusida tug'ilajak farzandlarimiz, nevara-chevaralarimizning haqqi bor. Ularning haqqini o'zgaga berib yuborishga hech birimizning haqqimiz yo'q. Vatanning har bir qarich erini saqlab qolish uchun endi urushga borishimizga to'g'ri keladi. Xalqni safarbarlikka otlantir!». Ko'rinib turibdiki, bu rivoyatda Vatan tuprog'ining har bir qarichini e'zozlash falsafasining ildizi mujassamdir.

G'oya safarbar etuvchi ulug'vor fikr bo'lsa, mafkura esa mana shunday ulug'vor g'oyalarni bir butun yaxlit kuch qilib birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, harakatga keltiruvchi, boshqaruvchi g'oyalar tizimidir. Uning mazmun-mohiyati Prezident Islom Karimov asarlarida batafsil yoritilgan bo'lib, ularda ayni paytda jamiyat taraqqiyotining bosh yo'nalishini ko'rsatuvchi milliy istiqloq mafkurasi tushunchasining ma'no-mazmuni ham ochib berilgan: «Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi maqomiga ko'tarilishi mumkin emas. Bu konstitutsiyaviy qoida bizning oldimizga milliy istiqloq mafkurasini yaratish vazifasini qo'yadi»<sup>16</sup>.

Milliy istiqloq mafkurasi keng xalq ommasining manfaatlarini, maqsad va ideallarini ifoda etadi. «Milliy istiqloq mafkurasi, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning – butun xalqimizning umumiy manfaatlarini ifodalaydi».

---

<sup>16</sup> Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millani – millat qilishga xizmat etsin. T., «O'zbekiston», 1998. 15-b.

Manfaatlar nimalardan iborat? Ular, avvalo, mamlakatning hududiy yaxlitligi va mustaqilligining saqlanishi, chegaralarimizning butunligi va daxlsizligi. Buni yurtimizning fazo va vaqtdagi yaxlitligini ta'minlovchi manfaat deb atash mumkin. Ikkinchidan, yurtning tinchligi va osoyishtaligi, ya'ni davlatimizning harbiy, iqtisodiy (energetik), ekologik, informatsion va g'oyaviy tahdidlardan muhofazalanganligi. Bu yurtning barqarorligini ta'minlash borasidagi eng muhim omillardandir. Uchinchidan, mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlash. Bu jamiyatning ijtimoiy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladigan manfaatdir. To'rtinchidan, har bir oila va butun xalqning farovonligini ta'minlash, ya'ni badavlatlik manfaati. Bu manfaat fuqarolarning jamiyatda milliy daromadga egalik qilish, uni ko'paytirishdagi imkoniyatlari orqali ruyobga chiqadi. Beshinchidan, jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o'z-o'zini boshqarish tamoyillari amal qilishining ta'minlanishi. Bu manfaat inson hayotining huquqiy jihatdan kafolatlanishini ifodalaydi.

Bunday manfaatlar barcha xalq va hamma davlatlar uchun birday xosdir. Bu manfaatlarning ta'minlanishi, eng avvalo, har qanday davlat mustaqilligining asosiy garovi bo'lib, shundagina xalq o'z kelajagiga o'zi egalik qila oladi. Bu manfaatlar muayyan jamiyat fuqarolarining hamjihat mehnati va intilishlari tufayli ta'minlanadi.

### **Mafkura – milliy o'zlikni anglatuvchi kuch.**

Milliy istiqloq mafkurasining asosiy tayanch nuqtasi ham ijtimoiy darajadagi milliy o'zlikni anglata olishidadir. Ya'ni, millat o'zini xalq sifatida, el sifatida anglamaguncha u o'zining obro'i, qadr -qimmat, or-nomusi haqida qayg'ura olmaydi, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini his eta olmaydi. O'zlikni anglash – xalqni uyg'otuvchi, faol harakatga keltiruvchi, ijtimoiy uyushtiruvchi kuch bo'lib, uning negizida «bu — bizniki» degan egalik hissiyoti yotadi. Albatta, bu hissiyot muayyan me'yorda bo'lganda ijobiy xususiyat kasb etadi. Me'yoridan oshganda esa u xalqni manmanlikka, tajovuzkorlikka undaydi, me'yoriga etmaganda esa, milliy nigilizmga, tushkunlikka, xor-zorlikka olib keladi. Sharq va G'arbda, Osiyo va Evropa xalqlari hayotida ham o'zlikni anglash tuyg'usining uyg'onishi, pirovard natijada, ularning yuksalishiga, birlashishiga, boshqa xalqlar bilan ijobiy musobakaga kirishuviga turtki bo'lgan.

Shu ma'noda, bizda ham «O'zbekiston – yagona Vatan» degan tuyg'u yuksak ijtimoiy darajada shakllanmoqda. O'zbekiston diyorida kadimdan turli tsivilizatsiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e'tiqod va dunyoqarashlar yonma-yon yashab kelgan. Bu erda yashovchi xalq, yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, boshqa joydan ko'chib kelib, o'rnashib qolgan emas. Bu zamin ota-bobolarimiz yashab o'tgan azaliy va muqaddas makondir. Bu zamin Sharq va G'arbning, Shimol va Janubning, kadim o'tmish va Buyuk kelajakning tutashgan joyi, Markaziy Osiyoning yuragi, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko'hna o'choqlaridan biridir. Bu tuproqda jahonni hayratga solgan tsivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng kadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an'analar shakllangan. O'adimgi Yunon faylasufi Geraklit bu yurti «falsafiy tafakkurning beshigidir», deb bekorga ta'riflamagan.

Shuni ta'kidlash joizki, bizning tsivilizatsiya o'ziga xos tafakkur uslubiga tayanadi. Bunday tafakkur uslubi ko'p ulchovli (ya'ni bir vaqtning o'zida bir masalaning ko'p jihatlarini qamray olish), tolerant (ya'ni turlicha nuqtai nazarlar va mafkuralarning bir-biriga daxl etmasdan yashay olishi, o'zgacha qarashlarga nisbatan

toqatlilik va bag'rikenglik) va ochiq tizimga ega bo'lgani (ya'ni turlicha fikrlarga, nuqtai nazarlarga chegara qo'ymaslik, o'zgacha qarashlarning kirib kelishiga tuskinlik qilmaslik, yangicha qarashlarga nisbatan tokatlilik) sababli yurtimizda turlicha qarashlar va turlicha diniy e'tiqodlar yonma-yon yashay olgan. Bunga bizning zaminimizda uzoq vaqt ham otashparastlik, ham buddaviylik, ham yaxudiylik, ham xristianlik, ham islom dinlari bo'lganini misol keltirish mumkin.

Bu zaminda bir ibodatxona ichida turib turli din vakillari o'zaro munozaralar olib borgan, lekin bir-birining insoniy sha'niga til tekkizmagan. Bunday munozaralarda turli din va mazhab vakillari bir-biridan xayrli odatlarni o'rganib olishgan, hamda o'z dinlariga tadbiq etishgan. Shu tariqa turli dinlarning mohiyatidagi eng ilg'or insoniy an'ana va odatlar xalqimiz qalbidan joy olgan. Shu sababli ham saxovatli zaminimizda yashab o'tgan buyuk mutafakkirlarning falsafiy qarashlarida insoniy g'oyalar ustuvorlik qilgan va ularning ta'limotlarida voqelik keng ko'lamda, teran va mukammal ifodalangan. Bu donishmandlarning falsafiy g'oyalarida sinkretik (ya'ni turlicha g'oyalarning bir butunlikda jamlashuvi) va sinergetik (o'z-o'zini takomillashtiruvchi, keng, ko'p ulchovli va ochiq sistemali) tafakkur uslubining ustuvorligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Buning zamirida xalqimizning turmush tarzida bir tomondan turg'un (hunarmandchilik, bog'dorchilik va dehqonchilik), ikkinchi tomondan esa ko'chmanchi (chorvachilik) kasblarining azaldan uyg'unlashib kelganligi yotadi.

Prezidentimiz Islom Karimov bu haqda fikr yuritar ekan, ana shu holat o'zimizning hududimizdagi yaylovlardan-yaylovlarga, kishlik va yozlik makonlarga ko'chib o'tish tom ma'nodagi sahroyi xalqlarga xos ko'chmanchilikdan tubdan farq qilishini mantiqiy asosda ko'rsatib bergan. «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Rustamxon» kabi xalqimizning milliy dostonlari ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Yuqorida aytilganlar tarixiy jihatdan o'zlikni anglashga misol bo'lsa, davrlar o'zgarishi bilan bu tushuncha yangicha ma'no-mazmun kasb etib, yangicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy, axloqiy, huquqiy o'zlikni anglash uning turli shakllaridir. Bundan tashqari, muayyan mamlakatning muayyan ishlab-chiqarish yoki fan sohasidagi etakchi kuch sifatida o'zligini anglash hollari ham uchrab turadi. Misol uchun Yaponiya XX asrning ikkinchi yarmida jahonda elektronika sohasidagi etakchi (lider) sifatida o'zligini angladi va bu sifatini saqlab qolish uchun barcha choralarni ko'rib kelmoqda. Bugungi kunda biz uchun O'zbekiston istiqlolini asrab-avaylash, uni saqlab qolish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga asoslanadigan milliy g'oyaga asoslangan o'zlikni anglash tuyg'usi nihoyatda zarur. «Milliy g'oya – deb ta'kidlaydi Prezident Islom Karimov, — birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur», deb ta'kidlaganlar.

O'zlikni anglashning muhim jihatlari nimada? Bu shundaki, mazkur ijtimoiy tuyg'u tufayli millat o'zining kimligini, nimalarga qodiru nimalarga qodir emasligini, qanday yutuqlari boru qanday kamchiliklarga ega ekanligini, qaysi yo'ldan, qayoqqa borishi lozimligini anglaydi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytadigan bo'lsak, milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning bunyodkorlik salohiyati va tanlangan yo'limizning to'g'riligini anglash omilidir. U o'tmishni kelajak bilan bog'laydigan ma'naviy ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni xalqimizning o'tmishda erishgan ma'naviy

boyliklariga egalik qilishiga, ongimizga, shuurimizga singib ketgan o'zbekona tafakkur tarzi orqali bugungi vokeligimizni aks ettirishda, uni boshqarishda va boy tarixiy tajribalarimizga tayangan holda kelajagimizni bunyod etishda g'oyaviy tayanch bo'ladi.

«Milliy istiqlol mafkurasi turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen – ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron-bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi». Balki, u o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, millat va qavmlar, guruh va qatlamlarning yuqorida qayd etilgan umumiy manfaatlarini ifodalaydi.

Mafkuramiz tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun quyidagi talablarga javob berishi zarur:

- inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etish, ya'ni bu mafkura har bir fuqaroning ezgu niyatlarini ruyobga chiqarishiga imkon beradigan eng maqbul yo'lni ko'rsata olishi;

- millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqod manbai bo'lishi, ya'ni u tom ma'noda so'z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtira olishi, O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va din vakillariga birday taallukli bo'lishi;

- har qanday ilg'or g'oyani o'ziga singdirishi va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olishi, ya'ni ikkiyuzlamachilikdan holi va jamoatchilikning ob'ektiv fikriga tayanuvchi mafkura bo'lishi;

- zamon va davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan manfaat, maqsad-muddalarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olishi, ya'ni yangicha vaziyatga tez moslasha oladigan hozirjavob va ijodiy bo'lishi.

Ana shular uning haqiqiy ma'nodagi milliy istiqlol mafkurasi darajasini ifodalaydi. Shundagina milliy mafkuramiz ayrim siyosiy kuchlar va partiyalarning bir tomonga yo'naltirilgan tor manfaatlarini chegarasida uralashib qolmaydi, o'tkinchi yoki vaqtincha kompaniyaga xizmat qilmaydigan umummilliy jarayonni ifodalaydi. Milliy istiqlol g'oyasi tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish va o'zlikni anglash mezonini sifatida, xalqimizning tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy bayroq vazifasini o'taydi. Xalqning ijtimoiy darajadagi o'zligini anglashi tarixiy xotiraning uyg'onishi bilan uzviy bog'liqdir. Shu tufayli xalq o'zining o'tmishidan saboq chiqaradi, qay maqsad sari, qanday yo'ldan borish lozimligini aniqlaydi va shu asosda o'z istiqbolini belgilaydi.

Milliy istiqlol mafkurasi yuqorida qayd etilgan sifatlarga ega bo'lgan taqdirdagina jamiyat hayotida etakchi quyidagi muhim mafkuraviy vazifalarni bajara oladi. Ular:

Mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish.

Har bir insonning olamga, jamiyatga nisbatan o'z munosabati, qarashi, nazar tashlash me'zonlari bo'ladi. Shu ma'noda, har bir shaxs, jumladan yoshlarimizning ham o'z mustaqil dunyoqarashiga, o'z fikriga, o'z nuqtai nazariga ega bo'lishi nihoyatda muhim. «Yangi mafkuraning asl ma'nosi – deb yozadi Islom Karimov, — eskicha aqidalardan xoli bo'lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni

tarbiyalashdan iboratdir»<sup>17</sup>. Busiz jamiyatni demokratik taraqqiyot yo'liga olib chiqib bo'lmaydi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng bir qolipga solingan totalitar tuzum dunyoqarashi tazyiqidan kutuldik. Ammo «tafakkur inertsiyasi» degan tushuncha ham borki, u tufayli biz o'rganib qolgan, eskicha dunyoqarashdan batamom xalos bo'la olmayapmiz. Milliy istiqlol mafkurasi o'zining hayotiy g'oyalari bilan odamlarimiz ongidagi ana shu mafkuraviy kishanlardan qutilishga yordam beradi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «Mustaqillikka erishganimiz-dan so'ng biz soxta mafkuraning yakkahokimligidan qutildik. Ma'naviyatni, mafkurani zug'umlardan ozod qilib, erkin fikrga, milliy tafakkurga keng yo'l ochdik. Endigi asosiy vazifa kishilarimizning mustaqil fikrlashga o'rganishi, o'ziga ishonchi ortib borishidir. Chunki tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyikdan, qullikdan qutilmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi»<sup>18</sup>. Bu shuning uchun zarurki, mustaqil fikr yurituvchi insongina ijobiy narsalarni bunyod qilishga, zarur moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishga, hayotni yaxshi tomonga o'zgartirishga qodir bo'ladi.

Dunyoqarashning mustaqilligi, ya'ni «mustaqil dunyoqarash» tushunchasidan tashqari milliy istiqlol mafkurasining mohiyat-mazmuniga kiruvchi «mustaqillik dunyoqarashi» degan tushunchasi ham bor. Uning mazmunini I. Karimov quyidagicha asoslagan: «Bu tushuncha avvalo:

1. O'zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg'urish;
2. O'zining va o'z xalqining, Vatanning qadru qimmatini, or-nomusini anglab, uni himoya qilish;
3. Yuksak g'oyalar, yangi fikriy kashfiyotlar, niyatlar og'ushida mehnat qilib, iste'dodi, bor imkoniyatini, kerak bo'lsa, jonini yurt istiqboli, eliga baxshida etishdir»<sup>19</sup>. Bunday dunyoqarashga umumiy tarzda ta'rif beradigan bo'lsak, mustaqillik dunyoqarashi, bu – dunyoni milliy mustaqilligimiz manfaatlaridan kelibchiq qan holda anglash, degan xulosaga kelamiz. Mustaqillik dunyoqarashining markazida O'zbekiston diyori va xalqimizning barcha sohalarga oid manfaatlarini yotadi. Bunday dunyoqarashga ega bo'lgan odam o'z nuqtai nazari va o'z hayotiy tamoyillariga tayangan holda jamiyat taraqqiyotiga mustaqil ravishda munosib hissasini qo'sha oladi.

Bu vazifani amalga oshirish, uning mantiqiy davomi bo'lgan ikkinchi mafkuraviy vazifa bilgan chambarchas bog'liq. Uning mazmuni shunday: hurfikrli, mutelik va jur'atsizlikdan holi bo'lgan, o'z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan insonni tarbiyalash.

Faqat hurfikrli insongina mutelik va jur'atsizlikdan xoli bo'ladi. Mutelik va jur'atsizlik qaram, o'z erkiga ega bo'lmagan kishilarga xosdir. Bu illatdan qutilish uchun inson, eng avvalo, mustaqil va ozod, ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan barkamol, aqlan etuk va bilimli bo'lishi zarur. «Bilagi kuchli birni engsa, bilimi kuchli mingni engadi», deydi dono xalqimiz. «Kuch – bilimdadir» degan qadimiy hikmatning asl ma'nosi ham shundadir. Bunday insonlarni o'zi mustaqil fikrga, nuqtai nazarga ega bo'lgan murabbiylar tarbiyalay oladi. Bu borada xalqning farovonligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Chunki farovonlik kishilarni fikr

<sup>17</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza. 1995 yil, 23 fevral. 3-jild. 34–35-b.

<sup>18</sup> Karimov I.A. o'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza. 1995 yil, 23 fevral. 3-jild. 38–39-b.

<sup>19</sup> Islom Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chqurlashtirish yo'lida. 1995 yil. 3-jild. 284-b



qaramligi, jur'atsizlik va mutelikning asosi bo'lgan muhtojlik va qashshoqlikdan qutqaradi. Shuning uchun ham avvalo tarbiyalovchilarning taqdiri, ularning moddiy ta'minlanganligi va ma'naviy yuksakligi xususida qayg'urish jiddiy ahamiyatga ega. «Agarki, - deb yozadi I. Karimov, - Mafkura, ma'rifat, odamlarimizning dunyoqarashi, tafakkuri yuksalishining ahamiyatini jamiyatimiz istiqboli uchun yaxshi angelayotgan ekanmiz, avvalambor, mana shu yo'lda o'zini ayamayotgan, tadbirkor, ijodkor ziyolilar, ukituvchilar, shifokorlar, olimlarimizga etarli darajada sharoit tugdirib, ijtimoiy jihatdan ta'minlab borish bizning vazifamizdir».<sup>20</sup> Bu vazifaning bajarilishi jamiyatda ijobiy tarbiya muhitini takomillashtirishga xizmat qiladi;

- Odamlarimiz, Ayniqsa, yoshlarimizning irodasini bakuvvat qilish, iymon-e'tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan ma'naviy muhit yaratish.

Buning uchun har bir fuqaro qalbida vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishiga sharoit yaratadigan ma'naviy muhitni vujudga keltirish lozim bo'ladi. Bu muhit esa Vatan, yurt taqdiri uchun kuyunadigan insonlarni tarbiyalaydi. Boshqacha aytganda, sog'lom ma'naviy muhit sog'lom tafakkur va sog'lom ma'naviyat zamirida shakllanadi. Bunday ma'naviyat bo'lmagan joyda ijtimoiy munosabatlar nosog'lom yo'nalishga burilib ketadi. Xalqimizning asl tabiatida sog'lom ma'naviyat ustuvorlik qiladi. Shu sababli xalqning o'zligini anglashi sog'lom ma'naviy muhitning takomillashuviga imkoniyat ochadi. Mamlakatimiz rahbarining mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq sog'lom ma'naviyatni shakllantirish va yuksaltirishga jiddiy e'tibor bergani bejiz emas. Prezidentimiz «shu mo'tabar zaminda tarbiya topgan shaxs, o'zini aynan shu yurt farzandi deb bilguvchi inson o'z davlati, o'z xalqi oldidagi, uni katta umidlar bilan tarbiya etgan, voyaga etkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etish kerak. Bu gap menga ham, sizga ham – barchamizga birday tegishlidir.

Sodda qilib aytganda, har qaysi fuqaro, har birimiz: «Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?» deb emas, balki: «Men o'zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?» deb o'ylashimiz va shu aqida bilan yashashimiz kerak»<sup>21</sup> –deya ta'kidlagan edi;

- Vatandoshlarimiz tafakkurida o'zligini anglash, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash, vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish.

Milliy istiqloq mafkurasi bajaradigan bu muhim vazifa o'zlikni anglash tuyg'usining ijtimoiy darajaga ko'tarilishini anglatadi. Bunga esa xalqning uchmas tarixiy xotirasi mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi.

Xalqimizning asrlar mobaynida asrab-avaylab, rivojlantirib kelayotgan qadriyatlari esa hayot sinovlaridan o'tgani, kishilar qalbidan chuqur joy olgani bois barchamizga birday aziz bo'lib qolgan. Ularni saqlab qolish, zamona talablari asosida rivojlantirish, yanada takomillashtirish, kelgusi avlodlarga etkazib berish har birimizning muqaddas burchimizdir. Chunki, o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga sadoqat

---

<sup>20</sup>Islom Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chqurlashtirish yo'lida. 1995 yil. 3-jild. 284-b

<sup>21</sup> Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir yilligiga bag'ishlangan tanta-nali yig'ilishda so'zlagan nutq. 1993 yil 7 dekabr. 2-jild. 110-b.

milliy qadriyatlarga hurmat, ularni himoya qilishga tayyor turish – bularning barchasi kishida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalaydi;

- Xalqimizga xos bo'lgan iymon-e'tiqod, insof-diyonat, saxovat, halollik, mehr-oqibat, sharmuxayo kabi fazilatlarni yuksaltirish.

Bunday olijanob insoniy fazilat aslida xalqimizning qonida bor. Faqat tariximizning muayyan davrlarida, yot hukmron mafkuralar tazyiki ostida ular to'la namoyon bo'la olmagan. Shuning uchun ham biz iymon-e'tiqod, insof-diyonat, xayr-saxovat, halollik, mehr-oqibat, sharmuxayo kabi sharqona fazilatlarni, ulardagi inson uchun ibrat bo'ladigan jihatlarni e'zozlashimiz, rivojlantirib, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarishimiz, ularni targ'ib etishimiz lozim. Bizning xalqimizga xos mexmondo'stlik, uy-ro'zg'or yuritish madaniyati, oiladagi, qarindoshlar, do'stu birodarlar o'rtasidagi samimiy munosabatlar shu kabi odat-udumlarning ibratli jihatlari ko'p. Bu qadriyatlarni ardoklab, avlodlarga etkazish kerak, albatta. Lekin bu barcha urf-odatlarimiz ham birdek ibratli degani emas. Ayniqsa, ba'zi fuqarolarimiz milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan manmanlik, o'zini ko'z-ko'z qilish, isrofgarchilik, ortiqcha dabdababozlik, yuzaki xushomadguylilik kabi kusurlari bilan yaxshi an'analarimizga ham dog tushiradilar. Shuningdek, ortiqcha uyatchanlik, jur'atsizlik, o'z fikrida tura olmaslik ham inson uchun jiddiy kamchilikdir. Bundanchiq adigan xulosa shuki, har narsa o'z me'yorida bo'lgani yaxshi. Me'yoridan oshmagan udumlar hamma uchun foydali bo'lib, o'zida millatning qalbini, qiyofasini, ichki dunyosini aks ettiradi;

- Mamlakatimizning ko'p millatli xalqi ongi va qalbida «O'zbekiston–yagona Vatan» degan tushunchani shakllantirish va rivojlantirish.

O'zbekiston – ko'p millatli mamlakat. Unda yuzdan ziyod millat va elat farzandlari istiqomat qiladi. Vatanimizning yutug'i ham, ravnaqi ham shu yurtda yashovchi fuqarolarning barchasiga birdek taalluqlidir. Shu bois har bir fuqaro qalbida o'z yurtiga egalik hissini tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Yurtimizda yashaydigan har bir odam qalbida mamlakatimiz yutuqlaridan g'ururlanish, millati, dinidan qat'iy nazar, biz uchun «O'zbekiston – yagona Vatan» degan tabiiy tushuncha paydo bo'lishi juda muhim. Shundagina, barcha fuqarolar qalbida Vatan istiqbolini bunyod etish uchun faol ishlash, vatanparvarlik, el-yurt uchun fidoyilik, mardlik va jasorat tuyg'ulari yanada kuchayib boradi. «Yurtimning yutug'i, boyliklari meniki, kamchiliklarni esa boshqalar to'g'rilasini» – deb o'ylovchi fuqarolar milliy istiqbol mafkurasi g'oyalariga, Vatan taqdiriga begona, el-yurti koriga yaramaydigan kimsalardir.

### **Milliy istiqbol mafkurasining tarixiy ildizlari**

Xalqimizning moziy sinovlaridan o'tib kelayotgan boy madaniy va ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analari, kushiklari, bayram va marosimlaridagi ozodlik, erkinlik uchun kurash ruhi, ota-bobolarimizning mustaqillik yo'lida ko'rsatgan jasorati, bunyodkorlik ishlari hamda ularni amalga oshirishda ma'naviy ruh bergan tafakkur tarzida namoyon bo'ladi. U asrlar mobaynida yillar sinoviga dosh berib, sayqallanib, takomillashib kelgan. Bu tafakkurning markazida Yaratganning eng ulug' mo'jizasi bo'lmish insonning ulug'ligi va mo'tabarligi g'oyasi yotadi. Binobarin, u qadar lanishi, e'zozlanishi lozim. Chunki, mamlakatning hayoti, farovonligi, ana shu mehnatkash insonlarning mehnatiga, faoliyatiga bog'liq. Shu tufayli ham Sharqda komil inson g'oyasi qadimdan buyuk orzu bo'lib, donishmandlarimiz xayolini band etib kelgan. Insonning azizligi unga o'z xatti-harakatlarini o'zi mustaqil idora etishiga imkoniyat beruvchi aql -zakovat ato etilgani

bilan bog'liqdir. Ya'ni, inson o'z aql -idroki yordamida olamni gullatib-yashnatadi. Ammo bu aql -idrokda nafaqat yashnatuvchi, balki vayron etuvchi kuch ham mavjud. Hayotda ezgulik hukmron bo'lishi uchun aql yaxshilikka, adolatga xizmat qilishi zarur. Buning uchun esa u sog'lom ma'naviyat izmida bo'lishi lozim. Shu tufayli otabobolarimiz aql -idrokni yovuzlik qo'liga tutkazmaslikka harakat qilganlar, uni ma'naviyat bilan, iymon-e'tiqod, insof va diyonat bilan boshqarishga alohida e'tibor berganlar. Bu tamoyil xalqimiz ruhini, dahosini aks ettiruvchi o'lmas qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, buyuk ajdodimiz, sohibqiron Amir Temurning sog'lom ma'naviyat mahsuli bo'lgan «Kuch – adolatdadir» degan shiori milliy g'oyaning tarkibiy qismiga aylanib ketgan, mamlakat birligini ta'minlash, markazlashgan davlat barpo etishda, Ayniqsa, uni odillik bilan boshqarishda ma'naviy-mafkuraviy asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bois Temur saltanatida ilm-ma'rifat yuksak qadrlangan, insonning sha'ni, or-nomusi e'zozlangan, inson va uning mol-mulki davlat muhofazasiga olingan, qaroqchilik, o'g'rilikka keskin barham berilgan edi. Sohibqiron bobomizning: «Mening saltanatimning u chetidan bu chetiga, boshida oltin to'ldirilgan laganni yosh bola ko'tarib o'tsa ham, uning mulkiga hech kimsa daxl eta olmaydi» degan so'zlari hayotiy haqiqat edi. g'ki ayollarning og'ir jismoniy ishlardan ozod qilinganiga e'tibor bering. Aytaylik, yordamchisi yo'q biron ayol suv oladigan chelakni darvoza tashqarisiga chiqarib qo'ysa, shu joydan o'tgan mo'min-musulmonlar chelakni olib, unga suv to'ldirib shu joyga qo'yib ketishar edi. Do'konlarga savdogarlar umuman qulf osishmasdi. Bularning hammasi o'sha zamonda hayot iymon va e'tiqod, insof va diyonat talablari bilan boshqarilganini, odamlar ana shu yuksak tuyg'ular bilan yashaganini ko'rsatadi. Mo'min-musulmonlar shunday turmush tarziga odatlanishgan, o'rganishgan edi. Ular o'zlari och qolishsa ham o'zganing mulkiga qo'l tekkizmasdi. Bu xalqning mentalitetiga singib ketgan edi.

Afsuski, bugunga kelib ba'zi odamlar birovning haqidan xazar qilmaydigan, o'g'rilik va talonchilikdan jirkanmaydigan holatga kelib qoldi. Jamiyatda ma'naviy qashshoqlik muhiti paydo bo'ldi. Shu sababli ham tarixiy xotirani uyg'otish asosida o'zlikni anglash bugungi kundagi muhim mafkuraviy vazifadir. Demak, milliy istiqloq mafkurasining ma'no-mazmunini belgilaydigan eng muhim omillardan biri – bu xalqimizning qadimiy va boy tarixidir. Chunki tarix – buyuk murabbiy. U insonga ibratli xulosalar beribgina qolmasdan, ba'zan achchiq saboqlarni ham tan olishga undaydi. Tarixga berilgan xolis baho mafkuraning hayotiyliigi va ta'sirchanligiga asos bo'ladi.

Bundan necha asrlar avval yaratilib, hozirga qadar yurtimiz ko'rkiga-ko'rk bagishlab kelayotgan qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an'alaridan dalolat bo'libgina qolmoqda. Ular Vatanimizning shonli tarixi to'g'risida yakqol tasavvur va tushunchalar beradi, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g'urur-iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, — deb yozadi Islom Karimov, — biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'analarni yangi jamiyat

qurilishiga tadbqiq etmog'imiz kerak»<sup>22</sup>. Bu vazifa esa tarixiy xotirani tiklash evaziga amalga oshadi.

Haqiqatan ham, millatimizning o'ziga xos sharqona turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi, hayotga, voqelikka munosabatini ifoda etuvchi xalq og'zaki ijodi namunalari, «Alpomish», «Shashmaqom» kabi durdona asarlar, asriy ideallarni o'zida ifoda etgan milliy qahramonlarning ibratli hayoti ham milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalardandir. Xalqimizning ertak va masallarida, rivoyat va afsonalarida ezgulik, adolat, tenglik, insoniy mehr- muhabbat tarannum etilgan. Ularda Vatanning muqaddasligi, insonning azizligi, ilmning qadrliligi targ'ib etilgan. Hamisha yomonlik ustidan yaxshilik, yovuzlik ustidan ezgulik golib chiqishi va yovuz kuchlarga qarshi kurashda halollik, haqqguylk, odamgarchilik, tantilik, mehr-oqibat kabi olijanob fazilatlar ma'naviy-ruhiy tayanch bo'lishi asoslab berilgan. «Alpomish»da inson sha'ni, yigitlik oriyati himoya qilinsa, «Shashmaqom»da xalqning asriy orzu-umidlari yuksak badiiy did bilan kuyga solingan. Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi milliy qahramonlarimizning Vatan taqdiri uchun olib borgan qahramonona kurashlari, ona-Vatan ozodligi yo'lida ko'rsatgan jasoratlari har birimizda cheksiz faxr va g'urur hissini uyg'otadi.

Inson sha'ni, avvalo, o'zini himoya qilish, o'z qadrini bilishdan boshlanadi. Shu ma'noda, xalqning o'zini qadrlay bilishi g'oyat muhimdir. Chunki «o'zini qadrlaydigan xalq hech qachon taqdirini birovga bog'lab qo'ymaydi»<sup>23</sup>. O'z qadrini bilgan odam Vatanga xiyonat qilmaydi. Uning qalbida el-yurtiga xiyonat qiluvchi oriyatsiz kimsalarga nisbatan cheksiz nafrat yashaydi. «Odamlarimiz, jamiyatimiz mafkurasida Vatan, yurt g'oyasi ustuvor bo'lmog'i kerak, – deb yozadi Islom Karimov, — Milliy g'urur, milliy iftixor har qanday ishimizning poydevori bo'lmog'i kerak. Bu muqaddas g'oyalar, millati va e'tiqodidan qat'iy nazar, shu yurtda, shu zaminda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmogi, har birimiz uchun eng katta tayanchga, eng katta ishonchga, boringki, haqiqiy iymonga aylanishi kerak»

Muxtasar qilib aytganda, milliy mafkuramizning tarixiy ildizlari deganda ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li, tafakkur tarzi, amaliy faoliyati, bunyodkorlik ishlari, eng yaxshi urf-odatlari, an'analari, qadriyatlarini, mustahkam iymon-e'tiqodi fuqarolarimiz uchun namuna bo'lishi, xato, kamchilik nuqsonlardan esa to'g'ri xulosa va saboqlar chiqarish uchun asos bo'ladi.

### **Mafkuramizning falsafiy negizlari.**

Ijtimoiy tafakkurning mumtoz namunalari bo'lgan dunyoviy, diniy, afsonaviy qarashlar, dunyo falsafasi durdonalari mafkuramiz falsafiy negizlarini belgilaydi. Yunon faylasufi Geraklit o'zining Sharqda o'tgan g'oyaviy ustozlarini, «Avesto»dek muqaddas kitobda bitilgan falsafiy fikrlarni nazarda tutib, yurtimizga «falsafiy tafakkur beshigi» deb ta'rif bergan edi.

---

<sup>22</sup> Islom Karimov. Olloh qalbmizda-yuragimizda. "Turkiston press" axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar. 1999 yil, 6mart

<sup>23</sup> Karimov I.A. Biz qurish, yaratish yrlidan boraveramiz. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining uchinchi sessiyasida so'zlangan nutq. 1995 yil 30 avgust. 4-jild. 13-bet.

«Avesto»da ifodalangan falsafiy tamoyillar va milliy g'oyalar, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, olam va odamning yaralishi, inson va uning kamoloti haqidagi diniy va ilmiy qarashlar, poklik, halollik, mardlik kabi komil inson sifatleri bugungi dunyoqarash shakllanishiga samarali ta'sir o'tkazadi.

Buyuk donishmand ajdodlarimizning ozodlik to'g'risidagi g'oyalari, bu borada nihoyatda muhim ahamiyatga molik. Ayniqsa, unlik sanoq sistemasini butun insoniyat uchun eng qulay bo'lgan hisoblash tizimiga aylantirgan, insoniyatga «Algebra» fanini xadya etgan, algoritmik ketma-ketlik uslubi haqidagi ilk g'oyani kashf qilgan hamda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning dunyoviy kashfiyotlari tabiatshunoslikka oid bir qator fanlarni kashf etib, tom ma'noda Sharq naturfalsafasining otasi bo'lgan, Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari bugungi kun uchun ham muhim. Falsafa tarixi, mantiq, musiqashunoslik, axloq singari sohalardan tashqari, sotsiologiyaga oid ilk falsafiy sistemani ishlab chiqqan Abu Nasr Forobiyning adolatli jamiyat haqidagi qarashlarining o'z o'rnini bor. Nafaqat meditsina fanining asoschilaridan, balki mantik ilmida ham mutafakkirlardan biri bo'lgan ratsionalizm va irratsionalizmni sintez qilish asosida inson ruhiyatini nigilistik inqirozdan asrab qolgan, XX asr G'arb faylasuflari, ekzistentsialistlari tomonidan G'arbiy Evropani ma'naviy tushkunlikdan qutqarilishida asos bo'lgan ana shu g'oya asoschisi – Abu Ali ibn Sinoning dualizm ta'limoti ham bunda o'z o'rniga ega. Mutafakkir shoir Alisher Navoiyning komil inson haqidagi falsafiy mushoxadalari, Bobur va Mashrab, Bedil va Donish hamda asrimiz boshidagi ma'rifatparvar ziyolilarning faoliyati ham milliy g'oya va istiqloq mafkurasining teran tomirlaridir.

Milliy istiqloq mafkurasining falsafasi, uning ma'no-mazmuni, asosiy g'oya va tamoyillari milliy davlatchiligimizni qayta tiklab, jamiyatimizning taraqqiyot yo'lini nazariy va amaliy jihatdan belgilab bergan Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida chuqur ifoda etilgan. Bu asarlarda mamlakatning rivojlanish yo'li, uning o'ziga xos xususiyatlari, oldimizga qo'yilgan ulug'vor vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Milliy istiqloq mafkurasining falsafiy asosi umuminsoniyatning boy tarixiy o'tmishiga, shuningdek, kadimgi Sharq, Yunon, Rim va boshqa falsafa maktablarining merosiga ham tayanadi. Xususan Suqrot, Platon, Aristotel singari mutafakkirlarning asrlar davomida o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelayotgan dono fikrlari, jahon falsafasining o'rta asrlar va hozirgi zamon namoyandalarining qarashlari ham milliy istiqloq mafkurasini tamoyillarini asoslash va boyitish, ularga hayotiy ruh bagishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konfutsiyning falsafiy hikmatlari, Platonning «g'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» to'g'risidagi ta'limoti, Gegel dialektikasi, gumanistik zamonaviy falsafiy oqimlarda ilgari surilayotgan g'oyalar ham milliy istiqloq mafkurasining umuminsoniy asoslaridir.

O'tmish falsafasi g'oyalari va tarix saboqlari mafkuramizning ma'no-mazmunini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu mafkura xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi aks etgan ertak va afsonalardan, milliy qahramonlarining hayoti va faoliyatidagi ibratli misollardan oziqlanadi. Milliy istiqloq mafkurasini shakllanishida «Avesto», «Qur'on» va «Hadis»larda zikr etilgan hikmatlar, dunyoviy va diniy qarashlar, xalqimizning ozodlik, komil inson to'g'risidagi g'oyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy istiqlol g'oyasining asoslari, tamoyil va yo'nalishlarini yaxshi bilib olish uchun yuqorida nomlari zikr etilgan allomalarning asarlari, milliy va umuminsoniy madaniy meros namunalarini chuqur o'rganish bu boradagi asosiy vazifa bo'lib qolmoqda.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Milliy g'oya, istiqlol g'oyasi, milliy istiqlol g'oyasi, milliy mafkura, mafkuraning asosiy tamoyillari, milliy istiqlol g'oyasining falsafiy ildizlari.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.**

- G'oya nima?
- Milliy g'oyaning mohiyatini qanday tushunasiz?
- Milliy istiqlol g'oyasining mazmunini qanday izohlaysiz?
- Milliy g'oyaning o'zlikni anglatuvchi kuch ekanligi nimalarda namoyon bo'ladi?
- Milliy istiqlol g'oyasining qanday tamoyillarini bilasiz?

## 8. MILLIY ISTIQLOL G'OYASINING MAQSAD VA VAZIFALARI

### **Milliy istiqlol g'oyasining maqsadi.**

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz a'zolarining dunyoqarashi, fikrlash tarzida teran o'zgarishlar ro'y berdi. Xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o'zida ifodalaydigan milliy g'oya va mafkurani yaratish ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotimizning muhim sharti bo'lib qoldi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Oldimizga qo'ygan olijanob maqsad-muddaolarimizga etish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning xurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga etkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda».

**Milliy istiqlol mafkurasining yoshlar ongiga singdirilishi uning maqsad va vazifalarini chuqur o'rganish bilan bevosita bog'liq, shuning uchun mafkura maqsadlarini bilish muommoli masalalardan biridir.**

**Mafkuraning maqsadlari bo'lishi tabiiy.** Chunki, har qanday mafkura o'z oldiga muayyan maqsadlarni qo'yadi. Bu maqsadlar pirovard natijaga erishishning yo'llari, vosita va usullarini belgilaydi. Mafkuraning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- odamlarni muayyan g'oyaga ishontirish;
- shu g'oya atrofida uyushtirish;
- g'oyani amalga oshirish uchun safarbar etish;
- kishilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan rag'batlantirish;
- g'oyaviy tarbiyalash;
- g'oyaviy immunitetni shakllantirish;
- harakat dasturi bo'lish.

Quyida biz milliy istiqlol g'oyasi nuqtai nazaridan mafkuraning ana shu xususiyatlarining mohiyati va mazmuni bilan qisqacha tanishamiz:

**1. Odamlarni muayyan g'oyaga ishontirish.** Mafkura g'oyalar sistemasi sifatida biron bir g'oyani targ'ib etish, kishilarni shu g'oyaning to'g'ri, hayotiy va ilg'or ekanligiga ishontirishni o'z oldiga maqsad qilib kuyadi.

Demokratik jamiyatda amal qiladigan plyuralizm (fikrlar, qarashlar rang-barangligi) kishilarga o'z hayotiy manfaatlari, maqsad va intilishlarini aks ettiradigan ilg'or g'oyani tanlash, himoya qilish va rivojlantirish imkonini beradi.

Milliy istiqlol g'oyasining shakllanishini tahlil qilish jamiyatda biron bir g'oyaning to'g'ri, ilmiy va hayotiylikiga ishonch xosil qilish o'z-o'zidan ro'y bermasligini ko'rsatadi. Mafkuraga ishonch uykotish, unda aks etgan g'oyalar ta'sirida odamlarni safarbar etish funktsiyasi muayyan shaxslarning faoliyati orqali ruyobga chiqadi. Chunki, ishontirmoq – kishilarning ruhi, kayfiyati, hissiy kechinmalari, qalbi va shuuriga ta'sir qilmoqdir. Bu vazifani amalga oshiruvchi kishilardan yuksak insoniy fazilatlar, shu g'oya yo'lida fidoyilik, bilim, malaka, nutq mahorati va boshqalar talab etiladi.

Keng xalq ommasini biron bir g'oyaning ilg'or va insonparvar ekanligiga ishontirmoq uchun, avvalo, mazkur g'oya xalq hayotiga yaqin, bevosita daxldor

bo'lishi, ikkinchidan, uni odamlar ongiga etkazishning eng kulay vosita va usullarini aniqlab olish kerak bo'ladi.

Bunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vazifalarini mafkuraviy jihatdan asoslash, ayniqsa, muhimdir.

Zamon ruhi, xalq psixologiyasi, extiyoj va talablari mafkuramizda har tomonlama aks etishi, bugungi hayotning eng dolzarb muammolari, uning strategik maqsadlari bilan uzviy boglanishi zarur. Ana shundagina porloq kelajakka intilish va qat'iy ishonch muqarrar ravishda katta ijtimoiy yuksalishga turtki beradi. Fan va texnika taraqqiyoti borasida erishilgan yutuqlar bilan birga mafkuramizning jonli, ehtirosli va jozibador g'oyasi insonlar qalbini larzaga keltiradi, ularni faol harakatga undaydi, yaxshi va saodatli kunlarga ishonch hissini uyg'otadi.

Insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk davlat arboblari, harbiy sarkardalar keng ommani ishontirish, yuksak marralar sari ragbatlantirish qobiliyatiga ega bo'lgan moxir notik bo'lganlar. Ular g'oyaning ishonchli va hayotiy bo'lishi uchun u, avvalo, ilmiy-nazariy asosga ega bo'lishi, hayotiy dalillarga tayanishi lozim ekanligini yaxshi bilganlar. Mafkuraviy kurash – jamiyatning ongli va faol qatlamining biron bir g'oyani himoya qilish, qaror toptirish yo'lidagi kurashi ekanini anglab etganlar. Ana shunday kishilar etakchilik qiladigan insonparvar va demokratik jamiyat g'oyaga qarshi g'oya bilan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashadi. Bu kurash oxir-oqibatda ezgulikning razolat ustidan, yaxshilikning yomonlik ustidan qozonajak g'alabasi bilan intiho topadi

Mustaqillik g'oyasining o'zagi bo'lgan–tanlagan taraqqiyot yo'limizning to'g'ri, adolatli va haqqoniy ekanligiga, u mana shu zaminda istiqomat qiladigan har bir insonning hayotiy manfaatlariga mos tushishiga keng ommani ishontirish, kishilarni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi bunyodkorlik ishlariga safarbar etish milliy istiqolol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Odamlarga mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni hayotiy faktlar orqali sodda va lo'nda qilib tushuntirish, istibdod asoratlarini tarixiy dalillar asosida fosh etish milliy istiqolol g'oyasini kishilar ongiga singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz, Ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish birinchi navbatda rahbar kadrlar, ziyolilar, ommaviy axborot vositalari xodimlarining muhim vazifasi, fuqarolik burchidir. Milliy istiqolol g'oyasiga sadoqat, kasbiy mahorat, keng ommani ishontirish va safarbar etish qobiliyati – kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yishda asosiy mezon bo'lmog'i lozim. Milliy mafkura masalalariga loqaydlik ayrim rahbar kadrlar o'rtasida umummilliy manfaatlarimizga butunlay yot g'oyalarning, korruptsiya, qarindosh-urug'chilik singari illatlarning kuchayishiga olib keldi.

Mafkuraviy targ'ibot ishlarining muvaffaqiyatini belgilay-digan shunday hayotiy qonuniyat bor: boshqalarni bir g'oyaga ishontirmoq uchun, avvalo, unga o'zing yurakdan ishonishing, boshqalarni yondirmoq uchun o'zing yonishing, boshqalarni g'aflat uyqusidan uyg'otmoq uchun o'zing uyg'oq va bedor bo'lishing shart! Milliy g'oyaning xalqparvar, taraqqiyparvar ekanligiga bo'lgan ishonch kundalik hayot sinovlaridan o'tsagina, so'z va ish birligiga erishilsagina bu g'oya mustahkam e'tiqodga aylanadi. E'tiqod ustuvor erda chinakam insoniy hayot bo'ladi; e'tiqod uchun, ilg'or g'oya tantanasi uchun kurash jarayonida inson shaxsi shakllanadi; u bunyodkor kuchga aylanadi.



**2. G'oya asosida kishilarni uyushtirish.** Jamiyat faqat o'z shaxsiy manfaatini ko'zlaydigan odamlar yig'indisidan iborat emas. Umumiy manfaatlarni teran anglash kishilarning jamiyat bo'lib uyushishlariga, ijtimoiy talab va normalarni e'tirof etib, ularga amal qilishlariga sabab bo'ladi. Bu, ayniqsa, hozirgi o'tish davrida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shu sababdan ham jamiyat a'zolarini umumiy maqsad va manfaatlar yo'lida birlashtirish mafkuraning asosiy vazifalaridan biridir.

O'zining Vatan deb atalmish ulug' bir oilaga mansubligini his etish tuyg'usi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki muttasil va izchil g'oyaviy tarbiya samarasi o'laroq, yuzaga keladi. Oiladagi totuvlik, axillik, mehr-shafqat xislatlari uzluksiz ravishda turli shakllarda olib boriladigan axloqiy tarbiyaning mahsuli bo'lgani kabi, jamiyatning g'oyat xilma-xil qatlamlarini umumiy manfaatlar atrofida jipslashtirish, odamlar o'rtasida hamjihatlik, totuvlik, o'zaro yordam xislatlarini shakllantirish ham izchil mafkuraviy tarbiya vositasida amalga oshiriladi. Shu ma'noda aytish mumkinki, milliy istiqloq g'oyasi kishilar ongiga teran singishi bilan ular umumiy maqsad sari intiluvchi maslakdoshlarga aylanadilar.

**3. G'oyani amalga oshirish uchun safarbar etish.** Mafkuraning bunyodkorlik funksiyalaridan biri ilg'or g'oyani amalga oshirish uchun kishilarni safarbar etishdir.

Mafkurada ifoda etilgan g'oya va maqsad jamiyatdagi ko'plab partiyalar, ijtimoiy harakat va tashkilotlarning faoliyat dasturiga asos bo'ladi, ijtimoiy rivojlanishga kuchli turtki beradi.

U jamiyatda ro'y beradigan tub o'zgarishlarga zamin yaratadi, unga keng xalq ommasini ma'naviy-ruhiy jihatdan tayyorlaydi, so'ngra bunyodkorlik ishlariga safarbar etadi.

Jahon tarixida bunga misollar juda ko'p. Bunyodkor mafkuraning safarbar etuvchi roli tub ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlarda, jamiyat hayotidagi ma'naviy o'zgarishlarda yakqol ko'zga tashlanadi. Buni xalqlarning chet el bosqinchilariga qarshi kurashida, turli bunyodkorlik ishlarida, chunonchi xashar yo'li bilan suv inshootlari, ko'priklar, yo'llar, shahar va qishloqlar qurishdagi umumiy safarbarlik ishlarida ko'rish mumkin.

Mafkura ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy o'zgarishlarga faol munosabatda bo'ladi, ularni yo ma'qullab qo'llab-quvvatlaydi, yoki inkor etadi. Binobarin, mafkura o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy o'zgarishlarga befarq bo'la olmaydi.

Jamiyatdagi turli sotsial guruhlar, sinflar, qatlamlar mafkura asosida siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga o'z munosabatlarini belgilaydilar. Biroq, mafkuraning safarbar etuvchilik xususiyati sotsial o'zgarishlar jarayonida doim ham ko'zga aniq tashlanavermaydi, balki, tub ijtimoiy o'zgarishlar davrida yakqolroq namoyon bo'ladi. Masalan, mamlakat mustaqilligi va yaxlitligiga tahdid soladigan mafkuraviy xavf-xatarlar kuchaygan paytlarda kishilarni Vatan istiqloqi, ravnaqi yo'lida jipslashtirish va safarbar etishda milliy mafkura muhim rol uynaydi.

Siyosiy kurashlar davrida aholining juda oz qismini va tor doiradagi manfaatlarni ko'zlovchi, buzg'unchilikni maqsad qilib olgan mafkuralar ham dunyoga kelishi mumkin. Bunday mafkuraga ega bo'lgan guruhlar bilan aholining asosiy qismini tashkil etuvchi guruh va sinflar o'rtasida mafkuraviy masalalarda turli ixtiloflar kelib chiqadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlagani kabi: «Xalq – o'zining ming yillik an'ana va tajribalari, sunmas xotirasi va buyuk tuyg'ulari bilan yashab kelayotgan qudratli kuch. glgonga, aldovga duch kelgan paytda uning asriy

qadriyatlarini, doimo uyg' oq vijdoni tilga kiradi, noxaql ikka, kabixlikka qarshi kurashga da' vat etadi»<sup>24</sup>.

Mafkuraning safarbar etuvchilik funktsiyasi, Ayniqsa, mafkuraviy kurashlar jarayonida to'laroq namoyon bo'ladi. Zero, mafkuraviy ziddiyatlar keskinlashgan davrda maqsadga erishishning kupol vositalari, xususan bosqinchilik, terror, qo'poruvchilik, inqilobiy usullar ishga solinishi mumkin. Bu – mafkuraviy kurashning o'ta qo'pol va g'ayriinsoniy usullari bo'lib, ularga qarshi turishda sobitqadamlik, bardosh, sabot va faollik talab qilinadi.

Bu jarayonda bunyodkorlik g'oyalari bilan qurollangan keng xalq ommasining ideallari, manfaatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi mafkuragina insonparvarlik, taraqqiyparvarlik tamoyillari asosida mamlakat, xalq taqdirida ijobiy ahamiyatga ega bo'ladi, kishilarni ezgu ishlarga da' vat etadi.

**4. Kishilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-kuvvatlash.** Mafkura milliy taraqqiyotning eng og'ir, murakkab davrida, Ayniqsa, bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan yangisiga o'tish jarayonida keng xalq ommasini ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-kuvvatlaydi, ularda kelajakka ishonch tuyg'ularini uyg'otishga xizmat qiladi. Ana shu sababdan ham chinakam milliy mafkura bo'lgan istiqlol g'oyasi o'zining jozibasi bilan kishilarni o'z kuchiga ishonishga, istiqbolga umid bilan qarashga da' vat etadi. Unda xalq fantaziyasi, orzu-umidlarining qay darajada aks etishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, tuk, farovon va baxtli hayot qurish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish, millatlararo totuvlik, tinchlik, do'stlik er yuzidagi barcha xalqlarning azaliy orzusidir. Demak, milliy istiqlol mafkurasining hayotiyiligi, ta'sirchanligi xalq orzu-umidlarini nechog'li to'la va yorokin aks ettirishi, ularni ruyobga chiqarishning yo'llari va vositalarini qay darajada to'g'ri belgilashiga bog'liqdir.

Zero, jamiyat a'zolari milliy istiqlol mafkurasida o'z hayotiy manfaatlarini, orzu-umidlari ifodasini ko'rsagina odamlarni ruhan bardam, uyg' oq va faol qila oladigan kuchga aylanadi.

**5. G'oyaviy tarbiyalash.** Jamiyatdagi mavjud g'oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozitsiyani tarbiyalash mafkuraning yana bir muhim maqsadidir. g'oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Har qanday axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiya muayyan g'oyani himoya qilish, targ'ib etish va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Xususan, yovuzlik, behayolik, shafqatsizlikni targ'ib etish orqali yoshlarni axloqiy jihatdan bo'zishga qaratilgan badiiy filmlarda jamiyat barqarorligiga rahna solishdan iborat mafkuraviy maqsad yashiringandir. «Ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko'pincha turli yovuzlik, yirtkichlik, shafqatsizliklarni o'rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi kotadi, qalbidan toshbagirlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o'zi ham sezmay qoladi. Hatto shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko'r-ko'rona taql id qilishni istaydigan yigit-qizlar ham topiladi. Chunki ular bunday uydirma talkinlar ta'sirida qo'l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishini tushunib etmaydi»<sup>25</sup>.

---

<sup>24</sup> Milliy istiqlol mafkura-xalqe'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. «Fidokor», 2000 yil, 8 iyun.

<sup>25</sup> Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsilikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 34-bet.

Binobarin, g'oyalar oshkora yoki yashirin, bevosita yoki bilvosita, to'g'ridan-to'g'ri yoki ramziy shakllarda targ'ib etilishi mumkin. Inson faoliyati aniq bir g'oyaviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, bu niyat ko'pincha ko'zga tashlanmaydi. g'oyaviy tarbiyaning asosiy maqsadi kishilarda xushyorlik, sezgirlik hissini shakllantirish, yot va zararli xoyalarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

**6. G'oyaviy immunitetni shakllantirish.** G'oyaviy tarbiya jarayonida kishilarda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Bu uzoq davom etadigan jarayondir.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tikishtirish emas, balki odamlarda oq qorani ajratish, zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir.

Manfaatlar bor erda muqarrar ravishda g'arazli, nopok g'oyaviy niyatlarni amalga oshirish uchun intilishlar ham bo'ladi. g'shlarda mafkuraviy immunitetni tarbiyalashda ijtimoiy fanlar muhim rol uynaydi. G'oyaviy immunitetni shakllantirish – g'oyaviy-tarbiyaviy ish samaradorligining muhim mezonini hisoblanadi.

**7. Harakat dasturiga ega ekanligi.** Mafkura jamiyatda ijtimoiy-siyosiy harakatning o'ziga xos dasturilamali bo'lib xizmat qiladi. Chunki u bugungi kun muammolarini hal etish uchun odamlarni jipslashtirish va safarbar etish zaruriyatidan vujudga kelsa-da, ayni vaqtda uzoq istiqbolni ko'zlaydi. Tarixiy davr o'zgarishi bilan milliy mafkurani yanada takomillashtirish, yangi mazmun bilan boyitish zaruriyati vujudga keladi.

Milliy mafkura jamiyatdagi barcha sotsial qatlamlar va guruhlarining umumiy harakat dasturi, ularni faollikka da'vat etuvchi vosita hisoblanadi. Mafkuraviy maqsad – g'oyaviy faoliyatni amalga oshirishdan kutiladigan ideal natijadir. Maqsadni aniq-ravshan idrok etish inson va jamiyat faoliyatiga izchillik, sobitqadamlik va faollik bag'ishlaydi. Milliy istiqbol mafkurasining oliy maqsadi – Vatanimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligi va xalq farovonligi g'oyalari tayangan holda xalqimizni mustaqillikni mustahkamlash, O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etishdir.

Milliy mafkura O'zbekiston zaminida istikomati qilayotgan barcha kishilarni millati, dini, tili, kasb-kori, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar yagona maqsad yo'lida birlashtirishni, butun xalq irodasini murakkab ijtimoiy muammolarni oqilona hal etish uchun yo'naltirishni, kishilarda yorqin va baxtli kelajakka ishonch ruhini tarbiyalashni ko'zda tutadi.

O'zbekiston milliy mafkurasining istiqbol mafkurasini deb atalishi bejiz emas. Chunki, jamiyatimizda ro'y berayotgan olamshumul-tarixiy o'zgarishlar milliy istiqbol sharofatidandir. O'zbekiston tarixan qisqa muddat ichida jahon hamjamiyatida o'z o'rnini, mavqegini egallay boshladi, ilg'or mamlakatlar tajribasini qunt bilan o'rganish imkoni tug'ildi. Siyosiy, iqtisodiy hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlar, shahar va qishloqlarimizning yangicha chiroy kasb etgani xalqimizning O'zbekiston zaminida kelajagi buyuk davlat barpo etish yo'lida fidokorona mehnat qilayotganidan dalolatdir.

O'zbekiston o'zining intellektual salohiyati, qadimiy madaniyati bilan dunyoviy taraqqiyot yo'lga kirdi. Bunday yo'ldan borayotgan ilg'or mamlakatlar bosqinchilik urushlari, mustamlakachilik, irqchilik, terrorizm va zo'ravonlikning har qanday ko'rinishini keskin qoralaydi. Zero, jamiyatni qurol kuchi bilan, zo'ravonlik bilan emas, balki, mafkuraviy kuch bilan boshqarish samarali ekani tarixan isbotlangan haqiqatdir.

Istiqlol g'oyasining xalqimiz qalbiga yo'l topishi, mamlakatdagi mavjud buyuk intellektual salohiyatni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga erishish uchun safarbar etish milliy mafkura oldiga qo'yiladigan asosiy maqsaddir. Shuni ham inobatga olish zarurki, xalqni faqat olijanob va ilg'or g'oyalargina emas, balki Vatan mustaqilligi va hududiy yaxlitligini xavf ostida qoldiradigan turli ko'rinishlardagi mafkuraviy tazyiqlarga qarshilik ko'rsatish zaruriyati ham jipslashtiradi. Milliy istiqlol mafkurasini, bir tomondan, O'zbekiston zaminida kelajagi buyuk, farovon jamiyat barpo etish uchun xalqimiz kuch-kuvvatini jipslashtirishni, xalq irodasini bunyodkorlik ishlariga safarbar etishni, ikkinchi tomondan esa, milliy mustaqilligimizga jiddiy xavf solayotgan mafkuraviy tahdidlarga zarba bera oladigan mard, jasur, vatanparvar avlodni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Gap shundaki, mamlakatimizning bundan keyingi rivojlanish istiqbollari ko'p jihatdan xalqimiz irodasini milliy mafkura atrofida nechog'li jipslashtirishga, xalqimizning vatanparvarlik, insonparvarlik, taraqqiyparvarlik fazilatlarini yanada rivojlantirishga bog'liq. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi». Jahonni mafkuraviy jihatdan bo'lib olish uchun tinimsiz harakat qilinayotgan hozirgi sharoitda faqat kuchli milliy mafkuragina jamiyatni ana shunday tazyiqlardan muhofaza qila oladi.

Hozirgi paytda kimning g'oyasi kuchli, fikri tiniq, mafkurasini hayotiy bo'lsa – o'sha g'alaba qozonadi. Bu – insoniyatning XX asr tarixidan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biridir. Milliy istiqlol mafkurasini xalqning tub manfaatlari va maqsadlarini o'zida ifoda etadi, jamiyat a'zolarini shu maqsad atrofida jipslashtiradi.

O'zbekiston xalqining tub manfaatlari: mamlakat mustaqilligi, yurt tinchligi, millatlararo totuvlik, fuqarolar o'rtasida o'zaro hamkorlik, mamlakat aholisi va har bir oila, mahalla-ko'yning farovonligini ta'minlashdan iboratdir.

Milliy mafkurada xalqimizning umumiy manfaatlari, orzu-umidlari maqsad va intilishlari o'z aksini topadi. Prezident Islom Karimov milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadini shunday belgilaydi: «Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorchash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir. Shu bilan birga men milliy istiqlol g'oyasi bugungi tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan tahlakali dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanligimizni his etib yashashga, bu boylarni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi usib kelayotgan avlodga etkazishga xizmat qilmog'i zarur, deb bilaman».

### **Istiqlol mafkurasining asosiy vazifalari.**

Istiqlol mafkurasining vazifalari uning o'z oldiga qo'ygan bosh maqsadidan kelib chiqadi. Unda bosh maqsadga erishishning vosita va usullari, yo'llari aniqlanadi.

Shu ma'noda, odamlarimizda mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish–milliy istiqlol mafkurasining asosiy vazifalaridan biridir. Milliy mustaqillik – buyuk ne'mat ya'ni o'z taqdiringni o'zing belgilash, o'z yurtingga

o'zing egalik qilish, ajdodlar an'anasini davom ettirish, jahon hamjamiyatida o'zingga munosib o'rin egallash uchun noyob imkoniyatdir. Mustabid tuzum xalqlarning milliy mustaqillikka, erkin fikrlashga bo'lgan intilishini bugar edi, uni mutelik, itoatkorlikda ushlab turishga zo'r berar edi. U mohiyatan g'ayriinsoniy va inson tabiatiga zid edi. Shu boisdan ham uning mafkurasi muqarrar ravishda inqirozga yuz tutdi. Milliy mustaqillik yillarida Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan milliy qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni chuqurroq o'rganish, undan saboq olishga alohida e'tibor berilishi bejiz emas edi. Chunki mustaqillikning qadr-qimmatini teran his etish uchun, avvalo, tarixni bilmoq, xalqimiz boshiga tushgan sinovlarni, mustamlakalik asoratlarini, xurliklarini yurakdan his etmoq, ozodlik uchun kurash yo'lidagi ulug' ajdodlarimiz jasoratidan vokif bo'lmo zarur. Zero, «Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo'lmaydi. Chunki mafkuraning falsafiy asoslari o'z davrida tarixiy haqiqat tufayli tug'ilgan».

Milliy istiqloq mafkurasi o'zining tub mohiyatiga ko'ra Vatanimiz ozodligi va mustaqilligini mustahkamlashni, Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi, xalq farovonligini ta'minlashni ko'zda tutadi. Bunday ulug'vor vazifani bajarish har bir fuqarodan erkin fikrlash, Vatan taqdiri, istiqboli uchun mas'ullikni his qilishni talab etadi. Erkinlik bo'lmagan joyda mas'uliyatsizlik, loqaydlik vujudga keladi. Milliy mustaqillik xalqimizga ana shunday erkin fikrlash imkonini berdi. Erkin tafakkursiz milliy istiqloq mafkurasining shakllanishini hatto tasavvur ham etib bo'lmaydi. Istiqloq mafkurasi erkin tafakkurga tayanadi, u demokratik jamiyat hayotining muhim qonuniyati, milliy mafkurani yaratish, himoya qilish va takomillashtirishning zarur shartidir. Erkin tafakkur shaxs faolligini oshiradi, uni bunyodkorlik ishlariga ilhomlantiradi.

Istiqloq mafkurasi kishilar ongiga singdirilishi bilan ularda Vatan taqdiri uchun mas'ullik, yagona Vatan tuyg'usi shakllanadi. Chunki shaxsiy g'oya va manfaatlar shaxs faolligini kuchaytiruvchi omil bo'lsa, istiqloq mafkurasi o'zida butun bir xalqning hayotiy manfaat va intilishlarini aks ettiradi. «Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tugiladi. Ya'ni inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tugilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi»<sup>26</sup>

Istiqloq mafkurasi jamiyatimizda ilg'or g'oyalar ustuvorlik qiladigan sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishga yordam beradi. Demokratik qadriyatlarning keng rivojlanishi qarashlar xilma-xilligi va fikrlar rang-barangligi (plyuralizm) ning qaror topishiga olib keladi. Kishilar ruhan yuksaklikka, yana ham baxtli va farovonroq hayot kechirishga intiladilar. Bunday hayotga erishishning turli vosita va yo'llari mavjud bo'lib, u turli g'oyalarda o'z ifodasini topadi. G'oyalar ilmiy-nazariy yoki diniy asosga ega bo'ladi. Demokratik jamiyat aql va tafakkur poydevori ustida kad ko'taradi, dunyoviy ilm-fan va texnika jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Ijtimoiy hayot tobora intellektuallashtirib borayotgan, ilmiy tafakkur insoniyat ma'naviyatining ustuvor yo'nalishiga aylanayotgan hozirgi sharoitda ko'proq ilmiy-nazariy asosga ega bo'lgan ilg'or g'oyalar ustunlik qiladi.

Sog'lom ijtimoiy muhitni yaratmay turib, ilg'or g'oyalarning ustuvorligini ta'minlab bo'lmaydi. Demokratik jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhit–demokratik

---

<sup>26</sup> Karimov I. A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. »Fidokor«, 2000 yil, 8 iyun

printsiplarni hurmat qilish, konstitutsiya talablariga buysunish, ijtimoiy tartiblarga ongli ravishda itoat qilish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish demakdir. Milliy istiqlol mafkurasi jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar, sinflar, tabaqalar manfaatlarini aks ettirar ekan, jamiyat hayotiga tahdid soladigan giyoxvandlik, korruptsiya, o'g'rilik, poraxo'rlik singari ijtimoiy illatlarga qarshi kurashishni taqozo etadi.

Yangicha fikrlaydigan, mutelik tuyg'usidan xoli bo'lgan ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash istiqlol mafkurasining muhim vazifasidir. Ijtimoiy hayot o'rtaga qo'yayotgan muammolar ijodiy fikrlaydigan, tashabbuskor va yuksak ma'naviyatli inson shaxsini shakllantirishni talab etyapti. Milliy mafkura davr talablari va xususiyatlarini yakqol ifoda etgani uchun ham kishilar qalbiga tez etib boradi va hayot dasturi bo'lib xizmat qiladi.

Milliy mustaqillik tufayli yangi tarixiy davrga qadam qo'ydik: bir tomondan, mustabid tuzumning inson tabiatiga zid mafkurasi va siyosatidan, qaramlik, itoatkorlik tuyg'usidan xalos bo'ldik, ikkinchidan, ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan milliy davlatchiligimiz poydevorini qaytadan tiklash, o'z vatanimizda erkin va ozod yashash, tabiiy va madaniy boyliklarimiz, ma'naviy merosimizdan bahramand bo'lish imkoniniqqulga kiritdik. Yangi hayot, yangicha turmush, yangicha fikrlashni, tashabbuskor va shijoatkor bo'lishni talab etyapti. Erkin va mustaqil tafakkursiz bozor munosabatlariga o'tishni tasavvur etib bo'lmaydi. Ijtimoiy hayotning istisnosiz barcha sohalarida raqobat muhiti amal qilar ekan, bu kurashda faqat bilimdon, tadbirkor va uddaburon kishilargina engibchiq adilar. Demokratik jamiyat hayotida yuksak ma'naviyat shunchaki fazilat, sifatgina emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarning zarur sharti hamdir.

Milliy istiqlol mafkurasi o'zida xalqimizning ezgu orzu-umidlari va hayotiy manfaatlarini ifoda etar ekan, bu maqsadlarga erishishning zarur sharti sifatida barkamol inson shaxsini shakllantirishga alohida e'tibor beradi. Chunki ma'naviy barkamol kishilargina shaxsiy va umummilliy manfaatlar uyg'unligini teran anglaydi, Vatan ozod bo'lmasa, shaxs ozod bo'la olmasligini tushunadi.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar barkamol inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, xalqimizning milliy manfaatlariga, ezgu maqsadlariga to'la mos keladi.

Milliy istiqlol mafkurasi birinchi navbatda hayotga endigina qadam qo'yayotgan yosh avlodning hayotiga yangicha ma'no va mazmun baxsh etishga, unda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishga qaratilgandir. Chunki yoshlar faqat milliy g'oya timsolidagina mamlakat taraqqiyoti, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlashning muhim vositasini ko'radilar. g'shlar tabiatan turli g'oyalarga qiziquvchan va ularga tez beriluvchan bo'ladilar. Milliy istiqlol mafkurasi hali turmushning achchiq-chuchugini tatib ko'rmagan, hayotiy tajribaga ega bo'lmagan ana shu avlodni milliy manfaat va taraqqiyotimizga yot bo'lgan soxta va buzg'unchi g'oyalar tajovo'zidan himoya qiladi, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantiradi. «Immunitet» aslida tibbiyotga oid tushuncha bo'lib, inson organizmining turli tashqi ta'sirlar va kasalliklarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini anglatadi. Jamiyat va shaxs ham xuddi jonli organizm singari muttasil ravishda mafkuraviy bosim va tazyiqlar ta'sirini sezib yashaydi. Milliy istiqlol mafkurasi esa jamiyat a'zolarida milliy manfaat va maqsadlar uchun butunlay yot bo'lgan g'oya va mafkuraga qarshilik ko'rsatish, ularga qarshi kurashish qobiliyatini shakllantiradi.

Insoniyat taraqqiyotga intilar ekan, unda bunyodkorlik hissi mavjud ekan, ilg'or g'oyalar dunyoga kelaveradi. Bosqinchilik, talonchilik intilishlari buzg'unchilik g'oyalari ta'sirida yuzaga chiqadi. Shu boisdan ham bunday zararli g'oyalarga qarshi kurashga doimo tayyor turish, yot g'oya va mafkuralardan ogoh bo'lish hayotiy zarurat bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizning ko'pmillatli xalqi ongida «O'zbekiston – yagona Vatan» degan tushunchani qaror toptirish – istiqloq mafkurasining muhim vazifalaridan biridir. Bunda «Yagona Vatan» g'oyasi o'zining tub mohiyati bilan milliy mustaqilligimizga putur etkazadigan mahalliychilik, oshna-og'aynigarchilik illatlarini tag-tomiri bilan yo'qotishda, yurtimizda istiqomat qilayotgan turli xal va millat vakillarida yagona vatan farzandi ekanligi bilan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy istiqloq mafkurasida donishmand xalqimizning «kuch – birlikda», «birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar» singari maqol va hikmatli so'zlarining mohiyat va mazmunini teranroq anglash, kishilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, qonunni hurmat qilish, el-yurt xizmati uchun doimo shay turish, iymon-e'tiqodli, insof-diyonatli, saxiy va halol bo'lish kabi olijanob fazilatlarni tarbiyalaydi. Vatanning sajdagoh singari muqaddasligini teran anglash, fidokorona mehnati bilan rizq-ro'z bunyodkori bo'lgan zaxmatkash xalqqa, ona-zaminga, tarix va madaniy merosga, ajdodlarimiz merosiga hurmat hissini tarbiyalaydi.

Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun fidoyilik iymon-e'tiqodli ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan buyuk merosdir. Chet el bosqinchilariga qarshi sabot-matonat bilan kurashgan Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari ulug' sarkarda va xalq qahramonlarining jasorati bugungi kunda ham vatandoshlarimizda faxr va g'ururlanish tuyg'usini kuchaytiradi. Mustabid tuzum qatag'onlarining qurboni bo'lgan Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir va boshqalarning jasorati el-yurtimiz mustaqilligi, ozodligi yo'lidagi fidoyilikning yorqin namunasidir. Xalqimiz ongiga iymon-e'tiqod, halollik, insof-diyonat, mehnatsevarlik, saxiylik fazilatlarini singdirish milliy istiqloq mafkurasining muhim vazifasidir.

Milliy istiqloq mafkurasida asosida amalga oshiriladigan barcha vazifalar oxir-oqibatda yagona maqsadga – Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizni ozod va obod etish, farovon jamiyat qurish uchun xizmat qiladi. Bu mafkuraning quyidagi muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) O'zbekiston xalqining tub manfaatlarini ifoda etishi. Prezident Islom Karimov bu muhim xususiyat to'g'risida: «Har qanday inson, tabiiyki, murod-maqsadsiz yashamaydi. Binobarin, toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufklarini o'zining milliy g'oyasi, milliy mafkurasida orqali belgilab olishga intiladi... Mafkuraning hayotiyligi uning xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog'li mos bo'lishi, eng muhimi, jamiyatning milliy manfaatlarini, orzu-intilishlarini qay darajada aks ettirishi bilan belgilanadi»,<sup>27</sup> – deb yozadi.

Milliy mafkura xalqning maqsad va intilishlarini ifoda etadi, xalq ruhini ko'taradi, uni ezgulik va bunyodkorlik ishlariga da'vat etadi, jamiyat duch kelgan muammolar echimini topishga yordam beradi. Masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati e'tirof etgan ijtimoiy taraqqiyotning yapon modelini olaylik. Yapon

<sup>27</sup> Karimov I. A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. »Fidokor«, 2000 yil, 8 iyun

milliy mafkurasi «millat – davlatchilik tizimi», «fuqarolik burchi», «Yapon ruhi», «tadbirkorlik», «umummilliylik», «fidoyilik», «jamoaga sadoqat», «modernizatsiya» kabi g'oya va tushunchalarga asoslanib, mamlakatning tez taraqqiy etishi uchun poydevor bo'ldi.

2) O'tmishni kelajak bilan bog'lovchi ma'naviy ko'prik ekanligi. Milliy mafkura bir necha avlodlarning aql -zakovati bilan yaratiladi, u keyingi avlodlar tomonidan yangi mazmun bilan boyitilib boriladi. Ajdodlar bilan avlodlar o'rtasidagi vorislik milliy mafkurada o'z aksini topadi. Chunki unda ajdodlarning asriy orzu-umidlari mujassam bo'ladi. Milliy mafkura o'ziga xos estafeta sifatida bugungi avlodni ajdodlar bilan bog'laydi, milliy qadriyat sifatida e'zozlanadi. Milliy mafkuraning hayotiyligi millatning faolligidan dalolat beradi. Prezidentimiz so'zlari bilan aytganda, milliy mafkura xalqning xalq, millatning millat bo'lishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda «Jahon tajribasiga nazar tashlasak, millatning mafkurasi bir emas, balki bir necha avlodning umri davomida ishlab chiqilishi va takomilga erishuviga guvoh bo'lishimiz mumkin. Butun xalqni birlashtiradigan bayroq bo'lmish mafkurani shakllantirish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida Xudoning o'zi aql-zakovat, iste'dod, kuch-quvvat ato etgan, yorqin tafakkurga ega bo'lgan buyuk shaxslar zaxmat chekkanini ko'ramiz».

3) Milliy mafkuraning yana bir muhim xususiyati kishilarni buyuk maqsadlar sari birlashtiruvchi va safarbar etuvchi kuch anligidadir. Tarixning muayyan bosqichlarida chet el bosqinchilariga qarshi kurash, vatan mustaqilligi uchun kurash, el-yurti obodonlashtirish g'oyasi ajdodlarimizni ezgu maqsadlar atrofida bir tan-bir jon bo'lib birlashishga da'vat etgan. Bunga, 20-yillarida o'lkamizda keng quloq yoygan milliy ozodlik harakati misol bo'lishi mumkin.

4) Milliy istiqloq mafkurasi jamiyat a'zolari bunyodkorlik faoliyatining o'ziga xos mezonidir. Xalqning intellektual – ma'naviy salohiyati milliy istiqloq g'oyalarini qay darajada hayotga tatbik eta olishida, ajdodlar orzu-umidini qay darajada ruyobga chiqara bilishida yakqol namoyon bo'ladi.

5) Milliy istiqloq mafkurasining yana bir muhim xususiyati kishilarni yaratuvchan faoliyatga safarbar etishi, g'oyaviy himoya vositasi ekanligi bilan belgilanadi.

6) Milliy istiqloq mafkurasi yosh avlodni tarbiyalashning bekiyos omilidir. Chunki, u «xalqning, millatning o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan o'lmas e'tiqodidir». (I. Karimov.)

Milliy istiqloq g'oyasi yoshlar hayotining ma'nosi va mazmunini belgilaydi, millat, Vatan ravnaqi, buyuk kelajakni barpo etish uchun yashash va kurashish chinakam insoniy saodat ekanligini yakqol ko'rsatadi. Mustaqil fikrga ega bo'lgan, o'z kuchiga, o'zi tanlagan yo'lning to'g'riligiga ishongan inson porloq kelajakka dadil intilish bilan yashaydi. U jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligidan cho'chimaydi, balki zamonaviy bilim va hayot haqiqatiga suyangan holda har qanday g'arazli niyat, tahdid va intilishlarni fosh qilishga qodir bo'ladi.

Xullas, milliy istiqloq g'oyasi o'zining eng oliy maqsadi, vazifalari va xususiyatlariga ega. Uning oliy maqsadi yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida xalqimizni jiplashtirish, kishilar ongida mustaqil dunyoqarash va ogohlik hissini



kamol toptirish, komil insonni voyaga etkazish, fuqarolarimizda mafkuraviy immunitetni tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lib qolaveradi.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

G'oyaviy maqsadlar, milliy mafkuraning vazifalari, oliy maqsad, mustaqillik dunyoqarashi, mafkuraviy immunitet, yagona Vatan tuyg'usi, komil insonni tarbiyalash, vatanparvarlik, iymon-e'tiqod, insonparvarlik, mafkuraning xususiyatlari.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.**

- Istiqlol g'oyasining asosiy maqsadi nima?
- Mafkura o'z oldiga qanday umumiy vazifalarni kuyadi?
- Mafkuraviy tarbiya nima?
- Milliy istiqlol g'oyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- Milliy mafkuraning asosiy xususiyatlarini izohlang.

## 9. MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINING ASOSIY G'OYALARI. VATAN RAVNAQI VA YURT TINCHLIGI

### Asosiy g'oyalar mohiyati.

O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi – mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Milliy istiqloL mafkurasining asosiy g'oyalari o'zining ma'no-mohiyati, falsafasi, jozibasi bilan bosh g'oyani xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

**Vatan ravnaqi farzandlar kamoliga bog'liq. Kishilarimizning ma'naviy yuksakligi vatanimiz ravnaqining kafolotidir. Shunday ekan, bu masala mustaqil O'zbekiston uchun muhim, vazifalardan biridir.**

Vatan – insonning kindik qoni to'kilgan muqaddas zamin, uni kamolot sari etaklovchi, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etuvchi tabarruk maskandir. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan eng buyuk, bebaho meros, eng aziz xotira. Vatan – ota-bobolarimizning xoki poklari jo bo'lgan, vaqti-soati etib har birimiz bosh qo'yadigan muqaddas zamin.

Vatan – bu xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi. Xalqimiz Vatan ostonadan boshlanadi, deb bejiz aytmagan. Kishi ulg'aygan sari uning Vatan haqidagi tushunchasi ham kengaya boshlaydi. Ostona, uy, mahalla, qishloq, shahar, tuman, viloyat va nihoyat mamlakat darajasiga ko'tariladi. Tushuncha va kechinmalar nuqtai nazaridan esa vatanparvarlik tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lib, tashqi muhit va davrlar ta'sirida shakllangan va o'zgarib kelgan ijtimoiy-ruhiy tuyg'udir.

Vatani bor odamning g'urur-iftixori yuksak, maqsad-muddaolari aniq bo'ladi. Tog'dek tayanchi – Vatani borligini his etgan inson hayotning har qanday sinovlariga doimo tayyor turadi. Kurrai Zamin – Er sayyorasi butun jumlai jahonda yashayotgan olti milliarddan ziyod xalqlar uchun Vatan hisoblansa, har bir xalq uchun taqdiran va tarixan ato etilgan hudud ona-Vatandir.

Vatanni, ota-onani tanlamaydilar. Ular yaratganning o'zi tomonidan berilgan ulug' va muqaddas ne'matdir. Ana shu ulug' ne'matni, asrab-avaylash, uning sarhadlarini gullatib-yashnatish o'z qo'limizda. Bunday imkoniyatni esa bizga ulug' istiqloL berdi. Barchamizning kindik qonimiz Ota Makon tuprogiga tukilgan, barchamiz bir ona – O'zbekiston ko'ksidan sut emganimiz. Endi uni oqlashimiz, ana shu muqaddas yurt farzandi ekanligimizni unutmashimiz darkor. Ona suti orqali Ona – Vatanga mehr tugiladi, u farzandlarini buyuklikka, jasoratga etaklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda: «Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgan sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tugilib usgan yurtga muhabbat ham shu kadar cheksiz bo'ladi», u o'z taqdirini Vatan ravnaqi bilan bog'liq, deb biladi.

Odamlarda g'ayrat, erta tongdan qaro tungacha ishlayverish qobiliyati bo'lishi mumkin. Mustamlaka davrida sobiq markaz topshirig'ini bajarishning o'zi etarli edi. Mustaqil O'zbekistonga esa mutelikdan xoli, mustaqil fikrlaydigan, ishbilarmon, tadbirkor, vatanparvar shaxslar darkor.

Vatanning ravnaqi, avvalo, uning farzandlari kamoliga bog'liq. Bu esa har bir yurtdoshimizni o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi. Bu esa vatanparvarlik tuyg'usida namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik – kishining o'zi tug'ilib usgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Fidoyilik vatanparvarlikning bosh belgisi hisoblanadi, uning oliy ko'rinishi esa jasoratdir. Bugungi kunda esa bozor iqtisodiyoti sharoitida vatanparvarlikning muhim ko'rinishlaridan biri tadbirkorlik sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tarix vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishdagi eng buyuk qurollardan biri. O'tmishda Ona Vatan himoyasi, yurt tinchligi uchun jonini fido qilishga tayyor turgan Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi kabi shaxslar bo'lganligi faktining o'zigina kishilarda kelajakka ishonch ruhini mustahkamlaydi.

Umuman vatanparvarlik:

- o'z xalqining tarixini yaxshi bilish va undan g'ururlanish;
- buyuk ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy merosni ko'z korachig'idek asrab, kelgusi avlodlarga etkazish;
- ajdodlar urf-odat, rasm-rusum va udumlarini, merosini o'rganib, uning qadriyatga aylangan qismini davom ettirish;
- davlatimiz kelajagi, istiqloqlarning barqarorligi, kelajakning buyukligini chin dildan his etish, shunday kelajakni barpo etishga astoydil ko'maklashish, yuzlab fazilatlar kabi xususiyatlarni anglatadi.

Vatanparvarlik shaxsning chinakam e'tiqodiga aylanmog'i uchun bilimning o'zi – dunyo va ilm sirlaridan boxabarlik, nakadar chuqur bo'lmasin, baribir kamlik qiladi. Vatan haqida gap sotib, u kiyin axvolda qolganda chuchib, ikkilanib, loqaydlik, befarqlik qilib, irodasi, sadoqati zaiflashadigan kishilar Vatanga noloyik.

Ko'r-ko'rona muhabbat ham Vatan ravnaqiga xizmat qilmaydi, kutilgan natijaga olib kelmaydi. Vatan ishki, shu bilan birga shaxsning tanqidiy muloxaza yuritishi, kamchiliklarni ko'rib, ularni bartaraf etish, mamlakati, xalqi, milliy qadriyatlarini takomillashtirish yo'lidagi harakatiga uyg'un bo'lishi lozim. Demak, Vatan ravnaqi, avvalo uning farzandlari kamoli bilan chambarchas bog'liq. Buni chuqur anglagan davlatimiz rahbari esa bor kuchi, g'ayrati, imkoniyatlarini komil inson tarbiyasiga safarbar etgan. Buni har bir vatandoshimiz, jumlai-jahon ko'rib, bilib turibdi.

Moziy, bugungi kun shundan dalolat bermoqdaki milliy g'oya hech qachon Vatandan tashqarida ildiz otmaydi. U Vatan ravnaqini belgilab beradigan tamoyillarni o'zida aks ettirsagina kuch-qudrat manbaiga aylanadi. Vatanning ravnaqiga xizmat qilmaydigan yot va begona g'oyalar esa hech qachon bizning milliy g'oyaga aylanolmaydi. Bunday g'oya qanday libosga uralib olmasin, qanday niqob kiymasin, donishmand xalqimiz ularning nayrangiga uchmaydi.

### **Vatan va uning ravnaqi tushunchasi.**

Itiqlol yillarida vatan va ravnaq tushunchalari yangicha ma'no, yangicha hamiyat kasb eta boshladi. Istibdod davridagi hukmron kommunistik mafkura bor kuchini kishilar ongidagi Vatan tushunchasini bo'zib, soxta, mavhum Sovet vatani g'oyasini singdirishga sarflagan. «O'zbekiston – Vatanim manim» yoki «o'zbekim» deyish millatchilik sifatida baholanib, minglab vatandoshlarimizni katagon domiga tortib ketgan.

Bugun u kunlar o'tmishga aylandi. Endi, biz Vatanimiz mustaqil bo'lgan davrda yashamoqdamiz. Endi, bu mustaqillikni asrash, avaylash ham vatanparvarlikning namunasiga aylanmoqda. Vatanparvarlik millatchilik emas, balki umuminsoniy tuyg'udir. Frantsuz adibi Volter shunday degan edi: «Vatanga bo'lgan muhabbat meni ajnabiylar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, Vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanimni jahondagi boshqa xalqlarning yutuqlari bilan shunchalik ko'p boyitgim keladi». Bugungi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlatimizning iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalqimizning ma'naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani Vatan ravnaqining asosi bo'ladi.

Bu o'zgarishlar jarayonining ustuvor xususiyati xalqimizning bunyodkorlik faoliyatidir. Bunda ana shu bunyodkorlik salohiyatini to'la yuzaga chiqarish, iqtisodiyotni ilg'or texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jahonda Ford, Rokfeller, Dyupon, Krupp singari uddaburon, g'ayratli kashfiyotchi tadbirkorlar o'z nomlarini millatlari va vatanlari tarixiga abadiy yozib qo'ydilar. Mustaqil O'zbekiston ravnaqi ham ana shunday o'z tadbirkorlarimizga bog'liq. Vatan jahon bozorida o'z o'rnini egallaydigan, raqobatbardosh mahsulotlar chiqarishga qodir mutaxassislar tarbiyasi uchun bor kuchini sarflamoqda va bunga javoban Vatan farzandlaridan bunyodkorlik faoliyatini talab qilmoqda. Vatan ravnaqi uchun bor bilimi, kuchi, salohiyatini sarflash O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolarining muqaddas burchiga aylanmog'i darkor. Zero har birimizning baxtimiz, kelajagimiz Vatan ravnaqi bilan chambarchas bog'liq.

### **Yurt tinchligi.**

Har bir xalq, har bir inson uchun vatani tinchligi – bebaho ne'mat, ulug' saodatdir. Bashariyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik-totuvlikka intilib kelgan. Yurt tinchligi – barqaror taraqqiyot garovi. Tinchlikni saqlash va mustahkamlash masalasi umumbashariy muammodir. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyatning asosiy masalalari, birinchi navbatda, tinchlik-totuvlik holatidagina samarali hal etilgan. Shu boisdan ham yurt tinchligi – barqaror taraqqiyot garovidir. Tinchlikni saqlash muammosini o'z-o'zidan kishilarning xoxish-istagi, orzu-umidlari bilan hal qilib bo'lmaydi. Insoniyat uchun muqaddas bu qadriyatga doimo izchil va qat'iy harakatlar tufayligina erishilgan.

Bosqinchilik harakatlari milliy, diniy va boshqa nizolar oqibatida urushlar olib borilishi ming yillar mobaynida jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilib keldi. o'tgan besh ming yilda insoniyat 15 mingdan ortik urushni boshidan kechirdi. XX asrdagi ikkita jahon urushida 60 mln kishi halok bo'ldi. Afsuski, bu illatdan insoniyat hanuzgacha to'la qutulish imkoniga ega bo'lmayapti. Urush va nizo, beqarorlik va buzg'unchilik g'oyalari, har qanday g'oya singari avvalo, ba'zi insonlar miyasida paydo bo'lib, so'ngra ma'lum bir guruhlar ongiga singgach, amaliyotga o'tadi. Xuddi shunday fashizm ham, avvalo, Mussolini va Gitler kabilar ongida paydo bo'lgan, so'ngra o'z ortidan odamlarni ergashtirib ne-ne balolarga sabab bo'lgan edi.

O'zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi hamda uni o'z orzu-umidlari, oliy maqsadlari ruyobga chiqishining kafolati, deb biladi. Shu boisdan ham bobo-momolar duoga qo'l ochganlarida dastavval yaratgandan tinchlik-omonlik tilaydilar. Xalqimiz orasida ham «tinchlik bo'lsa, har qanday maqsadga erishish mumkin», degan tushuncha keng tarkalgan.

Lekin tarix saboqlari shundan dalolat bermoqdaki, orzu-niyatning o'zi bilangina uzoqqa borish qiyin. Yurt tinchligi dunyo va mintaqalar tinchligi bilan chambarchas bog'liq. Davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari tobora chuqurlashib borishi hozirgi sharoitda tinchlikning nihoyatda muhim omili sifatida kattta ahamiyat va chuqur ma'no kasb etmoqda.

Xalqaro maydonda ro'y berayotgan tub siyosiy o'zgarishlar ham tinchlik uchun kurashning ahamiyatini yanada oshirib yubordi. Ko'pchilik mamlakatlar xalqlarining milliy istiqloli, demokratik erkinliklarini asrab-avaylab kelajak avlodlarga etkazish yo'lidagi harakatlari o'z yurtlari va mintaqalaridagi tinchlik va barqarorlikka bog'liq ekanligi ravshan. «qo'shning tinch – sen tinch» maqolining tub ma'nosini dunyo ham, biz ham yanada teranroq anglamoqdamiz.

Ko'hna tarixga nazar tashlasak, aynan yurt tinch, el omonlikda yashagan davrlardagina xalqimiz moddiy va ma'naviy yutuqlarga erishganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda hukmronlik qilgan qirq yil mobaynida mamlakatda tinchlik-barqarorlik ustuvor bo'lgani sababli ilm-fan, madaniyat taraqqiy etgan, bunyodkorlik ishlari rivojlangan, ko'hna zaminimiz gullab-yashnagan. Shuning uchun O'zbek she'riyatining quyoshi Alisher Navoiy Ulug'bekni dunyodagi barcha podsholardan ustun qo'yadi:

Temurbek naslidin sulton Ulug'bek  
Ki, olam ko'rmadi sulton aningdek.

Nizolar, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik avj olgan Ulug'bek zamonidan keyingi davrlarda esa yurtimizdan fayz-baraka ketdi, ko'gna Turkiston jahon tsivilizatsiyasidan ancha orqada qoldi. Insonlar qalbini ma'rifat o'rniga jaholat zabt etib, odamlar nafsu xavoga berildi, amaldorlar Vatan taqdirini emas, o'zining tor va mayda manfaatlarini uylaydigan kimsalarga aylandi. Oqibatda muqaddas ona tuprogimiz bosqinchi ganimlar oyogi ostida ayovsiz toptaldi, xalqimiz bosqinchilar qo'liga qaram bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi istiqlolga erishgan dastlabki kundan boshlab tinchlik-totuvlikni, o'z siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini jumlai jahonga e'lon qildi. U o'z hududida tinchlik va barqarorlikni saqlabgina qolmay, mintaqamizdagi beqaror vaziyatlarni hal etishga ham o'z ulushini ko'sha boshladi. Ayniqsa, uning o'zaro harbiy mojarolar tufayli dunyoviy tsivilizatsiyadan batamom o'zilib, dunyoning eng qolok mamlakatlaridan biriga, o'ta xavfli tahdid va tajovuz manbaiga aylanib qolgan afg'on masalasini hal etish borasidagi sa'y-harakatlari diqqatga sazovordir. O'zbekiston Respublikasi Islom Karimovning taklif va tashabbusi bilan Afg'oniston muammolari buyicha BMTning «6+2» guruhi tuzildi va hozirda muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Ushbu guruhning Toshkent Deklaratsiyasi esa BMT tomonidan masalani hal etishning yagona varianti sifatida e'tirof etildi. O'zbekiston Respublikasining tinchlik borasidagi siyosati, mintaqamiz va jahondagi xavf-xatarlar haqidagi qarashlari Prezident Islom Karimovning asarlarida, Ayniqsa, uning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida, yurtboshimizning BMTning 48 va 50-sessiyalarida so'zlagan nutqlarida juda aniq va batafsil bayon qilib berilgan.

Islom Karimov tinchlikning bugungi kelajak hayotimiz uchun ahamiyatini quyidagicha ta'riflaydi: «Biz — Sharq farzandlarimiz. Sharq mamlakatlarining

kaeriga bormang, odamlar bir-biri bilan uchrashganda, avvalambor, «Assalomu alaykum!» deyishadi. Ushbu kalom arabchadan olingan bo'lib, «Sizga tinchlik yor bo'lsin» degan ma'noni anglatishini yaxshi bilasizlar. «Salom», ya'ni «tinchlik» so'zi Kur'oni karimda 40 marta uchrar ekan. Bu muqaddas kitobning oyatlaridan birida shunday deyiladi: «Mehribon Parvardigor tomonidan odamlarga olqish ma'nosida «tinchlik» so'zi aytilur».

Bugungi murakkab davrda turli xil moliyaviy va mafkuraviy manbalardan kuch olib turgan, Afg'oniston va Tojikiston kabi beqaror mamlakatlarda in quribn olgan xalqaro terrorchilik va ekstremizm markazlari millionlab tinch aholiga, butun-butun davlatlarga, jumladan bizning yurtimizga ham harbiy-mafkuraviy tajovuzlar qilishga urinmoqda. Ularning qilgan barcha yovuz harakatlari chippakkachiqlik. Chunki bugungi O'zbekiston o'zini himoya qilish qudratiga ega. U endi hech qachon dushmanga oyoq-osti bo'lmaydi.

Biz ko'pincha yurt tinchligi iborasini eshitgan chog'da, qo'lida qurol ushlab, Vatan sarhadlarini quriqlayotgan jangchini tasavvur qilamiz. Aslida mamlakatning har bir fuqarosi Vatan himoyachisidir. Har birimiz o'z ish joyimizda, ko'chada, maktabda Vatanni, uning muqaddas qadriyatlarini, yurt tinchligini himoya qilishga da'vat etilganmiz. Fidoyi, millatparvar, sadoqatli kishilarning har bir ishi, so'zi, amali, maqsadi Vatan himoyasi bilan bevosita bog'liqlik bo'ladi. Vatanning intellektual boyligi — yosh iste'dodlarni asrab-avaylash, ularga imkoniyatlar yaratib berish, ularning qalbini bid'at va jaholatdan musaffo saqlash, ularni yot va zararli g'oyalardan himoya qilish ham yurt tinchligi uchun kurash demakdir.

Yurt tinchligi — Vatan ozodligi va istiqloli bilan chambarchas bog'liqlik. Birovga qaram xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mamlakatimiz Konstitutsiyada Vatan himoyasi, yurt tinchligi uchun kurashish har bir fuqaroning muqaddas burchi ekani qayd etib qo'yilgan. Xalqimizning tinch va osoyishta yashashi, oydin kelajagi Vatan, yurt taqdiri bilan bog'liqlik. Shuning uchun bugungi kunda har bir fuqaro yurtim tinch — men tinch, elim tuk bo'lsa, men ham tukman. Elimning boshiga kulfat kelsa, mening boshimga ham tegirmon toshi tushadi, demak, yurtim men uchun, men esa yurtim uchun javobgarman, o'zimni, o'z uyimni o'zim asramog'im darkor, degan haqiqatni shior qilib olishi lozim.

Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy etukligi — yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir. Xalqimiz uchun muqaddas bu g'oya jamiyatdagi turlicha fikr va qarashga ega bo'lgan barcha kuch va harakatlarni birlashtirishga va shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Vatan, vatanparvarlik, vatan ravnaqi, tinchlik, barqarorlik, barqaror taraqqiyot, buyodkorlik, yurt tinchligi.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.**

- Vatanparvarlik tuyg'usining mohiyatini qanday tushunasiz?
- Vatan ravnaqiga erishish uchun nimalar qilmoq kerak?
- Tinchlik tushunchasining umuminsoniy mazmuni qanday?
- Yurt tinchligini asrashda nimalarga e'tibor bermoq kerak?

## 10. XALQ FAROVONLIGI VA KOMIL INSON

### **Xalq farovonligi..**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi — xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning iqtisodiy asosi — ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotidir. Bugungi dunyodagi ko'p mamlakatlar aynan shu yo'l bilan taraqqiy etib, o'z xalqining farovonligini ta'minlashda o'rnak bo'lmoqda. O'zbekiston ham xuddi shunday oqilona yo'lni tanladi. Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shunchaki islohot uchun emas, aynan inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qiladi. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan har qanday yangilanish, o'zgarishning mohiyatida ana shunday ezgu maqsad yotgani barchamizga g'ayrat-shijoat baxsh etadi.

Sobiq sho'ro tuzumi odamlar ongiga barcha falokatlarning sababi – xususiy mulkdadir, degan g'oyani singdirib, soxta tenglikni qaror toptirmoqchi edi. Oqibatda ishlamagan odam ishlagan odamdan yaxshiroq yashay boshlagan edi. Hatto sovet kishisining o'zi ham davlat mashinasining muruvatiga aylantirilgan edi. Mehnatga haq to'lashdagi adolatsizlik boqimandalik kayfiyatini, ishlab chiqarishdagi isrofgarchilikni, tashmachilikni kuchaytirdi. Afsuski, o'sha davrdan meros bo'lib kelayotgan «Davlat bor, hammani boqadi» degan kayfiyat ayrim kishilar ongida hanuzgacha yashab kelmoqda. Bugun ham ma'lum kishilar ish axtarish, o'z aravasini o'zi tortish, yangi kasb egallash o'rniga turli idoralardan moddiy yordam so'rash bilan ovora, holbuki, davlat hammaga tekin mol ulashadigan korxonalar emas. Buni anglab etmaganlar «Bersang — eyman, ursang o'lamani» qabilida loqaydlik bilan hanuz harakat qilish o'rniga bir chetda tomoshabin bo'lib turibdi. Odatda mustabid tuzumlar xalq farovonligidan, uning boyib ketishidan manfaatdor bo'lmaydi. Sovet tuzumi ham ommani sun'iy ravishda turmush tashvishlariga botirgan edi. Haqiqatan ham, kun ko'rish mashaqqatidan boshi chiqmagan xalq ob'ektiv narsalar xususida o'ylashga, fikrlashga imkon topolmay qoladi. Sho'rolar ham shu tariqa o'zlari yuritgan siyosatni tanqid qilishga qodir ijtimoiy-siyosiy oqimlar paydo bo'lishining oldini olishga uringan. Lekin eski tuzumning barcha urinishlari bekor ketdi, u oxir-oqibatda o'z o'zini eb tugatdi. To'rt muchasi but, ongli, aql li va faol odamning kambag'al yashashi uyat sanaladigan davr kelganini hali hamma ham anglab olgani yo'q.

Xalqimizda «Besh qo'l barobar emas» degan ajoyib naql bor. Lekin sobiq tuzum besh qo'lni barobar qilish shiori bilan yashadi. Bozor iqtisodiyoti jamiyatda ma'lum ma'nodagi tabakalanishga olib kelishi tabiiy. Shu bilan birga, biz barpo etayotgan jamiyatda davlat xalqning keskin tabakalanishiga — oshib-toshib ketgan boylaru kambagal qashshoqlarga bo'linib ketishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rib, bu borada o'ziga xos kuchli ijtimoiy siyosat yuritmoqda. Aholining eng kam himoyalangan va muhtoj tabakalarini o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash xalq farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati kafolatidir. Ijtimoiy himoya choralari aholining hammasiga emas, balki ko'proq haqiqiy muhtoj va ehtiyojmand qatlamlarga yo'naltirilmogda. Bu borada davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari hamda jamg'armalarning mablag'lari ham ishga solinmogda. «Sendan – harakat, mendan barakat» degan dono naql bejiz aytilmagan. Ya'ni bu dunyoda ko'p narsa insonning o'ziga, uning sa'y-harakatlariga ham bog'liq.

Bugungi kunda farovon turmush asosi — erkinlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlikdir. Bu haqiqatni odamlar ongiga singdirish, keng aholi qatlamlarining islohotlar mohiyatini anglab etishiga va uning faol ishtirokchisiga aylanishiga erishmog'imiz darkor. Buning uchun esa ularning dunyoqarashini, hayotga, mehnatga, erga munosabatini tubdan o'zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot o'tgan tuzumda ayrim mutaxassislarining ishi bo'lsa, bugun umumxalq, umumjamiyatning manfaatiga daxldor masala bo'lib qoldi. Butun xalq yangi iqtisodiy tafakkur bilan qurollanmoqda. Bizning mulkka, mehnatga munosabatimiz tubdan o'zgara boshladi. Miyamizga singib qolgan «davlat mulki» degan tushuncha yoniga bugun xususiy mulk, paychilik jamiyatlari, shirkat, fermer, oila pudrati degan yangi tushunchalar qo'shildi. Mamlakatimizda istiqloq yillarida o'ta markazlashgan va yakkaxokimlik asosiga qurilgan, o'zini oklamagan tizimga barham berildi. Tadbirkorlik faoliyatining erkinligi uchun konstitutsiyaviy, huquqiy va iqtisodiy shart-sharoit va kafolatlar yaratildi. Mulkdorlar sinfini shakllantirish, ularning huquqini mustahkamlash, nufuzini oshirish va kafolatlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish, odamlarda mulkka egalik hissini tarbiyalash, kichik va o'rta korxonalarini izchil rivojlantirish, aholi farovonligi va daromadlarining ortishida, ishsizlik muammosini echishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda xalqimizda mulkka egalik hissini shakllantirish, uning xo'jalik yuritishning zamonaviy usullarini o'zlashtirishiga erishish, unda o'z kuchiga ishonch tuyg'ularini kamol toptirish milliy islohotlarning eng ustuvor vazifalaridan biridir.

Tabiiy boyliklar, er resurslari, mamlakat iqtisodiy salohiyati har bir fuqaroning extiyojlarini qondirish, o'zligini namoyon etish va bunyodkorlik qobiliyatini ruyobga chiqarishning asosiy omillaridir. Dunyodagi ko'pgina atoqli kishilar kozok okini Abay e'tirof etib aytgan quyidagi so'zlarga to'la-tukis qo'shiladilar: «O'zbeklar etishtirmaydigan va mo'l hosil olmaydigan ekinning o'zi yo'q, er yuzida O'zbek savdogarining oyog'i etmagan joy yo'q, o'zbeklar uddalay olmaydigan ishning o'zi yo'q... O'tkir zehn, mahorat, abjirlik va tadbirkorlik — bularning hammasi o'zbeklarga xos xususiyatdir». Mehnatkash, mirishkor, ishning ko'zini biladigan O'zbekiston xalqi o'z turmushini o'z qo'li bilan farovon qilishga qodir. Har qaysi inson va oila badavlat bo'lsa, jamiyat va davlat ham kuchli va qudratli bo'ladi, degan haqiqatga asoslangan bugungi iqtisodiy islohotlarimiz yaqin kelajakda, albatta, o'z mevasini beradi.

### **Komil inson g'oyasi.**

Bu g'oya ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, **odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir. Bu g'oya mavzuning, chuqur o'rganishni talab etuvchi masaladir.**

O'zbekiston o'z istiqloliga erishganidan so'ng jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e'tibor berish mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yilishi ham moziyning ko'p asrlig saboqlariga, jamiyat oldida ko'ndalang turgan yangi vazifalarni hal etishga oqilona yondashishning ko'rinishidir. Milliy o'zlikni anglash jamiyatimiz hayotida ro'y bergan ma'naviy o'zgarishlarning asosidir. Milliy o'zlikni anglash ham shaxsning, xalqning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq. Milliy o'zligini, o'z manfaatlarini, o'z mamlakati taraqqiyoti istiqbolini chuqur, xolisona anglagan



inson va xalqgina keng rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'la olishini tarix saboqlari har doim isbotlab kelgan.

Komil inson g'oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari etaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga etkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat tanazzulga maxkum.

Jamiyat taraqqiyotidagi yuksalishlar, taraqqiyot imkoniyatlari, komil inson shaxsining shakllanishi muayyan ma'naviy muhit va imkoniyatlar bilan bog'liq bo'lgan. Ko'p jihatdan ijtimoiy turg'unlik holatlari, iqtisodiy, siyosiy inqirozlar ma'naviy buxroning natijasi tarzida namoyon bo'ladi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotidagi tushkunliklar va yuksalish sababini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillar bilan bir qatorda kishilar ongi, e'tiqodi, dunyoqarashi, komillik darajasidan ham izlash kerak.

Milliy g'oyamizning asosiy maqsadlaridan biri – har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iborat. Komil inson esa, bu – ozod shaxs, erkin fikr etuvchi, o'z xalqining ideallari uchun kurashuvchi inson, o'z Vatanga halol xizmat qiluvchi kishidir. Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, «bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat to'zishga olib boradigan yo'ldagi asosiy tayanchimiz – insondir. Yuksak malakali va yuksak ma'naviyatli insondir. Bu narsa, ayniqsa yosh avlodga tegishli».

**Komillik** – mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab asl insoniy xislat va fazilatlarning majmuidir.

Komil inson g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Zardo'shtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da halol mehnat komillikning asosiy mezoni sifatida talqin etilgan. Komil inson g'oyasi islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma'no-mazmun kasb etgan. Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Navoiy kabi mutafakkirlarning komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlari jamiyat taraqqiyotiga yangi ma'naviy imkoniyatlar izlash maqsadlari bilan bog'langan. Forobiy fozil shahar aholisi haqidagi g'oyalarni ilgari surar ekan, shaxsning ma'naviy kamolotini adolatli jamiyat qurishning asosiy sharti deb hisoblagan.

Tarixga nazar tashlasak, buyuk shaxslarning faoliyati mohir tashkilotchilik, teran bilimlilik bilangina emas, balki ularning axloqi va odobi bilan ham yuksak ma'no-mazmun kasb etgan. Odoblilik boshqalarnigina emas, o'zini ham hurmat qilish deganidir. Ayniqsa, bizning milliy an'alarimizga ko'ra, insonning komilligi, avvalo, uning axloqiy etukligida, ajdodlar merosini chuqur o'rganib, uni boyitish, katta-kichikka extirom ko'rsatish borasidagi harakatlarida kzga ko'rinadi. Komillik darajasini har kim o'zicha belgilay olmaydi. Komillik har bir shaxsning o'zidan ko'ra boshqalarga yaxshiroq ma'lum bo'ladi. Komil inson – qullik, mutelik, boqimandalikdan batamom xalos bo'lgan inson. Chunki inson birovga quldek ergashsa, demak ijtimoiy jihatdan u hech narsaga erishmagan bo'ladi. Komil inson o'z maslagi, Vatani, xalqi manfaatlariga yot, zararli g'oyalarni tarkatayotgan kimsalar ortidan ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydi, ogoh va faol bo'ladi.

Xalqimizning kadim-kadimdan ajoyib odatlari, o'g'itlari bor, yurtga muhabbat, Ona va Vatanni sajdagoh kabi muqaddas bilish, yolg'on gapirmaslik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, kattani hurmat, kichikni izzat qilish shular jumlasidandir. Bular xalqimizning hayoti, turmush tarzi, ma'naviyati va mentalitetiga singib ketgan. Bunday

o'ylab qaralsa, ajdodlarimizning ana shu talablarida jamiyat, inson uchun eng zarur fazilatlar aytib o'tilgani ayon bo'ladi. Oqqan daryo oqaveradi, deganlaridek, e'tiqodi mustahkam ulug' ajdodlarning avlodlari bu xususiyatlarni o'zida jamuljam qilgan munosib farzandlar bo'lib etishadilar. Shuning uchun bizning Vatanimiz yosh avlodga, uni tarbiyalashga bor kuch-imkoniyatini sarflamoqda.

Tariximizda komillik timsollari ko'p: Alpomish – xalqimizning ideal qahramoni, u – aql , faxm-farosat, jismoniy kamolot, mardlik va vatanparvarlikning badiiy timsoli. Hazrat Navoiy uchun ideal – Farxod obrazi. U aql iy va jismoniy kamolot egasi. Farxod Nakshbandiyning «Dil ba yoru, dast ba kor» tamoyilini o'zida mujassam etgan shaxs. Oybekning «Navoiy» romanida esa Navoiy – ideal obraz. Ayni paytda u real tarixiy shaxs, komil insondir.

Bugungi kunda Vatan ijodkorlar zimmasiga yoshlarga ibrat bo'ladigan yangi barkamol insonlar, zamonaviy qahramonlar timsolini yaratish vazifasini yuklamoqda. Mustaqil Vatanimiz oliy maqsad qilib olgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barkamol, ezgu g'oyalarni hayotiy e'tiqodiga aylantirgan etuk insonlargina bunyod eta oladi.

Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali komil insonlarni voyaga etkazishga yuksak e'tibor berilmoqda. Vatanimizda sog'lom avlod harakatining keng tus olgani, kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor maqsadni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamlardir.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Farovonlik, xalq farovonligi, kamolot, komil inson, barkamol avlod, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.**

- Farovonlik tushunchasining mazmun-mohiyatini so'zlab bering.
- Mustaqillik sharoitida xalq farovonligiga erishish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
- Komil inson kiyofasiga xos qanday xususiyatlarni bilasiz?
- O'zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash uchun qanday dastur amalga oshirilmoqda? Uning mazmuni to'g'risida so'zlab bering.

## **11. IJTIMOYIY HAMKORLIK, MILLATLARARO HAMJIHATLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK**

### **Ijtimoiy hamkorlik.**

Ijtimoiy XX asrda boshlab, XXI asrda davom ettirayotgan eng muhim g'oyalardan biri — jamiyatdagi turli toifalar, siyosiy kuchlar va partiyalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikdir.

Ijtimoiy hamkorlik — murosa falsafasi bo'lib, xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo'lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarining umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligini ta'minlaydi. Natijada jamiyatda tinchlik va totuvlikning, barqaror taraqqiyotning mustahkam kafolati vujudga keladi. Albatta, bunday darajaga erishish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Turli g'oyalarni bayroq qilib olgan kuchlarni bir maqsad yo'lida birlashtirish g'oyat mushkul. Lekin Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi shunga erishishni taqozo etadi.

Qarashlar rang-barangligi, fikrlar xilma-xilligi, so'z va fikr erkinligi jamiyatni sog'lomlashtiruvchi, uni mustahkamlovchi o'ta muhim omildir. Biroq – bu, xayolga kelgan gapni aytish, ko'ngil tusagan ishni qilish, o'z manfaati uchun hamma narsaga tayyor turish, degani emas. Bundan tashqari, erkin fikr degani, albatta, to'g'ri fikr degani ham emas. Erkinlikning o'zi esa anglab olingan zaruratdir. Demak, fikr erkinligi umummanfaat, umumjamiyat taraqqiyoti yo'lidagi sog'lom harakat, sog'lom fikr yuritish, iymon-e'tiqod yuzasidan ish tutish, demakdir. Ulug' bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy ham «Agar fikrlari va harakatlari jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaydigan bo'lsa, mamlakatni bunday kishilardan tozalash kerak», degan fikrni bejiz aytmagan. Ming yillar mobaynida milliy davlatchiligimiz tarixiy tajribalarida sinovdan o'tgan bunday xulosalar hamon o'z qimmatini yo'qotmagan. Binobarin, bugungi va ertangi kunimiz uchun ham, albatta, xizmat qilajak.

Sho'rolar davrida yakka hukmronlik qilgan kommunistik mafkura sinfiylik va partiyaviylik shiori ostida olamni faqat ok-kora buyoklarda tasvirlashga, millatni ikkiga bo'lib tashlashga sabab bo'ldi. «g't sinflar», ularning «dumlari», ularga «xayrixohlar» jismonan yo'q qilindi. Buning sababi sho'rolar mafkurasida sinfiy manfaatlar, yagona partiya talablari umuminsoniy g'oyalardan ustun qo'yilganida edi.

Jamiyat taraqqiyotida omma fikrini bir nuqtaga jamlab, uning imkoniyatlarini bir o'zanga solib, uni umumiy taraqqiyot yo'lida boshlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu jihatdan olganda, O'zbekistonda istiqloлга erishilgach, Prezident Islom Karimov rahbarligida yaqin o'tmishda keng tarqalgan illatlarga barham berildi. Ya'ni jamiyatning ijtimoiy-siyosiy muhitini parokanda qiladigan, odamlar fikrini chalg'itadigan hodisalarga chek qo'yildi. Bunda eng avvalo, o'zimizga dushman qidirish, jamiyatni bo'lib yuborishga yo'l qo'yilmadi. Bizda bu – partokrat, ana unisi – kommunist, bunisi – dindor, bunisi esa daxriy deb, o'zaro malomatlar yogdirish oqibatida to'qnashuvlar yo'lidan borilmadi. Aksincha, o'tmishdagi xatoliklar uchun ham, xalqimizning buguni va ertasi uchun ham barcha birdek javobgar ekanligini, muammolarni faqat hamjihat bo'lib bartaraf eta olish mumkinligini to'g'ri tushundik. Shu bois mamlakat va xalq manfaatlarini yo'lida birlashtirish, kuchlarni uyg'unlashtirish, ehtirolarga berilmay, barcha imkoniyatlardan aql -idrok bilan foydalanish yo'li tutildi. Og'ir-vazminlik, mulohazakorlik, cobitqadamlik, andisha, uzoqni ko'zlab ish tutish doimiy harakat tamoyiliga, aylandi.

Bugun mustaqil O'zbekiston ijtimoiy plyuralizm, hayotni erkinlashtirish, mulkning turli shakllari teng-huquqliligini huquqiy kafolatlash yo'lidan bormoqda. Bunday jamiyatda esa turli ijtimoiy guruhlar, tabakalar, sinflar bo'lishi muqarrar. Ularning o'z iqtisodiy va siyosiy manfaatlari bir-biridan muayyan darajada farq qilishi ham tabiiy. Lekin bu holat millatni bo'lib yubormasligi lozim. Vatanimizda olib borilayotgan siyosat uni turli inqilobiy keskinliklarsiz, ijtimoiy adovatni avj oldirmasdan qaror toptirish imkonini berib, hamkorlik va tinch-totuvlik uchun sharoit tug'dirmoqda. Ijtimoiy hamkorlik jamiyatdagi barcha kishilar, partiyalar, toifalar bir xil fikr yuritsin, degani emas. Aslida har bir ijtimoiy kuchning dunyoqarashi, manfaatlari turlicha bo'ladi va binobarin, ular bir-biridan farq qiladi. Lekin bular uchun umumiy yo'nalish yagona Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi bo'lib qolaverishiga erishish nihoyatda muhim.

Turli ijtimoiy guruhlar manfaatini himoya qilishga bel bog'lagan, o'z dasturini e'lon qilgan partiya va jamoat tashkilotlari o'z faoliyat doirasidagina a'zolari manfaatini himoya qilishi mumkin, xolos. Biroq umumiy manfaat – xalq, jamiyat, Vatan manfaati singari eng oliy qadriyatlar borki, barcha siyosiy partiyalar, g'oyalar va mafkuralar ana shu umumiy asoslarda birlashadi. Jamiyat kimning qanday partiya yoki harakatga mansub bo'lganiga qarab emas, el-yurt, tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo'lida qilayotgan amaliy ishlariga qarab baho beradi.

Shunday qilib, jamiyatni sun'iy ravishda bo'lib, turli qarama-qarshiliklarni mutlaqlashtiradigan ta'limotlardan farqli ularoq, milliy istiqbolimizning ijtimoiy hamkorlik g'oyasi turli partiya, din qatlamiga mansub xilma-xil jamiyat a'zolari qarashlaridagi tabiiy rang-baranglikni uyg'unlashtiradi va umumiy taraqqiyot manfaatlariga buysundirishga xizmat qiladi.

Bu qanday shakllarda amalga oshiriladi?

Birinchiidan, jamiyatning eng ustuvor maqsad va manfaatlarini o'zida mujassam etadigan ilg'or g'oyalar milliy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi.

Ikkinchiidan, jamiyatdagi har bir ijtimoiy toifa yoki guruh o'zining dasturiy maqsadlari va amaliy faoliyatini ana shu ustuvor milliy g'oyalar bilan uyg'unlashtirishi milliy taraqqiyotning zaruratiga aylanadi.

Uchinchiidan, har bir shaxs, ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi va e'tiqodidan qat'iy nazar, jamiyatning ustuvor maqsad va manfaatlarini aks ettiradigan milliy g'oyalarning amalga oshishi uchun o'zini mas'ul deb bilishi bu jarayonning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Aholining turli qatlamlari orasidagi munosabatlar va o'zaro hamkorlikni yaxshilash jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlashga zamin yaratadi. Aksincha, ana shu hamkorlikning izdan chiqishi yoki munosabatlarning yomonlashuvi bu barqarorlikning buzilishiga olib keladi, ijtimoiy beqarorlik, siyosiy boshboshdoklik va milliy parokandalikni keltirib chiqaradi, Bunday hol xalq tilida «Qosh qo'yaman deya, ko'z chiqarish» deb ataladi. Ya'ni, beqarorlik o'chog'iga moy kuyganlar «O'rmonga o't ketsa, ho'lu quruq baravar yonadi» deganlari kabi ish tutadilar. Ular o'zgalarni yondirib bo'lsa-da, o'zlari ham kulga aylanadilar. Bu oddiy haqiqatni barchamiz teran anglab etmog'imiz, bundaylarga qarshi ogoh bo'lmog'imiz lozim.

Ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash, hammamizning, birinchi galda, davlat va jamoat tashkilotlari, hamda jamiyatning ilg'or vakillari bo'lgan ziyolilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Barchamiz Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq

farovonligini ta'minlash uchun, ijtimoiy hamkorlik muhitiga zarar etkazishi mumkin bo'lgan har qanday xavf-xatarning oldini olish, ularni bartaraf etish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rmogimiz darkor. Chunki shu aziz Vatan – barchamizniki, undagi tashvishu gam, yutuq va kamchiliklar, muvaffakiyatlar hammamizga tegishlidir.

### **Millatlararo totuvlik.**

Bu g'oya umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda Er yuzida 6 milliarddan ziyod aholi mavjud. O'zbekiston hududida esa 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda.

Har bir millat yaratganning mo'jizasidir. Jahon dinlarining muqaddas kitoblarida qayd etilishicha, Ollox asli insonni bir ota, bir onadan yaratgan, lekin ular bir-biri bilan muloqot qilishi, tanishishi uchun millatlarga bo'lib qo'ygan. Davlatlar bu borada ko'pmillatli (polietnik) va birmillatli (monoetnik) tarkibga ega bo'lib, har biri o'ziga xosligi bilan bir-biridan farq qiladi. Har bir mamlakatda turli millat vakillarining mavjudligi azal-azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. Umumiy qadriyat va xususiy manfaatlar bir-biriga zid kelib qolishi yoki uyg'un bo'lishi mumkin. Bunda muayyan mamlakatdagi milliy siyosat muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston kabi polietnik mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, butun jahondagi vaziyat va imkoniyatlar bilan ham bog'liqdir. Xalqimizning «qo'shning tinch – sen tinch» degan maqolida ana shu haqiqat nazarda tutilgan. Butun dunyoda, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan etnoslar orasida tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik, teng huquqli munosabat bo'lmasa, ulardan hech biri o'zining porloq istiqbolini ta'minlay olmaydi.

Shu bilan birga bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng qondirish, ular rivojini ta'minlash juda murakkab masala ekanini ham anglamogimiz darkor. Millatlararo totuvlik g'oyasi ana shu masalani to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Bu g'oya – bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya – har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ruyobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Mamlakatimizda ushbu g'oyani amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekistonning bu boradagi o'ziga xos siyosatini bayon etib, quyidagicha ta'kidlagan: «Respublika aholisi o'rtasida ko'pchilikni tashkil qiladigan O'zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o'z milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas'ul bo'lishdan ham iboratdir». Bunday muhit millatlararo munosabatlarda turli

muammolar tugilishiga aslo yo'l qo'ymaydi va Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi umummilliy g'oyalarni hamkor va hamjihat bo'lib amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Necha ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, olijanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an'analar avloddan-avlodga avaylab o'tkazib kelinmoqda.

Mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik g'oyasi ilgari surilgani va amalda unga erishilgani O'zbekiston rivojida qo'lga kiritilgan eng katta yutuqlardan biridir. Mamlakatimiz rahbariyati milliy masalani oqilona, xalqaro tamoyillarga mos yo'l bilan echish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish chora-tadbirlarini ko'rdi. Bu borada konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutildi. Yurtimizning ko'pmillatli xalqi ongida «O'zbekiston — yagona Vatan» degan g'oya asosida haqiqiy vatandoshlik tuyg'usini shakllantirish bu boradagi ishlarning muhim yo'nalishiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», deb aniq belgilab qo'yilgan. «O'zbekiston xalqi» tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari Konstitutsiyamizda «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istikomati qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'alarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb ta'kidlangan. Bu borada hayotimizda ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1992 yildayok milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi «Baynalmilal madaniyat» markazi tashkil etilgani bunga misol bo'ladi. O'shanda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyatini birlashtirgan bu jamoat tashkiloti bugun 100 dan ortiq markazlar ishini muvofiqlashtirib turibdi. Mamlakatimizda istikomati qilayotgan barcha millat va elatlarining o'z ona tilida kuishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliy o'quv yurtlari va maktablarda bunga amal qilinayotgani, ko'plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar olib borilayotgani va boshqa ishlar ham bu boradagi samarali faoliyatning yaqqol dalilidir.

Qaerda millatlararo totuvlik g'oyasining ahamiyati anglab etilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, — ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo'layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Millatlararo totuvlik g'oyasini amalga oshirishga gov bo'ladigan eng xatarli to'siq — tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g'oya tuzogiga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin turixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina fashizm g'oyasi XX asrda insoniyat boshiga avvalgi barcha asrlardagidan ko'ra ko'proq kulfat, ofat-balolar yogdirib, oxir-oqibatda o'zi ham halokatga uchradi. Lekin xanuzgacha fashizm, bolshevizm, shovinizm, irkchilik g'oyalarini tiriltirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik g'oyasiga qarshi «salib yurishi» uyushtirishga urinayotgan kuchlar borligi barchamizni hushyor torttirishi lozim.

Faqat millatlararo totuvlik g'oyasiga tayanib, umumiy maqsadlar yo'lida hamjihat bo'lib, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligidek olijanob maqsadlarga erishish mumkin.

**Hozirgi davr diniy e'tiqod xilma – xilligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun diniy bag'rikenglik g'oyasi mavzulardan biridir. Diniy bag'rikenglik g'oyasi.**

Diniy bag'rikenglik — xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi.

Din ijtimoiy hayotni, voqelikni, uning hodisalarini o'ziga xos tarzda in'ikos ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biri. U dastlab inson hayotining ibtidoiy davrida vujudga kelgan va o'sha zamonda yashagan insonlarning dunyoqarashini ham aks ettirgan. Din dunyo, inson va boshqa mavjudotlarning yaralishi va kelib chiqishini, hayotning ma'no-mazmuni, insonning yashashdan ko'zlagan maqsadi kabi masalalarga ilohiy nuqtai nazardan javob beruvchi dunyoqarash shaklidir. U bugungi kunda ham shu vazifani ado etib kelmoqda. Din diniy dunyoqarashni, diniy marosimlarni, shuningdek, diniy tuyg'uni o'z ichiga oladi. O'rta asrlarda din madaniyatning barcha turlarini (ilm-fan, falsafa, huquq, axloq kabi) o'zida mujassamlashtirgan va ularga o'z ta'sirini o'tkazgan, kadim-kadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib kelgan. Milliy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning sharofatidandir. Prezident Islom Karimov co'zlari bilan ifodalaganda, «din bizning qon-qonimizga, ongu shuurimizga shu qadar teran singib ketganki, uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo'lmaydi».

Diniy e'tiqodlarning mohiyati umumiy ekaniga qaramasdan, dinlarning ko'rinishi xilma-xildir. Dunyoda juda sodda, qadimiy dinlar bilan bir qatorda, umumjahon ahamiyatiga molik, murakkab, jahon dinlari ham mavjud. Ular tarixiy zaruratga qarab, turli davrlarda vujudga kelgan.

Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Jahondagi barcha yirik dinlar bu dunyoni foni, o'tkinchi hisoblaydi. Ular insonning yashashdan asl maqsadi bu dunyoda xayrli, savobli ishlar qilib, boki dunyo sinovlariga tayyorgarlik ko'rish, jannat saodatiga sazovor bo'lish, degan g'oyani targ'ib etadi. Barcha dinlarda inson hayotining mohiyati, mazmuni, kishilar o'rtasidagi siyosiy-huquqiy, axloqiy munosabatlarni tenglik va adolat mezonlari asosida o'rnatish masalasi ozmi, ko'pmi o'z aksini topgan. Shu boisdan ham har bir vatandoshimiz, Ayniqsa yoshlar, avvalo, dinlar tarixini, ularni asl mohiyatini chuqur bilishi lozim. Shundagina ularni g'arazli maqsadlarni ko'zlab yurgan kuchlar yo'ldan chalg'it olmaydi.

Vatanimiz hududida islom dini qaror topganiga qadar zardo'shtiylik, buddaviylik, moniylik, xristianlik, mazdakiylik, shomoniyylik kabi dinlar ham mavjud bo'lgan. Ular negizida o'sha davrda barchasining sintezi natijasida betakror madaniyat vujudga kelgan. Zardo'shtiylik ta'limoti buyicha ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi doimiy kurashda oralik yo'l yo'q, shuning uchun har bir odam bu kurashning u yoki bu tomonida ishtirok etishga majbur. Bu dinning uch tayanchi bo'lib, ular fikrlar sofligi, so'z sobitligi, amallarning insoniyligidan iborat. Bu jihatlar zardo'shtiylikda «ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ish» tarzida ifodalangan.

Konfutsiylik ta'limotiga ko'ra, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqei orqali emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, haqiqatparvarlik, samimiyat kabi yuksak fazilatlar vositasida yuksak kamolotga erishishi mumkin.

Induiylik falsafasiga ko'ra, inson o'z hayotida nimaiki yomonlik qilsa, oqibatsiz qolmaydi, buning uchun, albatta, jazo oladi. «Besh qo'l barobar emas» maqolida ifodalangan haqiqat ham bu dinda o'z ifodasini topgan.

Hozirgi zamonda dinlararo bag'rikenglik g'oyasi nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining ezgulik yo'lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Azal-azaldan ona yurtimizda islom, nasroniylik, iudaviylik kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar mobaynida yirik shaharlarda masjid, cherkov va sinagoyalarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub kavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdigidir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular orasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik borasida ulkan tajriba to'plaganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati, dunyoviy davlat barpo etilmoqda. qurilayotgan jamiyatning tamoyillari, hukukiy asoslari ishlab chiqilgan va xalqimiz tomonidan qo'llab-kuvvatlanadi. Davlat qonuniy asosda barcha dinlarga, barcha e'tiqod egalariga teng imkoniyatlar yaratib bergan. Diniy tashkilotlar bilan munosabatlarning qonun asosida, ularning haq-huquqlarini hurmat va himoya qilish asosida olib borilayotgani e'tiqod erkinligini amalda ta'minlamoqda. Ayni vaqtda diniy tashkilotlardan ham qonun oldidagi burch va majburiyatlarini bajarish talab qilinadi. Bu — xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olingan to'g'ri yo'ldir.

Vatanimizda turli dinlar va din vakillari o'rtasida umumbashariy qadriyatlar asosida birodarlikni mustahkamlashga muhim e'tibor berilmoqda. Toshkentda o'tkazilgan «Jahon dinlari tinchlik yo'lida» xalqaro anjumani buning amaliy isbotidir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda undan ziyod konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda o'z ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo'lib, milliy istiqloq mafkurasining bosh g'oyasi – xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish orzusini amalga oshirish uchun mustahkam tayanch bo'lib xizmat qiladi.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Ijtimoiy hamkorlik, millat, millatlararo hamjihatlik, din, diniy bag'rikenglik.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.**

- Ijtimoiy hamkorlik tushunchasining mohiyati nimada?
- Millatlararo hamjihatlik g'oyasi to'g'risida so'zlab bering.
- Diniy bag'rikenglikni qanday tushunasiz?
- Hamkorlik, hamji
- Hamjihatlik, bag'rikenglik tushunchalarining o'zaro aloqasi qanday?



## 12. MILLIY G'OYANI YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISH SOHALARI VA YO'NALISHLARI

### **Milliy istiqlol g'oyasi – yoshlar Vatan kelajagidir.**

Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining amal qilish tamoyillari bo'lishi tabiiy. Bu har qanday ijtimoiy g'oya va mafkuraning hayotdagi o'rni hamda ahamiyati bilan belgilanadigan tamoyillarning milliy darajada namoyon bo'lishini ifodalaydi.

Bizning g'oya va mafkuramiz bu sohadagi jahon andozalariga, xalqaro huquq qoidalariga to'la mos keladigan quyidagi tamoyillar asosida amal qiladi:

- 1) umuminsoniylikning ustuvorligi;
- 2) milliy qadriyatlarga sodiqlik;
- 3) insonparvarlik;
- 4) vijdon erkinligi;
- 5) fikrlar rang-barangligi;
- 6) demokratiya, kuchli davlatdan – kuchli jamiyatga o'tish;
- 7) jamiyat hayotini erkinlashtirish va boshqalar.

Milliy istiqlol mafkurasini tamoyillari bir-biri bilan uzviy aloqadordir. Ular o'z navbatida umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi talablariga to'la-to'kis mos keladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamiyat hayotining, xususan mafkuraviy jarayonlarning ham huquqiy me'yorlari aniq belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 12-moddasida «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasini sifatida o'rnatilishi mumkin emas» deyilgan.

Albatta, davlat jamiyat siyosiy tizimining o'zagi, mamlakat barqarorligi va izchil taraqqiyoti uchun mas'ul bo'lgan siyosiy institutdir. Shu ma'noda, u jamiyatning o'z milliy g'oyalari atrofida mustahkam jipslashuvi, fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligi asosida hayotda mafkuraviy jarayonlarning muvofiqlashuvi-dan manfaatdor. Bosh islohotchi sifatida davlat ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, milliy xavfsizlik, kelajak hayot manfaatlaridan kelib chiqib, jamiyatda milliy istiqlol g'oyalarini keng yoyish borasida faoliyat olib boradi.

Buni xorij tajribasidan ham ko'rishimiz mumkin. Bu mamlakatlarda yuzaki qaragandagina, g'oyaga, mafkuraga u qadar katta e'tibor berilmaydigandek tuyuladi, xolos.

Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarini olaylik. Bu erda har bir inson ongiga «Sen – amerikaliksan, ozod insonsan, sening erkinligingga daxl qilishga hech kimning haqqi yo'q», degan tushuncha bolalikdan singdirib boriladi. Shuning uchun ham bu mamlakat fuqarosi, dunyoning qay burchida bo'lmasin, «Men – amerikalikman» deb g'ururlanib yuradi.

Milliy istiqlol g'oyasi **insonparvarlik tamoyiliga** amal qilishni taqozo etadi. Mamlakatimizda insonparvar va demokratik jamiyat barpo etilmoqda. Biz xalqimizning muqaddas qadriyatlari hamda ulkan tarixiy merosiga tayanib, shuningdek, umume'tirof etilgan demokratik tamoyil va me'yorlarga rioya qilgan holda, insonparvar jamiyat barpo etmoqdamiz. Bugunga kelib mustabid tuzum asoratlaridan, uning g'ayriinsoniy g'oyalaridan, shuningdek, yakka mafkurachilik amalidan xalos bo'ldik.

Hozirgi murakkab rivojlanish bosqichida O'zbekistonning demokratik istiqbolini jamiyatda insonning tub manfaatlariga mos ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish orqaligina ta'minlash mumkin. Bunda inson va jamiyat manfaatlari

uyg'unligini belgilab beruvchi tayanch nuqta va jipslashtiruvchi kuch – milliy g'oyaning insonparvarlik va demokratik tamoyillari bo'lib xsoblanadi.

Millat tafakkuri, ruhiyati va fikrlash tarzi qarashlar xilma-xilligini aslo inkor etmaydi. Xalqimizning «Kengashli tuy tarkamas» degan maqoli ham fikrimizni tasdiqlaydi. Umumbashariy demokratik tamoyillarning hayotimizdan mustahkam o'rin olishi ma'naviy kuch-qudratimiz timsoli bo'lgan milliy g'oyada aks etgan insonparvar tuzum, barqaror taraqqiyot, xavfsizlik, milliy davlatchilikning ma'naviy tayanchlari nechog'lik mustahkam bo'lishiga bog'liq.

O'zbekiston Konstitutsiyasida va mamlakatimiz qonunlarida fuqarolarimizning huquqlari to'la kafolatlangan. Bu huquqiy asosga tayangan holda g'ayriinsoniy qarashlarning hayotimizga ta'siridan mutlaqo xalos bo'lish, millatning kuch-qudratini zaiflashtiruvchi ayrim ma'naviy nuqsonlarga barham berish jarayoni izchil amalga oshirilishi kerak. Bu esa demokratiya mohiyatini tom ma'noda anglab etishni, hokimiyat organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar tizimi va madaniyatini yuqori saviyaga ko'tarishni talab etadi.

### **Vijdon erkinligi.**

Odamzot azal-azaldan intilib kelgan, xilma-xil daraja va ko'rinishlarda amalga oshirgan umuminsoniy tamoyillardan biridir. «Vijdon erkinligi» «e'tiqod erkinligi» tushunchasidan ko'ra keng mazmunga ega. «E'tiqod erkinligi» insonning biror-bir dinga e'tiqod qo'yishda o'z ixtiyori bilan ish tutishini ifodalaydi. «Vijdon erkinligi» esa muayyan kishining biror dinga, g'oyaga e'tiqod qilishi yoki umuman e'tiqod qilmasligini ham anglatadi. Inson dindor, dinsiz daxriy yoki xudojuy bo'lishi, but va sanamlarga siginishi, butunlay xudosiz bo'lishi ham mumkin. U dunyoviy yoki diniy bilimlar tarafdori sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ammo bu – ana shu kishini ayblash uchun asos bo'lmaydi, balki kimning qanday e'tiqodga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi uning vijdoniga xavola etiladi, demakdir. Ammo bu tamoyil vijdon va burch, jamiyatdagi boshqa umuminsoniy talablarni tan olmaslik, turli aqidalarni mutlaqlashtirish, boshqalar uchun qadriyat bo'lgan narsalarni mensimaslik degani emas. Balki, kishining ishonchi, e'tiqodi sohasidagi anglab olingan erkinligi, jamiyat qonunlariga mos hayot kechirishi demakdir.

**Fikrlar rang-barangligini qaror toptirish** – demokratik jamiyat barpo etishning asosiy shartidir. Demokratiya davlat va jamiyat qurilishi, uni idora etishning eng maqbul shakli sifatida har bir fuqaroga o'z qarashlarini, fikrini erkin ifoda etish uchun sharoit yaratadi. Bu esa insonning mamlakat siyosiy – ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy hayotidagi ishtirokini, qonunlarni ishlab chiqishda, uni hayotga joriy etishdagi faolligini ta'minlaydi. Milliy istiqlol g'oyasining ushbu tamoyili olamdagi turli-tumanlik bilan insoniyat dunyosidagi xilma-xillikning, odamlar fikrlashi, orzu-umidlari, g'oya va maqsadlari sohasidagi rang-baranglikning uyg'unligini ifodalaydi. Fikrlar rang-barangligi milliy istiqlol mafkurasiga jon bag'ishlaydi, uning takomillashishiga yordam beradi. Ana shu asosda bu mafkura xilma-xil fikrlar bilan boyib boradi, turli g'oyalarni o'ziga doimiy singdirish imkoniga ega bo'ladi.

**Milliy istiqlol mafkurasining muhim g'oyalardan biri umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorlik g'oyasidir.**

**Umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi** – milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillaridan biridir. Fuqarolar ongida istiqlol dunyoqarashini shakllantirish, ularni ijtimoiy hayotdagi yangilanish va o'zgarishlar jarayoniga keng jalb etish, zamon taraqqiyotidan ortda qolmasligiga erishish, jahon tajribasini, umuminsoniy

demokratik qadriyatlar mohiyatini o'rganishni talab etadi. Bu, odamlarning buyuk kelajak yaratish jarayoniga ishonchini mustahkamlashida, fuqarolarning siyosiy madaniyatini ustirishda, barqaror taraqqiyot muammolarini to'g'ri anglashida g'oyaviy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Milliy istiqlol g'oyasi erkin fuqarolik jamiyatiga o'tish jarayonida xalq tasavvurini o'zgartirish va yangicha ma'no-mazmun bilan to'ldirish, huquqiy davlatchilikka xos tamoyillarni turmush tarziga aylantirishda umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi. U xalqning orzu-umidlarini umummilliy darajada yuksaltirib, odamlarni umumbashariy intilishlarga tomon etaklaydi.

**Milliy qadriyatlarga sodiklik** – milliy g'oyaning tayanchidir. Mustaqillik sadoqat hissini barchada barobar shakllantirish, fuqarolik tuyg'usini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizni e'zozlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Bu tamoyil O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylashi, kelajak avlodlarga etkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O'tmishdagi bobolarimiz qoldirgan meros, madaniy boyliklar, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o'rganish, ular zamiridagi bu tamoyilning asosiy jihatlaridir. Har bir millatning tili, qadriyatlari, urf-odatlarini, an'analarini hurmat qilishni ta'minlash milliy istiqlol mafkurasining amal qilishida umuminsoniy andozalar namoyon bo'lishi uchun asoslar yaratadi. Biz bu masalani «Millatlararo hamjihatlik» bilan bog'liq mavzuni o'rganayotganimizda yanada kengroq yoritishga harakat qilamiz.

**Milliy istiqlol g'oyasining shaxs qadriyatlari, inson ma'naviy olami bilan bog'liqligi** shubhasiz. Shubha yo'qki, milliy istiqlol g'oyalarini amalga oshirish avvalo har tomonlama bilimli, ma'naviy, jismoniy va aqliy etuk insonlarga boklik. Bu esa har bir yurtdoshimizni istiqlol g'oyalari bilan qurollantirishni taqozo etadi. Sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, barkamol insonni voyaga etkazish ham ana shu vazifalar sirasiga kiradi. Zero, har bir shaxs ijtimoiy jarayonlarni o'zida mujassam etuvchi kuch sifatida jamiyatdagi barcha jarayonlarning, jumladan milliy istiqlol g'oyasi amal qilishida asosiy omil hisoblanadi. Avvalo, shaxs milliy istiqlol g'oyasining, uning hayotbaxsh tushunchalarining o'zlashtiruvchisi, o'ziga singdiruvchisidir. Ta'lim va tarbiya jarayonida, ijtimoiy-ma'naviy tizim, malakani oshirish va qayta tayyorlash, qolaversa, jamiyatdagi to'laqonli axborot makoni orqali u aniq va oqilona yo'naltirilgan mafkuraviy qadriyatlar, me'yorlar va talablarni o'zlashtirishi zarur.

Shaxsning milliy istiqlol g'oyalarini keng yoyishdagi o'rni, avvalo, uning mafkuraviy jarayonlarda qanchalik faol ishtirok etishida ko'rinadi. Faol, intiluvchan shaxs mafkuraviy ta'sir, targ'ibot va tashvikotning ob'ektidan mafkuraviy jarayonlarning sub'ektiga, mafkurachiga, mafkuraviy tarbiya tizimining muhim buguniga aylanib boradi. Shundan so'ng u milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarining tashuvchisiga, uning targ'ibotchisiga, uni boshqalarga etkazuvchi vositaga aylanadi. Har bir shaxs tegishli mafkuraviy-g'oyaviy tayyorgarlikka ega bo'lgach, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ta'lim, fan, madaniyat, sog'liqni saqlash, harbiy xizmat va hayotning boshqa sohalaridagi faoliyati orqali milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillarini yoyishda, targ'ib etishda va mustahkamlashda faol ishtirok eta oladi. Shu tariqa bu g'oya va tamoyillar odamlarni aniq maqsad, taraqqiyot sari etaklaydi, millat qo'lidagi bayroqqa aylanadi.

Ana shu sabablarga ko'ra, milliy istiqloq g'oyalarini amalga oshirishda shaxs tayanch omil deb qaraladi, uning imkoniyatlarini yuksak baholagan holda, asosiy e'tibor muayyan shaxsning mafkuraviy tayyorgarlik darajasiga qaratiladi. Bunda muayyan shaxsga O'zbek milliy xarakterining afzalliklarini tashvik qilish, xalqimiz madaniyatining bebaho va betakror ekanini anglatish, O'zbeklarga xos jamoaviylik jamiyatimizning muhim xususiyati ekani, ijtimoiy birdamlik taraqqiyotimizning manbai bo'lib xizmat qilishiga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, bu jarayonda taraqqiyotga baholi qudrat o'z hissasini ko'sha oladigan etuk shaxs timsolini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Milliy istiqloq g'oyasining amal qilishi tamoyillaridan biri uning oila bilan bog'liq jarayonlarda namoyon bo'ladi.**

Oila – jamiyatning muqaddas uyi, eng asosiy tarbiya makonidir. Milliy istiqloq g'oyasini odamlar qalbi va ongiga singdirish ham avvalo oiladan boshlanadi. Aynan bobolar ugiti, otaning shaxsiy ibrati, onaning mehri orqali milliy g'oya avloddan avlodga, insondan insonga o'tadi, ong va shuurda muxrlanib boradi. Iqtisodiy farovon, axloqiy, g'oyaviy-tarbiyaviy jihatdan sog'lom bo'lgan oila negizidagi jamiyat va davlat mustahkam bo'ladi. Bunday oilalarda komil inson voyaga etadi, uning tuyg'ulari, tushuncha va dunyoqarashida milliy istiqloq g'oyalari keng tomir otadi.

Milliy istiqloq g'oyasining amal qilish tamoyillari shaxs va oiladan tashqari jamoa, mahalla bilan uzviy bog'liqdir. Har bir O'zbekistonlikning hayotida «shaxs – oila – mahalla» uchligi katta ahamiyat kasb etadi. Bu – sharqona turmush tarzimizning o'ziga xos tizimidir. Bu – insonning jamiyat hayotiga uzviy singib, ijtimoiy munosabatlar ishtirokchisiga aylanishida muhim vositadir. Insonning oilada shakllangan iymon-e'tiqodi, odobi, oriyati va vijdoni, g'urur-iftixori, aql -zakovati, tafakkuri mahalla muhitida yanada yuksalib, xalq irodasi, o'zaro totuvlik va hamkorlik rishtalari bilan uyg'unlashib, jamiyatda sog'lom munosabatlarning shakllanishiga, milliy istiqloq g'oyalarining mustahkamlanishiga olib keladi. Mahalla shaxs va jamiyat munosabatlaridagi muhim bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'analarini ifoda etgan holda, mahalla ulkan g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya uchogi vazifasini bajaradi. Keksalarning foydali pand-nasixatlari, yoshi kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida milliy istiqloq g'oyalarining amaliy qimmatini ortib boradi. Mahalla tizimi orqali mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish imkoniyatlari juda ko'p. Jamiyat odamlar o'rtasidagi munosabatlar majmuidir. Bu munosabatlar ichida odamlarning irodasi, intilishlari, umuman, ma'naviy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy istiqloq g'oyasi – butun O'zbekiston xalqining birgalikda insonparvar, farovon demokratik jamiyat qurish, unda har bir insonning munosib ishtirokini ta'minlash buyicha qilgan azmu-qarori ifodasidir. Inson, oila, mahalla, mehnat jamoalari, davlat manfaatlari, ularni bog'lab turuvchi ijtimoiy-siyosiy tizimlar milliy istiqloq g'oyalari orqali yanada yakqolroq namoyon bo'ladi.

Jamiyatning asosiy taraqqiyot maqsadi milliy istiqloq mafkurasining shakllanish va rivojlanish jarayonida barcha davlat va jamoat tashkilotlarining mafkuraviy faoliyatini uyg'unlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ijodiy, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini jonlantirish, ularning imkoniyatlaridan milliy istiqloq mafkurasi g'oyalarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga

singdirish borasida imkon kadar keng foydalanish jamiyatning ana shu bosh maqsadini anglash zaruratidan kelibchiq adi. Bunda ularning ommaviyligiga, odamlarga tez va keng doirada ta'sir ko'rsata olish imkoniyatiga katta ahamiyat beriladi.

Bir so'z bilan aytganda, milliy istiqlol g'oyasini tatbik etish jamiyatimizning asosiy maqsadlari – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil insonni tarbiyalash kabi olijanob g'oyalarga buysundirilishi zarur.

**Jamiyat hayotini demokratiyalashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish milliy istiqlol g'oyasining amal qilish tamoyillaridan biridir.** Mamlakatimizda demokratik institutlar faoliyatini yo'lga qo'yish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish uzoq muddatli jarayondir. Demokratiya g'oyalarini shunchaki bayon qilish, yuqoridan tushirib joriy etish bilan odamlar ongida o'zgarish qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov bu xususda quyidagicha ta'kidlagan edi: «Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog'i kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan ish emas. Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo'la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko'rish va demokratiya tamoyillarini o'zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir».

Ammo bu yo'lni imkon kadar kiska muddatda bosib o'tish, demokratiyani jamiyatning ustuvor qadriyatiga, uning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omilga aylantirish, bir tomondan jahon xalqlari demokratik an'alarini puxta o'rganish va o'zlashtirishni, ikkinchi tomondan ajdodlarimizning adolatli jamiyat barpo etish borasidagi qarashlarini bugungi kunga moslashtirib, milliy qadriyatlarimiz zaminida joriy etishni taqozo qiladi.

Boshqacha aytganda, har bir jamiyat, davlat o'zi uchun mos demokratik taraqqiyot yo'lini o'zi tanlaydi. O'zbekiston ham o'zi uchun makbul demokratik taraqqiyot yo'lini tanlab oldi.

Ma'lumki, sobiq sho'rolar davrida Sharq xalqlariga, jumladan bizga nisbatan Marksning «Osiyocha ishlab chiqarish uslubi» deb atalgan nazariyasiga tayanib ish ko'riladi, degan qarash hukmron edi. Bu nazariyaning mohiyati Sharq da hokimiyatni boshqarish azaldan despotizmga, ya'ni zo'rvonlikka asoslanadi, degan fikrdan iborat edi. Evropatsentristik qarashlar (Gegel), Evropani jugrofiy jihatdan ustun qo'yish (Monteske), kapitalizmning tarixan aynan Evropada paydo bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlarning (Maks Veber) barchasi osiyocha turmush tarzi uchun demokratiya mutlaqo yot bir narsa, degan bepisand fikrga asoslanish oqibati edi. Bugungi kunda Sharq ning ham o'ziga xos davlatchilik an'analari, boshqaruv tizimi, idora usullari, hokimiyat tarmoqlari bo'lgani, bu borada u G'arbdan sira kam emasligi barchaga ayon bo'lib qoldi.

Xususan, sharqona demokratiyaning bir qator ustuvor jihatlari mavjud. Bu – g'oyaviy-falsafiy asosda shakllangan insonparvarlikdir. Masalan, bizning Forobiy, Amir Temur, Nizomulmulk, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimizning siyosiy qarashlari negizida turli davrlarda o'ziga xos siyosiy madaniyat shakllangan. Sharq siyosiy falsafasining muhim jihatlardan biri – «me'yor» tushunchasiga katta ahamiyat berilishidir. Aslida demokratiya – me'yorga asoslangan siyosiy madaniyatdir. Bu me'yor huquq va burch, erkinlik va tenglik o'rtasida bo'lgan muvozanatni ham anglatadi.

Sharq da odamlarning hokimiyatga va siyosiy munosabatlarga bo'lgan munosabati azaldan o'ziga xos xususiyat kasb etgan. Bu Sharq dagi siyosiy

munosabatlarning nozik jihatlari bilan izohlanadi. Saylov tizimi, davlatchilik, siyosiy harakatlar, jamoatchilik fikri, ommaviy axborot vositalari – bularning barchasi Sharq da o'z xususiyatlariga ega. Avvalo, bu xususiyatlar hokimiyatga bo'lgan an'anaviy ishonch va ba'zan esa paternalizm qonuniyati bilan ifodalanadi. Tarixan Sharq mamlakatlarida siyosiy qarorlar kabul qilish va ularni amalga oshirishda mas'ul kishilar orqali, lekin bunda xalqning manfaatlari albatta hisobga olingan holda amalga oshirilgan. Ular xalqning «ishtirokida», ya'ni turli miting, inqiloblar orqali bo'lgan, ammo uning manfaatlarini hisobga olmagan holda qaror kabul qilgan qarorlardan ko'ra ko'proq samara bergan. Shu tufayli Sharq mamlakatlarida aksariyat hukmdorlar mudom «Xalq nima der ekan?», «Mendan qanday nom qolar ekan?» degan mas'uliyat bilan siyosat olib borgan.

Sharq da siyosiy jarayon ishtirokchilari, Ayniqsa, siyosiy etakchilarning o'ziga xos makomi bor. Siyosiy rahbar nafaqat o'ziga tegishli alohida imtiyozlarga, balki alohida mas'uliyatga ham ega. U nafaqat o'z huquqlari, balki majburiyatlari buyicha ham asosiy og'irlikni o'z zimmasiga olgan. Shu ma'noda, Sharq xalqlari hayotida adolat bosh mezonga aylanganki, odil va dono shox, hukmdor g'oyasi «Avesto»dan hozirgi kunlargacha orzu bo'lib kelgan. Shuning uchun Amir Temur faoliyatida «Kuch - adolatda» degan qoida ustuvor bo'lgan. Shu tariqa, Sharq mutafakkirlari davlatni, avvalo jamiyat taraqqiyotidagi ikki muhim omil – ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy adolat mezonlarni amalga oshirish quroli deb tushungan. Shuni ham alohida ta'kidlash zarurki, Sharq da qonunchilik va me'yoriy tizimlar ham ana shu maqsadlarga xizmat qilgan. Bunday an'ana Sohibqiron Amir Temur davridayok butun dunyo me'yoriy tizimiga va konstitutsiyachiligiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Amir Temur «Tuzuklar»i buning yakqol dalili.

Yana bir masalaga alohida e'tibor berish zarur. Sharq xalqlari hayotida jamoatchilik fikri azaldan yuqori makom va martabaga ega bo'lib kelgan. Ko'pgina an'anaviy ijtimoiy institutlar, xususan, mahalla va boshqa o'zini o'zi idora qilish tashkilotlari asosan jamoatchilik fikriga tayangan. Shundan kelibchiq qan holda, ijtimoiy salmoqli fikrlarni jamoatchilik muxokamasiga olib chiqish ham an'anaviy yigilish joylarida – mahalla guzarlarida, choyxonalarda, karvonsaroylarda, tuy-ma'rakalarda, tantanalarda, xasharlarda, xatto, mexmondorchilikda ham amalga oshgan. Shu bilan birga, jamoatchilik fikri har doim davlat qarorlari kabul qilishning muhim tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Hukmdorlar o'z faoliyatlarining jamoat fikri tomonidan qo'llab-kuvvatlanishiga erishishga uringan, qaror kabul qilishdan oldin uni jamoatchilik rizosidan o'tkazishga e'tibor berilgan.

Xullas, shularning barchasidan kelibchiq adigan bo'lsak, Sharq xalqlariga, xususan, bizning mamlakatimiz aholisiga azaldan o'ziga xos demokratik an'analar mavjud bo'lgan. O'z mentaliteti, mohiyatiga ko'ra, umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan o'ta xayrixoxligi tufayli, xalqimiz zamonaviy demokratik qadriyatlarni ham tez o'zlashtirib olishi shubxasiz. Bu, albatta, xalqimizning tarixiy-ijtimoiy ana'nalaridagi demokratik g'oyalar, tajribalar, xususan, jamoa demokratiyasi namunalari bilan ham bog'liq.

Umuman, demokratiya kadimdan dunyoning turli mintaqalarida turlicha yo'nalishda rivojlanib borgan. Uning muhim bir shakli esa aynan sharqona demokratiyadir. Demokratiya g'oyalarining davlatlashgan ko'rinishi ham qadimiy tarixga ega. Masalan, XIII asrda Samarqandda hukmdorlik qilgan sarbadorlar davlatida demokratiyaning ko'pgina unsurlarini uchratish mumkin.

Tarixiy demokratiyaning ikkinchi yo'nalishi jarayonli – siyosiy demokratiyadir. Uning jamiyat siyosiy tizimini xalqqa yaqinlashtirish, siyosiy adolatsizliklarning oldini olish borasidagi ahamiyatini ta'kidlab o'tish zarur.

Ijtimoiy demokratiya esa uchinchi bir tarixiy yo'nalishdir. Bugungi davr demokratiyani islohotlar jarayoniga aylantirdi. Shu davrdan boshlab demokratiya keng ijtimoiy hodisa tusini oldi.

Demak, demokratiya asli tarixiy jarayonda vujudga kelgan bo'lib, u inson faoliyatining turli jihatlariga nisbatan tatbik etiladi. Shu ma'noda, turlicha modellarda namoyon bo'ladi. Buni o'z davrining ilg'or mutafakkirlari ham teran anglaganlari, ular demokratiya uchun zarur bo'lgan shart-sharoit, ya'ni mustaqil milliy taraqqiyot zaruratini alohida ta'kidlaganlar. Xususan, Zaki Validiy Tugon bu xakda shunday deb yozgan edi: «Demokratiyaning birdan-bir, yagona retsepti yo'q. Uning maqsadi millatlarga va jamiyatlarga o'z ixtiyorlariga muvofiq hayot kechirish imkoniyatini berishdadir. Demokratiya turli millatda turlicha bo'lishi mumkin. Lekin uning asosiy bir sharti bor: millat va jamiyat orasidagi mas'uliyatga sheriklashib, shunga muvofiq ravishda ish qonunlariga buysunish kerak bo'ladi. Inglizlarda, Amerikada, Shvetsiyada, Norvegiyada ish shu tarzda to'zilgan. Rossiyada esa bu yo'q. 1919 yilda yaxshigina demokratik partiyalar vujudga keldi, ammo bolsheviklar partiyasi tepagachiq diyu butun boshli partiyalarni yo'q qildi va tarixda misli ko'rilmagan mustabidlik tuzumini o'rnatdi. Davlat ishida mas'uliyat hissining umumiyligi xalqning madaniy kamolotiga bog'liq tarbiya va odat masalasi hamdir».

Bugungi sharqona demokratiyada qadr, oqibat, andisha, kattalarga hurmat, ona zaminni ardoqlash borasida o'ziga xoslik yaqqol namoyon bo'ladi. Bular esa milliy istiqloq g'oyasi amal qilishida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Hayotni erkinlashtirish** milliy istiqloq g'oyasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirishning muhim shartidir. Milliy istiqloq g'oyasi siyosiy voqelikni uyg'unlashtirib, turli shaxslar, ijtimoiy guruhlar ehtiyojlarini mutanosiblashtiradi, ularni mavjud imkoniyatlar asosida bir-biri bilan yaqinlashtiradi va shu ma'noda demokratik qadriyatlarining nufuzini oshiradi. Kishilar ongini mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, maxdudlik kabi ijtimoiy illatlar asoratidan poklash, yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish, mafkuraviy kurashda to'g'ri yo'l tanlash va jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish milliy g'oyaning xalqimizning qalbi va ongiga teran singdirilishi bilan bog'liq. Milliy istiqloq g'oyasini amalga oshirish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari borish kontseptsiyasiga asoslanadi va undan kelib chiqib, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishda manfaatlar uyg'unligini ta'minlovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

**Milliy istiqloq mafkurasini shaxs erkinligi g'oyasiga tayanadi.** O'z xak-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan vokea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni paytda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan insongina milliy g'oya tamoyillarini to'g'ri baholay oladi. Erkinlashtirish jarayonida inson xak-huquqini ta'minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga rioya etib yashash jamiyatimiz hayotining asosiy mezoniga aylanib bormoqda. Jamiyatda loqaydlik, beparvolik, boqimandalik, poraxurlik kabi illatlarning payini kirkish, odamlar qalbida yuksak ishonch va e'tiqodni qaror toptirish, axloqan pok, ma'naviy boy, ijtimoiy faol, jismonan bakuvvat avlodni voyaga etkazish, ularda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odamiylik kabi olijanob fazilatlarini tarbiyalash milliy g'oya

ta'sirchanligini oshiribgina qolmay, demokratik jamiyat barpo etish borasidagi intilishlarimiz samaradorligini ham oshiradi.

Shu o'rinda erkinlik kategoriyasining ijobiy va salbiy jihatlariga ega ekanini ham ta'kidlash zarur. Uning ijobiy jihati shaxsning o'z manfaatlariga muvofiq ravishda harakat qilish imkoniyatini ifodalaydi. Bunda shaxs biror-bir moddiy va ma'naviy ne'matga intilib, shu yo'lda zarur harakatlar qilishi mumkinki, bu xatti-harakatlar o'z navbatida boshqalarning intilish va manfaatlariga zid kelmasligi kerak. Chunki adolat chegarasi, erkinliklar me'yori aynan shu asosda shakllanadi. Aksincha, shaxsning xatti-harakati tashqaridan bo'ladigan ta'sirlardan butunlay xoli bo'lgan, u o'z maqsadlariga erishish jarayonida hech bir aks ta'sirni tan olmagan taqdirda erkinlikning salbiy jihati namoyon bo'ladi. Chunki bu jarayonda «kimningdir va nimaningdir hisobiga erkinlikka erishish» holati sodir bo'ladi. Shaxs bu munosabatlarni to'g'ri baholamagan taqdirda u o'z xatti-harakatlari bilan adolatning bo'ziligiga sabab bo'ladi. Albatta, erkinlikning har ikki jihati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Lekin shu bilan birga, ular o'rtasida murakkab, ziddiyatli va xatto qarama-qarshi munosabatlar ham mavjud.

Shaxs erkinligini erkinlikning aynan ana shu ijobiy va salbiy xususiyatlaridagi muvozanat belgilaydi. Sharq va G'arb jamiyatshunoslari avvaldan shaxs erkinligining ruhiy-falsafiy (Alisher Navoiy, Bedil), ijtimoiy-ruhiy (Forobiy, Lebon, Tard, Ortega-I-Gasset), ruhiy individual (Freyd), kontraktsion (Dyui, Mid), xatti-harakatli (Veber), sotsiometrik (Moreno), ijtimoiy (Frankfurt maktabi), fenomenologik (Shyuts), begonalashuv (Fromm), anomik (Dyurkgeym, Merton), manfaatli (Rassel), ziddiyatli (Darendorf), ekzistentsial (Xabermas) talqinini bayon etib kelganlar. Ammo hozirda masalaning tub mohiyatini shaxsning ijtimoiy bir butunlikka intilishi, jamiyat bilan uyg'unlashishga moyilligi, ya'ni integratsiyalashuv muammosi tashkil qilmoqda. Shaxs erkinligini ta'minlashda siyosiy va huquqiy institutlarning demokratik asosdagi tizimini shakllantirish muhimdir. Shu bilan birga bunda xususiy tadbirkorlik faoliyatiga, bozor munosabatlari jarayonida shaxsning ijtimoiy faolligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, O'zbekiston Konstitutsiyasida inson erkinligiga o'zining to'g'ri, makbul talqinini topgan, ya'ni unda erkinlik boshqalarga zarar keltirmaydigan faoliyat sifatida baholangan. Zero, jamiyat va davlat, ijtimoiy tuzum va siyosiy institutlar o'rtasidagi munosabat individ, ijtimoiy birliklar va guruhlar o'rtasidagi munosabatlarga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, ularning barchasi milliy g'oya tamoyillari asosida uyg'unlashtirishni talab etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda hokimiyat va boshqaruv idoralari faoliyati samaradorligi oshirilmoqda, jamoat tashkilotlarining yangi kiyofasi shakllanmoqda, ta'bir joiz bo'lsa, siyosiy tizim modernizatsiyasi yuz bermoqda. Bu jarayonga milliy istiqlol g'oyasi tamoyillarini uzviy tarzda singdirib borish va ularni demokratik institutlar faoliyatining tarkibiy qismiga aylantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Mafkura tamoyillari, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi, milliy qadriyatlarga sodiqlik, fikrlar rang-barangligi, vijdon erkinligi, qonun ustuvorligi, hayotni erkinlashtirish.



### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.**

- Umuminsoniylikning ustuvorligi deganda nimalar nazarda tutiladi?
- Milliy qadriyatlar nima?
- Hayotni erkinlashtirishni qanday tushunasiz?
- O'onun ustuvorligi nima degani?
- Vijdon erkinligi, fikrlar rang-barangligining mazmun-mohiyatini qanday talqin qilasiz?

### 13. G'OYAVIY TARBIYANING USLUB VA VOSITALARI

#### **Inson va jamiyat ma'naviyatining mafkuraviy omillari.**

Inson jamiyat a'zosi sifatida, doimo turli guruh va jamoalarning vakili sifatida ularning ta'siri ostida bo'ladi. Ya'ni, har bir shaxsning fe'l-atvorida, xatti-harakatlarida u mansub bo'lgan millat, xalq, professional toifa, jamoa va oilaning ijobiy yoki salbiy ta'siri bo'ladi. Tarixiy shart-sharoit, davr, davlat tuzumi va o'sha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta'sirlar uning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, tafakkurida o'z aksini topadi. Bunday ta'sirlarning ikki xili mavjud:

1. Makro bosqichdagi ta'sirlar yoki keng ma'nodagi ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy hamda iqtisodiy muhit ta'sirlari.

2. Mikro bosqichdagi ta'sirlar yoki bevosita inson bolasi tug'ilib o'sadigan oila, ta'lim va tarbiya maskanlari, mehnat jamoasi, mahalla va do'stlar muhitidagi ta'sirlar.

Bir qarashda inson fe'l-atvorini ikkinchi bosqich ta'sirlargina belgilaydiganday tuyuladi. Chunki, «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deganlaridek, ayniqsa, o'zbekchilikda odamning oilasi, nasli-nasabi, mahallasi, ta'lim olgan bilim dargohiga katta e'tibor beriladi va bunday munosabat hayotda o'zini oqlaydi ham. Lekin makro bosqichdagi ta'sirlarning ahamiyatini ham kamsitish to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, sho'rolar tuzumi jamiyat a'zolarining mute, tobe, ixlossiz, ba'zi bir jihatdan iymonsiz bo'lib kamol topishiga zamin yaratganki, bunga asosan o'sha muhitdagi nosog'lom, inson qadrini erga uruvchi iqtisodiy siyosat, kommunistik ideologiya sabab bo'lgan. Umuman, tarixdan ham ma'lumki, qaysi davlat va mamlakatni olmaylik, bosqinchilik siyosati yurgizilgan jamiyat odamlarining psixologiyasi mustaqil yurt fuqarolari psixologiyasidan keskin farq qiladi.

Mustaqillik psixologiyasi shundayki, unda har bir fuqaro o'zining erkin mehnati bilan o'zi va o'zgalar manfaati haqida birday qayg'uradi, chunki fidokorona mehnat yoki tinimsiz izlanishsiz na bir shaxsning, na jamoaning biri ikki bo'lmaydi.

O'z istiqloq yo'lini tanlagan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar ham aynan shu yurt, shu zaminda tugilib, yashab, mehnat qilayotganlar manfaatini ko'zlashini har bir erkin fuqaro to'la anglaydi.

Har bir alohida shaxs ongi va shuurida shakllangan tuyg'ular, fikrlar va munosabat yaxlit jamiyat, xalqning fikri va g'ururiga aylanganda shunday qudrat kasb etadiki, oqibatda erkin va xur yashash, Vatan tinchligi va har bir oilaning xotirjamligini ta'minlash xalqning e'tiqodi bo'lib qolishi lozim. Demak, ko'pchilikning maslak va tilaklari, fikrlashi va munosabatiga aylangan g'oya, tasavvur va bilimlar tizimi xalq e'tiqodi deb ataladi.

Xalq e'tiqodi va uning ruhi shunday qudratli ta'sir kuchiga egaki, u har bir sog'lom fikrlovchi insonni ijodiy faoliyatga, kasbi-korning halol bo'lishiga zamin yaratadi. O'zbek xalqi ana shunday ilohiy marhamatga sazovor bo'lgan, o'z milliy e'tiqodiga ega millatlardan biridir. Buni biz buyuk insonlar, mutafakkirlar timsolida ko'rsak bo'ladi. Chunki xalq ruhi va undagi e'tiqodni millatning eng ilg'or vakillari, mutaffakkirlar ifoda etadi. Masalan, Amir Temurning davlat qurilishi va sarkardalik bobidagi yuksak iktidori xalqimiz ruhiyatidagi salohiyat va imkoniyat ifodasi bo'lgan Alisher Navoiyning ijodi ham xalq e'tiqodining o'lmas namunasi. Xalq e'tiqodi, yuqorida e'tirof etilganidek, har bir shaxs e'tiqodining yo'nalishini belgilaydi. Atrofdagilar va yaqinlari taqdiriga befarq bo'lmagan, ko'pchilik manfaatini o'z

manfaatdan ustun bilgan inson bunday e'tiqodga berilgan va undan ta'sirlangan hisoblanadi.

Agar inson bolasining tug'ilish onlaridan boshlab uning ilk rivojlanish davrlari xususiyatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, dastlab u tabiatan faqat o'z ichki hissiyotlari, tuyg'ulari domida – muayyan xudbinlik doirasida rivojlanadi. Ya'ni, uning uchun o'z xoxish-istaklari, ehtiyojlari va ularni qondirishdan ortik tashvish yo'qday. Lekin o'sha ehtiyojlar orasida ota-onasiga, eng yaqinlariga nisbatan hissiy intilish, ular bilan emotsional muloqotga kirish istagi kuchli bo'lgani sabab u insonlar jamiyati va undagi munosabatlar me'yorlarini sekin-asta o'zlashtirib boradi. 3 yoshdan so'ng oiladagi muloqotga tengkurlar jamiyatidagi muloqot qo'shilishi munosabati bilan bola xudbinlik kayfiyatidan yanada tezroq voz kecha boshlaydi. Aks holda jamiyat, ko'pchilik uning injikliklarini ko'tarmaydi. Shu tarzda sog'lom muloqot muhiti bolani ko'pchilikning fikriga ergashish, ko'pchilik haq deb e'tirof etgan axloq me'yorlarini egallash, insongarchilik tamoyillariga amal qilishga urgatadi.

Shunday qilib, bola uchun keng ijtimoiy muhitdagi sog'lom g'oyalardan, xalq ruhining qadriyatlaridan to'la baxramand bo'lish imkoniyati tugiladi.

**Ezgu fikrning ta'sirchanligi.** «Yaxshi so'z - qilichdan ham kuchli» degan gap bor. Darhaqiqat, o'rnida ishlatilgan so'zlar, yorokin va dildan bayon etilgan nutq, bama'ni fikr har doim odamlarning xulk-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday fazilatlar soxibini odatda «Bama'ni odam» deb ta'riflashadi. Bunday shaxslar sog'lom muloqot muhitida fazilatlarini o'zgalarga namoyish qila oladi, o'zini erkin tutadi va o'ziga ishonadi.

Muloqot jarayonida fikrga, sog'lom g'oyaga ega bo'lish - masalaning bir jihati. Uning boshqa bir muhim jihati ana shu fikrlarni bayon eta olish qobiliyatidir. Insoniy munosabatlar sohasida buyuk mutaxassis deb e'tirof etilgan Deyl Karnegining kuchi va mashxurligi avvalo uning gapirish va o'zgalarni tinglash qobiliyatida namoyon bo'lgan. U bir vaqtning o'zida minglab odamlarga murojaat qila olar va tinglovchilar vaqtning qanday o'tganini ham sezmas ekan. Demak, nima haqida gapirish emas, u to'g'rida qanday gapirish ham o'ta muhim. Ana shunday ta'sirchan gapirish mahorati va san'ati – ritorika fani bo'lib, u odamdagi notiklik va o'zgalarni o'z qarashlariga ergashtira olish mahoratini nazarda tutadi. Mafkuraviy tarbiya va ta'sir jarayonida ham gapga chechanlik, so'z boyligi va uni auditoriyaga etkaza olish muhim ahamiyatga ega.

**So'z g'oyaviy ta'sir vositasi.** Milliy g'oyalarni xalq ongiga etkazishda so'z asosiy ta'sir vositasi bo'lgan va bo'lib qoladi. Shu sababli kadingi Gretsiyada ritorika maktablari tashkil etilgan va voizlar maxsus qoidalar va qonunlar asosida omma oldigachiq ib so'zlashga urgatilgan. Odamlar ongiga muayyan g'oya asosan shu yo'l bilan singdirilgan.

XX asrga kelib, ritorikaga oid klassik yondashuv ham qayta ko'rib chiqildi. Amerikaning Yel shaxridagi ritorikaning tajriba maktabi 60-yillarda ko'plab tadqiqotlar o'tkazib, mafkuraviy va siyosiy targ'ibot va ta'sir uchun so'z va nutqni mutlok samarali deb bo'lmasligini isbot qildi. Chunki ommaning siyosiy qarashlari va ongiga ta'sir ko'rsatishning boshqa mexanzmlari borligi tajribalarda asoslandi. Olimlarning e'tirof etishlaricha, mafkuraviy fikrlar ma'lum bir qarashlar tizimi bo'lib, unda mantik etakchi o'rin tutadi. Lekin inson ongi har doim ham mantiqqa buysunavermaydi. Bu yo'l yoki vosita aniq fanlar sohasiga, umuman ilm-fanga taallukli deb hisoblanadi.

Ma'lum bo'lishicha, odamni o'zi ishonishni xoxlamagan narsaga ishontirish o'ta mushkul ish ekan. Chunki u o'zining shaxsiy qarashlari, manfaatlariga mos keladigan narsalargagina ishonadi. Ya'ni, ommaga chiroyli ilmiy iboralardan ko'ra, tabiiy, odatiy, kundalik hayotda ishlatiladigan iboralar, so'zlar tizimi tezroq va kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Tajriba utkir siyosatdonlarning hech qachon o'z nutqlarida g'ayritabiiy, ilmiy iboralardan foydalanmasligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, tinglovchiga ta'sir etuvchi va uning ishonchini uyg'otuvchi nutq shunday bo'lishi lozimki, uni tinglaganlar har bir ifoda etilgan so'z ustida kamroq uylanishi, aksincha, tanish, o'ziga yoki narsalar xususida gap borayotganini qalban his qilib turishi kerak. Demak, notik yoki voiz nutqida ishlatiladigan, jamiyat va xalq manfaatini ifodalovchi ijtimoiy ramzlar - so'zlar, iboralar, shiorlar, narsa yoki hodisalar o'sha tinglovchi talab-extiyoji, orzu-umidlari va manfaatlariga bevosita aloqador bo'lgandagina ta'sirchan va ishonchli bo'ladi. Misol uchun, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning xalq vakillari bilan uchrashuvlarini eslang. Davlatimiz rahbari o'zining o'ta mas'uliyatli lavozimi va mavqeidan qat'iyy nazar, oddiy mehnatkashlar bilan uchrashganda yoki Vatan va yurt taqdiriga aloqador masalalar yuzasidan intervyular berganda, har bir o'zbekistonlik uchun tushunarli va ravon tilda, aniq jumlar bilan gapiradilarki, uning mazmuni keksa onaxonlardan tortib, talaba-o'quvchilargacha – hammaga birdek tushunarli bo'ladi. Yurtboshimiz chet ellik mexmonlar va davlat delegatsiyalarini kabul qilganlarida, ya'ni sof rasmiy marosimlarda esa siyosiy terminlar, jumladan shunday oqilon foydalanadilarki, Prezident timsolida mexmonlarimiz butun jamiyat va xalqning aql -irodasi va intellektual salohiyati to'g'risida aniq tasavvur xosil qiladi. Yurtboshimizning notiqlik qobiliyatlari har bir yurtboshimiz uchun haqiqiy maktabdir.

Mafkuraviy ta'sirning yana bir muhim xususiyati borki, u ham bo'lsa, muayyan qarashlar tizimini birdan, bir vaqtning o'zida ifoda etishga intilmaslik. Chunki oddiy tinglovchi ayrim-alohida fikrlar orqali o'sha mafkuraviy tizimning tub mohiyatini anglab olishi mumkin. Masalan, milliy qadriyatlarimizning ahamiyatini uqtirish uchun ularning barchasini bir boshdan sanab o'tish shart emas. Ya'ni, ona mehr- muhabbatining nakadar ulkan kuch ekani, bunga aloqador noyob udumlarimiz borligini anglash uchun oddiy ona allasining ta'sirchanligini anglash ham kuchli kechinmalarni uyg'otishi mumkin.

**Ezgu g'oya va e'tiqodni shakllantiruvchi omillar.** Inson e'tiqodsiz, g'oyasiz, fikrlashsiz yasholmaydi. Shaxs va uning e'tiqodi masalasi muhim muammolardan bo'lib, uning shakllanishi mohiyatan ijtimoiy omillarga bevosita bog'liq deb qaraladi. Bu masalaga e'tiborning ortib borayotganining boisi shundaki, shaxsdagi mafkuraviy immunitetning shakllanishida undagi ezgu g'oya va iymon e'tiqod muhim ahamiyatga egadir. Agar biz yoshlarimizda bolalikdan boshlab sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarashni shakllantira olsak, ular ma'naviyati boy, mustaqil fikrli va olijanob shaxslar bo'lib kamolga etadi. Shu ma'noda, shaxs e'tiqodi undagi shunday barqaror va teran fikr, tasavvurlar, bilimlar majmuiki, mafkuraviy dunyoqarash hamda milliy g'oyalar aslida ana shunday e'tiqodlar asosida shakllanadi.

Shaxsning ma'naviyatini belgilovchi boshqa ko'plab psixologik birliklardan farqli ularoq, e'tiqod va dunyoqarash nisbatan barqaror va uyg'un bo'lib, uni osonlikcha, tez fursatda o'zgartirib bo'lmaydi. Shuning uchun uning tabiatini o'rganish, uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatish omillarini aniqlash masalasi bilan bevosita bog'liqdir.

Shaxs kamoloti jarayonida uning turli ziddiyatlarga va zararli e'tiqodlarga berilish holati ham kuzatiladi. Masalan, psixologlar etnik ziddiyatlar hamda diniy e'tiqodlar shakllanishi va o'zgarishiga katta e'tibor berib, ushbu jarayonga xos umumiy qonuniyatlarni o'rganganlar. Masalan, mashhur amerikalik psixolog Gordon Ollportning fikrcha, e'tiqod va etnik ziddiyatlar o'ziga xos umumlashgan ustanovkalar bo'lib, agar shaxsda muayyan biror millat vakillariga nisbatan salbiy munosabat yoki ziddiyat mavjud bo'lsa, demak, unda boshqa bir millat vakillariga nisbatan ham xuddi shunday munosabatni kutish mumkin.

Shaxs e'tiqodiga aloqador bo'lgan shunday ziddiyatlardan biri diniy bo'lib, uni haqiqiy takvodorlik yoki haqiqiy e'tiqoddan farqlash zarur. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda shaxsdagi tashqi va ichki diniy e'tiqodni yoki dinga moyillikni farqlaydilar. Amerika olimlari o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlarda siginish joylariga borish bilan e'tiqodlilik ko'rsatgichlari o'rtasidagi bog'lanishni o'rgandilar. Bu bog'lanish bevosita bo'lib, muntazam cherkovga qatnaydiganlardagi tolerantlilik o'rtacha qiymatli bo'lib chiqdi. Cherkovlarga muntazam katnaydigan shaxslarda insoniylik darajasi yuqori bo'ladi. O'sha tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, diniy manbalarni to'la mutolaa qilibchiq qan odam odatda – ancha ziddiyatlardan xoli, tolerantligi esa yuqoriroq bo'lar ekan. Bu tadqiqotlardan qanday xulosalar chiqarish mumkin?

Birinchiidan, shaxs e'tiqodi uning jamiyatdagi xulkinini belgilovchi omil bo'lgani uchun ham uni shakllantirishga eng avvalo jamiyat va jamoatchilik, oila va barcha turdagi ta'lim muassasalari jalb etiladi.

Ikkinchiidan, biz e'tiqodni shakllantiruvchi har bir omilning ta'sir kuchi nimalarga bog'liqligini bilishimiz kerak. Bular quyidagilardir:

- a) ta'sir kursatuvchi manba-shaxs yoki guruh, boshqacha qilib aytganda, kommunikator;
- b) ta'sir mazmuni yoki ma'lumot;
- v) ta'sir vositasi yoki ma'lumot etkazuvchi tarmoq;
- g) ta'sirni qabul qiluvchi yoki auditoriya.

**Ta'sir ko'rsatuvchi shaxs – ta'lim beruvchi.** Ta'sir ko'rsatuvchi shaxsdan nimalar talab qilinadi? Avvalo, tajriba, bilimdonlik, ishontira olish qobiliyati, uning nutqi, o'ziga ishonchi va boshqalar. Mafkurachilarning asosiy ish uslubi, metodlariga o'zida mavjud bilim, tushuncha, g'oyalarni asos qilib olgan holda, birinchi navbatda yoshlarda, qolaversa, keng xalq ommasini ongida mustahkam e'tiqodni shakllantirish, ta'sir ko'rsatish va taql id etishga chorlashdir. Bunda u muloqotning barcha samarali va ta'sirchan vositalaridan – monolog, dialog, bahs-munozara, breynshtorming kabilardan foydalanadi. Aynan ana shu faliyat har bir ta'sir ko'rsatuvchining ritorika asoslaridan xabardor bo'lishini, nutq mahoratini egallashini talab qiladi. So'zlovchi o'z nutqida nutqiy va nutqiy bo'lmagan vositalardan o'z o'rnida maqsadga muvofiq tarzda foydalana olishi shart. Agar voiz yoki notiq o'ziga berilgan minbarda faqat so'z va iboralar tizimidan foydalanish bilan cheklansa yoki kogozga tushirilgan matndan chetga chiqolmasa, uni auditoriya tinglamaydi, unga ishonmaydi. Shuning uchun hissiy ta'sir usullari – o'rinli ishlatilgan qarashlar, imo-ishora, mimika va patomimika kabilar ham ta'sirni kuchaytiruvchi psixologik mexanizmlar ekanini unutmaslik kerak.

Tarbiyachidan talab qilinadigan yana bir muhim xislat - gapirayotgan kishining **yoqimtoyli**dir. Bu ham notiqqa nisbatan ishonch va e'tiqodni oshiradi. g'shlar

auditoriyasida, voizning murojaatiga e'tibor jiddiyroq bo'ladi. Ziyoli, olimlar auditoriyada, mantiqiy, ilmiy tahlillarga asoslangan fikr va mulohazalar katta ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

**Axborotning mazmuni.** Notiqning nima haqida gapirayotgani ham mafkuraviy tarbiyada muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, odamlarga ham aqlan asoslangan – (ratsional), ham emotsional (hissiyot uyg'otuvchi) ma'lumotlar tez ta'sir qiladi. Bunda auditoriya xususiyati nazarda tutilishi kerak. Masalan, ukimishli, tushungan odamlar auditoriyasi faktlarga tayangan, asosli ma'lumotni tez kabul qilib, unga ishonsa, kichik yoshlilar, ma'lumot darajasi pastroq shaxslar ko'proq yurakka yaqin, emotsional ma'lumotga uch bo'ladi. Bundaylar hattoki ulardagi ayrim negativ xis-tuyg'ularni ko'zgatuvchi ma'lumotlarga nisbatan ham faolroq bo'ladi. Shuning uchun ham kasallikka qarshi yoki zararli odatlarga qarshi qaratilgan reklamada ko'pincha dahshat uyg'otuvchi rasmlar beriladi. Qki fikrni o'zgartirish uchun berilayotgan ma'lumot tinglovchida mavjud bo'lgan bilimlardan keskin farq qilsa ham unda yangi ma'lumotga nisbatan ishonch va uni qabul qilishga moyillik kuchli bo'ladi.

Mafkuraviy axborot yozma yoki og'zaki tarzda etkazilishi mumkin. Agar birinchisiga gazeta, jurnallar, kitob va darsliklar, yozma manbalarda mujaassamlashgan ma'lumotlar kirsa, ikkinchisiga ma'ruza ukish, darsni bayon etish, munozara va suhbatlar o'tkazish kiradi. Bundan tashqari, mafkuraviy g'oyalar turli badiiy va xujjatli filmlar, bolalar yoki kattalar uchun yaratilgan multfilmlar orqali ham etkazilishi mumkin. Muhimi, ular xalq ma'naviyati, o'lmas merosimiz, kelajakka ishonch uyg'otuvchi ma'no-mazmun bilan yo'g'rilgan bo'lishi kerak.

Ma'lumotlarning mazmundorligi va ta'sirchanligini ularning ommabopligi, bildirilgan yoki ifoda etilgan g'oyalarning sodda, ixcham va ravon bayon qilinishiga ko'p narsa bog'liq. Tinglovchi har bir so'zni tushunsagina, unda teran munosabat shakllanadi.

Bundan tashqari, **birlamchilik** va **ikkilamchilik samarasi** qonuniyati ham bor. Uning mohiyati shundan iboratki, dastlab kabul qilingan ma'lumotning mazmuni odamga kuchliroq ta'sir qiladi. Lekin, ikkinchi tomondan, tinglovchi tomonidan oxirida eslab qolingan ma'lumot ham xotirada mustahkam o'rnashadi. Buni ham mafkuraviy tarbiya jarayonida albatta inobatga olish zarur.

Bolalar bilan milliy g'oyalarimiz xususida olib boriladigan suxbatlarda tarbiyachi yoki murabbiy avvaldan tayyor savollar tartibini ishlab chiqishi, ishlatiladigan tayanch iboralar katta ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir jumla yoki iboraning konkretligi, hayotiyliigi va obrazlilik muhim ahamiyatga ega bo'ladi. **Ta'sir vositasi (aloqa tarmog'i).** Tarbiyada yana bir omil – ma'lumotning **nima vositasida** u har kimning fikriga ergashib ketavermasdan ko'p narsani o'z qarashlari asosida hal etar ekan.

Demak, mas'uliyatni his qilgan bolalar hayotga tayyor, faol, erkin va mustaqil fikrlovchi bo'ladi. Ularda mas'uliyat bilan birga, o'z-o'zini anglash, shaxsiy g'urur tuyg'ulari ham yuksak bo'ladi. Shuning uchun ham mafkuraviy tarbiyaning muhim yo'nalishi sifatida yoshlarda ona Vatan oldidagi burch, o'z taqdiri uchun mas'uliyat, mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilar hayoti uchun javobgarlik hissini tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

E'tiqodni shakllantirish va mustahkamlash milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirish jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

E'tiqodni shakllantiruvchi va mustahkamlovchi uslublar. Insonning insonligi, uning jamiyatdagi o'rni va nufuzi ham ma'lum ma'noda uning e'tiqodi bilan belgilanadi. Ayrim insonlar butun umri mobaynida faqat bitta narsaga e'tiqod qiladi.

Masalan, Frantsiyalik mashxur sayyox Kusto va uning komandasi haqidagi filmni hamma ko'rgan. Bir qarashda u butun umrini dengiz hayoti va undagi sirli voqealar, hayvonot dunyosini kashf etishga bag'ishlagandek tuyuladi. Dengizdan juda uzoqda yashaydigan, undan manfaat ko'rmaydigan odamlar uchun bu tadqiqotchining hayoti va ishlari keraksiz bir narsadek tuyuladi. Lekin bu olimning o'z ishiga sadoqati, e'tiqodi shu darajada kuchliki, uni butun dunyo, sog'lom fikrlovchi har bir inson juda yuksak qadrlaydi. Bu kabi odamlarning boshqa sohalardagi xizmati kam bo'lishi mumkin, ammo bashariyat uni yuksak e'tiqodi uchun hurmat qiladi. Demak, e'tiqodsizlikdan qo'rqish kerak, agar hech narsaga ishonmaydigan, maqsad-maslagi noma'lum kishini ko'rsangiz, unga yordam berish lozim, chunki bu odamdagi e'tiqodsizlik nafaqat uning o'ziga, balki atrofdagilarga ham ziyon keltiradi.

E'tiqodli odam avvalo foydali ish bilan shug'ullanadi, o'zgalarga ziyon keltiruvchi amallar qilmaydi, yolg'on gapirmaydi. U har doimo lafziga amal qiladi, ya'ni bir narsani qilaman, deb axd etsa, butun kuchi va iqtidorini safarbar qilib, uni albatta bajaradi, boshlagan ishni oxiriga etkazadi. E'tiqodli inson nima qilayotganini, nima uchun aynan shu ishni qilayotganligini juda yaxshi biladi. Shu bois haqiqiy e'tiqod egasi ilmga intiladi, o'z oldiga aniq maqsad qo'yib yashaydi, har tomonlama barkamol bo'lishga tirishadi, yaxshilarga oshno bo'lish, buyuklikka xavas uning hayotiy shioriga aylanadi. Hakikiy e'tiqod soxibi o'zidan oilasiga, farzandlariga, insoniyatga nimadir qoldirishni istab yashaydi. Shuning uchun ham e'tiqod, shaxsdagi jur'at, mardlik, fidoiylilik, iroda, vijdon, qat'iyyat, halollik, insonparvarlik, vatanpravarlik kabi fazilatlar bilan bog'liqdir.

«**Iymon**» arabcha so'z bo'lib, lugaviy ma'nosi ishonchdir. Haqiqiy e'tiqod egasi bo'lgan odamda iymon ham bo'ladi. Buyuk merosimiz hisoblanmish «Avesto»da iymon va e'tiqodning o'zaro aloqasi va uning inson tafakkur tarzi bilan bog'liqligi xususida shunday deyilgan:

Aqlli va iymonli kimsalarga  
Bag'ishlayman shodlik, bardam ruh...  
E'tiqodman, Mitraman,  
Mudom saboq bermoqchiman,  
Iymon bilan fikr aylasin.  
Iymon bilan so'z so'zlasin,  
Va iymonga amal qilsin.

Iymon keltirish yoki ishonch shunday psixologik xolatki, unda shaxsning e'tiqodiga mos keladigan, muayyan narsa va hodisalar ta'sirida ongda o'rnashib qoladigan tasavvurlar majmui etakchi o'rin tutadi. Iymonning nima ekani ko'pincha shaxs tomonidan chuqur tahlil qilinmaydi, tekshirilmaydi, chunki unda insoniyat tajribasi, shaxs e'tiqod qilgan ijtimoiy guruhning qarashlari mujassam bo'ladi. Masalan, Olloxga iymon keltirish har bir musulmon uchun farz hisoblanadi. Paygambarimiz Muhammad alayhissalom Ollox taolo tarafidan keltirilgan barcha xabarlarga til bilan ikror etib, dil bilan tasdiqlashga iymon deyiladi, ya'ni kur'oni karim va hadisi shariflar orqali Ollox to'g'risidagi, jannat va do'zax, kiyomat kabi gaybiy narsalar haqida berilgan xabarlarga ishonch – shariatda iymon deb yuritiladi, deganlar. O'sha hadisi sharifda yana «Vatanni sevmoq – iymondandir» deb zikr etilgan. Bular oddiy fuqaroda shubxa uyg'otmaydigan, xalq mentalitetiga uning iymoniga aylanib ketgan qadriyatdirki, ularga ishonish har bir musulmonning va sog'lom fikr yurituvchi insonning burchidir. Shuning uchun ham xalq, vatan

xoinlarini eng avvalo «iymonsizlar» deb la'natlaydi zero, tugilib usgan erni muqaddas bilish, kindik qoni tukilgan tuproqni soginish, Vatan ravnaqi yo'lida baholi qudrat vijdon bilan mehnat qilish – iymonlilik belgisidir.

Iymon tushunchasiga faqat diniy tushuncha sifatida qarash to'g'ri emas. Chunki har kuni foydali bir amal, savob ish qilish, solix xulk soxibi bo'lish, butun insoniyat mehr- muhabbati bilan qarash, jamiyatdagi xulk me'yorlarini qalban xis qilib, ularni buzmaslikka intilish ham iymondandir. Agar bola yoshlikdan go'zal xulklarni egallashga intilib yashasa, musulmonchilik odatlari, xushxulkilik tamoyillarini o'zlashtirib borishga ruhan tayyor bo'lsa, uni iymonli bo'lib tarbiya topyapti deyish mumkin.

Sog'lom dunyoqarash, mas'uliyat, iymon va e'tiqodni yoshlar ongida shakllantirishning quyidagi asosiy ob'ektiv shart-sharoitlari va omillarini ajratib ko'rsatib ko'rsatish mumkin:

**a) Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muhit.** g'shlarda sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarashning shaklanishi uchun ma'lum muhit ham zarur. O'zbekistonda bu borada ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridanok milliy qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni xolis va chuqur o'rganish, buyuk ajdodlarimiz xotirasini yod etish, boy ilmiy-adabiy merosini o'rganish, xalq ma'naviyatini yuksaltirish milliy siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ijtimoiy va siyosiy institutlar - davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, iktidorli yoshlarni qo'llab-kuvvatlovchi jamg'armalarning tashkil etilishi o'ziga xos ijtimoiy muhitni shakllantirdi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarning buyuk kelajak bunyodkori bo'lib voyaga etishda muhim o'rin tutmoqda.

**b) Sog'lom g'oyalar.** O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan, xalq tomonidan e'tirof etilgan ilg'or g'oyalar bugungi kunda shunday faol kuchga aylanganki, ular yoshlarning psixologik va ijtimoiy extiyojlariga to'la javob beradi. Zero, Vatanning ravnaqi, yurtning tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, komil inson tarbiyasi uchun yaratilgan sharoitlar, aynan kelajagimiz bo'lgan yoshlarning manfaati uchun xizmat qiladi.

**v) Siyosiy ong va huquqiy madaniyatning usishida** siyosiy partiyalarning o'rni va ahamiyati katta. Ular o'z faoliyati bilan fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish g'oyasining amalga oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekistondagi har bir partiya o'z dasturiy maqsadlarini ruyobga chiqarish uchun huquqiy asos va qonuniy kafolatlarga ega. Fuqarolar uchun qaysi siyosiy partiyaning qarashlariga qo'shilish yoki qo'shilmaslik ixtiyoriy bo'lib, bunday erkinlik yoshlarni fikrlashga, o'zicha mustaqil yo'l tanlashga xizmat qiladi. Har bir partiyaning o'z dasturiy g'oyalarini hayotga tatbik etish jarayonida milliy istiqloq mafkurasining asosiy tamoyillariga amal qilishi hayotning bosh mezonidir. Chunki xalq manfaatlari, istiqloq g'oyalari, qaysi siyosiy va mafkuraviy kuchga mansubligidan qat'iy nazar, barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddasdir. Bu aslida tom ma'nodagi siyosiy madaniyatning belgisidir.

Fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish chinakam demokratik fuqarolik jamiyati qurishning muhim omili. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, shaxsning xukukiy ongi yuksak, bilimi etarli bo'lishi, lekin unda xukukiy madaniyat



etishmasligi, u fuqaro sifatida o'z xalqi va Vatani oldidagi burch va mas'uliyatini teran anglamasligi mumkin. Shuning uchun ham fuqarolar, Ayniqsa, yoshlarda xukukiy madaniyatni yuksaltirish mafkuraviy tarbiyaning muhim shartidir.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish omillari quyidagilardir:

- huquqiy madaniyatga oid ommabop adabiyotlar;
- ta'lim muassasalarida huquqiy madaniyatga oid maxsus uquv kurslari;
- ijtimoiy muloqotning xukukiy tamoyillari mavzuiga oid tadbirlar;
- mustaqillikning inson manfaatlariga qaratilgan xukukiy asoslarini keng xalq ommasi orasida targ'ib etish va boshqalar.

**g) Yoshlarning bilim darajasi.** Ilg'or g'oyalarni amalga oshirishning yana bir muhim sharti ularni o'zlashtirishi lozim bo'lgan ijtimoiy qatlam yoki guruhning bilim saviyasi, ma'lumotlilik darajasidir. O'zbekiston Respublikasida kabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida»gi qonun yoshlarning bilim va malakasini oshirishga qaratilgan tarixiy xujjatlardir, ular har bir yoshning bilim darajasini oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Agar usmir yoki uspirinda yoshlikdan kitobga, bilimga mehr shakllanmagan bo'lsa, uning bilimi sayoz, tushunchalari tor bo'lsa, u sog'lom g'oyani zararli g'oyadan, dunyoviylikni daxriylikdan, ziyoni jaholatdan farqlay olmaydi. g'oyaviy sog'lomlik har g'anday g'ayritabiiy fikrlarga munosib javob berishni, yot va zararli g'oyalari nisbatan mafkuraviy immunitetni, turli aqidaparastlar bilan asosli va tanqidiy munozara olib borishni, o'z nuqtai nazarining to'g'riligiga ishonch-e'tiqod tuyg'usini kamol toptirishni taqozo etadi.

**d) Odatiy, an'anaviy fikrlash tarzidan yangicha, ilg'or fikrlashga o'tish** mafkuraviy yangilanishlar jarayonining muhim xususiyatidir. Ta'kidlash lozimki, inson o'zi uchun odatiy bo'lib qolgan fikrlash tarzidan osonlikcha voz kecholmaydi, chunki eskicha fikrlash bir qarashda kulay bo'lib ko'rinadi. Buni arifmetikadagi mantik bilan algebradagi mantik qoidasiga kiyoslash mumkin. Arifmetikani o'zlashtirgan bola algebradagi ayniyat, teoremlarni ruhan kiynalib kabul qilgani kabi, inson tafakkuri ham ijtimoiy hayot o'zgarishlarini birdan kabul qilolmaydi. Lekin yangi davr, yangicha islohotlar, demokratiya, bozor munosabatlari aynan tafakkur va fikrdagi o'zgarishlarni taqozo etadi va bu rivojlanishining, taraqqiyotning asosiy shartidir. Shuning uchun milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillarining keng omma qalbi va ongiga singishi birdaniga, tez va bir tekisda ro'y bermaydi. Bu – murakkab, bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon bo'lib, bu jarayonda, boshqa ijtimoiy qatlam vakillaridan farqli klaroq yoshlar tashabbuskorlik ko'rsatishi va o'z dunyoqarashi va e'tiqodi bilan boshqalarga ta'sir ko'rsatishi kerak.

#### **Oilaviy va mafkuraviy tarbiya.**

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila – haqiqiy ma'naviyat uchogi, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar ugiti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyok va madaniyat ko'nikmalari shakllanadi. Zero, har bir fuqaro oilaning jamiyatdagi o'rni va vazifasini, Vatanning ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib, o'zini mukammal inson deb his qila olmaydi.

Bolalarda yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylilik tuyg'usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o'rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'alarimizga xos shakllarini qo'llash lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo'lgan «jangari» uyinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik. Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmi kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalardagi ilk yoshlikdan mafkuraviy qarashlarning to'g'ri shakllanishida qo'l keladi. Masalan, bolalar o'rtasida mashxur bo'lgan «Zumrad va Qimmat», «g'riltosh», «Xo'ja Nasriddinning sarguzashtlari» kabi qator ertaklar orqali bolalarda yaxshilikka muhabbat, yomonlikka nafrat tuyg'ularini tarbiyalash, adolat tantanasiga ishonch hissini uyg'otish mumkin.

**Ota-onalar savodxonligi.** Yuqorida tilga olingan tarbiya shakllarini amalga oshirishning eng kulay yo'li – avvalo ota-onalarning ma'naviy bilim saviyasini oshirish, ularda sog'lom tafakkur va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu esa ota-onaning farzand oldidagi, el-yurt oldidagi burchini to'g'ri anglashni insonning dunyoga kelishi va kamol topib rivojlanishiga oid qonuniyatlarni puxta bilishini, oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odat va an'alarimizni eng nodirlarini turmushga singdirish orqali bolalarda milliy qadriyatlarga mehr-muhabbatni uyg'otishni, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni takazo etadi. Binobarin, ota-onalik shunday mas'uliyatli vazifaki, uning jamiyatimiz manfaatiga mos tarzda amalga oshirilishi uchun inson ham ma'naviy jiyuatdan, ham psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak.

Kasbni puxta egallash va fidokorona mehnat qilish uchun ilm qanchalik zarur bo'lsa, fozil farzandlar tarbiyalash va ularni insonlarga nafi tegadigan darajada etuk qilib tarbiyalash uchun ham bilim shunchalik muhimdir. Shuning uchun o'rta asrning ko'zga ko'ringan iste'dodli shoirlaridan biri Abdibek Sheroziy ota-onaga, Ayniqsa, ayol kishiga ilmning zarurati to'g'risida shunday yozgan edi: «Ilm - ayol uchun ziynat. Aqlini nodonlikdan xalos etgan har bir ayol nomus, izzat, ayolliqadr ini tushunib etadi. Bunday ayol hech bir ishda adashmaydi. Ilmsiz ayol esa bola tarbiyalashda turli xatolarga yo'l qo'yadi».

**Bobolar va momolar tarbiyasi.** O'zbek oilasida bola ongida sog'lom g'oya va bilimlar shakllanishi jarayonida oilaning kattalari - bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug'lar ham bevosita ishtirok etadi. Azaliy udumga binoan, bola tarbiyasida ota-onadan ham ko'ra bobo va buvilarning ta'siri kuchliroq bo'ladi. Ular oiladagi ma'naviy muhitning boshqaruvchilari yuisoblanadi. Bunday tarbiya an'anasi buyuk ajdodlarimiz taqdirida muhim o'rin tutgan. Masalan, Amir Temurning nevaralari tarbiyasi bilan ularning onalari emas, ulug' bibilari-buvilari shug'ullangan. Xususan, Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug'bek Mirzo singari temuriy shaxzodalar Saroymulkxonim qo'lida tarbiya topgan.

Xullas, ota-ona o'z bolasini axloki va huquqiy madaniyati uchun jamiyat oldida javobgardir. Ota-onalik burchiga e'tiborsiz qarash fuqarolik mas'uliyatini his etmaslik muhim ijtimoiy burchni bajarmaslik bilan tengdir. Chunki, bolani dunyoga keltirishdan ko'ra, uni jamiyatga nafi tegadigan, sog'lom e'tiqodli, solih farzand qilib tarbiyalash mushkulroqdir.

**Mahalla – tarbiyachi.** O'zini o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'alariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasixati, kattalarning shaxsiy

ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida odamlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi.

Mahalla avvalo sog'lom **ijtimoiy muhitdir**. Bu erda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla axlining xulk-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda mahalla, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, haqiqiy demokratiya darsxonasidir.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlar kamol topishida mahallaning o'rni bekiyos. Agar biror mahallada usgan qiz haqida boshqa bir odam noo'rinroq gap aytganini, o'sha qizning mahalladoshi eshitib qolsa, shu qizning sha'ni uchun kurashadi, uni oklashga, begona odamni esa tartibga chakirib qo'yishga xarakat qiladi. Shu ma'noda mahalla hamjihatlik, or-nomus, birodarlik kabi fazilatlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalla doirasida amalga oshiriladigan mafkuraviy ta'lim va savodxonlik kurslarini tashkil etish, an'anaviy bayram va tadbirlar paytida muxtoj oilalarga yordam ko'rsatish, iktidorli yoshlarni ragbatlantirish, ayollar nufuzini oshirish, har xil adolatsizliklarning oldini olish, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanish, o'zaro diniy muassasalar, machitlar bilan aloqani yaxshilash, hamkorlikda tadbirlar uyushtirish, «Oila dorilfununlari»da ota-onalar savodxonligi va turli o'rganish, targ'ib etish bilan bir qatorda tuy-ma'rakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofcharchilik va dabdababozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish darkor. Bu urf-odat va an'analarning asosiy qismi oilada va oila a'zolarining bevosita ishtirokida o'tkaziladi. Shuning uchun ham har bir oilaviy an'ana va udum mafkuraviy tarbiyaning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Masalan, insonparvar, yuksak e'tiqodli, bag'rikeng, mehr-oqibatli odamlarni voyaga etkazishda keng ma'nodagi tolerantlik, oilaviy munosabatlardagi insoniylik tamoyillari muhim o'rin tutadi. Har bir O'zbek oilasida muqaddas sanaladigan mehmonnavozlik, qiz va o'g'il bolalar tarbiyasi borasida maxsus an'analarning mavjudligi, yil mavsumiga ko'ra barcha oila a'zolari ishtirokida o'tkaziladigan xasharlar, chakalokning dunyoga kelishi bilan bog'liq hamma-hammasi ezgulikka, ya'ni sog'lom mafkuraviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Muloqot madaniyati.**

Bu insonga xos ma'naviy extiyoj bo'lib, undagi umumiy madaniy saviyaning muhim ko'rsatgichidir. Inson o'zining his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, uy-fikrlarini bevosita muloqot jarayonida namoyon qiladi. Mafkuraviy tarbiyaning eng ta'sirchan vositalaridan biri ham muloqot hisoblanadi. Chunki inson qalbida ongida shakllandigan dunyoqarash, e'tiqod, iymon, vijdon, mas'uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida radio-televidenie, gazeta-jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotning o'rnini e'tirof etgan holda, shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan fikr almashuv, insonning yuzi va ko'ziga qarab turib aytiladigan bama'ni so'z va hissiyotlarning o'rni bekiyos. Shuning uchun ham ota-ona bir gapni aytish lozim bo'lsa, bolasining yuzini o'ziga qaratib olib, zarur yuz kiyofasi va ko'zidagi samimiyat bilan fikrini uqtira boshlaydi. Va bunday muloqot samarali bo'ladi. Shu bois auditoriyalarda o'qituvchi bilan o'quvchi, talaba va domla o'rtasidagi muloqotga ta'lim va tarbiya jarayonida katta ahamiyat beriladi.

Oilada ota-ona, qaynona-kelin, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi munosabatlarning me'yorlari, ularning maqsadga muvofiqligi, munosabatlardagi samimiyat darajasi ham yoshlarda sog'lom fikrning, sharm-xayo, mehr-oqibat, iffat, ibo, nazokat, lafz, mas'uliyat kabi ijobiy fazilatlar va intellektual sifatlarning namoyon bo'lishiga zamin hozirlaydi. Xalqimizga xos ustuvor fazilatlar asosan oilaviy muhitda, yaqin qarindoshlarning bevosita aralashuvida yuz beradi. Bu hol mehnatga to'g'ri munosabat, halollik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e'zozlash, ayash, urf-odatlarini muqaddas bilish jarayonida amalga oshadi. Bunday sifatlarni o'zlashtira olgan har bir ugil va qizda oilaparvarlik va yurtparvarlik xususiyatlari rivojlanishi muqarrar. Lekin oilaviy nizolar, ajralishlarning sabablari tahlil qilinganda, shu narsa ayon bo'lmoqdaki, oila muhitining nosog'lomligi, oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, o'zaro til topa olmaslik kabi holatlar nafaqat o'sha oila, balki qarindosh-urug'lar o'rtasidagi xotirjamlikka ham raxna soladi. Eng achinarlisi – buning oqibatida e'tiqodsiz, diyonatsiz, maqsad-maslaksiz bolalar, hayotda o'z o'rnini topa olmagan insonlarning paydo bo'lishidir.

### **Ta'lim muassasalari.**

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, O'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini, milliy istiqlol g'oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustuvor yo'nalishlaridandir.

Istiqlol mafkurasini odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashvikotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Ta'lim va tarbiya sohalarini milliy istiqlol g'oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustuvor yo'nalishlaridandir.

Bunda quyidagi vazifalar ko'zda tutiladi:

1. Ta'lim muassasalarida bolalar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasini singdirishda differentsial pedagogik-psixologik dasturni yaratish;
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida uquvchi-talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;
3. O'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy istiqlol mafkurasini g'oyalarini teran aks ettirish;
4. Maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish;
5. Pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Ta'lim-tarbiyaning har bir alohida bosqichi o'z navbatida milliy g'oyalarni yoshlar qalbi va ongiga singdirishning o'ziga xos omillarini nazarda tutadi.

**Maktabgacha ta'lim muassasalari.** Bu o'rinda xar bir ota-onaning o'z farzandining maktabgacha tarbiyasi uning keyingi taraqqiyot davrida qanchalik ahamiyat kasb etishi, bu davr uzluksiz ta'lim va tarbiyaning muhim bosqichi ekanini anglab etishiga erishish zarur. Bunda oilaning maktabgacha ta'lim muassasalari tizimiga izchil uyg'unlashuviga erishishni nazarda tutish kerak. Bu davrdagi barcha maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalari bolalardagi umumiy savodxonlik va maktabdagi ta'lim - tarbiyaga tayyorlash jarayonining muhim va zaruriy bosqichi sifatida qaralishi lozim.

Bevosita **ta'lim beruvchi muassasalar** (maktablar, litsey, kasb-xunar kollejlari, oliy uquv yurtlari) mafkuraviy tarbiyaning asosiy uchoklaridir. Ularning

barchasida amalga oshiriladigan mafkuraviy ta'lim jarayonida, barcha uquv qo'llanmalari va darsliklar, kushimcha adabiyotlarda quyidagi omillar ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim:

Vatan tuyg'usini shakllantirish:

1. ona tilimizga muhabbat uyg'otish;
2. milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish;
3. ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash;
4. oilaning vatanparvarlik hissini tarbiyalashdagi rolini ko'rsatish;
5. mahallaning demokratiya darsxonasi va o'z-o'zini boshqarish maktabi kanini tushuntirish;
6. umuminsoniy qadriyatlarning millatlararo - totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish vositasi ekanini uktirish;
7. dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglatish;
8. ma'rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlovchi;
9. tarixning, mafkuraning falsafiy asosini yaratishdagi ahamiyatini ochib berish;
10. huquqiy madaniyat sog'lom dunyoqarashning muhim omili ekani to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'paytirish.

Bu ishlar ijtimoiy gumanitar fanlarning ma'no mazmuni va ularni ukitish texnologiyalarini takomillashtirishni, yoshlarni mustaqil fikrli bo'lishga, ijobiy o'zgarishlarga befarq bo'lmagan, chuqur bilimlarga intilib yashashga urgatishni taqozo etadi. Ta'lim jarayonida ijtimoiy trening mashgulotlarining milliy mentalitetga mos shakllaridan samarali foydalanish tarixiy va madaniy merosni chuqur o'rganish bilan bir qatorda ilg'or, zamonaviy bilimlar egasi bo'lishga intilishning oshishiga turtki bo'ladi. Ta'lim muassasalarida yaratilgan o'quv qo'llanmalaridan tortib, sinflar va auditoriyalargacha barchasini mafkuraviy ta'lim beruvchi ijtimoiy reklamalar bilan qurollantirish maqsadga muvofiqdir. gshlardagi sog'lom dunyoqarash va ilmga ishtiyokni xar tomonlama qo'llab-quvvatlashda xomiylik va vasiylik tashkilotlari imkoniyatlaridan to'la foydalanish va shu orqali jamiyat keng qatlamlari vakillarini ta'lim-tarbiyani takomillashtirish ishiga safarbar etish zarur. Dunyoviy ilmlarni mukammal bilish daxriylik belgisi emasligini har bir yoshning teran anglab etishi muqaddas islom dinimizning iymon-e'tiqodga, insofdiyonatga chorlovchi kuchini yanada oshiradi. Eng muhimi - mamlakatimizda kabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi har tomonlama barkamol, bilimli, malakali yoshlarni voyaga etkazishning jamiyatimiz tomonidan kabul qilingan tarixiy xujjati ekanini tushuntirish va uni amalga oshirishga butun kuchni safarbar etish zarur.

## **Tayanch iboralar**

Tarbiya, tarbiya darajasi, e'tiqod, iymon, mas'uliyat, oiladagi g'oyaviy tarbiya, ta'lim muassasalari va milliy g'oya tarbiyasi, rahbarlik ma'naviyati, mak, taxlid, ta'sirlanish, ijtimoiy ta'sir.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.**

- Milliy istiqlol g'oyasi va komil inson tarbiyasining aloqasi to'g'risida so'zlab bering.
- Istiqlol g'oyasini xalq ongiga singdirishning qanday vositalarini bilasiz?
- Milliy g'oyani xalq ongiga singdirish mexanizmlari deganda nimani tushunasiz?

## ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.«O'zbekiston», 1997.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. //«Tafakkur» jurnali, 1998.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. Sharq, 1998, 32-b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XX1 asrga intilmoqda. T.«O'zbekiston», 2000.
5. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – «Fidokor» gazetasi, 2000 yil, 8-iyun.
6. Temur tuzuklari. T. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991, 112 b-34 b.
7. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T. «O'zbekiston», 2000.
8. Usmonov U., Odilqoriev X. Tarix, g'oya va qonun «O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati» 2002 .
9. Jumaniyozov R., Salimov S. G'oyaviy tarbiyada notqlik san'ati. «O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati» , 2002.
10. Salimov S., Davronov Z. Jamiyat, shaxs va ma'naviyat. «O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati» 2002.
11. Qodirova M. Kishlar ongida g'oyaviy dunyoqarashni shakllantirish. «O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati» 2002.
12. Ergashev I., Nabiev E. Vatan muqaddasdir. «O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati» , 2002.
13. Karimova V. Yurt taqdiri – inson taqdiri. «O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati» , 2002.
14. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi. «O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati» 2002.
15. Otamurodov S. Markaziy Osiyo g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. «Ijod dunyosi» -T. 2002.
16. Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatini shakllanishi. -T. «Sharq», 2003.